

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

Tokent Davlat Sharqshunoslik instituti
O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti kafedrası

MADANIYATSHUNOSLIK

Ma‘ruzalar matni

Tuzuvchilar :
prof. X.Saloxiddinov
o‘qt. N.Tolipova

Toshkent - 2008

MUQADDIMA

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimida o'qitilayotgan ijtimoiy-gumanitar fanlar tarkibida Madaniyatshunoslik (Madaniyat tarixi)- eng yosh fan. Bu fan barcha o'quv yurtlarida Mustaqillik yillaridan e'tiboran o'qitila boshlandi. Bu jamiyat hayotini ma'naviy sog'lomlashtirish yo'lidagi dastlabki qadamlardan biri bo'ldi. Aslida elimizda madaniy-ma'naviy islohatlar yurtboshimiz I.A. Karimov tashabbusi bilan 1989 yilning 21 oktyabrida o'zbek tiliga davlat maqomi berilishidan boshlandi. Mustaqillikning to'rtinchi tongida she'riyat sohibqironi Mir Alisher Navoiy bobomizga yodgorlikning ochilishi, 1991 yilning 5 sentyabr kuni Toshkentning bosh maydonini «Mustaqillik maydoni» deb nomlanishi qiblarga shuur bahshida etdi.

«Mustaqillik, – degan edi I.A. Karimov, – bizni mustabid va mafkuralashgan kishanlardan ozod qildi. O'zbek xalqiga o'z yurtida boshini baland ko'tarib yurish, o'z madaniyati va an'analarini, qadr qimmatini, dini va e'tiqodini, ona-tili va ma'naviyatini tiklash imkonini berdi».

Madaniyatshunoslik fanini o'qitilishi quyidagi zaruriyat va omillar bilan belgilanadi;

Birinchidan, Mustaqillik jamiyatning barcha jabhalarida-ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarida jahon tajribasi va milliy o'zlik asosida chuqur islohatlarni amalga oshirishni tabiiy ravishda kun tartibiga qo'ydi. Bu eski ijtimoiy tizimdan yangisiga o'tish demak. U esa yengil kechmaydi. Yoshlar bu jarayonning mohiyatini to'g'ri anglamog'i, ijtimoiy faol bo'lmog'i uchun umuman tariximizni xususan madaniyat tarixini o'rganmog'i, bilmog'i lozim.

Ikkinchidan, Mustaqillik biz uchun jahonga yuz ochdi. O'zbekiston jahonni taniy boshlaganidek, jahon O'zbekistonni taniy boshladi. Ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy aloqalar kengaydi. Yoshlarimiz xorijiy mamlakatlarda tahsil olmoqda, o'zga xalqlar madaniyati, udumi, an'analari bilan tanishmoqda. Bunday sharoitda o'z madaniy-ma'rifiy merosini yaxshi bilmaslik kechirilmas hol. Ular jahonni hayratga solgan ajdodlar merosini nafaqat bilishi, unga munosib voris bo'lmolari lozim;

Uchinchidan, Milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish, g'oyaviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik, yoshlarni millat va istiqlol manfaatlariga zid g'oyalar, qarashlar ta'siriga tushib qolishini oldini olish vazifasi milliy ozodlik g'oyalarini, buyuk mutafakkirlarimizning merosi va asarlarini atroflicha bilishni talab etadi. «Millat dardiga darmon bo'lmog'» uchun (Amir Temur) «g'oyaga qarshi faqat g'oya, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin».¹

To'rtinchidan, Madaniyatshunoslik fanini o'qitish - talaba yoshlarda jahon va Vatan madaniyati tarixi bilan bog'liq boy materiallarni mustaqil tahlil etish tafakkur mustaqilligi, tarixiy ong, asl ziyolilikni shakllanishi, millatimiz mentalitetining yuksalishiga yo'naltirilgan, shunga xizmat qilmoq'i lozim.

Madaniyatshunoslik fani tarkibiga ko'ra «Odobnoma», Ma'naviyat asoslari kurslaridan birmuncha murakkabligi, tarixiy materiallarga boyligi bilan farqlanadi. Qo'llanmaning birinchi bobida - ijtimoiy hodisa sifatida Madaniyat taraqqiyotining asosiy qonunlari, turli xalq va davrlarda amal qilgan madaniyatlarning umumiy va o'ziga xos jihatlari yoritiladi. Ikkinchi bobda-Qadimdan hozirga Qadar Sharq va g'arb mamlakatlarida madaniyat taraqqiyotining asosiy bosqichlari, Sharq va g'arb madaniyatining o'zaro aloqasi, bir-biriga ta'siri haqida gap boradi. Uchinchii bobda- Markaziy Osiyo mintaqasi madaniyati tarixi, xususan, O'zbekiston hududida madaniy taraqqiyotning tarixan teranligi, Qadimiyligi, uni jahon madaniyati tarixida tutgan o'rni mavzulari yoritiladi.

Taqdim etilayotgan kitob- Madaniyatshunoslik fani bo'yicha tayyorlangan dastlabki Qo'llanma. Uning tarkibi, masalalarni qo'yilishi va yoritilish uslubi yuzasidan taklif mulohazalar bo'lishi shubhasiz. Mualliflar bildirilgan tavsiya, takliflarni minnatdorchilik bilan qabul qiladilar.

¹ И.А. Каримов., Жамиятимиз мафкураси халқни - халқ, миллатни-миллат қилишга хизмат этсин, Т.,1998 й. 10-бет.

1-MAVZU

MADANIYATSHUNOSLIK FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI. «MADANIYAT» TUSHUNCHASI TALQINI

Ma'ruza rejasi:

1. Madaniyatshunoslikning predmeti. Madaniyatshunoslik bo'limlari tipologiyasi.
2. «Madaniyat» tushunchasi talqinida tarixiylik va ilmiylik.
3. Madaniyatni inson va jamiyat hayotidagi o'rni hamda ahamiyati.

Madaniyatshunoslik-madaniyat rivojlanishining eng umumiy Qonuniyatlarini o'rganadi. Uning manbai insoniyat yaratgan barcha madaniy Qadriyatlardir. Madaniyatshunoslikning asosiy vazifasiga insonning tabiat, jamiyat bilan birgalikdagi faoliyatini hamda kishilarning ma'naviy turmushiga oid barcha jarayonlarni tadqiq qilish kiradi. Uning tadqiqot manbai bo'lib:

- inson yaratgan san'at sohasi;
- kishilarning muomala vositasi bo'lgan til;
- jamiyat boyligi va mezon bo'lmish bilim;
- ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy tashkilotlar;
- jamiyatda sodir bo'luvchi demografik va etnik jarayonlar xizmat qiladi.

Madaniyatshunoslik umumnazariy fan hisoblanib, unga xos bo'lgan xususiyat - insonning madaniy hayoti hodisasini tartibli tizimga solib yondashish hisoblanadi. Shuningdek, madaniyat gumanitar bilimlarni o'zida mujassam qilgan holda namoyon bo'lishi bilan birga bilishning o'ta murakkab ob'ekti hamdir.

Madaniyat- bu insonlarning ijodiy faoliyati tufayli yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuigina bo'lib qolmay, ayni paytda u jamiyat taraqqiyotining darajasini ham ifodalaydi, ya'ni, jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyatlarning yig'indisi madaniyatda gavdalanadi. Madaniyatni o'rganishda ob'ektiv qonuniyatlar, hodisalardagi sababiy bog'liqlik haqidagi an'anaviy tasavvurlardan foydalanmaslik ham mumkin. Umumiy bir soha sifatida madaniyatga sistemali yondashuv bir-biriga ta'sir etuvchi turli madaniyat sohalarining o'ziga xos xususiyatlarini qismlarga bo'lib emas, balki ularni yaxlit tasavvur qilish imkoniyatini beradi. Sistemali yondashuv tadqiqotning juda ko'p uslublaridan foydalanishga imkon yaratadi. Ya'ni, ayrim bir uslublar bilan olingan natijalarni boshqalariga qarama-qarshi qo'ymasdan va mutlaqolashtirmasdan xulosa chiqarishga asos bo'ladi.

Aynan, sistemali yondashuv madaniyatga o'ziga xos shaklda munosabat bildirgan holda kishilar hayot faoliyati sohalarini ham tushunish imkonini beradi. Bulardan madaniyat sohalarini, madaniyat institutlari tashkil topib, ular aniqlik tuzilmaga va aniqlik vazifalarga ega bo'lgan holda ijtimoiy munosabatlar tamoyili, kommunikatsiya, madaniy namunalarni tashkil qilib madaniyat tizimini belgilaydi.

Madaniyatshunoslik fanining quyidagi bo'limlari mavjud:

1. Madaniyat falsafasi- madaniyatdagi murakkab va ko'pmuqadli jarayonlarni tahlil qilishda yondashuvning eng umumiy tamoyillarini namoyon qilib, qiyosiy tahlil, tasniflashga asoslanadi. Madaniyatni falsafiy anglash, falsafiy asoslash bilan bog'liqlik materialistik, pozitivistik, ob'ektiv idealistik va boshqa ko'plab qarashlar mavjud. Ularning har birida insonning tabiat va ijtimoiy guruh (sotsium) olamida jismoniy, ma'naviy va ruhiy hayot faoliyatining shakllanishi va rivojlanishini nazariy tushuntirish usullari va o'ziga xos tahliliy uslublari ishlab chiqilgan.

2. Madaniyatning tuzilish shakli (morfologiyasi)- insonga bog'liqlik bo'lmagan va jamiyatda mustaqil mavjud bo'lgan madaniyatning o'ziga xos shakli uning tadqiqot predmeti hisoblanadi. Madaniyat rivoji jamiyatning ichki qonuniyatlariga o'zaro bog'liqlikdir, deb hisoblovchi madaniyat morfologiyasi taqqoslash, tahlil va boshqa uslublar asosida madaniyat rivojlanishining manbai va omillarini ochishga urinadi. Uning mavjudlik davri u yoki bu madaniyatning paydo bo'lishidan to inqirozigachadir.

3. Madaniyat sotsiologiyasi- biron bir jamiyatdagi mavjud madaniyatning aniqlik jarayonlarini o'rganish bilan shug'ullanadi; bu har xil sotsiologik axborotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish bilan bog'liqlik bo'lgan madaniyat jarayonini empirik (tajriba) tadqiq qilishda ma'lum

madaniyat sharoitida kishilarning o'zaro munosabatlarida, sotsiomadaniyat toifalarida namoyon bo'ladi.

4. Madaniyat tarixi – har bir madaniyatni noyob va asl hodisa sifatida o'rganadi; shuningdek, turli madaniyatlarni o'zaro taqqoslaydi, ularning o'zaro munosabati va o'zaro ta'siri, zamon va makondagi ularning farqlarini madaniy taraqqiyotidagi o'ziga xos va umumiy tomonlarni tadqiq etadi.

5. Madaniyat ekologiyasi – zamonaviy inson hayot faoliyatining barcha sohalarini: insonning individual hayotini, jamiyat hayoti, tabiat bilan o'zaro munosabatlarini qamrab oladi. Bu madaniyatshunoslik tadqiqotidagi eng yangi faol rivojlanayotgan sohalaridan biri.

Madaniyatshunoslik fanining asosiy muammosi inson hisoblanadi, zero madaniyat – bu inson yaratgan narsalardir. Madaniyatshunoslik insonning olam bilan faol munosabatini va bu munosabatlar uning hayot tarzida namoyon bo'lishini, shaxsning ijtimoiy va madaniy rolini, madaniyatlar tipologiyasini o'rganadi.

Madaniyatshunoslik fani madaniyatni ilmiy izohlab, uning umumtarixiy mazmuni va ma'nosini belgilaydi, ijtimoiy-tarixiy bilimlar tizimidagi o'rni va mavqei asoslaydi.

«Madaniyat» atamasi hozirgi zamon ilmiy adabiyotlarda rang-barang ma'nolarda ifodalangan. «Madaniyat» va «Kultur» atamalari mutaxassislar fikriga ko'ra ayni ma'noni anglatib, lotincha «ishlov berish», «parvarish qilish» ma'nosini anglatgan. Keyinchalik «ma'rifatli bo'lish», «tarbiyali», «bilimli bo'lish» mazmunida ishlatilgan. O'zbek tilida keng ishlatiladigan «Madaniyat» atamasi arabcha «madaniy»-«shaharlik» degan ma'noni bildiradi. Agar amerikalik madaniyatshunos olimlar A. Kreber va K. Klakxonlarning 1952 yildagi ma'lumotlariga ko'ra madaniyat hodisasiga berilgan ta'rif 164 ta bo'lsa, so'nggi adabiyotlarda bu raqam 400 dan ortiq¹ tashkil etadi.

Madaniyat hodisasi tavsifida juda ko'p izohlar mavjud «insoniyatni yashash usuli; ijtimoiy insonning to'laqonli faoliyati», «inson tomonidan yaratilgan muhit», «yaxlit sotsial organizm», insoniyat yaratgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar majmui; sun'iy- ikkinchi tabiat; inson ijodiy faoliyati mahsuli; umuman jamiyat; jamiyatning ma'naviy holati; jamiyat sifati; shartli belgilar tizimi yig'indisi; me'yor va andozalar va hokazo.

G'arbiy Yevropada madaniyat tushunchasi XVIII asrning oxiridan e'tiboran hozirgi mazmunini kasb etgan bo'lsa-da, faqat XX asrga kelib ijtimoiy va gumanitar fanlar kategorial tizimidan mustahkam o'rin oldi. Kishilik jamiyatini beqiyos ko'lamga ega bo'lgan va doimiy ravishda o'zgarib boruvchi ma'lumotlarni muayyan tartibga solishga yordam beruvchi, umumlashtiruvchi tushunchalarga bo'lgan ehtiyoji madaniyat tushunchasini keng tarqalishiga sabab bo'ldi. Qadimgi Rimda «Madaniyat»- tushunchasi «hayotni ma'naviy jihatdan yanada yaxshilashga va tozalashga qaratilgan g'amxo'rlik» degan ma'noda ham foydalanilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, mashhur Rim faylasufi-notiq Siseron ham «ruhiyat madaniyati» atamasini ishlatgan. Yevropa xalqlarida XVIII asrning oxirlarigacha «Madaniyat» atamasi aqliy-axloqiy madaniyat tushunchasi bilan yonma-yon ishlatilgan. Ko'rinib turibdiki, «Madaniyat» tushunchasi xilma-xil talqiniga qaramay qadimdan hozirgi kungacha o'z mohiyatini o'zgartirmagan².

Hozirgi davrdagi madaniyatning ilmiy tushunchasi insoniyat tomonidan yaratilgan va yaratilishi davom etayotgan ma'naviyat, ruhiyatning o'ziga xosligini anglashi natijasida vujudga keldi. Insoniyat «Tabiiy» turmush tarzi asosida yashagan davrda: ya'ni terib iste'mol qilish, ov qilish, baliq tutish, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan vaqtlarida madaniyat to'g'risidagi fikrning tug'ilishi munozaralidir. Oddiy, bir maromda rivojlanuvchi jamiyatda inson o'z madaniyati bilan «qo'shib» yashagan. Urf odatlar, e'tiqodlar, hayotning moddiy va ijtimoiy shakllari undan farq qilmagan. Madaniyatning avtonomiyasi namoyon bo'lishi uchun muayyan darajada texnikaning rivojlanishi va mehnatning ijtimoiylashuviga erishish talab etiladi. Shu asosda madaniyat asta-sekinlik bilan insoniyatdan tobora ko'proq mustaqil bo'lib boradi. Insonning esa madaniyatiga tobe'ligi ortadi. Hozirgi postindustrial jamiyatlardagi ekologik, ma'naviy va axloqiy sohalaridagi mavjud muammolar fikrimizning dalilidir. Shuning uchun madaniyatni fenomen sifatida idrok etish, uning rivojlanish qonunlarini tushunish va shu tushunchalar asosida madaniyatni boshqarishga o'rganish zaruriyat bo'lib qoladi.

Insoniyat jamiyati doimiy rivojda bo'lib, u o'zgarib takomillashib boradi. Turli tarixiy davrlarda va xilma-xil madaniyatlarda odamlar dunyoni o'zgacha anglaydilar va qabul qiladilar, o'zlariga xos ravishda tasavvurlari va bilimlarini hosil qiladilar. Biz hozirgi davrdagi mavjud muammolarga o'xshash

¹ Л.Ч. Кертман, История культуры стран Европы Америки, М. 1987 й. 14-бет.

² Ёarang: Ёzbek tilining izoли лу'ати, М. 1981 й., 1-том, Энциклопедик лу'ат, Т., 1990, 1-том.

bo'lgan to'siqlarni o'tmishda odamlar Qanday Qilib yengib o'tganlarini o'rgana borib o'tmishga savollar bilan murojaat qilamiz, o'tmish bizga javob qaytaradi va shu bilan o'tmish, hozirgi zamon va kelajak o'rtasida doimiy muloqot bo'lib turadi.

Madaniyat – jamiyatning mahsuli, ijtimoiy hayotning eng muhim jabhalaridan biridir. Madaniyatsiz jamiyat bo'lmaganidek, madaniyat ham jamiyatdan tashqarida mavjud bo'lmaydi. Murakkab ijtimoiy voqelik sifatida madaniyatning o'ziga xos xususiyati shundaki, u insoniyat avlodlarining mehnati va bilimlarini o'ziga singdirib oladi, saqlaydi va doimiy boyitib boradi. Madaniyat ijtimoiy hayotning vorisligi, Qadriyatlarini to'plashi va ularni kelgusi avlodlarga yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan sohalarni ifodalaydi.

Ijtimoiy hayotning tarkibiy qismi sifatida madaniyatni jamiyatda tutgan o'rni, jamiyatning mazmuniga va tahlil qilinayotgan ijtimoiy borliqning xususiyatlarga bog'liqdir. Ijtimoiy jarayon, kishilarning xatti-harakati, ya'ni sotsial faoliyati madaniy ideallarni, Qadriyatlarini, normalarni qaror toptirilishi yoki barham berilishida vosita vazifasini, shuningdek kishilarning ijtimoiy va shaxsiy munosabatlarining shaxslararo va guruhlararo aloqalari shakli vazifasini ham bajaradi.

Madaniyat ijtimoiy hayotning tarkibiy va funksional jabhalarida ifodalanadi. Shu jihatdan jamiyat madaniyatni vujudga keltiradi. Jamiyatda vujudga kelgan madaniyat qanchalik murakkablashib boyib borsa, uning insonga va jamiyatga ta'siri mukammallashib va nisbiy mustaqilligi kuchayib boradi. Masalan, Antik jamiyat allaqachon o'tmish, tarixga aylangan bo'lsa-da, uning madaniyati hozirgi kunda o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda yoki biz bu davr madaniyatini o'sha vaqt dagiga nisbatan ko'proq bilamiz. Shuning uchun madaniyatga jamiyatning mahsuli, faoliyat uslubi sifatida qaralsa-da, har bir jamiyatni u yoki bu konkret madaniyatning shakllanish manbai tarzida ham qarash mumkin.

Ijtimoiy taraqqiyot faoliyat bilan madaniyatning o'zaro munosabatlarida o'zgarishlarga olib keladi. An'anaviy va industrial jamiyatlarda informatsion faoliyat mustaqil sohani tashkil etgan bo'lsa, «kompyuter inqilobi» sharoitida informatsiyalar, bilimlar ishlab chiqarilishi, yangi texnologiyalar yaratish alohida turdagi faoliyat sifatida shakllandi, informatsiya qimmatbaho tovarga aylandi. Informatsion faoliyatdagi bilimlar sintezi tizimidagi murakkab o'zgarishlar muhim qaror topgan g'oyalar va Qadriyatlarga ta'sir etmoqda. Ma'naviy madaniyat informatsiyalari zahiralari to'planishi oqibatida sivilizatsiya taraqqiyotida tashkilotchi va harakatga keltiruvchi faktorga aylandi. Buning oqibatida faoliyat va madaniyatning o'zaro munosabatlarida o'zgarishlar boshlandi. Agarda dastlab madaniyat faoliyatning mazmuniga to'liq bog'liq bo'lgan bo'lsa, sivilizatsiya jarayonlari oqibatida faoliyat madaniyatni tobora ko'proq ishtirokida shakllanishi kuzatilmoqda.

Jamiyat taraqqiyotida tarixiy inersiyaning katta ta'sirini ham hisobga olish kerak. Inersiyaning ta'sirida insoniyat bajarilishi lozim bo'lgan vazifalardan tamoman boshqa narsalar bilan mashg'ul bo'ladi. Chunki jamoa tafakkuri qiyinchiliklar bilan qayta quriladi. Moddiy boyliklarni qisqa vaqt ichida yo'q qilish va yoki buzib tashlash mumkin, lekin ma'naviy Qadriyatlardan tezda voz kechib uning yangisini qabul qilib bo'lmaydi. Rossiya va sovetlar imperiyalarining milliy ma'naviy Qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz va an'alarimizni «zamonaviylashtirish» sohasida olib borgan siyosati oqibati nima bilan tugaganligi ko'pchilikka ma'lum.

Biz madaniyat va ijtimoiy faoliyat bir-biridan mustaqil mavjud bo'lmisligi, madaniyatning taraqqiyoti masalalarini qisqacha ko'rib chiqdik, endi madaniyatning shaxs faoliyatidagi o'rni va ahamiyati masalasiga to'xtasak.

Madaniyat va shaxs nafaqat mazmunan bir-biriga yaqin bo'lgan, balki ichki va tashqi tomonlari jihatidan o'zaro mos keluvchi tushunchalardir. Shaxs muayyan madaniy muhitda yashaydi va faoliyat ko'rsatadi.

Qomusiy olam Abu Nasr Farobiy «Baxt saodatga erishuv haqida» risolasida inson kamolatida jamoaning roli katta ekanligini ta'kidlab shunday deydi: «Kamolatga bir kishining o'zi yolg'iz (birovning yoki ko'pchilikning yordamisiz) erishuvi mumkin emas. Har bir insonning tug'ma tabiatida va unga lozim bo'lgan har qanday ish va harakat jarayonida boshqa bir inson yoki ko'pchilik bilan munosabatda bo'lish, o'zaro aloqa qilish hissiyoti bor, odamzod jinsidan bo'lgan har qanday insonning ahvoli shu: u har qanday kamolatga erishuvda boshqalarning ko'maklashuvlariga va ular bilan birlashishga muhtoj yoki majburdir». Uning fikricha, inson o'z-o'zidan baxtli ham bo'lolmaydi, kamolatga ham erisholmaydi. «Bu narsa uning harakatlariga, mehnatiga, kasb-hunar egallashiga, bilimiga va fozil jamiyatda yashashga bog'liq», deydi. «Davlatning vazifasi insonlarning baxt-saodatga olib borishdir, bu esa ilm va yaxshi axloq

yordamida Qo‘lga kiritiladi». Farobiy davlatni yetuk shaxs (monarxiya), yetuk xislatlarga ega bo‘lgan bir necha shaxslar (aristokratiya) va saylangan shaxslar (demokratiya) yordamida boshQarish shakllarini Qayd etadi. Farobiy jamiyat o‘z rivojida yetuklikka tomon intilishi, shuning uchun kurash olib borishi va nihoyat fozil jamiyat, fozil shahar darajasiga ko‘tarilishi haQida fikr yuritadi.¹

Individ ijtimoiy turmush va madaniyatga Qay tarzda jalb Qilinganligiga, uning tabiiy imkoniyatlari, harakati, hissiyoti, tafakkuri sotsial-ahamiyatli mazmun bilan to‘ldirilganligiga va madaniy shakl kasb etganligiga Qarab shaxs sifatida Qaror topadi. Madaniyat individual va ijtimoiy hayot bilan uzluksiz birlikni tashkil topgan vaQtgacha mavjud bo‘ladi.

Madaniyat kishilarga tana a‘zolari, instinktlar yoki tug‘ma iste‘dod kabi tabiatdan berilmaydi, har bir individ o‘zining shaxsiy tajribasi asosida, mustaqil ravishda bevosita tevarak atrofdagi kishilarning, jamiyatning va o‘tgan avlodlarning to‘plagan tajribalarini o‘zlashtiradi.

Individium ijtimoiy amaliyot mahsuli bo‘lgan madaniyatni o‘zlashtirish bilan birga unga aks ta‘sir etadi. Shaxsning shakllanishi jarayonida madaniyatning moddiy dunyosini ham boyitadi. Shuningdek inson madaniyat normalariga amal qilgan holda nafaQat tabiatni va jamiyatni, balki, shaxsiy «tabiati»ni ham o‘zgartiradi. Madaniyat shaxsning ichki dunyosi mazmuniga, «ikkinchi tabiati»ga aylanadi.

Shaxsning madaniyat bilan o‘zaro munosabati hech Qachon to‘liQ va uyg‘un bo‘la olmaydi. Ijtimoiy va individual hayot, shuningdek madaniyat stixiyasi bir-biri bilan mos kelmasligi mumkin. Madaniyat doimo inson bilan chambarchas bog‘liQ bo‘ladi va usiz yashay olmaydi. Lekin voQelikning murakkab, yaxlit birligi sifatida u o‘z rivojlanishi Qonunlarida va borliQQa nisbatan mustaqildir. U madaniy merosni o‘zida mujassamlashtirgan konkret sotsial guruhlarining ma‘naviy hayotiga nisbatan boyroQ va chuQurroQdir. Madaniyat doimo Qadriyatlarning eng yirik zahirasi, tajribalar hazinasi bo‘lib Qoladi. Insoniyat avlodlari undan foydalanadilar va unga o‘z hissalarini Qo‘shadilar.

YuQorida aytib o‘tganimizdek, individ bilan madaniyat o‘rtasidagi munosabat murakkab jarayon hisoblanadi. Individni ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishiga imkon beruvchi psixo-sotsial va madaniy dunyoQarashi ijobiy va salbiy Qarashlarning yig‘indisidan tashkil topadi. Insonga ishchanlik, fidoiylilik, matonat, o‘tkir zehn bilan birga kaltafahmlik, yalQovlik, shafQatsizlik, o‘z manfaatlarini to‘g‘ri tushuna olmaslik, haQiQiy Qadriyatlarni sohtasidan ajrata bilmaslik illatlari ham xosdir. Shuning uchun madaniyatni nafaQat Qadrlash va saQlash, balki tanQidiy o‘rganish talab etiladi.

Qayd etilgan sabablar ta‘sirida muayyan ishlab chiQarish usuli hukmronligi sharoitidagi tarixan tarkib topgan ijtimoiy va madaniy muhitda jamiyat bilan individ o‘rtasida nisbatan o‘zgaruvchan muvozanat bo‘ladi. Bu muvozanatni hosil bo‘lishida madaniyatning ishtiroki salmoqlidir. Madaniyat shaxsga ta‘sir etadi va uning psixologik holatini shakllantiradi, shaxsning xarakterida va dunyoni bilishida muQim o‘rnashib Qoladi.

Shaxs madaniyat bilan Quyidagi sohalarda munosabatda bo‘ladi:

birinchidan, madaniyat ta‘sir etish ob‘ekti sifatida uni o‘zlashtiradi;

ikkinchidan, madaniy Qadriyatlarni tashuvchi va ifodalovchisi sifatida konkret madaniy muhitda faoliyat ko‘rsatadi;

uchinchidan, madaniy ijodiyot sub‘ekti sifatida madaniyatni rivojlantiradi.

Madaniyat va shaxsning o‘zaro munosabatlari, uning shaxs hayotida tutgan o‘rni to‘g‘risidagi mulohazalarimizga xulosa Qilib, shuni aytish mumkinki, tabiat stixiyali Qonuniyatlar asosida rivojlanib borsa, insonning ichki dunyosi, ichki «tabiati» ni shakllantirish maQsadli, yo‘naltirilgan asosda tashkil etilishi mumkin, bunda madaniyat insoniyatga shunday imkoniyatni yaratuvchi muhim vositalardan biri bo‘ladi.

Madaniyatshunoslik kursi tarix, falsafa, sotsiologiya, etnografiya, sotsial psixologiya kabi bir Qator fanlarning kesishuvida vujudga kelgan, yangi sotsial gumanitar fan hisoblanadi. Uning izlanish ob‘ekti ijtimoiy voQelik bo‘lgan madaniyat va inson hayoti uslubi hisoblanadi. Unda madaniyatning vujudga kelishi, rivojlanishi, jamiyatda amal Qilinishi bilan bog‘liQ masalalar to‘g‘risida, madaniyat Qoidalari institutlarning, Qadriyatlarning jamiyat hayoti va rivojlanishidagi o‘rni, o‘zaro aloQalari jarayonlari o‘rganiladi.

Forobiy «Aql ma‘nolari haQida» risolasida, aql, bir tomondan ruhiy jarayon, ikkinchi tomondan tashqi ta‘sir – ta‘lim-tarbiyaning natijasi ekanligini uqtiradi. Forobiy fikricha, aql faQat insongagina xos bo‘lgan tug‘ma Quvvat-ruhiy kuch bilan bog‘liQ.

¹ Маънавият юлдузлари. Т., 1999й., 68 бет.

Forobiyning aQl, umuman bilish haQidagi ta'limotida mantiQ (logika) ilmi muhim o'rin tutadi. «MantiQ san'ati kishiga shunday Qonunlar haQida ma'lumot beradiki, bu Qonunlar vositasida aQl chiniQadi, inson sog'lom fikr yuritishga o'rganadi», - deb yozgan edi u. Forobiy mantiQ ilmi bilan grammatika o'rtasidagi mushtaraklikni Qayd etadi: mantiQning aQlga munosabati grammatikaning tilga munosabati kabidir. Grammatika odamlar nutQini tarbiyalagani kabi, mantiQ ilmi ham tafakkurni haQiQiy yo'ldan olib borish uchun aQlni to'g'irlab turadi.

Forobiy logikasi musulmon SharQidagi so'nggi mantiQQa oid fikrlarning rivojiga katta turtki berdi. Uning bilish, mantiQ, aQl haQidagi fikrlari inson haQidagi ta'limoti uchun xizmat Qiladi. AQlga ega bo'lish, bilimli, mantiqli bo'lish bilan chegaralanmay, u ma'lum axloQiy prinsiplarga, axloQiy madaniyatga egalik bilan yakunlanishi kerak. Negaki har bir davrda jamiyat axloQi jamiyat madaniyati degan mezon bilan baholanar ekan, madaniyatli insonni axloQsiz, e'tiQodsiz, imonsiz va aQlsiz tasavvur Qilish Qiyin.

Forobiy: «AQlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishga zo'r iste'dodga ega, yomon ishlardan o'zini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oQil deydilar. Yomon ishlarni o'ylab topish uchun zehn-idrokka ega bo'lganlarni aQlli deb bo'lmaydi, ularni ayyor, aldoQchi degan nomlar bilan atamoQ lozim»¹.

Forobiy o'rta asrlar sharoitida birinchi bo'lib jamiyatning kelib chiQishi, maQsad va vazifalari haQida izchil ta'limot yaratdi. Bu ta'limotda madaniyatli jamiyatning ko'p masalalari- davlatni boshQarish, ta'lim-tarbiya, axloQ, ma'rifat, diniy e'tiQod, urush va yarash, mehnat va boshQalar Qamrab olingan.

Kursning asosiy masalasi bu inson to'g'risidagi, uning tabiati va imkoniyatlari to'g'risidagi masaladir. Tabiatning mavjudlik Qonuni xilma-xil bo'lganidek, insonning ichki tabiati, ya'ni madaniyati ham tabiiy muhit, ijtimoiy borliQ va tarixiy davrlar ta'sirida doimiy ravishda o'zgarib turadi. Bu o'zgarish faQat ilgarilab borish, yangi Qadriyatlarining vujudga kelishidagina iborat emas, Bu biron-bir sohadagi buzilishlar, inQiroziy alomatlarining kuchayishi bilan ham xarakterlanishi mumkin. Hozirgi zamon ilmiy texnika taraQQiyotining tabiiy muhitga, ma'naviy hayotga va boshQa sohalarga salbiy ta'siri fikrimizning dalilidir.

Madaniyatshunoslik kursi madaniy tarixiy davrlarni tahlil Qilishda bilishning uch bosQichini tabiiy birlikda olib Qarashga harakat Qiladi.

A) Konkret davrning yaxlit Qiyofasini, ya'ni uning badiiy obrazini yaratishga intiladi;

B) Insoniyat borlig'ining umumiy dinamikasida davrning ma'naviy o'rni aniQlaydi (ijtimoiy ong tarixida, fanda, san'at va falsafada o'rganiluvchi davrga berilgan bahoning evolyusiyasini ham o'z ichiga oladi).

V) Konkret davrning «mazmuni»ni tahlil Qiladi, ya'ni uning hozirgi davr tafakkurida Qanday o'ringa ega ekanligini, uning muammolarini bizga Qanday ta'sir etishini, bizga Qaysi tomonlari bilan yaQinligini, hozirgi vaziyatning Qaysi sotsial va individual kamchiliklari unda aktuallashtirilganligini ko'rsatadi.

Madaniyat tiplari tarixiy davrlarga Qarab o'zgarib turadi. Davrlarning almashinishi bilan madaniyatda ham sifat o'zgarishlari yuz beradi. Konkret tarixiy davrda yashagan kishilarning dunyo to'g'risidagi tasavvurlari, bilimi, ma'naviy Qadriyatlari to'g'risida atroflicha ma'lumotga ega bo'lishimiz uchun biz shu davrning madaniyatiga murojaat Qilishimiz lozim. Shuning uchun madaniyatshunoslik fani turli xalqlarning madaniy rivojlanish tarixini jahon madaniy taraQQiyotining tarkibiy Qismi sifatida o'rganish bilan birga konkret tarixiy davrning ijtimoiy taraQQiyotda tutgan ma'naviy rivojlanishi bosQichlari, umumiy Qonuniyatlari, o'ziga xos xususiyatlarini ham o'rganadi.

Madaniyatshunoslik tinglovchilarni turli tarixiy davrlar madaniyatlari va sotsial guruhlarining urf-odatlarini, turmush tarzi to'g'risidagi bilimlar bilan boyitadi. Tarixiy va gumanitar bilimlarni tartibga keltiradi, ijtimoiy turmush voQeliklarini yagona mazmun asosida anglashga yordam beradi. Ko'plab betakror va mustaqil madaniyatlardan tashkil topgan jahon sivilizatsiyasining birligi va xilma-xilligini ko'rsatadi. Kishilarning fuQarolik va ma'naviy yetuklikka erishishlarida, fikrlar va Qadriyatlar plyuralizmini ko'ra bilishda fan taraQQiyotini to'g'ri baholash Qobiliyatini hosil Qilishda muhimdir.

¹ Маънавият юлдузлари. Т., 1999 й., 67 бет.

«Inson eng oliy darajadagi tarixiy mavjudotdir. Inson tarixiy davrda, tarixiy davr insonda mujassam» (N. Berdyaev). Negaki, har Qanday davrning xususiyat va darajasi madaniyat rivoji bilan o'lanadi.

Madaniyatshunoslik fani muhim tarbiyaviy vazifani ham bajaradi. Insonda ziyolilik hissini tarbiyalash kursning diqqat markazida turadi. Kishi Qanchalik ziyoli bo'lsa- degan edi D.S. Lixachev- u shuncha ko'p tushunadi va o'zlashtiradi, uning dunyoQarashi va Qabul Qilish doirasi shunchalik kengayadi. Kishining madaniy saviyasi Qanchalik tor bo'lsa, u hamma yangiliklarga va «juda eski»likka nisbatan shunchalik befarq bo'ladi. o'zining eski odatlari bilan yashaydi. DunyoQarashi tor bo'lib, hamma narsaga shubha bilan Qaraydi. O'tmishning madaniy Qadriyatlarini va o'zga millatlar madaniyatlarini bilish, uni saqlash, ko'paytirish, estetik Qimmatlarini Qabul Qila bilishning rivojlanib borishi madaniy taraqqiyotning eng muhim vositalardan biri bo'lib hisoblanadi. Insoniyat madaniyati rivojlanishi tarixi bu nafaqat yangi, balki eski madaniy Qimmatlarni izlab topish tarixidir. Shuningdek, o'zga madaniyatlarni bilish, ma'lum ma'noda gumanizm tarixi bilan Qo'shib ketadi. Bu boshqa xalqlarga nisbatan hurmat, to'g'ri ma'nodagi bardoshlilik, tinchlik tilash demakdir¹.

Ziyolilik tushunchasi ilmiy va oddiy ong darajasida ta'riflanishi jihatidan farq qiladi. Oddiy ong darajasida intelegentlilik deganda oliy ma'lumotga ega bo'lgan, asosan, aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi, bilimli kishilar tushuniladi.

Ilmiy tushunishda ziyolilik bu ma'lumot darajasiga, bilimga, erudisiyaga bog'liq emas deb talqin qilinadi. Inson xotirasidan mahrum bo'lsa, ma'lumoti bo'lmasa ham agar u o'zga madaniyat kishilarini, san'at asarlarining keng va xilma-xil sohalarini va o'zgalar g'oyalarini tushunish layoqatini saqlab qolsa, intellektual hayotga moslashib ketsa-bu intelegentlilik hisoblanadi. Demak, ziyolilik bu ruhiy holat bo'lib, ayrim kishilarga tabiatdan berilsa-da, lekin inson unga tinimsiz mehnat va izlanishlar orqali erishadi.

Madaniyatshunoslik fanining yana muhim vazifalaridan biri bu kishida ijodiy Qobiliyatni rivojlantirishdir. Madaniyat faqatgina moddiy va ma'naviy Qimmatlar yig'indisidan iborat emas, balki ijodiy faoliyatdir. Madaniyatshunoslik yangi ma'lumotlar berish bilan birga yoshlarda madaniyat voqeliklari bilan munosabatda bo'lish malakasini hosil qiladi. Xilma-xil ma'lumotlar berish bilan birga tinglovchilarda ilmiy tafakkur qilish uslublari uzliksizligi, mantiqiylikni shakllantiradi.

Kursning tarbiyaviy funksiyasini tadbiq etilishi, uni bilish funksiyasi bilan Qo'shib o'rganilishini talab etadi. Tarixiy davrlar madaniyatini o'rganish madaniyatlarni Qarama-Qarshi Qo'yish, ularga baho berish, farq qilish maqsadlariga emas, balki yangilikni o'rganish, boshqa madaniyatlar Qimmatlaridan baxramand bo'lishiga xizmat qiladi. Bu vazifalarni bajarishda madaniyatshunoslik kursi tarixiy antropologiya-madaniyatga yaxlit fenomen, dunyo va hayotni idrok etish usuli sifatida munosabatda bo'ladi.

Tarixiy antropologiya-ning eng muhim tushunchalaridan biri bu mentalitetdir. «Mentalitet» - bu madaniyatga taalluqli bo'lgan kishilarda u yoki boshqa muhitning muayyan «aqliy vositalar yig'indisi», «psixologik moslama»larning mavjudligini bildiradi. Ular insonga o'zgarishning tabiiy va sotsial borlig'ini mustaqil Qabul qilishi va idrok etishiga shart-sharoitlar yaratadi. Betartib uzuq-yuluq tushunchalar va ta'sirlar tafakkur orqali Qayta ishlanadi, nisbatan tartibli dunyo manzarasiga aylanadi. Bu manzara inson xatti-harakatida o'chmas iz Qoldiradi. Bir sotsial va madaniy umumiylikning tegishli bo'lgan, tarixiy jarayonining sub'ektiv tomoni hisoblanuvchi idrok va his qilish uslublari tarixning ob'ektiv jarayoniga Qo'shiladi.

Hozirgi zamon madaniyatshunoslik fani «madaniyat» tushunchasini Qo'llanishiga Qarab Quyidagicha o'rganadi: a) Individual-shaxs madaniyati; b) guruh madaniyat-milliy, sinfiy, tabaqaviy, kasbiy, oilaviy; v) makon va zamonda cheklangan muayyan tipdagi jamiyat madaniyati; g) insoniyat madaniyati.

Madaniyatni Qo'llanish jihatidan turlarga bo'lish munozarali bo'lsa-da, biz ularning mavjudligini inkor qila olmaymiz. Ijtimoiy taraqqiyotlarning tafovutlarini yo'qotmaydi, balki, aksincha, uning xilma-xilligini yanada kengaytiradi. Shuning uchun ularni tobora chuqurroq o'rganish madaniyat to'g'risidagi tasavvurimizni kengayib borishga xizmat qiladi.

Madaniyat tushunchasi Qo'llanish jihatidan xilma-xil bo'lgani kabi, kundalik hayotda (oddiy ong) va fanda ham turli mazmun kasb etadi. Biz «muomala madaniyati», «mehnat madaniyati», «xatti-harakat madaniyati» kabi iboralardan foydalanamiz va ularga ko'nikib Qolganmiz. Kundalik

¹ Лихачев Д.С. Поэтика древнерусской литературы. М.Наука. 1979. стр.159.

hayotda madaniyatdan voQelikni baholash tushunchasi sifatida va shaxsning ma'lumotlilik, xushmuomalaligi, ozodaliligi, vazminligi kabi xususiyatlari bilan bog'lab, tushuntirishga odatga aylangan. Madaniyatli kishi tushunchasiga Qo'shib ishlatiluvchi sifatlar juda keng bo'lib, uni Qo'llash jamiyatning umumiy madaniy darajasi va shaxsning sotsial statusiga bog'liQdir. Hozirgi davrda «ishlab chiQarish madaniyati», «xizmat ko'rsatish madaniyati», «dam olish madaniyati» va boshQalar to'g'risida ko'p gapirilmoQda. Bu iboralar orQali madaniyat deganda ijtimoiy institutlarning samarali faoliyat ko'rsatishlari tushuniladi. Ba'zan madaniyat to'g'risidagi tasavvurlar shaharlar turmush tarzi, kinoteatrlar, teatrlar va kutubxonalarga tez-tez borib turish «madaniy» kishilar bilan do'stlashish va chiroyli narsalar bilan bog'liQ deb fikr Qilinadi. Ro'znomalarda, statistik ma'lumotlarda «iQtisod va madaniyat», «fan va madaniyat», «siyosat va madaniyat» iboralari ko'p ishlatiladi, bunda madaniyat ma'naviy ustQurma yoki axloQ va san'at sohalar bilan cheklangan. Ilmiy nuQtai nazardan iQtisodni, siyosatni va fanni madaniyatdan tashQari turuvchi soha deb hisoblash haQiQatdan yiroQdir. Shuningdek, klassik Qadriyatlar va san'atning buyuk namunalari, ideal va yuksak intilishlar madaniyatga taalluQli sohalar bo'lib, oddiy, kundalik narsalar unga yotdir degan fikrlar asossizdir. Kundalik hayotda madaniyatga faQat Qadriyatlar yig'indisi sifatida Qaralishi ham to'g'ri emas, chunki madaniyatda insoniyatga zararli bo'lgan, eskilik QoldiQlari, to'liQ tekshirib ko'rilmagan «yangiliklar» kabi salbiy narsalar ham o'zlashtirilishi mumkin. Kundalik hayotda va fanda madaniyat atamasidan foydalanish to'g'risidagi mulohazalarni xulosa Qilib shuni aytish mumkinki, madaniyat eng keng ma'noda insonni o'rab turgan tabiatdan, ijtimoiy munosabatlarda va bevosita o'zida stixiyali ravishda vujudga kelgan tayyor ma'lumotlardan foydalanishni, ongli ravishda ajratib olishni taQozo etadi. Madaniyat tabiatdan farQ Qiladi, an'analar, ramzlar, til, bevosita taQlid Qilish va amaliy o'rganish orQali avloddan-avlodga singdiriladi. Madaniyat shaxs tomonidan, uning sotsial jihatdan shakllanishi jarayonida o'zlashtiriladi va asosan keng tarQalgan va ko'pchilik Qabul Qilgan axloQ, tafakkur va his Qilishning parchalaridan tashkil topib, individual harakatlar hissasi bunda juda kamdir.

Madaniyatni ilmiy tushunish oddiy ongdan Quyidagilarga ko'ra farQ Qiladi. Birinchidan, u juda keng bo'lib kishilar faoliyatining barcha uslublarini, ijtimoiy hayotning barcha shakllarini o'z ichiga oladi.

Ikkinchidan, kundalik hayotda hissiy bezab ko'rsatilgan va Qimmat jihatlariga urg'u berilgan tasavvurlardan farQ Qilib, fanda tavsifiy ta'rif berish bilan cheklanadi.

Oddiy ongda madaniyatni tushunishning xususiyati bevosita unda amaliy ishtirok etilishiga bog'liQligidadir. Madaniy voQeliklarga inson befarQ munosabatda bo'la olmaydi. Uning Qadriyatlarga munosabati va hissiy emotsional tasavvurlari bolalik davrida to'plagan tajribasidan boshlanadi va kishining jamiyatda tutgan o'rniga, yoshiga, mavQeiga ham bog'liQdir. Shu nuQtai nazardan u o'ziga begona bo'lgan urf-odatlar va xatti-harakatlarga nisbatan extiyotkorlik bilan munosabatda bo'ladi.

Fan esa bevosita umumiy ahamiyatga ega bo'lgan, ob'ektiv haQiQatga mos tushunchalardan foydalanishi kerak.

1. Qadriyat (aksiologik) o'lchovi asosidagi ta'rif. Bunda madaniyat insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy Qimmatlarning yig'indisidan ibort deb talQin etiladi. Madaniyat inson faoliyatidan tashQarida mavjud emas. Baholash Qadriyat nuQtai nazaridan voQelikni tahlil Qilish faoliyatining tabiiy va zarur bo'lgan shartidir. Madaniyat nimada namoyon bo'lishidan Qat'i nazar muayyan Qadriy o'lchovga ega bo'ladi. Madaniyat tushunchasi taraQQiyot, tarix, inson insonparvarlik kabi kategoriyalar bilan bir Qatorda turadi. Insonning faoliyat natijasi, muayyan Qadriyatlarga ega bo'lgan voQelik predmetli aksiologik ta'rifning negizini tashkil etadi. U kishilarning ishlab chiQarish, ijtimoiy va aQliy faoliyatni Qamrab oladi. Bu ta'rif kamchiliklardan ham holi emas. U voQelikni yaxlit idrok etishga, natijalarni mexanik hisobga olishga asoslangan. Bunday yondoshuv voQelikka sub'ektiv baho berishga imkoniyat yaratadi. Aksiologik yondoshuv doirasida madaniyat faoliyat natijasi-o'tmishga aylanib Qolib, o'tmish va hozirgi zamon bilan tabiiy aloQalar buzilishi mumkin. Qadriy yondoshuvning zaif tomonlarini ko'rsatish boshQa davrga xos bo'lgan Qimmatlar tizimidan voz kechishini anglatmaydi.

2. Madaniyatni «faoliyat» tushunchasi asosida ta'riflash. Madaniyatning umumiy tabiatini idrok etishga Qilingan harakat tufayli madaniyatni kishilarning ijodiy faoliyati jarayoni sifatida tushunish vujudga keldi. Faoliyat kategoriyasi o'rganish ob'ekti inson bo'lgan fanlar harakatini integratsiya Qilish uchun Qulay imkoniyat yaratadi. Madaniyatni ijodiy faoliyat va inson faoliyatining o'ziga xos uslubi sifatida ta'riflash konsepsiyasi bir Qator muhim masalalarda bir-birini to'ldiradi. Jamiyat nafaQat Qayta Qurishga, balki an'analarni, madaniy yodgorliklarni saQlab Qolishga ham muhtojdir.

Jamiyatning amaliy va nazariy, moddiy va ma'naviy kabi har Qanday faoliyati ijodiy soha bilan birga o'zida faoliyat ko'rsatish va madaniyatning o'zlashtirish aspektlarini mujassamlashtiradi. Ijodiyot faoliyat ko'lamini Qancha katta bo'lsa, madaniyatning ishlab turishi funksiyasi va kelgusi avlodlarga yetkazib berish uchun zarur bo'lgan faoliyat ko'lamini shuncha keng bo'ladi. Faoliyat maqsadli yo'naltirilgan aktivlikdir. Inson Qanchalik faol harakat Qilsa, shunchalik madaniyatning «chegaralari» yo'qolib boradi. Bu chegaralar vaqt, makon va Qimmat o'lchovlariga ega. Faqatgina belgilangan vaqt intervalida inson faoliyati natijalarini to'g'ri tasavvur qilish va ularni rejalashtirish mumkin. Faoliyat natijasi, boshlanishidan Qanchalik yiroq bo'lsa, shunchalik uni madaniyatga munosabati noaniqlashib boradi. Makonda va Qiymat chegaralarida ham xuddi shunday xususiyatlar mavjud. Intensiv faoliyat chegaralarni kengaytiradi, lekin bunda vujudga keluvchi voqealiklar mavjud madaniyat uchun begona va xatarli bo'lishi ham mumkin. Shuningdek, ushbu yondoshuvga xos bo'lgan madaniyatning tirik asosidan falsafiy abstraksiyalar dunyosiga o'tishga intilishi, hozirgi davrga xos bo'lgan texnokratik tafakkur ta'sirini kuchayishiga olib keladi. Ushbu ta'rifning kuchli tomonlari mavjudligiga Qaramasdan, amalda u tarixiy-madaniy izlanishlardan yiroq bo'lib Qolmoqda.

Informasion ta'rif madaniyatni «barcha irsiy bo'lmagan informatsiyalar yig'indisi», uni tashkil etish va saqlash uslublari sifatida ta'riflab, madaniyat informatsiyalar ombori emas», u nihoyatda murakkab tashkil etilgan mexanizm bo'lib, u informatsiyani doimiy ravishda eng foydali va Qulay uslublarni ishlab chiqqan holda saqlaydi, yangi informatsiyalarni Qabul qiladi, ularni Qayta ma'lumotlarga aylantiradi, ularni belgilarini bir tizimdan boshqasiga o'tkazadi, deb izohlaydi.

«Barcha irsiy bo'lmagan informatsiyalar yig'indisi» deganda biz misol uchun xotirani tushunishimiz mumkin. Chunki xotira mexanik mazmunga ega emas, balki ijodiy jarayon hisoblanadi. Xotiraning eng muhim ma'naviy ahamiyati shundaki, u vaqt to'sig'ini yengadi va o'linga qarshi turadi. Umumiy xususiyatlarga muvofiq biz madaniyatni xotira bilan Qiyoslashimiz mumkin. Bunda biz alohida olingan shaxsning xotirasini emas, balki jamiyat xotirasini nazarda tutamiz.

Yu.M. Lotmanning fikricha bir Qator Qoidalar, cheklashlar sifatida namoyon bo'luvchi tashkiliy vaziyat madaniyatni belgilovchi xususiyati hisoblanadi. K. Levi-Strosning fikriga ko'ra, «Qaerda Qoida bo'lsa, shu yerda madaniyat boshlanadi. Inson tabiatidagi barcha umumiylik tabiatga tegishli bo'ladi va stixiyali avtomatizm bilan xarakterlanadi, majburlash normalari bilan belgilanuvchi sifatlar madaniyat sohasiga tegishli bo'lib o'zida nisbiylik va xususiylikni mujassamlashtiradi»¹.

Yu.M. Lotman ta'kidlaydiki, «madaniyat entropiyasi» informatsiyaga aylantirishning eng mukammal mexanizmidir. Bu mexanizm informatsiyani saqlashi va uzatishi bilan birga uning ko'lamlarini kengaytiradi. O'z-o'zini doimiy ravishda mukammallashtirishi va rivojlantirib borishi uning Qonunidir. Shuning uchun madaniyat bir vaqtda ham stabillik ham dinamizm xususiyatlarini namoyish qilishi kerak. Shu ma'noda madaniyat tirik organizm va san'at asarlariga xos bo'lgan xususiyatlariga ega. Madaniyatni insoniyat tomonidan yaratilgan yaxlit badiiy asar sifatida Qabul qilishimiz lozim.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, Madaniyatshunoslik kursi gumanitar fanlar Qatorida oliy o'quv yurtlarida o'rganilishi hozirgi davr talabiga mos keladi. Jamiyat hayotidagi mavjud muammolarni faqat iqtisodiy, siyosiy tadbirlar va huquq-tartibotni mustahkamlash bilangina to'la hal qilib bo'lmaydi. Buning uchun jamiyatning ma'naviy hayotini ham Qayta Qurish talab etiladi. «Ma'naviyat yo'q joyda» degan edi Prezident I.A. Karimov- xech Qachon baxt-saodat bo'lmaydi».

Madaniyatshunoslik talabalarga jahon madaniyati va uning tarkibiy Qismi bo'lgan O'zbekiston madaniyatini rivojlanish tarixi, xususiyatlari, o'zaro aloqadorligi muammolari va istiqbollari to'g'risida bilim, ko'nikma va malakalarni berish bilan ayni paytda, milliy madaniyatga va o'zga millatlar madaniyatlariga, Qadriyatlariga ularni hurmat ruhida tarbiyalashda, madaniyat yodgorliklariga ijodiy munosabatda bo'lishlarida, ma'naviy jihatdan rivojlanishlarida ko'maklashadi.

Tayanch tushunchalar

Madaniyat, ma'naviyat, individum, sotsium, Qonuniyat, ziyolilik, intellekt, funksiya, mentalitet.

¹ Лотман Ю.М., Статьи по типологии культуры. Тарту. 1970. 7.6.

Mavzu bo'yicha takrorlash uchun savollar

1. Madaniyatshunoslik fanining predmeti, u nimani o'rganadi?
2. Madaniyatshunoslik ilmining asosiy yo'nalishlarini sanang?
3. «Madaniyat» atamasi fanda Qachon paydo bo'lgan?
4. «Madaniyat» deganda Qanday ma'no va hodisani tushunasiz?
5. «Madaniyat» tushunchasining Qanday asosiy ta'rif, tasniflarini bilasiz?
6. Tabiat bilan madaniyat (ikkinchi tabiat) ni Qanday farqli tomonlari mavjud?
7. Inson va jamiyat hayotida madaniyatni tutgan o'rnini tushuntiring?
8. Madaniyatning ahamiyati xususidagi buyuk mutafakkirlarning fikrlarini eslang.
9. Madaniyatning Qanday tiplari mavjud?
10. Hozirgi zamon madaniyatshunoslik fani bilan bog'liq bilimlarning ahamiyati nimada?

ADABIYOTLAR

1. I.A. Karimov Istiqlol va ma'naviyat. T., «O'zbekiston». 1994 y.
2. I.A. Karimov Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., «O'zbekiston». 1998y.
3. E.V. Sokolov. Ponyatie, sushnost i osnovnie funktsii kulturi. L., 1989 g.
4. N.Yu. Samoylenko. Metodicheskie rekomendatsii po izucheniyu kursa. Istoriya i teoriya kulturi. T., 1990 g.

2-MAVZU
MADANIYAT RIVOJLANISHINING
ASOSIY QONUNIYATLARI madaniy va ma'naviy meros

Ma'ruza rejasi:

1. Moddiy va ma'naviy madaniyat va ularning o'zaro aloqadorligi.
2. Madaniyatning shaxs va jamiyat hayotidagi o'rni.
3. Madaniyat boyliklari (madaniy Qadriyatlar).
- 4 "Madaniy meros " tshunchasining mazmuni
- 5 Madaniy meros mexanizmi

Madaniy jarayonning o'ziga xosligi shundaki, madaniyat hodisasi xar doim shakl va mazmun, borliQ va munosabat, narsaning mavjudligi va uning ramziy mazmuni uyg'unligiga ega bo'ladi. Moddiy madaniyat va ma'naviy madaniyat-madaniyatning asosiy ikki sohasi bo'lib, bir-biri bilan o'zaro aloQada, o'zaro ta'sirda va bir-birini taQazo Qilgan holda rivojlanadi. Moddiy madaniyat har doim ma'lum bir ma'naviy madaniyatning timsoli hisoblanadi, o'z navbatda ma'naviy madaniyat ham Qaysidir narsa, belgi, tasvir, ramzlarda moddiy uyg'unlikda mujassam bo'ladi.

Moddiy madaniyatning ma'naviyatdan tarixan ayriligi faQat insoniyat taraQQiyotining boshlang'ich davrlarigagina xosdir. Jamiyatda ma'naviy faoliyat maxsus sohaga aylangach axloQiy mezonlar, din, san'at, huQuQ, siyosat, fan shakllanib, ma'lum doiradagi kishilar bu soha bilan shug'ullana boshladi.

UzoQ vaQtlar fanda madaniyat deganda faQat ma'naviy madaniyat nazarda tutildi. Negaki, borliQni haQiQat, yaxshilik, go'zallik belgilaydi deb hisoblashgan. Shuning uchun, birinchi o'rinda ilmiy tadQiQotlarning asosi fan axloQ, nafosat bo'lib keldi. Natijada, jamiyatning moddiy hayotini, uning iQtisodiyotini o'rganishga e'tibor berilmadi. Moddiy madaniyat tadQiQot uchun QiziQarsiz, hisoblangan.

Industrial jamiyatining vujudga kelishi, uning texnikaviy taraQQiyoti va texnologiyalarini tezda almashishi madaniyatshunoslarni insoniyatning barcha moddiy madaniyatini o'rganishga majbur Qildi.

Kishilarning amaliy Qayta o'zgartiruvchilik faoliyati, ularni ijtimoiy ishlab chiQarish va takroriy ishlab chiQarish bilan bog'liqligi moddiy madaniyatning o'ziga xos sohalarga bo'linishi madaniyatshunoslikda muayyan tadQiQotlarga zaruriyat tug'dirdi.

Moddiy madaniyatning **birinchi katta sohasi** bu mehnat Qurollari ishlab chiQarishning barcha vositalari, turar joylar, aloQa vositalari, texnika Qurilmalari. Xullas, sun'iy sharoitda yaratilgan narsalarning barchasi, shuningdek moddiy madaniyatning bu Qismi ishlab chiQarish texnika madaniyati yoki jamiyat hayotining moddiy texnika asosi deb ataladi. Ishlab chiQaruvchi texnika madaniyatining maxsus Qismini ishlab chiQarish texnologiyalari, mehnat faoliyatida ishtirok etuvchilarning ijodiy ko'лами, ularning texnik bilimi, ishlab chiQarish madaniyati, jismoniy va ruhiy imkoniyatlari tashkil Qiladi.

Moddiy madaniyatning **ikkinchi sohasi** ijtimoiy hayot va uning barcha tarmoqlarining me'yoriy harakatini ta'minlovchi ko'plab ijtimoiy institutlar, tashkilot va muassasalar faoliyati bilan bog'liQ. Bu turli hokimiyat tuzilmalari va unga munosib boshQaruv shakllari, ijtimoiy tashkilotlar, ta'lim, yosh avlodni tarbiyalash va ta'lim berish, sog'liQni saQlash va dam olish, bo'sh vaQt va ko'ngil ochish muassasalari tizimi kabi barcha ijtimoiy institutlar amalda jamiyat madaniyatini saQlaydi, o'zgartiradi va Qayta shakllantiradi.

Moddiy madaniyatning **uchinchi sohasi** (ishlab chiQaruvchi va Qayta ishlab chiQaruvchi) insonning o'zi hisoblanadi. Moddiy madaniyatning bu sohasi nafaQat insoniyatni shunchaki biomavjudotlik muammolarini tadQiQ Qilmasdan, balki avlodlarning o'zaro munosabatlari muammolarini ham tahlil Qiladi.

Inson ulg'ayishi va jamoaga mansubligi mezonidan boshQa jamiyat madaniyati a'zosi sifatida shakllanishi mumkin. Ikki xil, ba'zan insonni ikki turdan ham ko'proQ madaniyatga mansubligi uni ko'p tomonlama, turli madaniy olamga mansub Qiladi. Ammo, bunda ma'lum xavf ham yashirin bo'ladi. Ya'ni, ulg'ayuvchi avlod jamiyatga aralashuvi jarayonida begona madaniyatlarning aralashuvi yoshlarni o'zining madaniyat manbaidan ayrilishiga, o'z etnik an'alarini

tushunmasligiga olib keladi. O'z milliy madaniyatidan mahrum kishi manQurtga aylanadi va har Qanday madaniyatga ham befarQ munosabatda bo'ladi. Shuning uchun meros, madaniyatning uzluksiz an'anaviy yangilanish jarayonini ta'minlash o'ta muhim.

Moddiy madaniyatning uchinchi sohasi doirasiga inson hayot faoliyatining genetik (irsiy), jismoniy (somatik), tibbiy-biologik xususiyatlari haQidagi, jamiyatda yuzaga keladigan va tarixiy taraQQiyotning o'ziga xos xususiyatlari aks etuvchi madaniy an'analar va sog'lom odatlarga to'g'ri keladigan insonning tartibli ovQatlanish va turmush tarzi haQidagi bilimlar majmui bo'lgan inson ekologiyasi muammolari ham mansub.

Umuman, moddiy madaniyatga mehnat madaniyati, ishlab chiQarish madaniyati, turmush madaniyati, ekologik madaniyatlar kiradi. Ishlab chiQarish vositalari moddiy madaniyatning muhim Qismidir. Zamonaviy texnika yutuQlari jamiyat moddiy madaniyatning asosini belgilovchi jihatdir. Maishiy turmushdagi iste'mol buyumlari ham har bir xalQning moddiy hayot darajasini belgilaydi. Shu o'rinda moddiy madaniyat ishlab chiQarish va iste'mol buyumlarining oddiy majmuidangina iborat bo'lmay, ularni ijodiy o'zlashtirish, yangidan yaratish, ulardan mukammal foydalanish usullari hamdir. Bunda ijodiy salohiyat, malaka va g'oya yangidan moddiylashib, shaxs, jamiyat, millat, xalQ, davlat umuminsoniy mazmun ham kasb etadi.

Moddiy madaniyat muayyan tarixiy davrda jamiyatda mavjud bo'lgan buyumlarni moddiy ishlab chiQarish faoliyatining barcha sohalarini va natijalarini o'z ichiga oladi.

Tarixiy davrlarda madaniyatning keng ko'lamli rivoji sivilizatsiya tushunchasida ham ifodalanadi. Sivilizatsiya ijtimoiy va moddiy madaniyat taraQQiyoti bosQichini bildirib, moddiy madaniyatning turdosh nomidir. Hozirgi davrda sivilizatsiya insoniyatga begona bo'lgan ob'ektlarni Qayta o'zgartirishni bildiradi, madaniyat esa insonning fazilati va holati, tashQi dunyoga bog'liqligi yoki erkinligining mezonidir. Nemis olimi O. Shpengler, sivilizatsiya tafakkurni bir Qolipga solib Qo'yadi, umum Qabul Qilgan haQiQatlarni mutloQatlashtiradi, deb hisoblaydi. Bundan tashQari, sivilizatsiyani urbanizatsiyaga, hatto olamni noinsonlashtirishga olib keladi, Sivilizatsiya va fan o'zligicha ma'naviy taraQQiyotni ta'minlay olmaydi, bu yerda aQliiy, axloQiy va estetik yutuQlarni mujassam Qilgan ma'naviy tuzilma zarur degan fikrlar mavjud.

Ma'naviy madaniyat ancha ilgaritdan o'rganila boshlangan. Insoniyat tarixining boshlaridan kishilar ma'naviy madaniyatni belgilashga, uning shakllanish sabablarini aniQlanishga, ma'naviy boylik ijodkori va yaratuvchilari Qanday sifatlariga ega bo'lishlari kerakligi va ma'naviy ijodkorlik jarayonini tushuntirishga uringanlar. Ilgari mavjud bo'lmagan madaniyat hodisasini vujudga keltirishga xizmat Qiluvchi ijodiy kuchlar hayolat, fantastik tadQiQotlarga e'tiborlarini Qaratadi. Insondagi barcha Qobiliyat tabiatan mavjud bo'lib, uning shakllanishi insonning paydo bo'lish davridan boshlangan. Insondagi ajdodlardan Qolgan yovvoyilik xususiyatlari tabiat bilan doimiy o'zaro hamkorlikda, uni o'zlashtirishi davomida yo'Qolib, bilimi rivojlandi. Undagi jismoniy va ruhiy jihatlar takomillashib, intellektual va xissiy imkoniyatlar kuchayib bordi. Inson jismoniy, fikriy va his Qiluvchi mavjudod sifatidagi dastlabki davridanoQ o'ziga xos dunyosini yarata boshladi: Moddiy va ideal dunyosi taraQQiyotining har bir davrida fikrlash va his Qilish tarzining maxsus aQliiy tasavvur tizimi to'plandi. Bunda barcha umuminsoniy madaniyat singari turli xalQlar tomonidan yaratilgan mustaqil madaniyatlar manbai ham mavjud. Insonning ideal dunyosi- bu uzluksiz harakat shaklining benihoya rang-barangligi, murakkab me'yor, munosabatlar darajasiga ega bo'lgan obrazlar rivoji va vazifasi, tiplarning voQelik bilan aloQasidir.

Ma'naviy faoliyatning turli shakllari mavjud, biroQ, ularning barchasi ilk butunlik elementlari bo'lib Qoladi. Fan, din, falsafa, san'at, axloQ, xuQuQ, siyosat, mafkura, milliy o'zlik ma'naviy madaniyatning aniQ shakllari hisoblanadi. Alohida shakldagi ma'naviyatning xususiyati maxsus tuzilish va ma'lum vazifalar majmuidan iborat, har birining o'ziga xosligida ifodalanadi. Ma'naviy madaniyatning ayrim shakllari (fan, san'at) «chegaralanganlikda» farQlanadi, ya'ni ma'naviy madaniyatning aniQ sohasiga aylanadi, boshQa shakllarida (axloQiy, estetik) faoliyatning barcha turlari Qorishib ketadi. Madaniyatdagi hayratlanarli funksional haQQoniylik shuki, unda hech bir ortiQcha, shunchaki narsa yo'Q, barcha madaniyat hodisasi o'zaro foydali umumiy aloQadorlikda kechadi. TadQiQotchilar madaniyatning turli funksiyalarini ko'rsatadilar. Jumladan:

Olamni o'zlashtirish va Qayta o'zgartirish; bunda u mavjud narsalarning jismoniy talablarini, shuningdek ijoddagi hayotiy talablarni Qondirish zarurati bilan bog'liQ.

Himoya-moslashuv vazifasi; jamiyat va atrof-muhit o'rtasidagi muvofiqlikni saQlash. Ushbu funksiya uzoQ vaQt Qiyin tabiiy sharoitlarda barcha yangi himoya vositalarini ishlab chiQishda va

ko'niktirishda (olov, turar joy, kiyim, dehqonchilik va hok.) odamning omon Qolishini ta'minlaydi. Keyingi vaQtlarda o'ta jiddiy bo'lib turgan muammo tabiatni himoya Qiluvchi vositalarni yaratish, bunda ekologik mezon, ekologik tafakkurning keng Qo'lamda yoyilishini amalga oshirish zarur.

Signifikativ funksiya (belgilash, ro'yxatga olish mazmunida):- mazmun, ma'no, nom, belgilar ko'lamini ishlab chiQish vositasida dunyoning Qiyofasida, voQelikni belgi tizimining yaratilishi. Sezgilar ham, tashQi idrok ham, na shuurning bevosita kechinmalar holiday yig'indisi ham yo'nalishni aniqlash tizimini insonga ta'minlab bermaydi. Bu vazifani ma'lumotlarni o'zida saqlamasdan, nazariy modellar va axborotlar bilimini to'plashni vujudga keltirish uchun faqat material bo'lib xizmat Qiluvchi mazmun bajaradi. **Axborotlarni o'zlashtirish va yig'ish funksiyasi** xabarlarini yig'ish va saqlash vositasi tabiiy xotira yoki xabarlarini narsalarga yozish (Qo'lyozmalar, kartinalar, plastinkalar, kitoblar, kinotasmalar, ohonrabo yoki raqamli yozuvlar) bo'lishi mumkin. Har Qanday holatda axborotlarni tashkil qilish, uning qadri va mazmuni bo'yicha tartibga solishning ma'lum usuli va belgilar tizimi zarur. hozirgi davrda til belgilar tizimining keng Qo'llami va o'ta ahamiyatlisi bo'lib Qolmoqda.

Kommunikativ funksiya (aloqa almashuv)- mohiyatni aniqlashda bilimlar, fikrlar, ma'naviy kuchlarni almashlash. Ijtimoiy hayot doimiy ravishda energiya, axborot, o'zaro amaliy hamkorlikni taqozo qiladi, negaki, faqat turli tiplarning munosabati (an'anaviy, funksional-ahamiyatli, shaxslararo, ishlab chiQaruvchi, ma'rifiy-madaniy) jamiyatning tuzum sifatida mavjudligini va uning keyingi taraqqiyotini ta'minlashga Qodir.

Normativiylik funksiya (mezon-me'yoriy)- kishilar hulqini tartibga solish, ularning kuchini bir me'yorda va jamiyatni bir butunlikda saqlash maqsadida muvofiqlashtirish. Me'yor-Qoida Qandaydir harakat yoki Qandaydir predmetlar, narsalarni yaratish sohasida aniqlik ko'rsatmadir. Ongli ravishda o'rnatilgan yoki ko'p asrlik an'analarga tayanuvchi majburiy, taqiqlovchi me'yorlar mavjud (huquqiy, axloqiy me'yorlar), biroq ularning mazmuni bor jamiyatni barbad qilmaslik uchun kishilar faoliyatini tartibga solish, aniqlik chegaralar bilan belgilash.

Ruhii yoki «loyihaviy» mo'tadillik- bayramlar, diniy marosimlar, o'yin, tomosha jarayonlarida ruhiy zo'riqlashlarni bartaraf qilish. Qoniqarsiz istaklar, ro'yobga chiQmaydigan niyatlar, amalda taqiqlanuvchi janjallar mavjudligi ruhiy zo'riqlashlar paydo bo'lishiga olib kelib, nafaqat ma'lum bir shaxs salomatligiga zarar yetkazadi, balki, ommaviylik kasb etib, jamiyat harakatini izdan chiQarishi mumkin. Shuning uchun madaniyatda keraksiz xissiyotdan xalos bo'lish mexanizmi ishlab chiQilgan.

Xullas, kishilar yaratgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar, boyliklar ularning qobiliyatlari, munosabatlari va mohiyatli kuchlari namoyon bo'lishidan iborat. Inson madaniyat sohasida bu ma'naviy qadriyatlarga o'z munosabatini bildirar ekan, ayni vaqtda, o'zi rivojlanadigan, o'zi o'zgarib turadigan mohiyat sifatida ham namoyon bo'ladi. Demak, madaniyat narsalar shaklida, inson faoliyatining tayyor mahsulotlari shaklida va insonning jonli qobiliyatlari, bilimlari shaklida yashab turadi.

Kishilar ijtimoiy tajriba jarayonida zaruriy moddiy shart-sharoit va hayot vositalarini yaratish bilangina kifoyalanmay, ayni chog'da o'z ongini ham takomillashtiradi. Ijtimoiy ong shakllarini (dunyoqarash, axloq, huquq, estetik ong) vujudga keltiradilar yoki ma'naviy ishlab chiQarish faoliyatini amalga oshiradilar. Bularning majmui ma'naviy madaniyat sohasini tashkil etadi.

Ma'naviy madaniyat kishilar ma'naviy ijodkorligi faoliyatlari natijalari- tasavvurlar, g'oyalar, ilmiy bilimlar, diniy qarashlar, san'at sohalari, axloqiy va huquqiy me'yorlarni ishlab chiQarishdan hosil bo'ladi. Bunday ma'naviy qadriyatlar o'zicha paydo bo'lmaydi, balki muayyan taraqqiyot bosqichida o'zaro munosabatga kiradigan kishilar tomonidan yaratiladi. Ma'naviy madaniyat – ma'naviy ijodning shunchaki mahsuloti bo'lmay, balki ijodiy faoliyatni amalga oshiradigan kishilar o'rtasidagi munosabatni ham bildiradi. Shuningdek, ma'naviy madaniyat ta'lim va fan sohasi bilan bog'langan ilmiy faoliyat va bilim olish jarayoni bilan uzviy bo'lgan bilish madaniyatini, axloqiy va estetik madaniyatni o'z ichiga oladi. Natijada, ma'naviy madaniyat o'zaro uzviy bog'liqda inson ma'naviy fazilati va faoliyatining narsalarda moddiylashtirilgan shaklida, inson tomonidan yaratilgan ma'naviy qadriyatlar shaklida (ilm, san'at, huquq, axloq qoidalarida) mavjud bo'ladi.

Madaniyatning quyidagi funksiyalari bevosita shaxs bilan bog'liq:

- **«Gominizatsiya»** - urug'doshlik xususiyatlarini o'rganish. Madaniyat «aqli odam» uchun xos bo'lgan-nutq, narsalarni ramziy ifodalash (yoki mavhum tafakkur) xususiyatlarini har bir odam o'rganishga

imkon yaratadi. **-Sotsializatsiya-** (umumlashtirish)- jamiyat hayoti uchun uning haqiqiy a'zosi sifatida zarur hisoblangan ma'lum miqdordagi shartlarni o'zlashtirish. Bu funksiya idrok, tafakkur, nutq, so'zlarni qo'llanilishi, ohangi, imo-ishora va shama, tipik hodisalarga munosabat tarzi, shuningdek, talab va Qadriyat yo'nalishlari tizimini shakllantirish kabi andozaviy usullarning mustahkamlanishi bilan bog'liq.

- **Inkulturratsiya** - avvalo o'z xalqining, keyin esa umuminsoniy madaniy merosga (aralashish) munosabatda bo'lish (Bu jarayonni muhokama qilishga alohida mavzu bag'ishlanadi).

- **Individualizatsiya** - madaniyat ma'lum shaxslar qobiliyati, iqtidori, xususiyatini o'ta rivojlantirishga mo'ljallangan. Shaxs madaniyati qolgan barcha madaniyatlar doirasida- (jamiyat, insoniyat) eng asosiy bo'g'in bo'lib, bu har bir aniq shaxs madaniyatining barkamollik darajasiga jamiyat yoki butun insoniyat madaniyati bog'liq bo'lishini bildiradi.

Har qanday jamiyat ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi, boy bilim olami bo'lib, u insonni qarda yashashi va harakat qilishini, umuman, dunyodagi va jamiyatdagi o'rnini belgilashga yordam beradi. Madaniy Qadriyatlar inson uchun o'ta shaxsiy mohiyat va mazmun kasb etib, inson u orqali boshqa kishilar bilan, butun jamiyat bilan munosabat o'rnatadi. Qadriyatlar jamiyatga manzur bo'luvchi axloq shakllarini yaratishda va anglashda insonga yordam beradi. Taxsinga loyiq joyi shundaki, insonda boshqalarga nisbatan munozarali emas, balki muloyim munosabat shakllanadi. Munozaralar tug'ilgan hollarda jamiyatni mustahkamlashga munosib bo'lgan bartaraf qilishning qulay usullari topiladi.

Jamiyat, avvalo tarixning muayyan bir taraqqiyoti bosqichida tabiatdan ajralib chiqqan moddiy dunyoning tarkibiy qismi bo'lib, rivojlanuvchi kishilar hayotiy faoliyatlarining majmuidir. Shuningdek, jamiyat kishilik tarixining muayyan bosqichi yoki ijtimoiy tizimning aniq tipi. Ishlab chiqarish munosabatlarining majmui ijtimoiy munosabatlar deyiluvchi jamiyatni, ya'ni tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichidagi jamiyatni vujudga keltiradi.

Shaxs bilan jamiyatning o'zaro munosabatlari turli tarixiy davrlarda turlicha bo'lib, shaxs madaniyati jamiyat madaniyatini belgilaydi va shaxs madaniyati ham o'z navbatida muayyan bir jamiyat madaniyatida shakllanadi. Har bir jamiyat shaxs madaniyatini kamol toptirishda o'zining me'yoriy Qadriyatlarini belgilaydi va shaxsning ma'naviy ehtiyojlarini ta'minlaydi.

Jamiyat bilan shaxsning o'zaro munosabati, shaxsning erkinligi, uning huquq va burchlari, insoniy Qadriyatlar haqidagi muammo barcha tarixiy davrlardagi muhim masala hisoblangan.

Inson tabiatning oliy mahsuli bo'lib, uning mohiyati barcha ijtimoiy munosabatlar yig'indisi bilan belgilanadi. Inson ayni paytda ham tarixiy taraqqiyotning mahsuli, ham uning sub'ektidir. Ijtimoiy munosabatlar insonni ijtimoiy vujudga aylantiradi, dunyoqarashini shakllantiradi. Inson ishlab chiqarish jarayonida faqat narsalar yaratib qolmay, o'zini, o'z shaxsiyatini ham qayta yaratadi. Bu jarayonda inson o'zini takror ijod qiladi va shu jihatdan u ijtimoiy mavjudotdir.

Odamlarning ijtimoiy mohiyati shaxsda mujassamlashgan holda o'z ifodasini topadi. Shaxs odamning ijtimoiy mohiyati va ijtimoiy faoliyatining ifodalanishidir. Odam ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish natijasida shaxsga aylanadi.

Inson ijtimoiy munosabatlar yig'indisi sifatida muayyan huquq va burchlarga egadir. Bu uning shaxs ekanligini ifodalaydi. Individ shaxsga aylanishi uchun bir qancha huquq va erkinliklarga ega bo'lishi lozim. Shaxs deyilganda, umuman insonni emas, balki tipik va erkinliklarga ega bo'lgan odam tushuniladi. U ijtimoiy shart-sharoitlarga bog'liq bo'lgan odamdur.

Individ alohida bir kishi bo'lib, boshqalardan farqlanuvchi xususiyatlarga ega. Individ ham ijtimoiy mavjudotdir. U ijtimoiy taraqqiyot jarayonida ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish asosida shaxs sifatida shakllanadi. Individning shaxs tariqasida voyaga yetib borishi u mansub bo'lgan tarixiy sharoitlardan, yashab, ta'lim-tarbiya olib turgan jamiyatdan ajralmasdir.

Shaxsni jamiyatdan, ijtimoiy munosabatlardan ajratib bo'lmaganidek, jamiyat taraqqiyoti ham insonning amaliy faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Jamiyat bilan shaxs o'rtasidagi munosabat bir-biriga bog'liq, bir-birini taqozo qiladigan munosabatlardir. Ijtimoiy munosabatlar ta'sirida shaxs turmushining turli-tuman ko'rinishlari, xususiyatlari shakllanadi. Shaxsning shakllanishida jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. har bir shaxsda u mansub bo'lgan jamoaga, millatga, elatga, jamiyatga xos jami xususiyatlar va belgilar bo'ladi. Shaxs o'z hayotining butun mazmunini jamiyatdan, kishilar jamoasidan oladi. har qanday shaxs ob'ektiv shart-sharoitlar va sub'ektiv omillarning uzviy birligi ta'siri ostida shakllanadi. Shaxs kamolatida ob'ektiv shart-sharoitlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Oila, o'quv dargohlar, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar, matbuot,

mahalla, ko'cha singari omillar ham shaxsni tarbiyalashda muhimdir. Ob'ektiv shart-sharoitlarning shaxsga ta'siri sub'ektiv omillar orQali o'tadi.

Shaxs ijtimoiy mavjudot sifatida muayyan erkinlikka ham egadir. Uning erkinlik darajasi jamiyatning ijtimoiy tuzilishiga, mulkiy munosabatlarga ham bog'liQ. Erkinlik har bir shaxsning tabiiy huQuQidir. Shaxslarning insoniy huQuqlari va erkinliklarni chegaralab Qo'yish, paymol Qilish; milliy, diniy kamsitishlar; irqchilik; xalqlarning tili, urf-odatlar, tarixi, madaniy meroslari, milliy Qadriyatlariga bepisand Qarash, ularning huQuQ va manfaatlarini kamsitishdir.

Shaxsning huQuQ va erkinliklaridan tashQari uning jamiyat va umuminsoniyat oldidagi burchi va ma'suliyati ham bor. Inson o'zi yashab turgan jamiyatning Qonun-Qoidalar, tartiblari, axloQiy, huQuQiy normalariga amal Qilmaslik, uning muammolari, Qiyinchiliklariga befarQ Qarash aslo mumkin emas. Har bir mamlakatning konstitutsiyasida belgilab Qo'yilgan Qonunlarga amal Qilish, boshQa fuQarolarning milliy Qadr-Qimmatini hurmatlash, jamiyat manfaatlariga, turmush tarziga, odob-axloQ va madaniyatga zid va nojo'ya harakatlarga murosasiz bo'lish, Vatanni himoya Qilish va boshQa shu kabilar shaxsning burchi va ma'suliyatidan iborat.

Har bir shaxsning umumxalQ manfaatlariga to'la taalluQli bo'lgan burchlar va ma'suliyatlari ham bo'ladi. Bular tabiatni muhofaza Qilish, uning boyliklarini Qo'riqlash, madaniy-tarixiy yodgorliklarni saqlash haQida g'amxo'rlik Qilish, boshQa xalqlar va mamlakatlar bilan do'stlik, tinchlikni saqlash singarilardir.

Barcha sivilizatsiyali jamiyatlarda shaxsning erkini bo'g'ib Qo'yish, uning huQuqlariga yo'l bermaslik, unga hiyonat Qilish yoki uning jamiyat oldidagi burch va ma'suliyatini bajarmasligi Qonun yo'li bilan ta'Qiqlanadi.

Barcha madaniyatli jamiyatning xususiyatini, uning mezon va mazmunini ziyolilar belgilaydi. Ziyolilik bu nafaQat keng bilimga ega bo'lishni, balki tashabbuskorlikni, javobgarlikni, axloQiy-estetik jur'atni va tug'ma iste'dodni bildiradi.

Ziyolilar-aQliy mehnatning xilma-xil murakkab turlari bilan shug'ullanuvchi Qatlamdir (fan va madaniyat xodimlari, o'Qituvchilar, muhandislar, texniklar, shifokorlar).

Madaniyatlilik deganda kamtarlik, halollik, rostgo'ylik, sahovatpeshalik, insonparvarlik, yaxshilik, sahiylik kabi insoniy fazilatlariga ega bo'lish, axloQiy Qoidalariga to'la amal Qilish, o'z millati hamda boshQa xalqlarni ham hurmat Qilish xislatlari anglashiladi.

Ziyolilik aQliy kamolat egasi bo'lish, nazariy masalalarni anglashga, ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga tayyor bo'lishdir. «Ziyolilik» yuksak darajada kamol topgan intelligentni, keng bilimli, yuksak madaniyatlilikni anglatga, «Ziyoli» kishilarni tabaqalari orasidagi ijtimoiy Qatlamni anglatadiki, bu Qatlam yuQori malakali aQliy mehnat bilan mashg'uldir.

Yetarli bilimga ega bo'lmagan holda dunyodagi barcha narsalar to'g'risida fikr bildiruvchi kishi diletantdir. Diletantlik madaniyat kamligining belgisi bo'lib, chinakam madaniyat va ziyolilikka aloQasi yo'Qdir.

Tarbiyalilik ziyolilikning asosiy belgisi bo'lib, uning umumiy madaniy saviyasi ko'pincha nutQ madaniyatida aks etadi. Madaniy nutQ avvalo to'g'ri nutQ demakdir. Madaniyatli kishi obrazli, ifodali va chiroyli nutQ orQali o'z fikrini bayon Qiladi.

Ziyolining estetik didi baland bo'ladi, ya'ni san'at asarlarining go'zalligi to'g'risidagina emas, balki kishilarning, tabiatning va jamiyatning go'zalligi haQida fikr yuritishga, Qo'pollik va adolatsizlikka qarshilik ko'rsatib uni bartaraf Qilishga Qodir bo'ladi. Hamma narsada me'yor va uyg'unlik tuyg'usi ziyolilikning yuksak xususiyatidir.

Ziyolilik bilim, ilm va tarbiya bilan kamol topadi. Ziyolilik tushunchasiga umumiy madaniyatdan tashQari Qalb nozikligi, umuman, hayotga munosabatda yuksak ong, ijtimoiy faollik ham kiradi. Demak, «ziyolilik» tushunchasi faQat aQliy mehnat kishisiga taalluQli emas. Ziyoli deb chuQur intelegentga, intuitiv oliyjanoblikka ega bo'lgan, ma'naviy ehtiyojlari keng har bir kishini atash mumkin. Madaniyatshunoslikni o'rganishdan maQsad ziyolilikni tarbiyalashdir. Ziyoli-intelektual shaxs, uning madaniyatli kishidan farQi, jamiyat va millat taQdiriga ma'naviy javobgar bo'lgan shaxsliigidir. Intellektual shaxs individual holatlarda o'z fikridan Qanoatlanmaydigan, o'ziga-o'zi qarshi boruvchi, o'zini-o'zi inkor Qiluvchi ichki xususiyatlarga ega bo'lgan ziyolidir. Ziyolining shu xususiyatlarida komillik belgilari namoyon bo'ladi.

Shaxsning komillikka erishuvini ta'minlashda jamiyatdagi mehnat madaniyatini rivojlantirish, kishilarning siyosiy ongliligini oshirish, axloQiy va estetik nafosatini tarbiyalashda madaniyatning tarkibiy Qismlari, sohalari katta vazifani bajaradi. Shaxsni sotsial jihatdan farqlanishiga ko'ra

insonning mehnat madaniyati, munosabat madaniyati, axloQ madaniyati, badiiy-tafakkur madaniyati, dunyoQarashi ruhni olami haQida gapirish mumkin. Madaniyat ijtimoiy tuzilma sifatida ilmiy bilimlarni, tafakkurni, axloQiy-estetik Qadriyatlarni, axloQiy-huQuQiy nizomlarni, urf-odat va an'analarni Qamrab oladi.

Shaxs madaniyatining shakllanishida jamiyat madaniyatining Quyidagi tizimlari ahamiyatlidir:

Siyosiy madaniyat- kishilarning siyosiy ongi, manfaatlari, e'tiqodlari, maQsadlarini ifodalovchi siyosiy- huQuQiy g'oyalar majmui bo'lib, ma'naviy Qadriyatlarning maxsus tizimini tashkil Qiladi. Bu madaniyat tarixiy taraQQiyot bosQichlarida jamiyatning ijtimoiy tabaQalari manfaatlari bilan bog'liQ holda vujudga kelib, jamiyat siyosiy faoliyatiga uzviy bog'liQ. Siyosiy madaniyat, siyosiy faoliyat sifatida, ya'ni insonlar faoliyatidagi tabiatni Qayta yaratish va o'zlarini tarbiyalash jarayonlarini Qamrab olib, «siyosiy ishlab chiQarishni» aks ettiradi. Bunda siyosiy faoliyat amaliy jihatdan ijtimoiy guruhlar (sotsium) ning siyosiy hokimiyat uchun bo'lgan harakatlarini ifodalaydi, ma'naviy-nazariy jihatdan esa ijtimoiy munosabatlarni tabaQaviy dunyoQarash ruhida anglash, muayyan siyosiy g'oyalar, dasturlar ishlab chiQish va targ'ib Qilishni nazarda tutadi. Umuman, siyosiy madaniyat kishilar faoliyatining manfaatli va tabaQaviy jihatdan o'ziga xos shakli bo'lib, siyosiy munosabatlarni tabaQalar, shaxslar tomonidan faol o'zlashtirish jarayonini bildiradi. Siyosiy madaniyat tarkibiga: mafkura, siyosiy tajriba va an'analar, siyosiy tashkilotlar, siyosiy faoliyat usullari kiradi.

Siyosiy madaniyatning mavjudlik usuli: jamiyatning siyosiy-madaniy boyligi; amaliy siyosiy madaniyatdan iboratdir. Jamiyatning siyosiy-madaniy boyligi- davlat boshQaruvining tarixiy tajribasi, siyosiy faoliyat vositalari, usullari, siyosiy bilimlar majmuidir. Amaliy siyosiy madaniyat esa- jamiyat, guruh, shaxs siyosiy hayotidagi mavjud madaniyatdir.

Siyosiy- madaniyat sotsial namoyon bo'lish shakli jihatidan jamiyat siyosiy madaniyatini sotsial guruhlar va shaxs siyosiy madaniyatiga ajratish mumkin. Jamiyat siyosiy madaniyati taraQQiyotning ma'lum bir bosQichidagi siyosiy-ijtimoiy Qadriyatlar, siyosiy tuzilmalar, siyosiy faoliyat usullarining majmuidir. Shaxs siyosiy madaniyati esa, individ tomonidan jamiyatning siyosiy, mafkuraviy va ijtimoiy-ruhiy Qadriyatlarini va usullarini o'zlashtirilishi hamda amalga oshirishi tizimidir. Shaxs siyosiy faoliyatida siyosiy madaniyatni bilish va amaliy faoliyatda Qo'llash darajasining o'zaro bog'liqligi, yaxlit birligidan siyosiy madaniyat tarkib topadi.

Siyosiy madaniyat taraQQiyoti huQuQiy madaniyat bilan bog'liQ bo'lib, bu faQat Qonunlarni bilish, huQuQiy saviyadagina iborat bo'lmay, Qonunlarga amal Qilish va ularga bo'ysunish madaniyati demakdir. Umuman, huQuQiy madaniyat- huQuQiy ong, huQuQiy munosabatlar, huQuQiy faollikning birlikda namoyon bo'luvchi ma'naviy Qadriyatlar tizimidir.

IQtisodiy madaniyat tushunchasida iQtisodiy bilimlar va fikrlar uslubi bilan faol ishlab chiQarish, iQtisodiy faoliyat o'rtasidagi o'zaro aloQadorlik omillari namoyon bo'ladi. IQtisodiy madaniyat mazmunida madaniyat va iQtisodning o'zaro ta'sir xususiyatlari mavjud bo'lib, tarkibiga iQtisodiy ong, iQtisodiy faoliyat, iQtisodiy munosabatlar kiradi.

IQtisodiy ong avvalo, kishilarning ijtimoiy ishlab chiQarishda o'z o'rnini anglashini bildirib, rasional bilimlarni, emotsional tuyg'ularni o'zida ifodalaydi. IQtisodiy faoliyat tarkibiga moddiy va nomoddiy ishlab chiQarish, mehnat va mehnat mahsulini o'zgartirish ham kiradi. IQtisodiy faoliyat sub'ekti insondir. Mukammal fikr va yuksak ong faoliyatda moddiylashsagina iQtisodiy madaniyat hodisasiga aylanadi. IQtisodiy tafakkur bilan iQtisodiy ong iQtisodiy odobning mezoni bo'lib, iQtisodiy ong faoliyatning fikriy obrazidir.

Ijtimoiy munosabatlar iQtisodiy madaniyatning asosini tashkil Qilib, ijtimoiy-iQtisodiy ongni belgilaydi, ularda o'z ifodasini topadi. Shuningdek, ijtimoiy munosabatlar ishlab chiQarish darajasini emas, balki mulk, taQsimot, iste'mol bilan bog'liQ munosabatlarni aks ettiradi. IQtisodiy munosabatlar nomoddiy sohalarining ham Qismi sifatida faoliyat jarayonida vujudga keladi, rivojlanadi, jamiyat iQtisodiy madaniyatini ifodalaydi. IQtisodiy madaniyatning mazmunini kishilarning turli sohalarida maQsadga muvofiQ ijodiy faoliyati, yangi sifat natijalarini tashkil etadi.

Jamiyat iQtisodiy madaniyatida shaxsning iQtisodiy madaniyati uning o'zini kamol toptirishini anglatib, nafaQat madaniyat Qadriyatlarini yaratishi, boyitishi va iste'mol Qilish darajasini, balki o'z erkinligini yangi bosQichga ko'tarishini ta'minlaydi.

IQtisodiy madaniyat Quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Bilish funksiyasi – iQtisod fanlarining holati, fan asoslarining tajribaga tadbiQ etish usuli va yo'llarini bilib olishga da'vat etadi.

2. DunyoQarash funksiyasi – asosan, ma’naviy-ruhiy mohiyatdagi iQtisodiy dunyoQarash bo‘lib, iQtisodiy g‘oyalar, Qarashlar, tasavvurlar tizimidan iborat.

3. Tarbiyaviy funksiya – iQtisodiy madaniyatni egallash, bilimlar yig‘indisini e’tiQodga aylantirishdagi bosh manba ehtiyojlar va manfaatlardir. Bilimlar aQl-idrok va yurakdan o‘zlashtirilganda e’tiQodga aylanadi.

4. Amaliy funksiya yoki ishlab chiQarish funksiyasi- bunda iQtisodiy madaniyat ma’naviy va amaliy ta’sir ko‘rsatish xususiyatiga ega bo‘ladi.

AxloQiy madaniyat – jamiyat, sotsium, individlar tomonidan axloQiy kamolat me’yorlariga erishish darajasidir. Kundalik turmushda, kishilar faoliyatida amal Qiladigan va o‘zlashtiriladigan axloQiy Qadriyatlar axloQiy kamolat me’yorlari bilan bog‘liQdir. AxloQiy madaniyat tarkibiga axloQiy ong, axloQiy munosabat va axloQiy faoliyat kiradi.

AxloQiy ong tarixan o‘zgaruvchi axloQiy munosabatlarni anglatib, axloQiylikning sub’ektiv jihatidir. VoQelikka va inson faoliyatiga Qadriyat tarafidan munosabatda bo‘lish axloQiy ongning muhim hususiyatidir.

AxloQiy munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning alohida ko‘rinishi bo‘lib, axloQiy faoliyatga bog‘liQ holda kishilar o‘rtasida tarkib topadigan o‘zaro bog‘liQlik va aloQalar yig‘indisidir.

AxloQiy faoliyatda inson yoki jamiyatning axloQiy ongi, axloQiy munosabatlari yaxlit namoyon bo‘lib, axloQiy talablar, fazilatlar insonparvarlik mohiyatini kasb etadi. AxloQiy faoliyat: axloQiy bilimlarni egallash; axloQiy tuyg‘ularni shakllantirish; o‘zini tarbiyalash; mehnatga mehr; axloQiy tarbiyalanganlik va hokozolardan tashkil topadi.

AxloQiy me’yorlar va Qoidalar o‘zida aniQ tarixiy mazmun, muayyan jamiyatning ijtimoiy holatini aks ettiradi. AxloQiy madaniyat inson hulQining aniQ ko‘rinishiga ega bo‘lmasdan mavjud bo‘la olmaydi. AxloQiy madaniyat axloQiy ongdan tashQari kishilarning hulQi orQali reallashadi.

Jamiyatning axloQiy madaniyati mazmunan individ axloQiy madaniyatidan farQ Qiladi. Jamiyat axloQiy madaniyati axloQiy Qadriyatlar tizimini ifodalaydi, shaxs axloQiy madaniyatida esa ana shu tizimning jihatlari individuallikda aks etadi. Bu ikki jihat bir-birini taQozo Qiladi, bir-birini boyitadi.

Estetik madaniyat insonning ma’naviy-hissiy faoliyati bilan bog‘langan munosabat va Qadriyatlar tizimini ifodalaydi. Estetik madaniyat sohasi-bu, insonning tevarak atrofini o‘rab olgan voQelikka nisbatan bo‘ladigan munosabatida o‘zini erkin namoyon etishdir. Bu erkinlikning mohiyati shundaki, inson predmetga, uning jinsi va turiga mos me’yorni topib gavdalandiradi, uni Qayta ishlaydi.

Estetik madaniyat jamiyat madaniyatining ixtisoslashtirilgan Qismi bo‘lib, uning holatini san’at va estetik munosabatlar rivojlanishi bilan bog‘lab tushuntirish mumkin.

Estetik munosabatlar va unga muvofiQ keladigan estetik Qadriyatlar tizimi estetik madaniyatning unsurlari hisoblanadi. Estetik madaniyatning xususiyatlari esa uning negizini tashkil etuvchi faoliyatning o‘ziga hosligi bilan shartlangandir. Faoliyat amal Qilmog‘i uchun: faoliyat sub’ekti, faoliyat ob’ekti, faoliyatning o‘zi bo‘lishi kerak.

Madaniyat tizimida fan- moddiy va ma’naviy madaniyatning tarkibiy Qismi bo‘lib, fan ma’naviy ishlab chiQarishning mahsuli sifatida o‘zida insonning mohiyatli kuchlarini ifoda etib, madaniyat hodisasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Fan madaniyat hodisasi sifatida bilimlarni ishlab chiQarish hususiyatlari nazarda tutiladi. Har Qanday tasavvur va bilimlar singari fan ham ijtimoiy praktika, ijtimoiy ehtiyoj tufayli yuzaga keladi.¹

Madaniyat tizimida din- insonning e’tiQod ramzi, oxirat va hayot tasavvurlarining ma’naviy va moddiy madaniyat sifatida namoyon bo‘lishidir. Shuningdek, din barcha jamiyatlarda axloQni shakllantiruvchi soha bo‘lib keldi va g‘oyaviy-siyosiy yo‘nalishlarga ega bo‘ldi. Ibtidoiy davrlardan boshlab madaniyatning tarkibiy Qismi sifatida shakllanib, jahondagi yirik madaniyatlar: budda, xristianlik, islom sivilizatsiyalarini yaratdi.

Qadriyat tushunchasi madaniyatshunoslikning asosiy tushunchalaridandir.

Ayrim tadQiQotchilar uni davrning ehtiyojini belgilaydi, ya’ni, tarixiy xususiyat kasb etadi deb hisoblasa, boshQa bir tadQiQotchi Rikert aksincha, Qadriyat doimiy, universal xususiyatga ega

¹ М.Абдуллаев. Маданиятшунослик асослари. Фар²она, 1998 й., 40-бет.

deydi. T. Parsons Qadriyatni- me'yoriy andoza deb aytadi. Mazkur turli xil, hatto Qarama-Qarshi fikrlardan Qadriyatning ma'nosi ko'p Qirrali ekanligi anglanadi.

Qadriyat - kishilar hayotida o'ta ahamiyatli hodisadir. Uni madaniyat sohalari ro'yobga chiQargan hodisa sifatida bog'liqlikda anglash mumkin. Shunda xo'jalik, texnik, ijtimoiy, siyosiy, badiiy, ilmiy, axloQiy Qadriyatlar ajraladi. Rasmiy nuQtai nazardan Qadriyatni ijobiy va salbiy, o'ziga xos va doimiy, mustaqil va shartli tarzda farqlash mumkin. Moddiy nuQtai nazardan Qadriyat hissiy (ya'ni oddiy his qilish organi)- bu hayotiy, maishiy, texnik, QoniQish Qadriyati va boshqa; va ma'naviy-ilmiy, axloQiy, estetik, diniy va boshqalarga bo'linadi. Ayrim Qadriyatlar (xo'jalik, texnik, siyosiy) tarixiy xususiyat kasb etib, ya'ni madaniyat, davr o'zgarishi bilan ular ham o'zgarib turishini batafsilroq o'rganish chog'ida aniqlash Qiyin emas; boshqa Qadriyatlar esa doimiy, universal xususiyatga ega (axloQiy, badiiy).

Yuqorida ta'kidlanganidek Qadriyat ijtimoiy faoliyatni tartibga solib, individlar, guruhlar va jamiyatning muhim yutuqlariga erishuvini belgilaydi. Ijtimoiy Qo'lamdagi mazmun darajasi bo'yicha Qadriyat uzviylikka ega. Qadriyatning dastlabki darajasi oddiyolari orasidan ajralgan aniq narsalar, holatlar, harakatlarning afzallari bilan bog'liq. Ikkinchi darajasi esa, ma'lum individga yaqin bo'lgan ijtimoiy guruhlar QiziQishga mos keluvchi obrazlar harakati yoki faoliyatning tanlanishi bilan bog'liq. Uchinchi daraja- bu eng yuksak umuminsoniy maqsadlardagi tanlanish bo'lib, bunda ezgulik, haqiqat, go'zallik, adolat, tartib, boylikka Qarama-Qarshi yovuzlik, yolg'on, hunuklik, betartiblik, Qashshoqlik mujassamlikka namoyon bo'ladi yoki bu taqdir bilan bog'liq o'ta yuksak tanlash hisoblanadi (buddizmida nirvan, so'ffiylikda fano singari).

Qadriyatlarning ierarxiyaga asoslangan murakkab tizimida individdagi singari turli toifadagi umumning ham o'ziga xosligi asosiy va takroriy, markaziy va chetdagi, ustunlik va holatdagi tarzlarga ajratish mumkin. Qadriyatlar ro'yxati har bir jamiyatning milliy va o'ziga xos sivilizatsiyasi bilan bog'liq holda keskin farqlanadi. hamma davrlarda, barcha xalqlarda eng yuksak Qariyatlar ezgulik, hayot, mehnat, sevgi, haqiqat, baxt singari mezonlarda ifodalangan.

Qadriyatlarning muayyan jamiyat yoki sinfga mansub kishilar turmushi va madaniyatning haqiqiy yoki ideal ne'matlari bo'lgan tabiat va jamiyat hodisalarining mohiyatidir. Bu ne'matlarning Qadriyatlar deyilishga sabab kishilar ularni Qadrlaydilar, chunki bu Qadriyatlar ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushini boyitadi.

Qadriyatlar ichida eng asosiysi va umumiysi hayotdir. Hayotdan mahrum bo'lish Qolgan barcha Qadriyatlardan foydalanishni yo'QQa chiQaradi, Qolgan Qadriyatlar aslida, hayot ne'matlarining mohiyatidir, madaniy Qadriyatlardir.

Qadriyatning hayotdagi o'rni va ahamiyati baholash tufayli belgilanadi. Baholash esa insonlarning ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadlari, QiziQishlaridan kelib chiQadi. Ayrim hollarda ehtiyoj va manfaatlar bir-biriga zid kelishi mumkin. Muayyan ijtimoiy guruh, millat, sinflar uchun oliy Qadriyat hisoblangan hodisalar boshqalar uchun Qadriyat bo'lmasligi mumkin. Tabiat va jamiyat hodisalarini Qadriyat turkumiga kiritish va kiritmaslik kishilarning ehtiyojlari, manfaatlari, orzu-istaklari, maqsadlari bilan belgilanadi.

Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui tushunilmog'i lozim.

Qadriyatlar ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Ular mohiyatiga ko'ra turlarga bo'linadi. Avvalo, inson va uning hayoti eng oliy Qadriyat hisoblanadi. Inson ehtiyojlarini Qondirishda tabiiy Qadriyatlar: yer va yer osti boyliklari, boshqa tabiat ne'matlari katta ahamiyat kasb etadi.

Inson mehnati, aqli bilan yaratilgan moddiy boyliklar moddiy Qadriyatlar hisoblanadi. Madaniy-ma'naviy Qadriyatlarga ilmiy-texnikaviy va intellektual imkoniyatlar yaratgan boyliklar mansub. Shuningdek, jamiyat taraqqiyotida, inson hayotida ijtimoiy-siyosiy Qadriyatlar: erkinlik, tenglik, birodarlik kabilar ham o'rin tutadi. Ijtimoiy-siyosiy Qadriyatlar ichida istiqbol tufayli Qo'lga kiritilgan barqarorlik, tinchlik, totuvlik alohida ahamiyatga ega.

Qadriyatlar amal qilish doirasiga ko'ra milliy, mintaqaviy va umuminsoniy turlarga bo'linadi. Milliy Qadriyatlar murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa bo'lib, u millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlarini, an'analarini, jamiki moddiy va ma'naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlarini Qamrab oladi. Mintaqaviy Qadriyatlar iqtisodiyoti, madaniyati,

tarixi, tili, dini, urf-odat va an'analari mushtarak bo'lgan xalqlar manfaatlariga xizmat qiladigan tabiiy va ijtimoiy hodisalar majmuasini tashkil etadi.

Umuminsoniy Qadriyatlar mazmuni jihatdan chuqur va keng bo'lib, umumbashariy ahamiyat kasb etadi. Umuminsoniy Qadriyatlar barcha millatlar, elatlar va xalqlarning maqsad va intilishiga muvofiq keladi.

Milliy Qadriyatlar umuminsoniy Qadriyatlar bilan qancha ko'p uyg'unlashgan bo'lsa, ularning taraqqiyot etishiga shu qadar keng imkoniyat ochiladi.

Umuminsoniy Qadriyatlar turkumiga insoniyat sivilizatsiyasining taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan umumbashariy muammolar kiradi. Bular: Yer yuzida ilm-fanni taraqqiyot ettirish, tinchlikni saqlash, Qirg'in Qurollarini to'xtatish, tabiatni muhofaza qilish va hokazolardir¹.

O'zbekiston o'z mustaqilligini mustahkamlash, jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rinni egallash jarayonida siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarida kishilar tafakkurida tubga o'zgarish, - milliy g'oya - milliy - mafkurani shakllanish jarayoni kechmoqda. Bu jarayon uchinchi ming yillik arafasida amalga oshmoqda. Shu munosabat bilan Prezident I. Karimovning Quyidagi so'zlari o'ta ibratlidir: «Biz kelgusi asrga o'zimiz bilan nimani olib o'tishimiz mumkin? Va nimalardan voz kechishimiz darkor?. Yangi ming yillikda Qanday muammoalrning yechimi bizning diqqat e'tiborimiz markazida turmog'i lozim?»² «Bu fikr madaniy va ma'naviy merosimiz muammolarini hal qilishda asosiy dasturiy amaldir.

Madaniy meros - bu o'tmishdan qolgan Qadriyatlar, g'oyalar, tajriba, bilimlar ularni o'zlashtirish yo'llari, ya'ni kishilarning ijodiy faoliyat usullari va uni tashkil qilish hamda uning natijalardir. O'zlashtirish yoki aniqlash, madaniy meros jarayoni o'ta muhim bo'lib, madaniyatning harakatdagi asosiy qonunlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon insoniyatning o'tmishi, buguni va kelajagini bir butun holda birlashtirib, odatiy tarzda tayyor yutuqlarga aylanadi. Bor narsani izlash, ma'lum narsani ochish, qilingan kashfiyotni kashf etish kerak bo'lmaganidek, o'tmish ajdodlar qilgan ishni takrorlash shart emas. Erishilgan yutuqlardan kelib chiqib jamiyat o'z maqsadlarini amalga oshirishning qisqa yo'llarini tanlaydi. Bundan tashqari ma'naviy meros kishilarning saviyasini behad kengaytiradi, ular hayotini aqliy va hissiy jihatdan boyitadi, bilimning tuganmas manbai bo'lib xizmat qiladi.

O'tmish bilan batamom uzilish mumkin emas. Insoniyat tarixida mutlaqo yangi madaniyat yaratishga urinishlar bo'lgan, biroq bunday urinishlar hunuk natijalarga olib kelgan. Bunga 1920 yillarda Sovet Rossiyasida «Proletar madaniyatini» yaratishga urinishni yoki «Madaniy inqilob»ni misol tariqasida keltirish mumkin. Bu «Inqiloblar» jarayonida yangi madaniyat yaralmadi, aksincha bori ham qilindi: Qo'lyozmalar, kitoblar, suratlar yo'qildi; me'moriy yodgorliklar buzildi, eng achinarlisi madaniy Qadriyat egalari maxv qilindi. Oqibatda o'tmish bilan bog'liq uzviylik buzilib jamiyat ma'nan orqaga ketdi.

Madaniyatning me'yoriy rivojlanishi uni asrab kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirishni bildiradi. Biroq, bu jarayon oddiy va bir hilda kechmaydi. Ma'naviy Qadriyatlarining mundarijasi, ularni qayta ko'rib chiqish va qayta baholash, ularning o'zaro bog'liqlik usullari, munosabat tiplari, bilimlarni asrash va uzatish, hayot me'yorlari, voqelikni estetik idrok qilish xususiyati o'zgarmasdan qolmaydi, ular uzluksiz harakatda bo'ladi. Meros serqirra va ko'p qiyofalidir. Uning aniqlash namoyon bo'lishi tiplarning ko'pligi, tendensiyalar xilma-xilligi bilan farqlanadi. Har bir yangi avlodning vorislik mexanizmi o'tmishdoshlarning tajribasidan madaniyatning turli sohalarida farqlanadi: san'atdagi o'lcham fandagidan boshqacha; tabiiy fanlar gumanitar fanlardan farqli. Vorislik (meros) har qanday sohada insonning haqiqiy o'zlashtirishida namoyon bo'ladi, va ayni paytda mahalliy yoki dunyo miqyosidagi jarayonlar shaklida ham ifodalanishi mumkin. Vorislikning mahalliy (cheklangan) shakli madaniyatning kasbiy (professional), milliy, etnik va boshqa ko'rinishlariga ega. Bu faoliyat madaniy bosqichlarda bir me'yorda, tekis yo'nalish shakllarida bo'lmay, uning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga sakrab o'tishi notekis bo'xronlar xususiyatiga ega. Insoniyatning ma'naviy yutuqlarini meros qilib qoldirishda vorislik keng miqyosli (umumiy) shaklda jarayonlar mufassal yo'nalishda amalga oshadi. Masalan, Qadimgi Misr zakovati «Injil», «1001 kecha ertaklari» kabi madaniyat yodgorliklariga ijobiy ta'sir qildi.

¹ Ж.Т'ланов. Ёадриятлар фалсафаси. Т., 1998 й. 10-20 бетлар.

² И.А.Каримов. Ёзбекистон XXI аср б'са'асида. 1999 й. 3-6.

Yana, yer yuzidagi barcha xalqlarning zamonaviy bilim sohaslariga zamin bo'lgan Bobil astronomiyasi, hind matematikasi, antik falsafa, rim huquqi haqida ham shunday gapirish mumkin.

Agar madaniyat va ma'naviyat sohalari tarkibida til, udumlar, an'analar va boshqalar bo'lsa, ma'lum xalqning madaniyat tarixi doirasida meros Qoldirish jarayoni yaxshiroq kechadi. Boshqa sohalarda esa texnika, fan, san'at kabi sohalardagi bir xalqqa tegishli meros boshqa xalqlarga ham tegishli mulkka aylanadi.

Keyingi avlodlarga meros Qoldirish uchun madaniyatda belgilangan usul va mexanizm mavjud. Ulardan ba'zilar Qadimdan amal qiladi, bu – namoyish qilish, og'zaki uzatish, folklor, san'at; boshqa usullar keyinroq paydo bo'ldi, bu – kino tasviri, ohonrabo yozuvi, kompyuter xotirasi. Barcha jamiyatlarda ham haqiqatdan ma'naviy merosning foydalanish imkoniyatlarini o'zgartirish sharoiti bir xilda emas. Ular ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, g'oyaviy omillar bilan belgilanadi. Bu omillar merosning hajmi, tanlash xususiyati, intensivligiga bog'liq. Bizga ma'lumki sovet jamiyatida kommunistik g'oya hukmronligi davrida xalqlar, xususan O'zbekistonda ham o'zining haqiqiy tarixiy, milliy va ma'naviy merosidan mahrum etilgan edi. Umuman, madaniy merosdan mutlaqo mahrum bo'lgan yoki foydalanmagan jamiyat yoki xalqlar tarixda bo'lishi mumkin emas.

Madaniy merosning mexanizmi Quyidagi xususiyatlarga ega

1. Ma'naviy merosning uzviyligi. Ajdodlar yaratgan ja'miki boylikka yangi avlod merosxo'r bo'ladi, tarixiy ahamiyatini yo'qotgan madaniyat o'rnida yana madaniyatlar vujudga keladi, avvalgilardan ko'p narsalar o'zlashtiriladi. O'tmish tajribasi bugun va kelajak uchun har doim asqotiqishi mumkin, shuningdek, bugun unitilgan narsalar butunlay yo'qolib ketmaydi. Masalan, V. Shekspir yuz yilcha unitilib, keyingi avlodlar uchun jahon adabiyoti va dramaturgiyasining klassigi sifatida tanildi.

2. O'tmishdan kelajakka o'tish jarayonida merosning o'zgarishi. Madaniy merosning o'tish davrida xususiyati o'zgarishi mumkin. Ya'ni, milliy g'oya mavjud nuqtai nazar va bilimlar talabiga mos keluvchi yangi talqindagi mazmun kasb etadi. Mana shunday ko'rinishda u kelajakka meros bo'lib o'tadi. Bizning kunimizgacha Suqrot va Demokrat asarlarining asl nusxasi saqlanib qolmagan, biroq har bir avlod ularning g'oyasini o'zi uchun yangitdan kashf qiladi va ularning falsafasini talqin qiluvchi minglab kitoblar yaratiladi.

3. O'tmishdan qolgan barcha narsalar butunlay o'zlashtirilmaydi, balki yangi davr va talabiga, ruhiga javob beruvchi, mohiyatan zarur narsalargina olinadi. Hozirda eskirgan va kerakmas deb hisoblangan narsalar, kelajakda balki yangi mohiyat va muhim ahamiyat kasb etar. Allaqaysi davrda qolib ketgan kiyinish usuli kutilmaganda odatga aylanishi mumkin. Yangi hayot Qadim donishmandchiligidan g'oya oladi.

Har bir etnos, xalq o'zining mustaqil, betakror, behad noyob madaniyatiga ega. Xalqlar hayotining mintaqaviy, tarixiy o'ziga xosligi har bir xalq madaniyatining rivojlanishi uchun sharoit yaratib beradi, u yoki bu etnos hayotining saqlanib qolishi va barhayotligiga imkon tug'diradi. Shu tarzda millatlar olami- umumiy koinot shakllanadi, unda inson va uni tarixan o'rab turuvchi tabiat uyg'unlashib etnoslarning ijtimoiy ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadi, milliy xususiyat shakllanadi va uning amaliy faoliyat yo'nalishini aniqlaydi.

Mana shu boshlang'ich madaniyat olamida inson turadi, bu yerda uning muhim o'rni maqsadi shakllanadi, uning didi, hayotiy orzusi paydo bo'ladi. Inson, madaniyatlarga merosxo'r sifatida milliy mulkini o'zlashtiradi. Namunaviy hulk Qadriyatlarini asrashda va kelajakka Qoldirishda, jamiyatda odamlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, aniq barqarorlik bo'lishi zarur. Madaniyatning mavjudligi va rivojlanish an'anasida, madaniyatlarni asrash usulida ham bu barqarorlik bor.

An'ana madaniyatda yangi odatlar bilan uyg'unlashib ketadi. Insonga nafaqat bilim, shuningdek, hayot faoliyatida an'anaviy ibratlar va yaxshi o'zlashtirilgan mahorat va ko'nikma ham zarur. Biroq, ijodkorlikning boshlanishi fikrlash jihatdan dastlabki eslab tasvirlashdan ko'ra sarmahsullikni vujudga keltiradi. Madaniyatning rivojlanish jarayoni ijodkorlikning sub'ekti sanalgan shaxsning shakllanishi jarayoni bilan birga kechadigan hodisadir, ya'ni, insonni nafaqat jamiyatda mavjud bo'lgan madaniy me'yorlar, an'ana va ibratlar, balki madaniy jarayonlarning rivojlanib borishi ham qo'llaydi.

YuQorida ta'kidlanganidek milliy ma'naviy meros muammosi mamlakatimizda jamiyat uchun o'ta muhimlik kasb etmoQda. Chorizm mustamlakachiligi davrida Turkiston xalqlarining madaniyatiga ular «QoloQ» madaniyat deb past nazar bilan Qarashgan. Keyin sovetlar davrida O'zbekiston xalqining madaniy merosiga bir yoQlama munosabat hukmronlik Qildi. Tarixiy haQiQat, adabiyot va san'at asarlari «sinfiy kurash», «xalQchilik» kabi g'arib nazariya orQali baho berildi. FaQat kommunistik g'oyaga mos keluvchi narsalarga yutuQ sifatida Qaraldi, Qolgan barchasiga hato deb yoki mutlaQo kishilar xotirasidan o'chirib tashlashga urinildi. I.A. Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida» kitobida ta'kidlanganidek, «UzoQ davom etgan QattiQ mafkuraning tazyiqiga Qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy Qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'alarini saQlab Qolishga muvaffaQ bo'ldi. «Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoQ, ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oya ulkan bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib Qoldi¹.

Jamiyatimiz jadal tub o'zgarishlar holatini boshdan kechirmoQda. Bunday davrda har bir kishiga mustahkam tayanch zarur. FaQat milliy g'oya shunday tayanch bo'lishi mumkin. FaQat milliy g'oya islohatlar yo'lidano muvaffaQiyatli borish uchun millatni birlashtirishi va jipslashtirishi mumkin. O'zbekistonning kelajagi to'g'risida I.A. Karimov o'zining mulohazalarida birinchi darajali Qilib milliy g'oyani shakllantirishni Qo'yadi. Uning asosida xalqning haQiQiy tarixini Qaytarish, milliy an'alarini tiklash, madaniy va ma'naviy merosni o'rganish yotadi. Xuddi shu g'oya – XXI asrda O'zbekistonning ozod fuQorolarining ma'naviyati shakllanishida katta ahamiyat kasb etib, ularning o'z Vatanini gullab- yashnashi uchun fidoiy bo'lishi, o'z xalqining buyuk o'tmishidan faxrlanuvchi millat farzandlari bo'lib shakllanishi uchun xizmat Qiladi.

O'zbek xalqining madaniy merosi ming yillar davomida yaratilgan. Unda turli davrlarda O'zbekiston xududida e'tiqod Qilingan zardo'shtiylik, buddizm, islom va boshqa dinlar yaratgan ma'naviy-axloQiy Qadriyatlar mujassamlashgan; Unda-butun dunyoga mashhur imom al-Buxoriy, at-Termiziy, NaQshbandiy, Yassaviy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, A. Navoiy kabi ko'plab buyuk mutafakkirlarning bilimi va salohiyati gavdalangan, bu merosda Amir Temur va Boburlarning davlatchilik va siyosiy Qurilish tajribalari; buyuk me'morchilik yodgorliklari, tasviriy san'at, muzika, amaliy san'at asarlari: xalq urf-odatlari va an'analari, milliy sport turlari uyg'unlashgan.

Mustaqillik yillarida xalqqa uning ma'naviy va madaniy boyliklarini Qaytarish borasida ko'plab ishlar QilinmoQda. Dastlabki, eng muhim Qadam «O'zbek tili haQidagi» Qonunning Qabul Qilinishi bo'ldi. Bu bilan o'zbek tilidagi xalqning bebaho madaniy va milliy boyligi maQomi tiklandi. Buxoro va Xiva shaharlaridagi me'morchilik yodgorliklarini ta'mirlash borasida faol ishlar olib borilib, yodgorliklar shu davrda jahon ahamiyatidagi maQomga ega bo'ldi. Bu shaharlarning 2500 yilligi, Toshkentning 2000 yilligi kabi sanalar katta tantana bilan nishonlandi. Ijtimoiy-iQtisodiy muammolarga Qaramasdan milliy madaniyatni asrovchi yangi muzeylar barpo etildi: Temuriylar davri tarixi muzeyi. Olimpiya shon-sharafi muzeyi va O'zbekiston tarixi muzeyi yangi mazmunda boyitildi. MaQomchilar muzeyi va boshQalar dunyoga mashhur bo'ldi.

Xalqqa o'z tarixi va xotirasi QaytarilmoQda. Milliy va jahon madaniyati rivojiga ulkan hissa Qo'shgan vatandoshlarimizning xizmatlari haQida yubiley tantanalari o'tkazildi. O'tgan yillarda Navoiy, Bobur, Qodiriy, Behzod, A. Farg'oniy yubileylari nishonlandi. Alohida tantanalar bilan xalqaro miQiyosda Ulug'bekning 600- yilligi, Amir Temurning 660- yilligi, Imom Buxoriyning 1225 yilligi o'tkazildi. Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi va «Alpomish» eposining 1000 yilligi keng nishonlandi. AyniQsa katog'on Qurbonlarining begunoh xotirasi tiklanishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ular orasida ko'plab madaniyat arboblarning nomlari bor: jadidchilik harakatining yo'l boshchilari, shoir va yozuvchilar-MunavvarQori Abdurashidxonov, A. Fitrat, Cho'lpon, Ramziy, Botu va boshQalar.

Milliy an'alarini tiklash bo'yicha ham ko'plab ishlar Qilindi. Navro'z, hayit kabi Qadimgi xalq va diniy bayramlar rasman hayotga Qaytdi. Hayr muruvvat udumlarini davom ettirish va yosh avlodni barkamol o'stirish maQsadida O'zbekiston Respublikasi Sog'lom avlod uchun jamg'armasini tashkil Qilib, dastlabki ordenini ham shunday atadi. Nogiron bolalar uchun «Mehribonlik» kabi sahovat festivali muntazam o'tkazib kelinmoQda. O'zbekistonda xalqaro kino,

¹ I.A. Karimov, «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida», T.1997 й., 137-бет.

teatr va «SharQ taronalari» kabi musiQali festivallar o‘tkazish yaxshi an’anaga aylanib Qoldi. XalQ bahshichilik san’atiga e’tibor kuchayib Respublika konkursleri o‘tkazildi. Shuningdek milliy kurashimiz xalQaro maQomga ega bo‘lib, birinchi jahon Chempionati o‘tkazildi.

YuQorida ta’kidlanganidek, madaniy Qadriyatlardagi vorislik jarayoni nafaQat milliy madaniyatlar rivojidagi vorislik bo‘lmay, balki boshQa xalQlar madaniyatidagi yutuQlarni umumlashtirishdan ham iboratdir. Markaziy Osiyo mintaQasida yashovchi xalQlarning madaniyati Qadim zamonlarda ham g‘arb va SharQ mamlakatlari bilan yaQin madaniy aloQalar asosida rivojlangan. Madaniy hamkorlikning keng ko‘lami, etnik va diniy mazmundagi cheklanmaganlik Vatanimiz madaniyatining asosiy xususiyatidir. Hozirgi davrda ham milliy madaniyatni tiklashga asosiy e’tiborni Qaratgan holda O‘zbekiston xalQi jahon madaniyati va sivilizatsiyasining zamonaviy yutuQlarini egallashga harakat Qilib, jahon madaniyati rivojiga hissa Qo‘shmoQda. Bu borada jadal amaliy ishlar QilinmoQda: xalQaro konkurs va festivallar o‘tkazildi, chet mamlakatlar madaniyat kunlari va san’at asarlari ko‘rgazmasi namoyish Qilindi, hind madaniyat markazi, fransuz madaniyat uyi singari doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi madaniyat markazlari ochildi; o‘z o‘rnida O‘zbekiston madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlarini nazariy asoslash va uning jahon madaniyatidagi o‘rnini munosib baholash ishtiyoQi ham kuchli. Buning dalili sifatida «Mirzo Ulug‘bek va uning jahon sivilizatsiyasiga Qo‘shgan hissasi» (1994). «O‘zbekistonning jahonda tutgan o‘rni va roli. Buxoro va jahon madaniyati» (1995), «O‘rta Osiyo va jahon sivilizatsiyasi» (1998) kabi mavzularda o‘tkazilgan xalQaro konferensiya va seminarlarni ko‘rsatish mumkin.

O‘zbekiston o‘zining boy madaniy an‘analari va jahon madaniyati jarayonlaridagi faol ishtiroki tufayli uning xalQaro miQiyosidagi mavQei tobora oshmoQda. Buning yaQQol misoli 1997 yilda YuNESKO ijroiya kengashi a’ziligiga O‘zbekistonning saylanishi va 1998 y. 6 noyabrda Toshkentda YuNESKO ijroya kengashining 155 sessiyasini o‘tkazilishidir. Unda O‘zbekistonning taklifi bilan «Jahon madaniyat va YuNESKO ning a’zo davlatlaridagi faoliyati»degan hujjat Qabul Qilindi. Jahon madaniyatining ajlalmas Qismi hisoblangan milliy madaniy merosni asrash va o‘rganish rejasi bo‘yicha O‘zbekiston YuNESKO bilan o‘zaro munosabatlarini yanada kengaytirishi va respublikada zamonaviy ta’lim tizimini takomillashtirishi mo‘ljallangan.

Tayanch tushunchalar

Madaniy meros, meros mexanizmi, vorislilik, madaniy taraQQiyotda milliylik va umuminsoniylik.

Mavzu bo‘yicha takrorlash uchun savollar

1. Madaniy meros nima?
2. Madaniyat taraQQiyotining asosiy Qonunini izohlang;
3. Madaniyat, an’ana udumlarni to‘la inkor etish nimalarga olib keladi?
4. Turli madaniyatlar muloQotining zarurligi va ahamiyati?
5. Madaniy vorislik mexanizmi Qanday amal Qildi?
6. Milliy bayram-an‘analarning ahamiyati?
7. O‘zbek xalQi yaratgan Qaysi Qadriyatlar umuminsoniy Qiymatga ega?
8. Madaniy va ma’rifiy merosga nisbatan O‘zbekistonda Qanday siyosat amalga oshirilmoQda?
9. O‘zbekistonning YuNESKO faoliyatidagi o‘rni.
10. Yurtimizda ma’naviy merosni tiklashga Qaratilgan Qanday tadbirlar amalga oshirildi?

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z taraQQiyot va yangilash yo‘li. T.1992 y.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida. T. 1997 y.
3. Karimov I.A. IstiQlol va ma’naviyat. T. 1994 y
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘Q. T. 1998 y.
5. Vremya i preemstvennost v razvitii kulturi. Saratov. 1991 g.
6. Globalnie problemi i obshchelovecheskie sennosti. M.1999 g.
7. Ikonnikova S. Dialogi o kulture. L., 1989 g.
8. Kultura Uzbekistana: Tradisii i sovremennost. T. 1986 g.
9. Xayrullaev M. Madaniy meros va falsafiy fikr tarixi. T. 1985 y.

3-MAVZU

ARXAIK (IBTIDOIY) MADANIYAT. AN'AVIY MADANIYAT

Ma'ruza rejasi:

1. Arxaiik madaniyatning dastlabki namunalari.
2. So'nggi poleolit va neolit davri madaniyati.
3. Jez davrida yangi turdagi madaniyatning shakllanishi.
- 4 Qadimgi Sharqdagi yirik madaniyatlarning (Misr, Mesopotamiya, Xind, Xitoy) o'ziga xos qiyofasi
- 5 Antik madaniyat (Qadimgi Yunon va Rim)

Arxaiik yoki ibtidoiy madaniyat- mavjud insoniyat madaniyatning ibtidosi va eng uzoQ davom etgan davridir. Bu davr insoniyat tarixi umumiy ko'lamining 99 foizini tashkil qilgan holda zamonaviy madaniyatga beqiyos ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. O'sha vaqtida vujudga kelgan arxaiik madaniyatning ayrim ko'rinishlari bo'lmish fikrlash tarzi, fe'l-atvor hozirga qadar yo'qolgan emas. Insoniyat hayotining boshlang'ich davri keyingi barcha o'zgarishlarga zamin tug'dirgani sababli bu davrni o'rganish insoniyat evolyusiyasi asoslarini, uning madaniyati negizini tushunish va sharhlashga yordam beradi.

«Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlikdir» – degan edi A. Qodiriy. «Dunyoda turmoq uchun, – deb yozadi M. Behbudiy, – dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur».

Ibtidoiy bosqichdagi madaniyat rivojining qiyofasini qayta tiklash o'ta qiyin vazifa. «Shahsiy guvohnoma, tarjimai hol, qiyofadan mahrum, sukunatdagi o'tmish, hodisasiz «uzoq», (F. Brodel) «mudroq», (E. Lerua-Ladyuri) tarix uchun ideal namuna kasb etib, tabiiy-ilmiy mantiqni yaratish, uslublar miqdori yoki ijtimoiy-iqtisodiy tushunchalar va dastlabki (ibtidoiy jamoa) ijtimoiy tuzum ta'limotini izohlash uchun mo'lajallangandir»¹.

Olimlar to'plagan ma'lumotlar 2 xil bo'lib:

I. Antropologik va arxeologik topilmalar-ibtidoiy odamning jismoniy va madaniy rivojlanishini, ovchilik jamoasining turmush tarzini yorug' olamga chiqardi. Bu ma'lumotlar o'ziga xos belgilari bilan emperik (tajriba) tahlilni yuzaga chiqardi va ibtidoiy bosqichni umum qabul qilgan tasnifiga asos soldi:

1. Paleolit-Qadimgi tosh asri,
2. Neolit – yangi tosh asri.

Paleolit bosqichining o'zi ham ilk (Quy) va so'nggi (yuqori) davrlarga bo'linadi. Shuningdek, poleolit va neolit bosqichining o'rtasi mezolit – o'rta tosh asri davriga bo'linadi.

II. Etnografik ma'lumotlar- zamonaviy xalqlar va hozirgi vaqtda ham ovchilik va termachilik bilan kun ko'ruvchilarning hayoti haqida. Bu ma'lumotlar saqlanib qolgan arxaiik madaniyat ko'rinishini etnik, ijtimoiy va ruhiy o'xshashliklar bo'yicha qayta tiklashga yordam beradi.

Tosh asrining davri bundan 2,6 mln. yildan (Kenyaning Rudolf Qo'li sohilidan topilgan Qadimgi tosh qurollari) to'ramizgacha 2 ming yilgacha (mehnat qurollarini jezdani tayyorlay boshlagan davrgacha) bo'lgan vaqtning o'z ichiga oladi. O'z navbatida paleolit bosqichidagi eng uzoq davr ilk poleolit bo'lib, bundan 40-35 ming yil oldin tugaydi. Ilk poleolitda antropogenez jarayonining sodir bo'lishi, qazib topilgan gominid qoldiqlarining alohida turlari yashagan davrlarda (zinjantrop, avstralopitek, pitekantrop, sinantrop, neandertal va boshqalar,) madaniyatning alohida ilk namunalari vujudga keldi: qo'pol tosh qurollari tayyorlash (kesgich, tosh nayza, qirg'ich), olovdan foydalanish, oddiy turar joylarning qurilishi, muomala vositalarining rivojlanishi, atrof-muhit haqida dastlabki murakkab tasavvurlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Desentrizm farazi insoniyat paydo bo'lishini ikki o'choq-Afrika va Osiyo bilan bog'laydi, zero hozirgi vaqtda eng Qadimgi odam Qoldig'i ham Afrika mintaqasidan topilgan. Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston xududida qazib topilgan gominidlar ham ilk paleolit davriga oiddir. Arxeolog U. Ismoilov Selung'ir g'oridan topgan «fergantrop» Qoldig'ining yoshi 700 ming yilga teng.

¹ Культурология М. 1998 г., 141 стр.

Ilk paleolitning oxirgi davri ko‘pincha alohida davrga ajralib «o‘rta» yoki «muste» deb nomlanadi (200 minginchi yildan 40 minginchi yilgacha). Bu Qonuniy hodisa bo‘lib, muste davrida madaniy ijodkorlik jarayonining o‘sishi seziladi, ya‘ni bu davrda neandertallar paydo bo‘ldi. Neandertallar keng xududlarga tarqalib murakkab va turli xil Qurollar tayyorlagan, eng muhimi ulardan ma‘lum marosim va madaniyatni rivojlantirish boshlandi. Neandertallar yashagan g‘orlaridan ayiQning bosh suyagi topilgan, maxsus o‘rnatilgan tosh supa olovdan Qoraygan, unda ma‘lum marosim o‘tkazilgan. Neandertallar Qabri ko‘pincha SharQ-g‘arb yo‘nalishi bo‘yicha joylashib, murda «yonbosh uxlayotgan holatda, tizzalari engagiga Qayirilgan, yoniga tosh Qurollar Qo‘yilgan». Bu marosim udumi o‘limdan keyingi hayot mavjudligi haqidagi tasavvurning madaniyatdagi eng Qadimgi va barQaror paydo bo‘lganligidan dalolatdir. Neandertal Qabri O‘zbekistonning Teshiktosh g‘oridan (Surxandaryo viloyatidan) ham topilgan, shuningdek, o‘sha davrga oid ko‘plab manzilgohlar ochib o‘rganilgan (OmonQo‘ton, ZirabuloQ, Obirahmat, Ko‘lbuloQ, Uchtut va bosh.).

Ilk paleolitda madaniy muhitning mavjudligi alohida joylar bilangina chegaralansa so‘nggi paleolitda esa madaniyat tizim sifatida shakllanadi. So‘nggi paleolitning boshlarida gominid evolyusiyasi yakunlanib zamonaviy «aQlli odam» turi paydo bo‘ladi. So‘nggi paleolitda turli-tuman tosh va boshQa Qurollar notekis tarzda ko‘payishi natijasida tarkibiy Qurollar-tasma, uchlik, shuningdek, to‘Qimachilik paydo bo‘ladi. Nihoyat, dastlabki tartibli ijtimoiy tashkilot-urug‘ tashkil topadi. Bu inQilobning mahsuli insonlarning asosiy antropologik, ruhiy fiziologik, ruhiy ijtimoiy va ma‘naviy birligi bo‘lib, insonlar uyushmasining iQtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, til, maishiy rivojlanishidagi tafovutlarga Qaramasdan tarixda saQlanib Qoldi.

Ma‘naviy madaniyat dastlab juda sodda bo‘lib, o‘sha davr kishilarining mehnat faoliyati bilan uyg‘unlashib ketgan edi. Ibtidoiy odamlarning bilim darajasi ancha cheklangan bo‘lsada, biroQ yashash uchun kurash jarayonida atrof-muhitni kuzatib tajriba to‘plaganlar. Natijada yangi tushuncha va tasavvurlar paydo bo‘lib, tafakkur va nutQ rivojlana bordi. Bu esa jamiyat ma‘naviy rivojlanishini tezlashtirdi. O‘zlashtiruvchi ho‘jalikdan ishlab chiQaruvchi ho‘jalikka o‘tilishi bilim va tajribaning to‘planishi natijasida yuzaga keldi.

Dastlab, ibtidoiy odamlar oziQ-ovQat Qidirib o‘zi yashayotgan muhitni yaxshiroQ o‘rgana boshladilar. Bu esa ularning geografik bilimini oshirgan. Tabiatdagi mavjud iste‘mol Qilishga yaroQli o‘simlik va mevalarni Qidirib topishi va kuzatishi natijasida botanika bilimlari to‘plangan. Yovvoyi hayvonlar ovlash jarayonida hayvonlarning fe‘li, turi, yashash joylarini kuzatish tufayli ibtidoiy odamlarda zoologiya bilimi shakllana boshladi. Bu jarayonlarni o‘rganish ibtidoiy odamlar uchun zaruriy, hayot uchun kurash, tirikchilik manbai edi.

Kasallikni davolash uchun o‘sha zamonning o‘ziga xos sodda tabobati bo‘lib, davolashda o‘simliklar, mevalar, hayvonlar, mineral jismlardan foydalanganlar. Shuningdek, silash, uQalash usuli bilan ba‘zi kasalliklarni davolaganlar va folbinlik, sehg‘arlik va jodugarlik usullaridan ham foydalanganlar.

Ibtidoiy odamlar tabiatni, iQlimni sharoitdan kelib chiQib kuzatishi asosida ob-havoni oldindan aytib berish Qobiliyati paydo bo‘ladi. Tarbiya ham mehnat va turmush bilan chambarchas bog‘liQ bo‘lib, odat va udumlar asosiy ahamiyat kasb etgan.

Ma‘naviy madaniyatning ko‘rinishlaridan biri ibtidoiy san‘at ham odamning mehnat faoliyati bilan uyg‘un holda vujudga kelgan. Urug‘chilik jamoasining paydo bo‘lishi davrida ibtidoiy odamlar san‘atning nimaligini to‘la anglamagan holda tirikchilik jarayonida san‘at shakllana boshladi. Ibtidoiy sanoat xilma-xil bo‘lib, bir necha turlarga bo‘linadi:

1) Suyak, tosh parchasi, shox, kulolchilik buyumlariga chizilgan belgilar, odam, hayvon va har xil narsalarning tasvirlari.

2) g‘or devorlariga har xil ranglar bilan ishlangan hayvon, odam va buyumlar tasviri. Ularda ov, mehnat, jang va boshQa manzaralar tasvirlangan. Bunday tasvirlar Turon, Sahroi Kabir, Markaziy Osiyo, g‘arbiy Yevropada ko‘plab uchraydi.

3) Qoya toshlarga o‘yib, chizib, ishQalash usuli bilan ishlangan tasvirlarda hayvon, buyum, Qurollar va ibtidoiy kishilarning kundalik mehnati bilan bog‘liQ manzaralar o‘rin olgan. Qoya tosh tasvirlari Osiyo, Afrika va Yevropada ko‘p uchraydi.

4) Arxaik san‘at turlaridan yana biri xaykaltoroshlik ham urug‘chilik jamoasining rivojlangan davrida paydo bo‘lib, asosan ayollar, Qisman erkaklar, shuningdek, hayvonlar xaykallari ishlangan.

Bunday xaykalchalar, suyak, tosh va boshQa narsalardan tayyorlangan. Haykal tasvirlarda ibtidoiy mahnat va e'tiQod ramzlari nomoyon bo'ladi.

5) Ishlab chiQaruvchi xo'jalik (neolit) faoliyati bilan bog'liQ sopol buyumlarga chizilgan rasmlarda oddiy chiziqlar, hayvon va o'simlik tasvirlari uchraydi.

6) Ibtidoiy san'at turlaridan biri – niQoblar Qadimgi odamlarning ovchilik faoliyati bilan bog'liQ bo'lib, niQob tutib hayvon Qiyofasiga kirgan, hayvonlarni Qo'rQitib o'zlarini himoya Qilgan. NiQoblardan marosim va udumlarda foydalangan.

7) MusiQa, Qo'shiQ, o'yin ibtidoiy san'at turlari hisoblanib, ibtidoiy odamlar urib, chertib, puflab chaladigan asboblarni kashf Qilishgan.

8) XalQ og'zaki ijodi-asotir, rivoyat va afsonalar ham ibtidoiy davr mahsuloti bo'lib, ibtidoiy odamning turmushi, o'y-fikri va kayfiyatini ifodalagan, diniy tasavvurlarning shakllanishiga asos bo'lgan.

Umuman, ibtidoiy san'at kishilarning dastlabki umumiy ijodi bo'lib, u odamlarning mehnat faoliyati, ichki ruhiyati va diniy tasavvurlari bilan uyg'un bo'lgan. Aytish mumkinki, diniy tasavvur va e'tiQod shakllari madaniyatning moddiy va ma'anviy turlarining rivojiga samarali ta'sir ko'rsatgan.

Diniy tasavvur va e'tiQod jamoa tuzumining keyingi davrlarida shakllanib, ayrim unsurlari o'rta paleolit davrlarida vujudga kelgan. Ibtidoiy odamlar atrofidagi hodisalarning sabablarini tushuna olmagan. Tabiatdagi turli hodisalarning sir-asrorlari ularga ma'lum bo'lmagan. Bu hodisalar negizida sirli, g'ayritabiiy kuchlar yashiringan deb tushunib, shu g'ayritabiiy kuchlarga e'tiQod Qilingan.

Ibtidoiy odamlar turli mintaQalarga tarQalib, turli xil tirikchilik bilan shug'ullana boshlaydi. Tabiatning va tirikchilikning xilma-xilligi turli e'tiQodlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Tabiat va jamiyat hodisalariga bog'liQ g'ayritabiiy kuchlarga ishonish ibtidoiy e'tiQod deyiladi. Uning totemizm, animizm, sehrgarlik, feteshizm kabi turlari ibtidoiy jamoa tuzumi davrida keng tarQalgan.

Totemizmi-jamoaning hayvon yoki o'simlik turi bilan g'ayritabiiy Qarindoshlik aloQasiga ishonishi bo'lib, ovchilik va termachilik rivojlangan davrda paydo bo'lgan. Bu e'tiQodda totem-hayvon yoki o'simlik nihoyatda hurmat Qilingan. Totemizmi-ning ilk bosQichida hayvon muQaddas sanalib, uni o'ldirish yoki go'shtini iste'mol Qilish ta'QiQlangan. FaQat urug'ning urf-odat marosimlaridagina bu hayvon go'shti iste'mol Qilingan.

Animizm –«ruх», «jon» ma'nosini bildirib, bu dunyoda ruhlar, jonlar shaklidagi g'ayritabiiy kuchlarnig borligiga ishonish. Tabiatdagi narsalar, odam va boshQalarning ruhlari- shular jumlasidandir. Urug'chilik jamoasining rivojlanishi bilan urug' boshliQlar, harbiy yo'l-boshchilar ruhiga-ajdodlarga sig'inish paydo bo'lgan. Matriarxat davrida ruhlar ayollar nomi bilan atalgan. Xo'jalik shakllari paydo bo'lgach tabiatdagi narsalar (Quyosh, suv, yer) ning ruhiga topinish kuchayadi. Sehrgarlik- odamning g'ayritabiiy kuchlarga ta'sir ko'rsatish Qobiliyatiga asoslangan amallardir. Bu ibtidoiy san'atda ham o'z ifodasini topgan. Qoyatosh tasvirlaridagi yaralangan hayvon ifodasida ovchilar bo'lg'usi ovning baroridan kelishini ko'zlab, hayvonlarni sehrlaganligini kuzatish mumkin.

Gominidning uch million yillik evolyusiyasi nihoyasidagi kuchli evrilish natijasida anglash, nutQ, din, san'at vujudga keladi. Arxaik madaniyatning xususiyati haQida uni haqli ravishda «gomo sapiens» yaratganligiga etnografik va arxeologik ma'lumotlarga asoslanib tasavvur Qilish imkoniyatlariga egamiz. Birinchi navbatda biz, ibtidoiy odamning o'ziga xos fikrlash xususiyati haQida xukm chiQarishimiz mumkin.

Ibtidoiy odamning fikrlashi aniqlik, ta'sirchanlik, butunlikda farQlanadi. Ibtidoiy odam asta-sekin turli tashQi hodisalarni seza boshlaydi. U issiq va sovuQni, to'q va ochlikni, yaxshi va yomonlikni his Qiladi, yorug'lik va Qorong'ulikni ajratadi. Hodisalarning ro'y berishini kuzata boshlaydi. O. Freydenbergning fikricha, unda kuzatish ta'suroti ustun bo'lgan. Ibtidoiy odamning ta'sirchan, aniQ tasavvuri hali hodisalarni umumlashtirish Qobiliyatidan yiroQ edi. U tevarakatrofdagi voQea hodisalarning mohiyatini tahlil Qilmasdan faQat yuzaki Qayd Qiladi, narsa va jarayonlarga, ularning xususiyatiga bir xil yondoshgan. Ibtidoiy tafakkur uchun sababiy bog'lanishlar o'ta shartli bo'lib, Qandaydir hodisaning sababi tez-tez Qaytarilib turilishi natijasida vaQt o'tishi bilan idrok Qilingan.

A.N. Ramonovning ta'kidlashicha, «yozuvsiz madaniyatning o'ziga xos xususiyati-nutQning nokategorial shaklidir». Bu mustaqil faoliyatning ijodiy manba'larini cheklovchi jarayon hisoblanadi. Insonga kerakli barcha yangilik va bilim faQat faoliyat jarayonida namoyish Qilish usulida berilgan. Shuning uchun ibtidoiy madaniyatda marosimga o'xshash shakllar ustunlik Qiladi. A. Ramonov aytganidek, marosim- aniQ va maQsadli faoliyat bo'lib, uni amalga oshishi ijtimoiy guruhlar nuQtai nazarida ishlab chiQarish faoliyati kabi hayotini saQlash uchun ham o'ta muhim hisoblanadi. Marosim pragmatikona va faQat ma'lumot beruvchi emas, balki ularga berilayotgan ma'lumot to'liQ holda bo'lib so'z orQali izohlanmaydi. Unda ishlab chiQarish faoliyati ham, bilim ham, sehr- jodu ham, san'at ham aralash holda bir butunlikda namoyon bo'ladi.

So'ngi paleolit davrida animistik e'tiQodlar va sehr-jodu ma'naviy madaniyatning negizi sifatida Qat'iy rasmiylashdi. Qadimgi e'tiQodlarning shakllanishi manbaida tabiatning tashQi ko'rinishi va odamlar jamoasi haQida tasavvurlarning uyg'unlashib ketishi ibtidoiy odam uchun xos bo'lgan inson va tabiatning sub'ekti va ob'ekti birligi ta'sirida, ehtimol jamoa nima bilan shug'ullansa o'shanga bog'liQ bo'lgan hayvonlar, o'simliklar, toshlar, ya'ni uning faoliyati doirasida nima mavjud bo'lsa barchasi uchraydi. Dunyoda yashayotgan aholining ko'plab ruh va jonlar bilan munosabatda bo'lish vositasi sifatida sehrgarlikni keltirib chiQardi. Sehrgarlikning eng Qadimgi turlaridan biri ovchilik sehrgarligi bo'lib, o'lja yaQinlashishi bilan uni tutish mashQini o'rganadi. BiroQ, barcha harakatlar faQat mashQ bilan tugamaydi. Uni amalga oshirish jarayoni asosiy masala hisoblanadi.

Dastlabki sehrgarlik harakatlari mazmunida totemizm –hayvonlar ajdodiga topinishni keltirib chiQardi. Ibtidoiy jamoa turmushi, ovi, urushi, hayvonlarni tutib yeyishi, tug'ilish va o'limini – umuman inson hayotini totemistik, ya'ni, totemlar kurashi va to'Qnashishi orQali tasavvur Qiladi. Bu tasavvurlar oQibatda kosmogonik manzaraga asos soladi, Qaerda har bir totem-koinot borki yeydi, yo'Qoladi va tiriladi, Qari koinot o'rniga yoshlar keladi. Ularning o'rin almashishi va yosharishi yoki tirilishning borligi o'limdadir.

Sehrgarlikka o'xshash hayot nafaQat paydo bo'layotgan tushunchalarni o'zida jamladi, balki madaniyatning eng Qadimgi shakli bo'lib Qoldi. Undan hozirgi vaQtgacha olamni o'zida aks etgan din, san'at, fan sohalari paydo bo'ldi. Barchasi suyakka chizish va naQsh solish, kichik haykaltaroshlik, belgi – muhr bosish, bo'yoqli hoshiyalar chizish, g'or devorlariga betartib chiziQ shakllar solishdan boshlandi va natijada mashhur Altamir, Lasko, Montospan va boshqa g'orlardagi tasvir galereyasi vujudga keladi. g'or tasvirlari tabiiy, aniQrog'i hayotiy aks ettirilgan. g'or tasvirlarining dastlabki bosQichida jonvorlar tasviri alohida o'rin tutadi: otlar, yovvoyi Qoramol, mamontlar o'ta yorQin tasvirlangan. Paleolit kishisining tasvir faoliyatida nafosat uyg'unligi yoki rasm yozuvlar (piktografiya) emas, balki tasvirni «fotografik» tarzda ifodalash ustun bo'lgan. Bu tasvirlar marosim tafsilotlaridir. Mashhur san'atshunos A. Arnxeymning ta'kidlashicha paleolit davrida san'at hayotiy zarur vazifani bajargan. U kishiga mislsiz kuch baxsh etib, tirik mavjudod va narsalardagi ma'nisizlikka»sehr baxsh» etish imkonini yaratgan. Ibtidoiy odam chizilgan tasvirga jonivorlarning joni o'tadi, shu tufayli ularga ta'sir Qilish mumkin deb o'ylagan. Arxaik san'at insonni hayvonlar ruhiyati bilan QiziQishida alohida vosita bo'lib, unda haQQoniyat va marosim uyg'unlashib ketadi.

O'zbekiston xududida so'nggi paleolit davriga oid Qoyaga solingan tasvir namunalari uchramasada, ushbu davrga tegishli 30 dan ortiq manzilgohlar o'rganilgan, jumladan SamarQand manzilgohi, Ohangarondagi tosh Qurollar, tayyorlangan «ustaxona», Ko'kbuloQ va OQtosh manzilgohlari.

O'zbekiston hududidagi ibtidoiy tasviriy san'at namunalarini eng Qadimgisi mezolit-neolit davrlariga oid bo'lib, ular jahon tasviriy san'at tarixining ajralmas Qismidir. Shuningdek, bu tasviriy san'at tarixi bir Qator alohida ko'rinish, o'ziga xoslik va farqlik jihatlariga ega bo'lib Quyidagi bosQichlardan iborat:

1. g'orlar, Qadimgi toshlar va turli Qoyalarda saQlanib Qolgan ibtidoiy tasvirlar yaratilgan davr.
2. Loy, ganch, tosh va yog'ochdan ishlangan Qadimgi haykallar namunalari va turli hunarmandchilik buyumlaridagi tasvirlar yaratilgan davrlar.

Mamlakatimiz tog'lik tumanlarida keng tarQalgan Qoyatosh tasvirlari ishlanish usuliga ko'ra ikki xil: bir xillari bo'yoQ (ohra) bilan; ikkinchi xillari esa o'yib-ishQalash-chizish usuli bilan ishlangan rasmlar (petrogliflar).

O'zbekistondagi Qoyatosh tasvirlarining eng nodir namunalari Zarautsoy, Sarmishsoy, Beronsoy, Ko'ksaroy, Takatosh, Teraklisoy kabi yuzdan ziyodi topilgan. Bu Qoyatosh tasvirlarda O'zbekistonning Qadimgi va hozirgi hayvonot olami turlarini kuzatish mumkin. Bular ibtidoiy sher va yo'lbarslar, Qoplon, tulki va bo'rilar, bug'u va jayronlardir.

O'zbekistondagi Qoyatosh rasmlari mazmunan boy va manzarasi jihatidan xilma-xil. Unda odamlar, ov, yirtqich hayvonlar to'qnashuvi manzaralari tasvirlangan. Bu tasvirlar orqali o'sha davr odamlarining ov, mehnat qurollarini bilib olish mumkin. Shuningdek, Qoyatosh rasmlar Qadimgi ajdodlarimizning g'oyaviy qarashlari va diniy e'tiqodlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Negaki, ibtidoiy odamlar bir-birlariga fikrlarini, munosabatlarini istaklarini chiziqlar, oddiy shakllar, sodd tasvirlar orqali yetkazishga intilganlar. Masalan, ular ov qurollarini tasvirlash orqali ovga bormoqchi ekanliklarini ifodalasalar, yovvoyi buqa va boshqa turli hayvonlar tasvirlari orqali, o'sha hayvonlarni ovlamoqchi ekanliklarini bildirganlar.

Ko'hitang tog'ining yuqorisida joylashgan g'orni «Oltin olov Qoyasi» yoki «Oltin olov darasi» deb atashgan. Chunki zar-oltin, o't-olov ma'nosida bu yodgorlik «Zaravutsoy» deb atalgan. Zaravutsoy ov manzarasidagi turli rasmlarni kuzatish Qadimgi odamlarni hayotini, turmush tarzini jonli tasavvur qilish bilan birga ibtidoiy badiiy madaniyatning o'ziga xos jihatlarini anglashga yordam beradi. Ibtidoiy odamlarning tirikchilik manbai bo'lgan ov manzarasini kuzatish orqali ovchilik ilmining ayrim qirralarini o'rganamiz.

Tasviriy san'atning ibtidoiy davrga mansub namunalaridan biri Jizzax viloyatidagi Taqatosh nomli toshdagi tasvir yozuvlardir. Bu tasvirlarda fikr, sezgi, amaliy ehtiyoj kabi tuyg'ular aks ettirilgan. Qadimiy tasvirlardan yana biri Zarafshon etaklaridagi «Sarmishsoy» tasvirlarida esa ibtidoiy rassomlar ijodi o'z aksini topgan. Bu ibtidoiy tasviriy san'at asarlari Sarmishsoy darasining ikki yuzida qad ko'targan Qoyatoshlarning silliq yuzasiga solingan. Sarmishsoy Qoyalarida yovvoyi buqalar, shoxdor bug'i va qulonlar, yelib borayotgan tog' taqasi, ohu, to'ng'iz, bo'ri, Qoplon, itlar hamda bir-biri bilan olishayotgan yovvoyi va honaki hayvonlar, shuningdek, ovchilar va ov manzaralari ham tasvirlangan.

Qadimgi rassomlar faoliyatida ham kuzatuvchanlik, shakl va chiziqlar orqali bo'layotgan voqealarning xarakterini, mazmunini yoritib bera olish qobiliyatlari ko'zga tashlanadi. Qoyatosh, daralar va g'orlardagi rasmlar mazmunan boy bo'lishi bilan birga xilma-xildir. Ularda turli manzaralar o'z aksini topgan. Umuman bu tasvirlar orqali odamlarning mushtarak tuyg'ulari yuzaga chiqqanligini ko'ramiz. Bu rasmlarda har bir belgi, qoralama yoki shakl o'ziga xos fikrni, hatto sehu jodularni ifodalab berishi bilan qiziqarlidir. Shulardan ko'rinadiki, ajdodlarimiz hayotida, turmush tarzida tasviriy faoliyat alohida o'rin tutgan.

Ma'lumki, inson o'z mehnati tufayli hayvonot dunyosidan ajralib chiqqach, yashash uchun kurash jarayonida qanchalik ongli mehnat qilsa, u shuncha muvaffaqiyatlarga erishgan. Kurash va mehnatda erishilgan muvaffaqiyatlar urf-odat, udum, marosim, an'ana va bayram- xursandchilikni vujudga keltirgan. Madaniyatshunoslarning fikricha bayram va marosimlar eng Qadimgi davrda mavjud bo'lgan va ibtidoiy odamlar hayotida muhim rol o'ynagan. D.M. Genkinning fikricha, «marosim va bayramlarning chuqur ildizi insoniyatning «go'daklik» davriga borib taqaladi». M.M. Baxtining ta'kidlashicha, «Bayram insoniyat madaniyatining boshlang'ich shaklidir». Bu jarayon ibtidoiy odamlar ovchilik bilan kun kechirgan davrlarda yaqqol sodir bo'la boshlagan. Yuqorida tilga olgan tasvirlarda asosan hayvonlar, ov qilish, ovchilar raqsi (ba'zan hayvonlar niqobida) kabi tasvirlar Qadimiy odamlarning o'z mehnati (ovi) natijasini tantana qilganliklaridan dalolat beradi. Ibtidoiy ovchilar hayotida ovchilik marosim –udumlari muhim o'rin tutgan. Ovchilik marosimlari ovdan oldin ham ovdan keyin ham o'tkazilgan. Shuningdek, ovchilik marosimlari-ovga tayyorgarlik, yoshlarni ovga o'rgatish va ovdan keyingi tantanalarni ifodalab, tasvirlarda aks etgan. Buni biz Zarautsoy va Saymalitosh rasmlarida nafaqat totemlarga sig'inish, balki ov marosim-bayramlari ham aks etganligini ko'ramiz.

Ilk bor mahsus uyushtirila boshlangan marosim- bayramlar totemlarga bag'ishlangan. Ya.P. Belousovning fikricha, «Eng Qadimiy va ommaviy marosimlar qatoriga zoofalik marosimlarni kiritish mumkin». Bu marosimlarda turli joylarda totem hisoblangan turli hayvonlar- ayiq, yovvoyi echki, sigir, bug'u, ot, bo'ri kabilarga topinganlar. o'rta Osiyoda ilon, buqa, qo'y, ot, tuya, sher totemlari keng tarqalgan. Buni biz Qazilma yodgorliklardan topilgan amaliy san'at buyumlari misolida kuzatishimiz mumkin.

Mehnat ta'qsimotining vujudga kelishi munosabati bilan Qadimgi odamlarning ishlab chiqaruvchi ho'jalikka (neolitda) o'tish natijasida yangi sohalariga oid marosim va bayramlar vujudga kela boshladi. Bu «Mehnat marosimlari» bo'lib, u ham o'z o'rnida madaniyat va san'at (teatr, raqs, pantomimo san'atining primitiv ko'rinishlari) ning rivojlanishiga zamin yaratdi.

G. Chayldning ta'kidlashicha, bundan 10 ming yilcha oldin neolit yoki agrar inqilob sodir bo'ladi. U eng avvalo, Old Osiyo va Yaqin Sharqda sodir bo'lib, bu dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi bilan bog'liq. o'troq turmush tarzi ishlab chiqarish sohalarining rivojlanishi uchun sharoit yaratdi. To'qimachilik, kulolchilik, uy-joy qurilish paydo bo'ldi. Tabiiy tanlanish o'simlik navlari va hayvonlar zotining o'zgarishiga asta-sekin, an'anaviy takrorlanuvchi muvofiqlikni paydo qildi. Agrar soha astronomik kuzatishlarni tartibga solishni talab qildi. Bu davrda insoniyat tafakkurining rivojlanishi mifologiyani shakllantirdi.

Mif va mifologiya eng avvalo antropomorfizm-tabiatdagi narsalarga ham odamga xos deb qarashni va xudolarni odam qiyofasida tasavvur qilishni ifodalaydi. Mif va mifologiyani Qadimgi e'tiqodlardan farqi, olamdagi barcha mavjud munosabat va qadriyatlarni izohlashni o'ziga oladi. Bu o'sha davrlarni bilishning o'ziga xos nazariy asosi va mahsus shaklidir. Negaki bilim-yorqin rang-baranglik, ifodalilik, jo'shqinlikdir. Mifologiya dastlabki bosqichda kishilar uchun bilim o'rganish va mustahkamlashning yagona manbai va usuli emasligi dargumon. Biroq, L.S. Vasilevning ta'kidlashicha, bilimni mustahkamlash bu –mifni o'rganish yo'li bilan emas, balki uning udumlari, marosimlarining amalda takrorlanib tarqalishida sodir bo'ladi. Mif va marosim arxaiik madaniyatning go'yoki ikki tomoni, ya'ni – so'zdagi va harakatdagi, nazariy va amaliy. Mifologik bilim ilmiy haqiqatga ma'lum miqdorda dahldordir.

Mifologik bilimning ikkita asosiy ijtimoiy vazifasi bor:

1. Ushbu umumiylikning asosiy vazifalarini, ularning odatiy mavjudligini kishilar ongiga kirgizish va mustahkamlash, xususan, shakllangan qoidalarni tasdiqlash, qonuniylashtirish va hatto jamoani tiklash va barqarorlikni ta'minlash uchun ularni an'anaga aylantirish;

2. Jamoani qo'rquvidan xalos qilish maqsadida va ruhiy halovatni kafolatlashda atrof-muhit bilan, butun tashqi olam bilan mustahkam aloqa o'rnatish va ta'minlash.

Mif olamni mavhum g'oyalardan buzilgan tarzini o'zida namoyon qilib, noaniq va quruq muhokamalarning shakllanishiga imkon beradi ya'ni, dastlabki davrda insonni uni chulg'ab turgan aniq kundalik ishlardan fikrini chalg'itib, hayoliy poetik olamga olib kiradi. Mif olamni jamoa bo'lib an'anaviy his qilishdir, negaki, shu alfozda u har doim ilk diniy tasavvurlar majmuining negizi hisoblangan. Mif- dastlabki dunyoqarashning zaruriy, muqarrar shaklidir. Umum tasavvurlar mifning shakllanishiga sabab bo'lolmaydi va hissiy tajriba-kuzatishlar uchun ham, noaniq-mavhum mulohazalarga ham asos bo'lolmaydi. Guruhlar tushunchasi eng avvalo butun borlikni o'ziga qo'shib hissiy qayg'urishga tayanadi.

Axborotlar hajmini behad o'sayotganligi uni uzatishning yangi kanallarini yaratishni talab qildi. Miflarning paydo bo'lishi mavhum tushunchalar vujudga kelganligi haqida, insonning nutqi rivojlanayotganligi haqida guvoh beradi. Bunga bir misol – tasviriy san'atning rivojlanishidir: rasmlar bir qadar aniqlashib, soddalik va shartlilik kuchayib boradi. Tasvir ko'proq ramziylik belgi xususiyatini kasb etib, buning yordamida axborot berish mumkin bo'ladi. Topilgan petrogliflar (toshbitiklar) insonlar jamoasining hayot hodisalari haqida yetarli, mufassal hikoyalarni o'zida saqlab kelgan. Bunday tasvirlarga misol qilib Surxandaryoning Zarao'tsoy darasidagi qoyatosh rasmlarini ko'rsatish mumkin. Bilimlarni saqlash va uzatishning yana bir vositasi jamoaning alohida a'zolari, boshqa kundalik ishlardan ozod qilinib, faqat ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va uzatish bilan shug'ullangan. Bunday kishilar shamanlarga (sehrgarlarga) aylangan. Shamanlarni ko'pi yoshi ulug', hayotiy bilim va tajribaga ega, tabiatni kuzatib o'zlashtirgan, marosim va udumlarni biluvchi kishilar bo'lgan. Masalan, Shimoliy Amerika hindularning adijbe qabilasi shamanlari o'zi yashayotgan joyning ov qilish shartlarini, hayvonlarning o'ziga xos fe'lini puxta o'rganadi, ovdan qaytgan ovchilardan har doim surishtirib o'z bilimini oshiradi. O'zlashtirgan ma'lumotlari shamanga to'g'ri qaror chiqarish imkonini berib, shu tariqa u qabila va urug' a'zolari ichida obro'ga ega bo'lishiga va natijada sehrgarlik udumlarini bajaruvchi asosiy ijrochisiga aylanib qoladi.

Markaziy Osiyo mintaqasida Neolit davri ancha oldin boshlangan. Bunga mil. av. VI ming yillikda Kopetdog' etagida vujudga kelgan Joytun madaniyati guvohlik beradi. O'troq dehqonlar va chorvadorlarning bu madaniyati asosan, samonli loydan qurilgan uylardan iborat manzilgoh

bo'lib Eron va Mesopotamiya xalqlari madaniyati bilan yaQin aloQada shakllangan Joytunliklarning ma'naviy madaniyatini rivoji haQida katta umumiy ibodatxona devorlariga ishlangan rangtasvir dalil bo'ladi. Mil. av. IV-III ming yillikda Xorazm xududida neolit davriga oid Kaltaminor madaniyati shakllandi.

Neolit inQilobi mohiyatiga ko'ra arxaik madaniyatning oxiri hisoblanadi. Ishlab chiQarish faoliyatining yangi turi-dehQonchilik va chorvachilikka o'tish bilan inson tabiatda mustaqil faoliyat ko'rsatish Qobiliyatini namoyon Qildi, bu insonning ijtimoiy va ma'naviy g'alabasi edi. Agar arxaik madaniyatda jamoat fikri yetakchilik Qilib, urug' a'zosi, urug' manfaatlari doirasida faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, endi individual ong va QiziQish kuchaya boshladi. Neolit davrining oxiri va jez asrida arxaik madaniyat barham topdi. Bu davrda jamoa mulki o'rniga xususiy mulk vujudga kelib, hunarmandchilik ajralib chiQadi va mahsulot ayr boshlash shakllanadi. Ijtimoiy tuzum shakli murakkablashadi. Mustaqil xo'jalik yuritishda muvofiqlashtirishni kuchaytirish zarurati, ko'pincha jamoaning boshqa a'zolari yoki Qabila oilalar bilan Qarindoshlik aloQalarining bog'lanmaganligi maxsus boshQaruv apparatini tuzishni talab Qildi. Endi oQsoQollar va Qabila yo'l boshchilari yig'inining ahamiyati sezilarli oshdi, bu Qabila yo'l boshchilariga sig'inishni shakllantira boshladi. Yo'l boshchi Qabilaning baxt-saodat sohibi, ajdodlar ruhi unga tuhfa Qilgan mahsus fazilat «omad»egasi sifatida demokratiya belgilariga hurmat saQlaydi. Yo'l boshchilarga sig'inishda yo'l boshchining jamoa hayotida tutgan muhim o'rnini e'tirof Qilish ifodasi turadi: -U nafaQat Qabila xududini Qo'riqlashni tashkil Qilib Qolmay harbiy yurishga boshchilik Qiladi ham, shuningdek, muhim jamoat ishlarini bajarish uchun xonadanlarni birlashtiradi va jalb Qiladi (kanal Qazish, muhofaza to'sig'lar o'rnatish; yaylov, o'rmon, daryolar kabi umum foydalanadigan mulklar uchun).

Bilimning oshishi natijasida murakkab buyumlar yaratila boshlandi. QayiQ va yelkanli kemalar, taQvim, hisob va o'lchov tizimi vujudga keldi. Xususiy mulkchilikning paydo bo'lishi huQuQning shakllanishiga olib keldi. Ayrimlari hozirgacha saQlanib kelayotgan an'analar va Qadimgi folklor namunalari vujudga keladi (miflar, dostonlar, hikoyalar, marosim Qo'shiqlari), yozuvning ilk tizimi shakllanadi; piktografik (rasm-yozuv), belgi yoki hindularning tugunli yozuvlari. Monumental me'morchilik ham vujudga keldi. Ilk monumental inshootlar katta tosh bo'lak va tosh plitalardan Qurilgan megalitlar hisoblanadi. Megalit inshootlarning turlari bir-biridan farQ Qiladi. Masalan, mengirlar baland toshdan iborat bo'lib, balandligi 20 metrdan oshadi, ular alohida yoki xiyobonlarga Qator Qilib Qurilgan. Dolmenlar (tosh maQbaralar) tosh plitalardan sag'ana yoki maQbara (kulba) shaklda Qurilgan. Kromlexlar esa atrofiga toshlar yotQizilgan inshootlardir. Eng mashhur kromlex buyuk Britaniyadagi Stounxendj hisoblanadi. (mil. avv. II ming yillik boshlariga oid). Megalitlar sajdagoh va ibodatlar joyi sanalsada, aslida ular boshqa maQsadlar uchun mo'ljallangan. Megalitlar xalqlarni birlashtirib, jamoaning barcha kuchlarini jipslashtirishga, yangi ijtimoiy tuzum vujudga kelayotgan hollarda insonlarni umumlashtirish (sotsializatsiya) maQsadlariga xizmat Qildi. Negaki, davlat tuzilishi jarayonida turli ijtimoiy Qatlamlarning bo'linishi sodir bo'ladi; boshQaruvchilar, ma'naviy madaniyat va bilim egalari kohinlar va oddiy bajaruvchilar.

O'zbekiston xududida jez davri mil. avv. II ming yillik boshlarini o'z ichiga oladi. Xuddi shu davrda ikki turdagi mustaqil madaniyat shakllanib aniQ ajraladi: o'troQ dehQonchilik vohalaridagi madaniyat; ko'chmanchi dashtliklar madaniyati. o'troQ dehQonchilik madaniyati dastlab Surxondaryo vohasidagi Sopollitepa, JarQo'ton madaniyatlari, Farg'ona vodiysidagi Chust madaniyati, ikkinchisi- Zamonbobo, Tozabog'yob, Suyargan va Amirobod kabi joylarda vujudga keldi.

O'zbekiston janubi-Surxondaryo viloyatida hozirda ham mashhur bo'lgan ustalar, zargarlar va san'atkor – Quruvchilar yaratgan madaniyat eng Qadimgi madaniyatdir. Mil. avv. XVIII-X ming yillikka oid Sopollitepa va JarQo'ton manzilgohlarida Qadimgi sharQ turidagi ilk shaharnoma sivilizatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi jarayoni kuzatiladi. Sopollitepa labirintnoma (Qasr) to'g'ri burchakli ko'cha tarmog'i va istehkom tizimi bo'lgan manzilgohlar majmuidan tashkil topgan. Jarko'tonda ham monumental me'morchilik xom g'ishtdan Qurilgan. Markazda Qal'a joylashgan, uylar xom g'ishtdan baland ko'tarib Qurilgan. Har bir guzarda binoning o'rtasida yumaloQ o'choQ shaklida devor tokchasida olov mehrobdan iborat sig'inadigan markazi bo'lgan. Ikkala manzilgohda jez eritish, to'Qimachilik, kulolchilik, zargarlik; suyak, tosh, yog'ochga ishlov berish gullab-yashnagan. Turli kulolchilik buyumlarini kulolchilik dastgohida pishirib sifatli

tayyorlanganligi, shaklining chiroyliligi kulolchilik sohasining texnika va texnologiyasi yuqoriligidan dalolat beradi. Topilgan namunalardan ma'lum bo'lishicha O'zbekistonning Janubida yashovchi aholi Qadimgi sharQ, ayniqsa hind vodiysidagi Xarappa sivilizatsiyasi namunalari bilan keng hamkorlikda bo'lgan. Buni Sopollitepa va Jarko'ton shuningdek, O'zbekistonning boshqa dehqonchilik madaniyatida ham uchratish mumkin.

Bronza davrida shakllangan «ko'chmanchi chorvadorlar» madaniyati mil. avv. III ming yillik oxiri-II m. y. boshlariga oid bo'lgan Buxoro vohasidagi Zamonbobo manzilgohida o'rganilgan. Zamonbobo aholisi katta yarim yerto'lalarda yashab, bronza va tosh Qurollar ishlatishgan. Kulolchilik dastgohisiz Qo'lda ishlangan tagi yumaloQ, yassi sopol idishlardan foydalangan. Jez davrida madaniyat yodgorliklari Amudaryo va Zarafshonning Qo'yi oQimidan, Toshkent vohasi, Farg'ona vodiysi, SamarQand viloyatidan topilgan. Ular chorvador Qabilalar madaniyatining vujudga kelishi haQida Qimmatli ma'lumotlar beradi. Chorvador Qabilalar jez davrida o'troQ turmush tarziga o'ta boshladi, Qisman dehqonchilik bilan shug'ullanadi, keyinchalik ko'chmanchi chorvadorlarga aylanishgan.

Arxaik madaniyat o'rniga Qadimgi sivilizatsiya madaniyati o'rnatildi: murakkab-ijtimoiy tizimga ega bo'lgan dastlabki davlatlar, diniy va Qonunchilik shakllarining rivojlanishi, shahar va yozuvlar. BiroQ arxaik madaniyat izziz yo'Qolmadi. Uning ayrim Qirralari jahon xalqlari miflarida, folklarida, inson ruhiyatining chuQur «arxetiplari» da saQlangan. K. Yungning nazariyasiga ko'ra arxetiplar- «ongsiz jamoaning» ruhiy tuzumidir. Ular zamondan tashQarida namoyon bo'lib, shunga muvofiQ tarzda Qiyofalar, yashagan va yashovchi kishilarning tuyg'usi va fikri shakllanadi, ramziy tasvirlarda, miflarda aks etgan jamoaga xos bo'lgan tarixiy tajribada olamni anglashning ibtidoiy shakllari saQlangan. Kishilar ko'pincha o'zlari payQamagan holda u yoki bu an'analari bilan, ulardagi arxetipik ramzlardan ajralgan holda yashaydilar. Barcha zamonaviy madaniyatlar asosidagi bu chuQur negizni sezish va o'rganish hozirda sodir bo'layotgan jarayonlarni yaxshi tahlil Qilishimizga, ma'lum ma'noda kelajakka nazar tashlashimizga yordam beradi.

Qadimgi SharQ hududida mil. avv. X-VII ming yillikda insoniyat sivilizatsiyasi va madaniyati rivojlanishining ibtidosi bilan bog'liQ bo'lgan eng muhim jarayonlar ro'y beradi. Bu davrda SharQda madaniy faoliyatning turli shakllari va sohalari vujudga keladi. Yozuv, adabiyot, san'at, fan, birinchi jahon dini- buddizm paydo bo'ladi. Bu boshlang'ich jarayonsiz insoniyat madaniyatining keyingi barcha taraQQiyotini tasavvur Qilish Qiyin.

Qadimgi SharQ tushunchasi, SharQ haQidagi hozirgi tasavvurlarga mos kelmaydi. Negaki, Qadimgi SharQ yer sharining Misrdan to Xitoygacha bo'lgan keng mintaQasini o'z ichiga olib, bu yerda mil. avv. VII ming yillikdan boshlab insoniyat tarixida dastlabki sivilizatsiya vujudga kela boshladi. Madaniyatning shakllanishi eng yirik daryolar – Nil, Dajla va Frot, Hind va Gang, Xuanxe va Yanszi vodiysida, ya'ni dehqonchilik rivojlanishi uchun Qulay imkoniyatlar mavjud bo'lgan joylarda ro'y berdi. Xuddi shu joylarda dastlabki davlatchilik tuzilmasi, siyosiy, diniy va savdo markazi sifatida shaharlar, yozuv vujudga kelgan. Bu yerda dastlab ma'naviy madaniyat ishlab chiQaruvchi mehnat faoliyatidan bevosita ajralib mustaqil faoliyatga aylanadi. Jamiyat hayotida alohida kishilar Qatlami boshQaruv, ta'lim, ma'lumotlarni to'plovchi va uzatuvchi sohalarda shug'ullanuvchilar ajraladi va ko'payib boradi.

Misr, Mesopotamiya, Hind va Xitoy sivilizatsiyalari eng ko'hna va yirik madaniyatlar edi. Bu madaniyatlar ta'sirida Urartu, Finikiya, Xett, Elam sivilizatsiyalari shakllanib, insoniyat madaniyati tarixida sezilarli ta'sirga ega bo'ldi.

I.P. Veynbergning ta'kidlashicha, Qadimgi SharQ madaniyati «ilk kashfiyotchi va asoschi sifatida ulkan missiyani» bajardi; yozuvni ishlab chiQish va davlatchilik poydevorini Qurish, o'zining etnik, kasbiy, mulkiy va ijtimoiy ahvoli bilan farQlanuvchi kishilarning birga yashashlari uchun sharoit yaratdi. Agar boshqa madaniyatlar ibtidoiy va Qadimgi SharQ madaniyatining tajriba va yutuqlaridan foydalangan bo'lsa, Qadimgi SharQ madaniyatining o'zi esa ibtidoiylikning bir tarzida shakllandi. Ibtidoiy muhitning ta'siri kuchli va doimiy bo'ldi. Ibtidoiy davrdan meros bo'lib mifologik fikrlash usuli, nutQ va faoliyat o'tdi. Shu bilan birga Qadimgi SharQ madaniyati namunalari o'z dunyosining «boshlovchisi», «yangiliklarini» o'ziga xos jiddiy his Qildi. Misr, Mesopotamiya, Hind va Xitoy miflarida nafaQat «dunyoning yaratilish» (osmon, yer, jonivorlar, inson) mavzui, balki, bu rivoyatlar olamida ibtidoiy dunyodan keskin farQlovchi «madaniyatlarning yaratilishi» mavzui ham katta o'rin egallaydi. «Enklar va koinot» (Mesopotamiya), tangri Ptax

haQida (Misr), Xitoyning afsonaviy hukmdori haQidagi miflarda xudolar va ilk ajdodlar dehQonchilik va hunarmandchilik kashfiyotchilari, ilk shaharlar bunyodkori, davlatchilik va dinni o'rnatuvchilar, Qonun va yozuv ijodkorlari sifatida ya'ni, ibtidoiylikdan farQlanuvchi sivilizatsiyaning barcha yutuQlarini yaratuvchilar bo'lib tasvirlanadi. Shuningdek, miflarda bir-biriga mos kelmaydigan, Qarama-Qarshi va bu ikki dunyoning dushmanligi mavzui ham tasvirlanadi.

Qadimgi SharQ xalqlarining urf-odatlarini va e'tiqodlari haQida ma'lumotlar turli manba'larda, adabiyot va san'at yodgorliklarida saqlanib qolganki, bular bizning tasavvur dunyomizni keskin farQ qiluvchi olamga boshlaydi. Qadimgi SharQ madaniyatining shakllanishida mifologik tafakkur katta rol o'ynagan.

Mifologik tafakkur-bu predmetlik-hissiy, jonli tafakkur yetarli rivojlanmagan mavhum tushunchalarga xos bo'lib, bunday tushunchalarni ishlatish va so'zda ularni ifodalashning sustligi va Qiyinligidir. (Shumerliklar «o'ldirish» deyish o'rniga «boshiga tayoQ bilan urish» deyishgan).

Qadimgi SharQ kishisi sababli natija munosabatlarni tushungan va farqlagan, biroQ ularni mujmal va Qonunga mos bo'lmagan hodisa sifatida, ko'pchiligi esa shaxsiy Quadrat sifatida ongli va ixtiyoriy idrok qiladi. Sabablarni izlashda «Qanday» deb emas, balki «kim» deb so'rashadi («hodisada kim aybdor»), «ixtiyoriy, aniQ maqsadda harakat qilganni» izlashgan. «Sabablarni» bunday idrok qilish o'qibatida mifologik tafakkur ayrim va butuncha, bir-biriga o'xshash har Qanday tashqi moslikni Qabul qiladi. Funktsional aloQadorlik sifatida makon va zamondagi har Qanday bog'liqlik so'zi bilan mifologik tafakkurning fikran bog'liqligi haQida gapirishga imkon tug'iladi. Fikriy bog'liklik bilan o'xshash tafakkur ham aloQador. Qandaydir yangi narsani ko'rib inson o'ziga deydi: «Bu yangi narsa nimaga o'xshaydi?»- va unga o'xshash narsani o'zidan va ajdodlari tajribasidan izlaydi. Xususan, «asl namuna» tamoyili keng tarqalgan bo'lib, unga ko'ra hayotdagi barcha muhim narsalar (ehrom, podsho hokimiyati, inson) ilohiy Quadratning «asl namunasiga» muvofiQ yaratilgan.

Olamni mifologik tasavvur qilish uning nihoyatda tartibli, Qat'iy ierarxik Qurilishida ifodalanib, uning asosi turli xil oppozitsiyalar tizimi hisoblanadi. Aynan shular mifologik ramziy tasniflashdagi dastlabki «poydevor» hisoblanadi (Qarama-Qarshi tiplari: yuQori-Qo'yi, o'ng-so'l, osmon-er, mag'rib-mashriQ, kun-tun, biz-ular, katta-kichik, er-xotin, hayot-o'lim va boshQalar). Shuningdek, o'ng, yuQori, katta, yaQin, o'z, yorug' taomilga ko'ra Qarama-Qarshilikning musbat-ijobiy tomonini, sul, Quyi, kichik, uzoQ, begona, Qorong'i esa salbiy jihatini tashkil qiladi.

Mifologik tafakkurning muvofiQ va o'xshash jihatlari uning an'anaviyligi bilan bevosita bog'liQ. An'ana bir-biriga yaQin, biroQ mohiyatan boshqa bo'lgan hodisalar urf-odat, marosim, ibodat, udum, odob singari faoliyatda namoyon bo'ladi. Bularning bari u yoki bu sinuatsiyadagi aniQ axloQ dasturiga ega bo'lib, harakatning to'g'riligini kafolatlaydi, noto'g'ri harakatlarni ogohlantiradi, negaki an'analarga negizida sotsiumning katta tajribasi mujassamdir.

Qadimgi SharQ madaniyatida an'analarga asoslanish ustun turadi. Ajdodlar an'anasi, tajribasi mutloQ haQiQat kabi baholangan. MutloQ haQiQat hukmronligi bilan, D.S. Lixachev ta'kidlashicha «odoblilik» bog'liQ bo'lgan. Qadimgi SharQ kishisining axloQi harakat va faoliyatda muQaddas an'analarni Qayta tiklashga Qaratilgan «ilohiy o'rnatilgan» me'yor va Qoidalariga borib taQaladi. A.Ya. Gurevich shunday deydi: «Kishilar harakatining ko'kdagi ilohiy timsolga talpinishi ularni iloh bilan bog'lab, axloQda voQelikka aylandi». Kishilarning barcha faoliyati (ishlab chiQarish, jamoatchilik, oilaviy) muQaddas marosimlarda Qanchalik ishtirok etishi bilan mazmun kasb etadi. An'anaviy jamiyatda «Qadimgi» va «yaxshi» so'zlari sinonim bo'lib, Qadimgi-ezgulikning kafolatidir. Shuning uchun uy va anjom, kiyim va oziQa ming yillar davomida kam o'zgardi, shuning uchun adabiy janrlar, san'at janrlari ham barQaror bo'lib kelmoQda, yangi ehromlar nafaQat eskisining o'rnida Qad rostladi, balki ularning «asl namunasini» Qaytadan tikladi. I.V. Klochkov yozishicha, yangi zamon kishilari dunyoni harakatda, rivojlanishida ko'radi, «Evolyusiya», «taraQQiyot» tushunchalari dunyo Qiyofasini yaratish uchun yo'l ochuvchi tasniflar hisoblanadi. Bundan barcha yangilikka zamonaviy jamiyatning ochko'z QiziQishi boshlanadi. Dunyoning boshQacha Qiyofasi an'anaviy jamiyat kishilaridan tashkil topadi: Qadimgi dunyo yashaydi, biroQ o'zgarmay Qoladi. Rivojlanish g'oyasi (taraQQiyot yoki inQiroz) ko'rinishidan, uning anglanishishi mutlaQo begona. Dunyo juda Qadimdan xudolar belgilagan o'zgarmas tartib bo'yicha yashaydi.

Mifologik tafakkurning o'ziga xos xususiyati shundaki, Qadimgi sharQ kishisi o'zini har doim sotsiumning bir Qismi deb his qilgan, sotsium esa koinot kuchiga bog'liqlikda, tabiatga aralashgan holda ko'rinadi. Garchi, Qadimgi SharQ madaniyatining turli Qirralarida shaxsni individuallashtirish imkoniyatlari mavjud bo'lib, ular har doim individning turmush sharoitlarini belgilovchi asosiy sohalarga nisbatan ikkinchi darajali hisoblangan.

Qadimgi SharQda makonning paydo bo'lishi chegaralanishi alohida o'rin tutadi. Qadimgi SharQ mifologiyasida kosmogenez jarayoni Xaosning ajralishi sifatida namoyon bo'ladi (Misol uchun, hindlarda Indra haQida mif, Mesopotamiyada Marduk haQida). Tartibli uyushgan makon, betartib makonga Qarama-Qarshi Qo'yiladi. Tabiiyki, tartibli, tashkiliy jihatdan uyushgan makon- «yaxshi», «o'z» makonning, undan tashqarida «begona», «uning» betartib, tashkiliy uyushmagan «xunuk» makoni-ko'chmanchilik, ibtidoiylik dunyosi joylashgan. Shuning uchun san'at asarlarida boshqa xalqlarning o'ziga xos kiyimi, sochi, turmushi o'ta diqqat bilan aniqlik bilan xuddi o'ziday tasvirlanadi – barcha Qirrasida Qarama-Qarshi olamning farqi ta'kidlanadi.

«O'zining» makonida ijobiy xususiyatga ega bo'lishda davlat asosiy rol o'ynaydi. Shuni ta'kidlash joizki, Qadimgi sharQda davlat oddiy siyosiy hokimiyat sifatida o'zini namoyish qilmadi, davlat din bilan uyg'unlikda siyosiy-diniy birlik majmuida muqaddaslik xususiyatiga ega bo'ldi. Mohiyatan ma'naviy faoliyat davlat monopoliyasi hisoblanib, u bilan go'yoki ilohiy yoki fidoiylik martabasiga ega bo'lgan zodagonlar, koinlar va hukmdorning o'zi tomonidan amalga oshirilgan. Shoh yer va osmon o'rtasidagi bosh vositachi yoki Neb xudosi o'g'li bo'lgan, yoki xudolarning o'zidan boshqarishga «mandat» olgan. Bobil shohi yangi yil bayramida bosh xudo Marduk ibodatxonasiga borgan. Ibodatxonaga kirishda koin shohning barcha narsalarini olib Qo'yib (toji, hassasi, shohlik libosini), uni kamsitgan va urgan, shundan so'ng oyoq kiyimsiz, oddiy juldur kiyimda ibodatxonadan chiqishga ruxsat bergan. Ya'ni, dastlab shoh oddiy odamga aylanishi, ibodatxonada esa uni xudo Marduk yana keyingi yil uchun hukmdor qilib tayinlagan. Faqat, Misr fir'avi uning otasi- Xudo Amon-Raga, Xitoy imperatori «Nebning o'g'li»- Nebga sajda qilishi bilan bog'liq asosiy udumlarni o'tkazish huquqiga ega bo'lgan.

Shohning asosiy majburiyatlari fuqorolarga bog'liq ishlar bo'lgan: mamlakatda tartib va osoyishtalik, moddiy farovonlik va ijtimoiy adolatni ta'minlash. Qadimgi Misrdagi «Gerakliopol shohining o'z o'g'li Merikarga nasixatlari» da aytilishicha: «Haqiqat o'rnat va yerda uzoq yashaysan. Shunday qilki, yig'layotganni ovut, bevaga jabr qilma, insonni otasining mol-mulkidan benasib qilma». Yana hukmdor zaminda tartib-intizom bo'yicha yuksak missiyani bajarib, gohida behad katta hajmdagi Qurilish-xo'jalik faoliyatini amalga oshirgan. Ulug' va bahaybat Misr piramidalari, Buyuk Xitoy devori, Baolbek ehromi, Persepol saroyi Qurilishlari xudolar oldidagi hukmdorlarning «ijobiy» xususiyatlaridan dalolat beradi.

Diniy aqidalar hukmronligi kishilar hayotini belgiladi. Inson Qaerda osmon bo'lsa- xudolar dunyosi va yerni- odamlar dunyosi deb bildi. Ular doimo o'zaro munosabatda, bir butunlikda olam daraxtining tanasi va shoxlari kabi viqor bilan yashashgan. Xudolar insonlar hayotining barcha sohalariga faol aralashgan, uning tug'ilishi, o'limini va o'limidan keyingi taqdirini belgilagan. o'sha darvlarda diniy ta'limotdan tashqari hech Qanday boshqa dunyoQarash bo'lmagan. Inson xudolardan hatto arziyas narsalar haQida maslahat so'ragan va unga xatlar yozib ibodatxonaga olib bergan. Misol uchun, Qadimgi Bobil aholisining maktubidan birida shunday so'zlar bitilgan: «Mening otam, Xudo ayt! Sening Quling Apil-Adat shunday deydi: Nimaga sen menga e'tibor qilmaysan? Sendan boshqa kim ham bor? Seni sevuvchi xudo Mardukka yoz: mening gunohimdan o'tsin».

Barcha Qadimgi SharQ sivilizatsiyalari tabiiy-ilmiy bilimlarni to'plab ulkan natijalarga erishdi va jahon fani rivojlanishiga ulkan ta'sir ko'rsatdi. Bizgacha yetib kelgan Papirus yozuvlari misrliklarning matematika va geometriya (turli shaklning hajmi va yuzasini o'lchash), astronomiya (aniqlik Quyosh taqvimining tuzilishi keyinchalik Yevropada taqvimga asos bo'lgan), tibbiyot (anatomiya tuzilishi, miya va Qon tomirlari haQidagi ta'limot, jarrohlik), kimyo (turli moddalarning xususiyatini o'rganish va bu bilimlardan mayitni mumiyolashda foydalanish) sohalaridagi keng tushunchalari haQida dalolat beradi. Atrofdagi mamlakatlarga Mesopotamiya matematikasi va astronomiyasi katta ta'sir ko'rsatdi. hozirga Qadar biz Mesopotamiyada tuzilgan vaqt va burchak o'lchovi uchun 60-bo'lakli tizimdan foydalanamiz. Mesopotamiyaliklar matematika va astronomiyaga oid kashfiyotlar qilib, oy fazalarini bo'lish tizimini yaratdi, Quyosh tizimiga oid

jarayonlar, yulduz va sayyorlar ro'yxati, ko'plab harakat holatlarini aniqlash bo'yicha yangiliklar kiritdi. Ikki daryo oralig'i- astrologiyaning ham vatanidir.

Qadimgi Hind va Xitoy fani ham ko'plab yutuqlarni Qo'lga kiritdi. Hindistonda noldan foydalanib o'nlik sanoq tizimi yaratilishi bilan algebra rivojlana boshladi («son», «tub son», «sinus» kabi atamalar hindistonda paydo bo'ldi). o'lim sababini aniqlash maqsadida murda tanasini anatomik tadqiq qilish tajribalari anatomiya va fiziologiyani rivojlantirib, medisinada katta yutuqlarga erishildi. hindistonda tibbiyot taraqqiyoti haqida tibbiyotga oid asarlardan birida jarrohlikning 300 turi bo'lganligi va 120 ta jarrohlik asbobi mavjudligi eslatiladi. Barchaga ma'lumki, Xitoy ipak, chinni va Qog'ozning vatani hisoblanib, mil. avv. II asrda kashf qilingan, shuningdek Xitoyda porox, kompas (mil. av. III asr) yer qimirlashini aniqlovchi asbob (seysmograf) ham ixtiro qilingan. Mil. av. 613 yilga tegishli Xitoy Qo'lyozmalari topilib unda Galley kometasi haqidagi eng Qadimgi ma'lumotlar uchraydi. Mil. av. II asrda Xitoyda osmon yoritqichlarining harakati tasvirlangan birinchi osmon globusi, 2500 yoritqichning o'rni ko'rsatilgan yulduzlar katalogi yaratilgan. Yangi taqvim joriy qilinib (mil. av. 104 y.), unga ko'ra bir yil 365 24¹ kunga teng bo'lgan. Mil. av. 28 yilda Xan imperiyasining astronomlari Quyoshda dog'lar mavjudligini kuzatganlar. Xitoy matematiklari tarixda birinchi bo'lib hisobda manfiy sonni Qo'llaganlar. Tibbiyotda igna ukoli, nuqtali davolash kabi ajoyib usulni ishlab chiqqanlar.

Bir tomonda Misr va Mesopotamiya fani, boshqa tomonda hindiston va Xitoy fanida ahamiyatli fanlar mavjud bo'lib, birinchidan- fan o'ta amaliy xususiyat kasb etgan, ikkinchidan- fanlar nazariyasi, falsafa taraqqiyoti g'arbdan keskin farq qilgan. Bu farqni K. Yaspers tomonidan yaratilgan o'Q davri nazariyasi bilan izohlash mumkin. Bunga ko'ra mil. avv. 800 va 200 yillar oralig'ida muhim tarixiy burilish sodir bo'lib, mifologik davr nihoyasiga yetadi, rasional idrok shakllanadi, hozirgacha mavjud bo'lgan asosiy tushuncha va tasniflar ishlab chiqildi. Bu davrda Hindistonda Upanishadalar paydo bo'ldi, Budda yashadi. Xitoyda mashhur falsafa maktablari rivojlandi, Eronda Zardo'shtiylikni Qabul Qilib, Qonunlashtirildi, Falastindan payg'ambarlar chiqdi, Yunonistonda bu vaqtda Gomer, Geraklit, Platon va boshqalar faoliyat ko'rsatdi. K. Yaspers Misr va Mesopotamiya madaniyatlari o'Q davrigacha mavjud bo'lganligini, ya'ni ularda esda Qolarli burilishlar sodir bo'lmaganini, Hindiston va Xitoy madaniyatlarini o'Q davridan keyinga ta'luqli deb biladi.

Hindiston va Xitoyda tabiiy va texnika fanlari ertaroq shakllandi va o'z navbatida sermahsul taraqqiy etdi. Biroq, bu fanlar g'arbdagi kabi madaniyatga sezilarli ta'sir ko'rsatmadi. Bu Oliy haqiqatni anglash yo'lidagi mustaqil ta'limot bo'lib Qolish bilan bog'liq. Masalan, Hindistonda bilim uch darajaga ajraladi:

1. Bilmaslik (avidya).

2. Tushuncha, «ilmiy» bilim (vijnyana).

3. Hamma narsani bilish (prajnya), ya'ni birinchi daraja mantiqsiz fikrlash, ikkinchisi – mantiqiy, uchinchisi mantiqdan ustun idrok qilishga muvofiql keladi.

Yer yuzidagi eng ko'hna va bir Qadar o'rganilgan, ko'plab xalqlar madaniyatining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan madaniyatlardan biri- Qadimgi Misr madaniyatidir. Qadimgi Misr yozuvi ko'plab hozirgi yozuv tizimi uchun asos bo'ldi. Qadimgi Misrliklar ko'llagan so'zlar «papiros», «oasis», «ximiya», «bazalt» va boshqalar hozirda ham muomalada saqlanib kelmoqda. Misrda turli, o'ta chalkash topinishlar tizimi mavjud bo'lgan: xudolarga sig'ingan, jonivor, o'simlik, tuproq, suv, Nilni muqaddaslashtirgan. Quyoshga, tirik xudo-Fir'avnga sig'inish Qonun tusiga kirgan. Misrliklar madaniyatida dafn marosimi alohida o'rin tutgan. Ular o'limni insonning ikkinchi hayot boshlanishi deb bilgan. Mangu hayot tushunchasi Osiris va Izida haqidagi mifdan paydo bo'lgan. Qadimgi yunon muallifi «Misrliklar hayoti o'limga tayyorgarlik ko'rishdan iborat»-deb bekorga yozmagan.

Misrliklardan farqli Qadimgi Mesopotamiya aholisi yerdagi hayotga ko'proq e'tibor qilishgan. O'lim bilan hammasi tugaydi deb o'ylashsada, narigi dunyoga ishonishgan. Misrliklardan farqli ravishda, narigi dunyoni inson ruhi mangu suv va ovqatga zoriqib yashaydigan Qo'rqinchli dunyo deb tasavvur qilishgan. Sharuppakning Mesopotamiyaliklarga nasihatida aytiladiki «Shirin hayotdan tashqari biron narsa aziz emas». Mesopotamiyaliklarning Quvonchli hayot haqidagi qarashlari «Gilgamish» dostonida ham tasvirlanadi. Ular shaxsiy hayot muammolari bilan ko'proq qiziqqanlar.

Hindiston – birinchi jahon dini buddizm vatani bo'lsada, Hindistonning o'zida induizm bilan ikkinchi darajada turadi. Bu ikki din ham «Veda» da aks ettirilgan Qadimgi tasavvurlardan kelib chiQQan. Hindlarning dunyoQarashi va barcha tushunchalarini belgilovchi markaziy g'oya, hind madaniyatining o'ziga xos xususiyati- dunyoda sodir bo'luvchi benihoya uzliksiz harakat g'oyasi hisoblanadi, ya'ni dunyoning aylanishi na ibtido, na nihoya, na aniQ maQsadga ega. Dunyoning doimiy aylanishida Qayta yangilanish va dunyoviy ilohiy ruh nishonasi-individual ruh bo'ladi. Ular doimo yangi moddiy ko'rinishda vujudga keladi, buning uchun inson tanasi bo'lishi shart emas, ya'ni ruh jonivorlar, o'simliklar tanasiga joylashishi mumkin. Hindlar shu tariqa o'z dunyo Qarashidan nargi dunyo haQidagi g'oyani istisno Qilganlar. MutloQ «dunyoviy Qonun» borliQ hukmdori Braxma-olamning ob'ektiv ibtidosi. Ularni taQQoslaganda aniQ xudolarning roli uncha katta emas, faQat «dunyoviy Qonun» tamoyillarini individuallashtirgan timsolidan iboratdir. Hech kim, shuningdek xudo ham inson karmasini o'zgartirishga Qodir emas. Karmaning sanskrit tilidan tarjimasi «faoliyat» (taQdir) ni bildiradi. Bu tushunchaning mazmunini aniqlash murakkab. Karma insonning oldingi hayotidan meros bo'lib o'tadi va hozirgi hayotining mazmuni va faoliyatida namoyon bo'ladi, u bo'lg'usi moddiy timsolning sifatini belgilaydi. Gunohlarni kechirish haQida tazarru yoki ibodat bilan Karmani o'zgartirish mumkin emas, U faQat insonning axloQiy fe'l-atvorini belgilaydi. Shu bilan birga, har bir indus va buddist uchun o'z-o'zini bilish va o'zining kamolatiga yetish, o'z ruhiy holatini aniqlash, o'z karmasini toza saqlanishi haQida o'ylash asosiy hisoblanadi.

Bu Hindistondagi dinlar hayotdan, faoliyatdan voz kechishga undaydi degani emas, balki ular dunyoviy tashvishlarga befarQ bo'lishga undaydi desa bo'ladi. Hind madaniyatining butun mazmunida zohir va botin, muaQQat va manguQlik o'rtasidagi muvozanatni saqlash zarurati haQidagi fikr yotadi.

Xitoy madaniyatining o'ziga xos farqli jihati shundaki, Qadimdan dinlardagi mistik ibtidoga axloQqa nisbatan ikkinchi darajada Qaralgan, madaniyatdagi belgilovchi g'oya Osmon tasdiqlagan buyuk «axloQiy-ijtimoiy-siyosiy tartib» bo'lgan.

Xitoy madaniyati va sivilizatsiyasining ming yillar davomida asosiy ruhiy, axloQiy va g'oyaviy manbai mil. avv. 551-479 y. yashagan buyuk mutafakkir Konfusiy ta'limoti hisoblanadi. Barcha eng muhim narsalar har Qanday sivilizatsiyaning «Qiyofasini» belgilaydi- hayot tamoyillarini, davlat va ijtimoiy tashkilot shakllarini, umum Qabul Qilgan axloQiy me'yorlar va Qadriyatlarning barchasi Xitoyda Konfusiylik ta'sirida shakllangan. Bejizga L.S. Vasilev Konfusiylikni «xitoy sivilizatsiyasining kvint essensiyasi (mohiyati)» deb atamaydi.

«Osmon vakolati» yo'nalishi Konfusiy tomonidan yangicha fikrda rivojlantirilib, unda ijtimoiy axloQ asosiy o'rin tutadi va siyosiy madaniyatni belgilaydi. An'analarni hurmat Qilish, burchni jiddiy his Qilish, axloQiy sifatning yuQoriligi, o'zini jamiyat uchun baxsh Qilish, haQiQatni anglash uchun doimo urinish, ishonch va olijanoblik kabi ideallar boshQalarni boshQarishni istaganlar uchun mo'ljal bo'lgan. Bu ideallar davlatning bosh tayanchi bo'lib, Xitoy imperiyasi to'ralari uchun namuna bo'ldi.

Konfusiylikni Xitoyda paydo bo'lgan ikkinchi buyuk falsafiy ta'limot-daosizm to'ldirdi. Daosizmda turmush, tabiat, umumlik muammolari aks etadi. Agar konfusiychilik insonning ijtimoiy faoliyatini nazarda tutsa, daosizmda uning ruhiy hayoti, dunyoQarashi aks etadi. Daosizmda Qadimgi Xitoydagi fikrlarning bosh g'oyasi aks etib, jahon madaniyatini yangi hayot bilan boyitdi. «Uning g'oyalari: in-yan tamoyillarga asoslangan dunyoning dualistik xususiyati; usin-beshta asosiy unsurdan iborat bo'lgan materiya (yer, suv, olov, ma'dan); dunyoning o'zgaruvchan harakatdaligi, asosiy unsurlar doimo sifat o'zgarishida bo'lishini bildiradi. Daosizmga ko'ra dunyoning paydo bo'lishi uchta kuchning faoliyatidan kelib chiQQan: Dao- Oliy MutloQ, Ilk ibtido, De-dao nuridan dunyoning paydo bo'lishi, Si- Oliy materiya, u moddiy dunyoni yaratib, narsa va mavjudotlarni bunyod Qiladi.

SharQning Qadimgi sivilizatsiyasi moddiy va ma'naviy sohalaridagi ko'plab o'ta muhim yangiliklarni vujudga keltirdi. Xususan, mil. avv. I ming yillik ma'naviy g'alayonlar jarayoni bilan ajralib turadi. Bu davrda dastlab ikki tamoyil vujudga keldi: umuminsoniy birlik va shaxsning ma'naviy mustaqilligi. g'oyalar erkinligi boshlanib inson o'z hayotini unga asoslanib Qurdi.

Qadimgi SharQ sivilizatsiyasi g'arbga nisbatan ertaroQ boshladi. Yunonlar madaniyati Qadimgi SharQ madaniyati ta'sirida juda yuksaldi, buni ellinlarning o'zlari ham e'tirof etishgan. Bu ta'sirlar natijasida shunday davr boshlandiki SharQ va g'arb madaniyatlari sintezi ellinistik madaniyatni

vujudga keltirdi: Yunon-BaQtriya va gandxar san'ati, iskandariya fani, fayum portretlari bunga misol bo'la oladi. Qadimgi SharQ bizga barhayot boyliklarni Qoldirdi. Bular «Gilgamesh» va «Mohabhorat» dostonlari, Kalidasi drammalari va Chjuanszining ramziy masallari, Misr ehromlari va Buyuk Xitoy devori va boshQalar.

Qadimgi Yunoniston va Rim madaniyatlari Yevropa sivilizatsiyasining poydevoriga asos soldi. Qadimgi SharQ madaniyati ta'sirida shakllangan bu madaniyat an'anaviy madaniyat taraQQiyoti davrining davomchisi va yakunlovchisi bo'ldi. Qadimgi Yunonistonda shakllanib, keyinchalik yuksak bosQichga ko'tarilgan bu madaniyat er. avv. III asrda Rim madaniyati vujudga kelishiga katta ta'sir ko'rsatda va «Antik madaniyat» nomi bilan dunyo madaniyati tarixida o'chmas iz Qoldirdi.

Lotin tilidagi «antik» (antiguus) so'zining ma'nosi «Qadimgi» demakdir. Lekin tarixiy davr nuQtai nazaridan Qaraydigan bo'lsak Antik davr Qadimgi dunyoning oxiri-Qadimgi madaniyat va davlatchilikning eng taraQQiy etgan bosQichidir. Bu davr asosan Yunoniston va Rim uchun xarakterli bo'lib, Yunonistonda mil. avv. XI-IX asrlarda antik jamiyatning tashkil topishidan boshlanib, mil. avv. V-IV asrda antik (klassik) madaniyat takomili bilan to'la mohiyat-mazmunga ega bo'ldi. Milodiy V asrda varvarlar tomonidan Rim imperiyasining Qulatilishi Antik madaniyatni inQirozga olib keldi. Shuningdek, Yunon-Rim jamiyati va madaniyatiga nisbatan Qo'llanilib kelayotgan «antik» so'zini ko'proQ Yevropaga tatbiQan anglamoQ darkor, negaki Yevropa xalqlari o'zlarining madaniy taraQQiyotlari yo'lida yolg'iz Yunon-Rim madaniyati bilan aloQador bo'lganliklari sababli, shu xalqlar bunyod etgan ma'naviy boyliklarni eng Qadimiy deb taniganlar.

O'z o'rnida Antik madaniyat Yunon-makedonlar va Rim ta'sirida Egey dengizidan Hindistongacha va Misrda ellinistik madaniyatning vujudga kelishiga va kosmopolitizm (dunyo fuQoroligi) tushunchasiga asos soldi.

Barcha Qadimgi madaniyatlar kabi yunon klassik (antik) madaniyatining muhim tarkibiy Qismi din bo'lgan. Din me'morchilikning, tasviriy san'atning, adabiyotning ajoyib namunalarida o'z aksini topdi. Qadimgi yunon dinining asosiy shakllari arxaik davrdayoQ tarkib topgan, uning ildizlari esa eng Qadimgi krit-miken davriga va Qadimgi sharQ ta'sirlariga borib taQaladi.

Ibtidoiy jamoadan sinfiy jamiyatga o'tish davrida ma'budlar haQidagi tasavvurlar o'zgaradi. Er. avv. VIII-VII asrlarda ko'plab mahalliy va ayrim umumyunon ma'budlarini tartibga solish ehtiyoji tug'iladi. Arxaik davrda (mil. avv. VIII-VII asrlarda) gi dinning rivoji bu- antropomorfizmdan, ya'ni insonning ilohiylashtirishdan, xudolarni o'lmaydigan va abadiy yosh bo'lib turadigan kuchli, go'zal kishilar deb tasavvur Qilishdan iborat edi.

Quldorlik munosabatlarning shakllanishi va ijtimoiy ahvol Gesiodning «Mehnatlar va kunlar» poemasida aks ettirilgan. Shunigdek, Diniy mifologiya ham Gesiod tomonidan tartibga solingan shaklidan to antik davrning oxirigacha yunonlarning tasavvurida asosan mavjud bo'lib kelgan. Yunonlar uchinchi avlodga oid bosh ma'budlarning makoni Olimi tog'i deb bilishgan.

Yunonlarning tasavvuricha, olam avvalida Xaosdan iborat bo'lgan, Yer-Geya va yer osti olami Tartar ham bo'lgan. Geyadan o'g'li Uran-osmon xudosi kelib chiQQan. Uran bilan Geyadan titan Kronos tug'ilgan va o'z otasi Uranni ag'darib tashlagan.

Bular titanlar- katta xudolar ekan. Kronosdan Aid, Poseydon, Gestiya, Demitra, Gera va Zeve kabi kichik xudolar kelib chiQQan. Zeve boshchiligida kichik xudolar Titanlarni ag'darib tashlab olamni idora Qila boshlaganlar. Zeve bosh xudo, xudolar ajdodi, chaQmoQsochar hisoblangan. Uning xotini Gera- osmon ma'budasi va nikoh homiysi bo'lgan. Poseydon- dengiz xudosi, Demitra- hosildorlik ma'mudasi, Gestiya – uy-ro'zg'or ma'budasi, Aid – yer osti olami hudosi hisoblangan.

Zevening boshidan donishmandlik va urush ma'budasi Afina paydo bo'lgan; Appolon- ro'shnolik va san'at xudosi, Artemida- oy va ov ma'budasi, Gefest- temirchilik xudosi, Afrodita- go'zallik va sevgi ma'budasi, Dionis- uzum va musallas xudosi sifatida e'zozlangan. Zevsning ko'p farzandlari xudolar bo'lgan.

Yunonlar dinida totemizm Qoldiqlari bo'lgan, ya'ni ma'budlarga biron hayvon yoki Qush atalgan. Shuningdek, yunonlar ikkinchi darajali ma'budlarga- Nimfa va Kentavrlarga ham topinganlar. Go'yoki chakalakzorlarda driadalar, nimfalar, echkiyoQ satirlar yashagan; dengizda nayadalar va sirena- ayol boshli Qushlar yashagan.

Ma'budlarning oddiy ayollar bilan aloQasidan tug'ilgan yarim xudo-Qahramonlar ham e'zozlangan. AyniQsa 12 marta jasorat ko'rsatgan Gerakl- yovuzlikni yenguvchi obraz bo'lgan.

Yunonistonda xudolar sharafiga o'tkazilgan maxsus bayramlar faqat diniy mazmunga ega bo'lmagan, chunki jismoniy tarbiya musobaqalari hamda musiqa, qo'shiq kabilar mazkur bayramlarning eng muhim ishlari hisoblangan. Yunon shaharlari o'z bayramlari, sport musobaqalari, orakullari (kohin-valiylari) bilan yunon elini birlashtiruvchi markazlar bo'lgan. Argosda Gera, Afinada Afina sharafiga bayramlar o'tkazilgan. Olimpiada shahrida Zevs sharafiga Olimp musobaqalari bo'lgan.

Yunon olimlari Qadimgi Misr, Mesopotamiya va Kichik Osiyo xalqlarining bilimlaridan bahramand bo'lganlar. Qadimgi Sharq fani yunon dunyosida ilm-fanning rivojlanishiga ta'sir etgan. Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Yunonistonda madaniyat va fan rivojlanib Gerodot, Demokrit, Prator, Gippokrat, Suqrot, Aflotun, Arastu kabi olimlar ijod qilganlar.

Miloddan avvalgi VI asrda Kichik Osiyodagi Milet shahri ilm-fan markazi bo'lgan. Kichik Osiyo olimlari Misr va Mesopotamiya olimlarining ilmiy bilimlarini rivojlantirganlar. Ular tabiat va jamiyat hodisalarining sabablarini tushuntirishga harakat qilib, tabiat va hayotning ibtidosini suv, havo yoki olov deb faraz qilganlar.

«Tarixning otasi» deb nom olgan yunonistonlik tarixchi Gerodot (mil. av. V-asr) Misr, Bobil, Suriya, Kichik Osiyo va Qora dengiz sohilidagi mamlakatlarga sayohat qilib, o'zining «Tarix» kitobida turli xalqlar haqida ma'lumotlarni yozib qoldirgan.

Yunon olimlaridan biri Demokrit (mil. av. 460-370 yillar) «Hamma narsalar eng mayda zarracha, atomlardan tashkil topgan», – degan fikrni ilgari surgan. U fanning ko'p sohalari bilan shug'ullangan.

Kos orolida tug'ilgan yunon tabibi Gippokrat (mil. av. 460-375 yil) tibbiyot bilimlarini otasi Geraklitdan o'rganadi. U mashhur tabib bo'lib, tibbiyotning barcha masalalari bilan shug'ullangan va ulug' faylasuf ham bo'lgan. U shogirdlari bilan birga 72 kitobdan iborat «Gippokrat to'plami» nomli tibbiy asar yozib qoldirgan.

Afinalik faylasuf Suqrot (mil. avv. 441-399 y.) birorta kitob yozmagan. U odam gavjum joylarda shogirdlarini haqiqatni bilishga undab, – haqiqat bahs orqali bilinadi, – degan. Suqrot o'z qarashlarida odamlarni tenglashtirishga qarshi chiqqani uchun Afina Quldorlik demokratiyasi namoyandalariga yoqmagan va uni o'limga hukm qilishgan.

Makedoniya saroy tabibining o'g'li Arastuni (mil. avv. 384-322 y.) Sharqda «birinchi muallim» deb ataganlar. U juda ko'p asarlar yozib, ilmiy bilimlarni alohida sohalarga bo'lib chiqqan va mustaqil fanlarga birlashtirgan. Arastu Yer koinotning markazi deb hisoblagan. Uning mashhur asari «Siyosat»dir.

Yunoniston afsona va rivoyatlar yurti bo'lib, Qadimdan adabiyot rivojlangan. «Prometey», «Gerakl», «Didal va Ikar», «Argonavtlar», «Odissey» va «Iliada» kabi afsona va dostonlarda yunonlarning turmush tarzi va tarixi bayon qilingan. «Iliada» va «Odissey» dostonlarini mil. avv. VIII asrda yashagan ko'r baxshi Gomer yaratgan edi. Dostonlarda Troya urushlari hikoya qilinadi. Arxeologlar Gomer dostonlariga asoslanib Qadimgi Troya madaniyatini topganlar.

Doston va afsonalar teatr uchun boy ma'lumot bergan. Qadimgi Yunon teatri mil. avv. VI asrlarda Qishloq ho'jaligi homiysi, xudo Dionis sharafiga o'tkaziladigan bayramlar vaqtida ijro etiladigan qo'shiqlar va o'yinlar asosida vujudga kelgan. Yunonlar teatrni «katta yoshdagilar maktabi» deyishgan.

Teatr yunonchada «tomoshalar joyi» degan ma'noni anglatadi. Keyinchalik qurilgan Yunon teatrlariga 17-25 ming tomoshabin joylashgan.

Teatr san'atining rivoji mashhur yunon adiblari ijodi bilan uyg'un bo'lgan. Adiblar afsona va rivoyatlar asosida tragediyalar yaratganlar. Tragediya yunonchada «echkilar qo'shig'i» degan ma'noni anglatadi.

Mil. av. VI-IV asrlarda Esxil, Sofokl, Yevripid tragediyalari Aristofan komediyalarini teatrdan tomoshabinlar maroq bilan ko'rishgan. Esxilni «tragediya otasi» deb ataganlar. Uning «Zanjirband Prometey», «Forslar» tragediyalari, Sofoklning «Shoh Edip», «Antigona» tragediyalari mashhur bo'lgan. Sofokl 120 dan ko'proq tragediya yozgan.

Aristofan «Tinchlik», «Suvoriylar» degan komediyalarida urush voqealarini va o'sha davrdagi illatlarni tasvirlagan. Bu ijodkorlarni xalq hurmat qilib Afina teatriga haykallarini o'rnatganlar va «donishmandlik yo'l boshchilari» deb ataganlar.

Qadimgi yunonlarda me'morchilik, haykaltaroshlik va rassomchilik Krit-Minen davrlarida vujudga kelib, keyingi davrlarda rivojlanadi va mil. av. V asrda yuqori pog'onaga ko'tariladi.

Qadimgi yunonlar me'morchilikda ustunli binolar Qurishlikni misrliklardan o'rgangan bo'lsada, bu usulni Qayta ishlab uchta uslub yaratganlar: doriy, ioniy, korinf uslubidagi binolar. Ular ibodatxona, teatr, saroy va majlis binolariga alohida e'tibor berganlar. Dastlab bunday binolar doriy uslubida-ustunlar tagkursiga emas, yerga o'rnatilgan. Keyinchalik marmar toshlardan kuchli erkak kishining gavdasiga o'xshash ustundan, ba'zi ustunlar nozik, yuqori Qismi gajakQayrilma, naQshli uslubdagi binolar Qurilib, ayol gavdasiga Qiyoslangan. Ibodatxonalarning baland poydevorlari bo'lib, ichi va tashQarisi haykallar bilan bezatilgan.

Afina akropolidagi Parfenon, Erehteyon ibodatxonalari yunon me'morchiligining nodir asarlaridan bo'lib, hozirgacha saQlanib Qolgan. Prafenon ustunlari doriy uslubda bo'lsada, tarz-tarovati ioniycha uslubdadir. Uning Qarshisidagi Erehteyon ibodatxonasi sof ioniycha uslubda, Qiz xaykallar ustun vazifasini bajarib, nafis ishlangan.

Mil. av. IV asrda rasm bo'lgan korinfcha uslubdagi ustunlar uzunroQ, tagkursisi va Qoshi ancha murakkab bo'lib, akanf o'simligi yaproqlari bilan bezatilgan. Afina markazida Lisikrat yodgorlik haykali shu uslubda Qurilgan.

Yunon haykaltaroshligi ham mil. av. V-IV asrlarda yuksak darajada rivojlandi. Haykaltaroshlar bu davrda odam gavdasining harakat Qilib turgan holatini tasvirlashni bilib olganlar. Miron, Poliklet, Fidiy, Traksitel, Skopas, Lisini kabi haykaltaroshlar yartagan haykallar jonli harakatli holatda ishlangan.

Yunon rassomchilik san'ati namunalari kam saQlanib Qolgan bo'lsa-da, asosan ko'za, vaza va sopol idishlar sirtiga rassomlar yunonlar hayotidan olingan ayrim manzaralarni ishlaganlar. Mazkur rasmlar jozibasi bilan diQQatni tortadi.

Ellinizm davrida (mil. av. III-II asrlar) madaniyat xilma-xil bo'lib, asosan ilm-fan taraQQiy etdi. Aleksandr Makedonskiy istilo Qilgan xududlarga yunon madaniyati kirib borishi bilan birga YaQin va O'rta SharQ mamlakatlari madaniyatiga uyg'unlashib, madaniyat sintezi yuz berdi. Mamlakatlarni o'zaro aloQalari kengaydi.

Yunon-Makedoniya va Ellinlashgan mahalliy zodagonlar orasida umumyunon tili «Koyne» (umumiy) keng yoyildi. Yangi dunyoQarash falsafiy tus olib kosmopolitizm (dunyofuQorosi) nomi bilan mashhur bo'ldi.

Iskandariyadagi va SharQiy O'rta dengiz bo'yidagi boshQa shahar kutubxonalarida Yunoniston va SharQ mamlakatlaridan olib kelingan ilmiy asarlar to'plangan. Iskandariyada teatr, saroy, gimnaziya va mashhur Muzey bo'lgan. Muzeyda rasadxona va ulkan kutubxonada 700 mingga yaQin Qo'l yozma saQlangan. Shahar oldidagi orolga 140 metr balandlikdagi mayoQ Qurilgan. Bu mayoQ kemalarning gavanga kirish yo'lini ko'rsatib turardi.

Ellinizm davrida fanlar tizimiga asos solindi. Straton xizmati bilan fizika fani paydo bo'ldi. Yevklid va Arximed matematikani rivojlantirdi. Aristrax astronomiya sohasiga ulkan hissa Qo'shdi. SharQ mamlakatlarida yunon me'morlari, haykaltaroshlar, rassomlar nodir asarlar yaratganlar. BiroQ, mil. avv. III-II asrlarda yunon san'atining hususiyatlari o'zgargan. Hukmdorlar saroylari korinfcha uslubdagi ustunlar bilan Qurilgan. Tasviriy san'atda odamlarning tashQi Qiyofasini va ichki kechinmalarini ko'rsatishga intilishi yangilik edi.

Tayanch tushunchalar

An'anaviy madaniyat, evolyusiya, kosmogenez, fira'vn, ehrom, papirus, astrologiya, taQvim, Veda, ellinlar madaniyati, Moxabxorot.

Mavzuni takrorlash uchun savollar

1. Qadimgi SharQ madaniyati vujudga kelishining shart-sharoitlari.
2. Qadimgi SharQ va g'arb madaniyatlari rivojlanishidagi o'ziga xoslik nimada?
3. Qadimgi sharQliklarning dunyoQarashi va tafakkuridagi farqli jihatlari.
4. Qadimgi SharQ va antik davrda din va davlatning o'zaro munosabati.
5. Qadimgi SharQning asosiy manzilgochi Misr madaniyatini tavsiflang.
6. Qadimgi Mesopatamiyaning asosiy madaniy yodgorliklarini aytib bering.

7. Qadimgi Xitoy madaniyatining Qanday namunalarini bilasiz?
8. An'anaviy madaniyatda udumlar, mifologiya va ilmning o'rni.
9. Antik dunyo madaniyatining jahon madaniyati tarixida tutgan o'rni.
10. Qadimgi Sharq va g'arb madaniyatlarining o'zaro muloqoti va bir-biriga ta'siri.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'li. T., 1998 y.
2. Vasilev L.S. Problemi genezisa kitayskoy misli. M., 1989 g.
3. Veynberg I.P. Chelovek v kulture Drevnego Blijnego Vostoka. M., 1986 g.
4. Drevnie sivilizatsii. M., 1987 g.
5. Yerasov B.S. Kultura, religiya i sivilizatsiya na Vostoke. M., 1979 g.
6. Konrad N.I. Zapad-Vostok. M., 1972 g.
7. Literatura Drevnego Vostoka M., 1984 g.
8. Oldenburg S. Kultura Indii. M., 1991 g.
9. Oppenxeym A.L. Drevnyaya Mesopotamiya. M., 1980 g.

4-MAVZU TEXNOGEN MADANIYAT (XVI-XX ASRLAR)

Ma'ruza rejasi:

1. Texnogen madaniyatning shakllanishi.
2. Zamonaviy madaniyatda texnikaning ahamiyati.
3. Ommaviy madaniyat.

Zamonaviy madaniyatni texnikaviy, texnika hukmdorligi, dunyoviy-elektron yoki axborot madaniyati deb ataydilar. Bunday munosabat hozirgi madaniyatda fan va texnikaning o'zni muhimligini ko'rsatadi. «Zamonaviy» yoki «Yangi» fan antik yoki o'rta asrlardagi fandan tubdan farq qiladi. Agar, ilgari fan dunyoni asl holda, unga dahlsiz o'rgangan bo'lsa, endi esa, fan bilish, yaratish, ixtiro, loyiha tuzish kabi jarayonlarni mujassamlashtirib «inson idroki yordamida hal bo'ladigan muammolarga e'tiborini jalb qilmoqda». Hozirgi fanning jo'shqin qiyofasi mana shundan iborat. Haqiqatni anglashga urinish o'rniga insonning qiziqish va ehtiyojlari mos keluvchi aniq imkoniyatlarni hisobga olish harakati ustun bo'lmoqda.

Fan va madaniyatdagi yangi yo'nalish shakllanishining boshlanishi uyg'unish davri bilan bog'liq. (XIV-XVI asrlar). Uyg'unish-Evropa madaniyati taraqqiyotidagi muhim davr bo'lib, davriy jihatdan o'rta asrlarga mansub. Biroq, bu davr mutlaqo yangi madaniyat bosqichini ochdi. Shaharlar ko'payishi, Yevropada ichki va tashqi savdoning vujudga kelishi, hunarmandchilikning rivojlanishi Yevropa madaniyatida yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Qisqa vaqt ichida o'rta asrlar jamiyatida moddiy madaniyat va texnologiyalar o'zgarib ko'plab muhim ilmiy kashfiyotlar qilindi. Buyuk geografik kashfiyotlar diniy «dunyo qiyofasini» o'zgartirdi, aqliy va iqtisodiy hududni kengaytirib jahon savdosini vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Antik davr merosini o'rganish yangi falsafiy yo'nalishlar paydo bo'lishiga turtki bo'lib inson va tabiatning o'zaro munosabatlarida mutlaqo o'zgacha andoza shakllandi.

Jamiyatdagi shaharliklar orqasida «gumanizm» deb nomlanuvchi yangi g'oya shakllandi. Bu nom inson haqidagi yangi dunyoviy fandan (studia humanitatis) kelib chiqqan bo'lib, ilgari «ilohiyat haqidagi fanni» (studio divinus) asta-sekin siqib chiqardi. Insonparvarlik g'oyasi quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Tabiat qonunlarini «tabiiy-muvofiqlik» tamoyili asosida tushuntirishga asoslanish;
2. Insonni muammolar markazi qilib olish (antropotsentrizm) – insonga tabiatning toji sifatida qarash;
3. Aqliy tafakkur (Rasionalizm)- inson idrok va zakovat orqali atrof muhitni, o'z-o'zini biladi deb hisoblash;

Inson nimasi bilan yerdagi boshqa barcha narsalardan farq qilib xudoga yaqinlasha oladi, inson qanday fazilatlarga ega? Insonparvarlik g'oyalarining rivojlanishi dunyo va insonning diniy konsepsiyasi buzilishiga va XVIII asrda inson shaxsining o'zini qadrlash haqidagi ta'limot paydo bo'lishiga olib keldi. Gumanistlar o'z ta'limotining ishonch mezonini deb empirik-tajriba va rasonallikni hisobladi. Bu xulosa ularni cherkovni Reformatsiya qilish (M. Lyuter, J. Kalvin), utopik sotsializm (T. Mor, T. Kampanella) va ijtimoiy pragmatizm (N. Makkiavelli) kabi g'oyalarni nazariy asoslashga olib keldi.

Uyg'unish davri gumanistlari dunyo va inson paydo bo'lishidagi ilohiy g'oyalarni butunlay inkor qilmadi, balki olam doimiy va qat'iy qonunlarga muvofiqlik ravishda bunyodga kelishini tasdiqladilar. Idrok insonga shuning uchun berilganki, idrok yordamida inson bu qonunlarni tushunib o'z jamiyatlarini tuzishlarida qo'llashi yerda baxtning qaror topishiga garov bo'lib oxiratini ham obod qilishlari mumkin. Inson tabiat qonunlariga mos ravishda rivojlanuvchi tabiatdan aqli mavjudot hisoblanib, nafaqat moddiy dunyo markazida turadi, u shuningdek, badiiy tushunish va tasvirlash ob'ekti hamdir.

Antropotsentrizm, rasionalizm, ssientizm- Uyg'unish davri madaniyati yaratgan asosiy qadriyatlar keyingi asrlar Yevropa madaniyati asosini belgiladi. Uning keng rivojlanishi natijasida XVII asrda «ilmiy inqilob», XVIII asrda Ma'rifatparvarlik g'oyalarining tarqalishi va sanoat inqilobi boshlanishiga, nihoyat, XIX-XX asrlar davomida madaniyatning klassik texnikaviy shaklidagi yutuqlarga olib keldi.

XVII asrda fan Yevropaliklar hayotiga, jamiyat ishlab chiQarishining barcha tizimlarini rivojlantirish va me'yorida faoliyat ko'rsatishning tabiiy va zaruriy sharti bo'lib maxsus ijtimoiy institut sifatida jadal kirib keldi. Davlat bu turdagi faoliyatning barcha Qiyinchiliklarini o'zining zimmasiga oldi. XVII asrda ilmiy inQilob matematika va mexanikada sodir bo'lib, aniQ fanning ikki yo'nalishi, ya'ni, aksiomatik va tajribaviy faoliyatlar birlashdi. Zamonaviy fanda eksperiment (tajriba) bilishning usuli va Qurol sifatida nazariy fanning antik va o'rta asrlar shaklida tubdan farQ Qiladi. Eksperimentga tayanuvchi olim antik davr donishmand-faylasufi yoki o'rta asrlardagi ilohiyotshunosdan farqli olamga mutlaQo boshQacha munosabatni o'ziga tanladi. U sodir bo'layotgan hodisalarni kuzatish va mushohada Qilishdan tabiatni ehtiyojiga mos tarzda o'zgartiruvchiga aylandi va o'zining sirlarini namoyon Qildi.

Fanning shakllanishi va sekin-asta jamiyat hayotiga muhim asos bo'lib kirishi yangi davr kishisining turmush tarzi, fikr yo'sini, tafovutli Qiyofasi sifatida rasionalizmning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Rasionalizmning keng ko'lamda namoyon bo'lishi XVIII asrdagi ma'rifatparvarlik harakati bilan bog'liQ. Barcha baxtsizlik va nohaqlikdan insoniyatning aziyat chekishi bilimsizlikdan ekanligiga, faQat ma'rifatli xalQ va uning hukmdori «Ozodlik, Tenglik, Qardoshlikni» o'rnatishga ma'rifatparvarlar ishonganlar. Ma'rifatparvarlar vakili D. Didro va D. Alamber «Fan, san'at va hunarmandchilik ensiklopediyasi»ni nashr Qilishi katta madaniyat yutug'i bo'ldi. «Ensiklopediya» nafaQat insoniyatning muhimi ilmiy yutuqlarini tartibga soldi, balki yangi madaniy Qadriyatlar tizimini ham tasdiqladi.

Ma'rifatparvarlarning rasionalistik yo'nalishi XVIII asrdagi ishlab chiQarishni tashkil Qilish, davlatning ichki va tashqi siyosati, huquq institutlari va siyosiy partiyalarning shakllanishi, san'at taraqqiyotida ko'plab tamoyillarni belgilab berdi. Ma'rifatparvarlar Buyuk Fransuz inQilobining ideologlari hisoblanib, Uyg'onish davri gumanistlari boshlab bergan madaniy Qadriyatlarni ulug'lash jarayonini nihoyasiga yetkazdi. XVIII asrda ilmiy bilim jamiyat ongini butunlay yangi sifat darajasiga ko'tardi. Fan insonning ma'naviy hayotiga, chuqur kirib borib uning madaniyatiga mazmun bag'ishladi. Kishilarning -tabaqaviy, milliy-irQiy yoki boshqa farqlaridan Qat'iy nazar barcha uchun bir xil mohiyat kasb etdi.

Yevropa va Shimoliy Amerikaning ko'plab mamlakatlarida XIX asrning o'rtalarida industralashtirish yoki sanoat burilishi nihoyasiga yetdi. **Rasionalizm va utilitarizm** (manfaatparastlik) ning madaniyatdagi belgilovchilik o'rni fan va texnika taraqqiyotiga yangi turtki berdi. Oddiy to'quv dastgohi «Jenni» dan J. Uattning bug' mashinasi (1784 yil) va R. Fultonning bug' kemasi, Stefensonning parovozidan (1814 yil) birinchi yer osti temir yo'liga (1863 yil) o'tilishi injenerlik fikrining o'sishini ko'rsatdi. Bug' va elektrlashtirish, telefon va telegraf davri, astronomiya, geologiya, biologiya, ximiya sohalarida ajoyib kashfiyotlar bo'lgan vaQt insoniyat madaniyatini yangi bosqichga ko'tardi. P. Sorokinning xulosasi bilan aytganda «faQat birgina XIX asrdagi kashfiyot va yangiliklarning o'zi oldingi asrlardagi kashfiyotlarning hammasini jamlagandan ham ko'pdir».¹ Xususan, bu asrdan 8527 ta kashfiyot makon, zamon va materiya ustidan texnika hukmronligining cheksiz o'sganligidan dalolatdir. Ispan faylasufi X. Ortegi-i Gassetning yozishicha: «Biz haqiqatdan ham XIX -asrda ro'y bergan inson taqdiridagi radikal o'zgarishlar oldida turibmiz. Zamonaviy inson uchun ham jismonan, ham ijtimoiy jihatdan mutlaQo yangi manzara, yangi faoliyat yaratildi. Bu yangi dunyoning Qiyofasini uchta muhim jihat belgilaydi. Bu demokratiya, eksperimental fan va industrializatsiya. Ikkinchi va uchinchi jihatlarni «texnika» nomi bilan umumlashtirish mumkin»².

Sivilizatsiyaning o'sishi dastlab makon va zamonga xos kechdi: insonning ma'naviy dunyosi o'tmishning yangi xududi va yangi «Qatlami» ni o'zlashtira boshladi. Bilishning maydoni chuqurlashdi va kengaydi. biroQ, shu bilan birga zamon va makonni yenguvchi yangi usullar ham paydo bo'ldi: inson yangi texnika vositasida ulkan fazoviy vaQtni Qisqa muddatda bosib o'tib, yer yuzining xoxlagan joyida bo'lishi mumkin. Dunyo yangi Qiyofa kasb etdi.

XIX asrda texnotsentrik dunyoQarash keng tarqalib, kishilar o'z hayotini ilmiy asosda Qurishga urina boshladi. Injenerlik faoliyati tamoyillari tabiat va jamiyat hayotiga keng yoyildi. Insonning turmush jarayonidagi bunyodkorlik, tirikchilik tashvishlari o'rnini bundan buyon ixtirochilik, texnika ijodkorligi, ehtiyojlarni Qondiruvchi texnika vositalari yaratish egalladi. Tabiat, inson,

¹ Сорокин П. Человек, Цивилизация, Общество, М. 1992, с 467-6.

² Ортега-и- Гасит Х. Восстания масс.- Вопросы Философии, №3, 1989, 127-128 б.

madaniyat kabi tushunchalar talQini sezilarli o'zgardi. Tabiat material va energiyaning bitmas-tuganmas manbai, universal omborxonaga aylanib Qoldi. hatto, tabiat sirlarini o'ta chuQur anglash ham unga yaQinlashish degani emas, balki, aksincha Qandaydir uzoQ begonalikni, faQat texnik yondoshuvni bildiradi. Insonning o'z tabiati sirlarini anglashga urinishi shunchalik Qarama-Qarshi natijalarga olib keladi. XIX asr insonga «koinot sardori», «barcha narsalardan yuQori» yorlig'ini berdi. Inson ko'proQ «mexanik agregat», «fizik-kimiyoviy unsurlar majmui», «maymunga turdosh mahluQ», «turli mehnat Qurollari tayyorlovchi Xomo faber» kabi sifatlar bilan atala boshlandi. Insonning o'zi mexanizm bo'lgani kabi, dunyo ham unga o'xshash ulkan mashina ishlab chiQaruvchi fabrikadir. Insonning o'zi-o'rtacha mehnat unumdorligi o'lchamidagi madaniyat ijodkori. MaQsadga muvofiQlik, risoladachilik, me'yorlik insonni butunlay hayotini belgilab, uni o'rtacha, baravar Qilib tenglashtiradi: maQsadlar baravarlashadi, umumhayotiy andoza, turmush tarzi Qonuniylashdi, barchaning huQuQi tenglashdi, ko'p sonli o'rta sinf shakllandi, misli ko'rilmagan muvaffaQiyatlar ila ozodlikka erishdi, munosabat, did, odatlar andozalashdi. Ommaviy madaniyat, hissiz, shaxssiz madaniyatlar davri keldi.

XIX- asrda texnika taraQQQiyoti g'ayriQonuniy ravishda madaniyatning butun rivojini bir xil Qolipda o'lchashi jamiyat fikrida iQTisodiy omillarning ahamiyati oshuviga olib keldi. Bu esa olamni texnik o'zlashtirish suratlari sezilarli o'sishiga sabab bo'ldi. OQibatda taraQQQiyotning butunlay va shubhasiz o'sishi jarayonida sivilizatsiya butunlay halok bo'lishi mumkin (Y. Xeyzinga). Bu muammolar XX asrda yaQQol ko'zga tashlandi.

XX asrda texnika surati haddan tashQari o'sdi. Keyingi yuz yilda yer yuzida sanoat ishlab chiQarishi 50 martadan oshdi, bu o'sishning 4g'5 Qismi 1950 yildan keyingi davrga to'g'ri keldi. HaQli ravishda XX asr insoniyat tarixiga ilmiy-texnika inQilobi asri bo'lib kirdi. Insonlarning hozirgi vaQtdagi ta'sir kuchini tabiatning eng beshafQat kuchlari bilan teng Qo'yish mumkin. Shuning uchun ham xususan XX asrda texnika muammosi va uning madaniyatdagi o'rniga olimlar o'z e'tiborlarini alohida Qaratdilar.

Texnika so'zining o'zi mahorat, san'atni anglatib, ishlab chiQarishga bog'liQ yoki bog'liQ bo'lmagan faoliyatni amalga oshirish uchun kishilar yaratgan vositalar yig'indisi uni belgilaydi yoki anglatadi. Insonlar jamiyati paydo bo'lishi bilan amalda texnika paydo bo'ldi, dastlab kishining mehnat faoliyatida yordam beruvchi mehnat Qurol sifati, keyin, har xil maQsadda ishlatiladigan texnikaning boshQa turlari vujudga keldi. Texnikaning xususiyatlari shundaki:

1. Texnika sun'iy ravishda, kishilar tomonidan tabiatni o'zgartirishi natijasida yaratilib, oQibatda, oldindan yaralgan ideal andozalar moddiylikda mujassamlanadi;

2. Texnikaning ommaviy xususiyati- u avvalo, kishilarning amaliy ehtiyojlari bilan bog'liQ bo'lib, shu ehtiyojlarni Qondirishga xizmat Qiladi;

3. Texnikaning muhim parametrlaridan biri rasionallik hisoblanadi, ma'lum jamiyat doirasida u yoki bu texnika Qurilmasini ma'lum Qadar tezroQ ishlab chiQarishga mo'ljallanadi.

Texnika madaniyatning favQulodda hodisasi sifati jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatni ta'minlaydi, u ijtimoiy madaniyat jarayonining ajralmas tarkibiy Qismidir. Texnika taraQQQiyoti insonning tabiat ustidan hukmronlik Qilishida uning imkoniyatlarini kengaytirdi, madaniy va ijtimoiy o'zgarishlarni muQarrar amalga oshiradi. Madaniyatda texnikaning o'rniga xususida turlicha Qarashlar mavjud.

Texnodeterministik konsepsiya texnikani har doim insonga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ishonchli asoslaydi. Ilmiy taraQQQiyot va texnika yutuqlari insonga ko'plab sirlarni ochib, uni ulkan miQdorda moddiy boylik bilan ta'minlaydi. Ilmiy-texnika taraQQQiyoti bilan bog'liQ barcha muammo va Qarama-Qarshiliklar, ya'ni texnik vositalarning biosferani halokatga yaQinlashtiruvchi ta'siri axborot aloQa davri deb ataluvchi insoniyat taraQQQiyotining keyingi bosQichida ijobiy bartaraf Qilinishini ta'kidlaydilar. Texnikani optimistik baholashda texnokratik nazariya katta ahamiyatga ega. Texnokratiya- jamiyatdagi shunday kuchki, u jamiyatning texnik-texnologiya taraQQQiyoti istiqboliga xususidagi ilmiy bashoratida nufuzli ilmiy xulosalarga tayanadi.

Yevropada XVIII-asr oxirlaridanoQ texnikaning halokatli ta'siri haQida xabarlar tarQala boshladi. Turli falsafa maktabining vakillari texnika sivilizatsiyasi, uning QattiQ, «temir sur'ati», beshafQat va axloQsizligini ta'kidlab, hayot, tabiat, insonga xurmatsizligini QattiQ tanQid Qila boshladilar. Ular jamiyatda texnikaga sig'inish, uni ilohiylashtirish holati sodir bo'layotganiga, texnika zamonaviy sivilizatsiyaning ofati bo'lajagiga o'z e'tiborlarini Qaratdilar. Texnikaning

nazoratsiz taraqqiy etishi ekologik muammolarni tug'dirdi, harbiy sanoat komplekslarining keng rivojlanishiga sabab bo'lib, oqibatda insonni texnikaning ijro qismiga aylantirib qo'yadi.

Agar nazariyotchilarning bir qismi texnikaga pessimistik nazar bilan qarab, an'anaviy jamiyatga qaytishni yagona yo'l deb qarashayotgan bo'lsalar, boshqalari esa texnikaning agressivligi va murosasizligini ta'kidlab, inson bunday sharoitda faqat bitta iloji bo'lgan usul bilan qarshi turishi mumkin, ya'ni kuchi yetganicha texnomadaniyatning parchalanishiga yordam berishi kerak, deb hisoblaydilar.

Biroq, barcha muammo texnikaga emas, balki insonning o'ziga bog'liq. Texnika axloqiy jihatdan mustaqil olam emas, uning majmui xususiyatida jamiyatning qadriyat tuzilmasi namoyon bo'ladi. «Texnika-inson» ziddiyatlarining bartaraf qilinishi yangi tipdagi insonning shakllanishiga bog'liq bo'lib, bu madaniyatdagi biosferik tamoyillarini hisobga oluvchi, tabiat va inson munosabatlarini uyg'unlashtirishga harakat qiluvchi madaniyatning bosh muammolarni oqilona hal qilishni ta'minlovchi sifatga ega bo'lgan yangi insondir.

Biosferik tamoyilning asoschilari V.I. Vernadskiy, K.E. Sialkovskiy, A.L. Chijevskiy bo'lib, bu nazariya D. J. Forrester, D. Medouz, M.V. Mesarovich, E. Pestele, A. Pechchen kabi Rim klubi olimlarining asarlarida takomillashtirildi. Biosferik tamoyil Yerning evolyusiyasini umumiy geologik, biogenik, ijtimoiy va madaniy jarayon sifatida qaraydi, planetaning ko'evolyusiya asosida tabiiy va sun'iy hamkorlikda rivojlanishi zarurligini ko'rsatadi. Buning uchun omma ongida «Hayotga etikaning tan berishi» ni singdirish lozim (A. Shveyser), bunga O. Leopold tomonidan ishlab chiqilgan «aksiologik uchlik» tushunchasi asos bo'lishi mumkin; ya'ni, insonning artof-muhit bilan o'zaro munosabatini quyidagi qadriyat mezonlari belgilashi lozim: butunlik, barqarorlik va go'zal olam.

Insoniyat bu qadriyatlarga amal qilib, sifatli yangi iqtisodiy tip-«Hayot iqtisodini» yaratishga qodir bo'ladi. «Hayot iqtisodi» ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini inkor etmagan holda na ishlab chiqarishda eng yuqori miqdoriy manfaatni, na biror kerakli joyda zarur miqdordagi va zarur sifatdagi boylikni ko'zlab ish tutadi. L. Mamford yozishicha: «Bunday iqtisodiyot har qanday tirik jon, har qanday jamoa uchun zarur bo'lgan xilma-xil boylik va kechinmaga ega bo'lishni taqozo qiladi, negaki tug'ilgandan to o'lgungacha uning individual hayoti shunday o'tsin». Madaniyatdagi biosferik konsepsiya tarafdorlari insoniyat tarixida o'zlarining madaniyat tasnifini tuzib, unda ta'kidlashlaricha insoniyatning ilk bosqichlarida madaniyatning turli hil biogelik ko'rinishlari mavjud bo'lgan, keyinchalik sun'iy ravishda «tabiat ustidan hukmronlik qilish» shioriga tayangan holda texnogenik madaniyat yaratildi zamonaviy odamlar yerdagi ekologik qonunlarga asoslanib turmushi taqozo qiluvchi noogenik madaniyatga o'tadi. Ekologik madaniyat hozirgi zamon sivilizatsiyasining ahamiyatga molik belgilaridan biriga aylanib bormoqda 1980 yillardan e'tiboran zamonamiz ilm-fani tobora ekologiyalashmoqda. Dastlabki paytlarda ekologiya hayvonot va o'simlik dunyosining atrof muhit bilan bog'liqlik aloqalarini tadqiq etgan bo'lsa, so'ngiroq bir butun tarzda Yerning ekotizmi, biotsenezi, biosferani o'rgana boshladi. 1970 yillardan ekologiya jamiyat hayotidagi jarayonlarni o'rganishga kirishdi. Insoniyat jamiyati bilan uni o'rab turgan tabiiy iqlimiy, sotsial-madaniy muhitning aloqadorligi muammolarini o'rganuvchi sotsial ekologiya shakllandi. Ekologiyaning tabiiy va sotsial muhiti inson uning genofondi, odamni bugungi olamga moslashish jarayoni hususiyatlarini tadqiq etuvchi mustaqil tarmog'i «inson ekologiyasi» vujudga keldi.

Tabiiy va sotsial, tabiiy va sun'iy jarayonlarning o'zaro ta'sir aloqadorligini optimallashtirishni ekologik madaniyatni boshlanishi» deb hisoblash mumkin. Bu insoniyat tomonidan tabiiy va sun'iy ikki tizimning teng huquqligini tan olishi demakdir. Ayniqsa bu qishloq ho'jalik sohasi uchun o'ta ahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamon qishloq ho'jaligi uchun mahsuldorlik va tovar ishlab chiqarish hajmi asosiy strategik maqsad emas, gap ekologiya qonuniyatlariga muvofiq tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof muhitni asrashdan iborat. Sanoat ishlab chiqarish uchun ekologik qonunlar tabiat resurslariga tejamkorlik asosida yondoshish imkoniyatini beruvchi texnika va texnologiyani yaratishdangina iborat bo'lmay ayni paytda, insonning mavjudligi va yashash muhiti-biosferani asrash, qayta tiklashdan iboratdir.

XX asr o'rtalaridan fan va texnika taraqqiyoti kuchli axborotlar yig'imini paydo qildi. Ommaviy axborot vositalari (OAV)- matbuot, kino, radio, televidenie, kompyuter aloqasi zamonaviy sotsiymadaniyat jarayonida salmoqli o'rinni egallay boshladi. OAV yoki buning boshqacha mass media deb nom olgan turi axborot uzatishdagi kanallarning ko'pligi, tezligi va uzoq ishlashi bilan

ulkan hajmdagi axborotlarga ega bo'lmog'da. 1940-50 yillarda G.M. Makmoen asarlarida ommaviy kommunikatsiya birinchi marta madaniyatning yangi tipi, va kishilarning ijtimoiy munosabatidagi mutlaqo yangi tip sifatida ta'riflandi.

Uning fikricha bu vosita insonlarning axborot olishdagi raqobat kurashida Qudratli kuchga aylanadi.

OAV elektron texnika va yo'ldosh aloqalardan foydalanib, kishilarni ijtimoiy hodisalar va madaniy boyliklarni bir vaqtda idrok qilishga undaydi. G.E. Makmoen ta'kidlaganidek «hammabop va omma yoqtiradigan yangi dunyoviy elektron madaniyati» shakllanmog'da.

Haqiqatdan ham zamonaviy madaniyatning holisona tahlili shuni ko'rsatmog'daki, ma'naviy madaniyat ko'proq ommaviylik kasb etib bormog'da. Ommaviy madaniyatning Qiyofasi Quyidagicha:

1. U millati, yoshi, joyi, ijtimoiy xususiyatlarga bog'liq bo'lmagan ommaviy iste'molchilarga ega bo'ladi;

2. Bu madaniyatdagi namunalarni yaratgan jarayonning o'zi ommaviy xususiyat kasb etib, industriyaning mahsus ko'rinishini o'zida namoyon qiladi, ya'ni unda yuz minglab kishilar band bo'lib, ularning «matbuot Qiroli», «Buyuk shou tomoshachilari», «kino, TV, estrada yulduzlari» bo'ladi.

Ommaviy madaniyat kishilarni hayotni befarq kuzatuvchi tomoshabinga aylantiradi. o'zlari ham mavjud hayotni go'yo sarob kabi tasavvur qiladilar.

Ortega i Gasset ommaviy madaniyatning ta'sir doirasini tahlil etib, omma o'ziga, shaxsga o'xshamay qolishi, kimki boshqalarga o'xshamasa, shulardek fikrlamasa taxlikada qolishini aytib, «Omma bu yo'riq-yo'nalishsiz o'qim bilan suzayotgan odamlar. Shuning uchun ular qobiliyat imkoniyatlari katta bo'lishiga qaramay, hech narsa yaratmaydi. Ommaviy odam axloqdan mahrum, chunki uning mohiyati, ongi burchiga itoatdadir», degan edi.

Ommaviy madaniyat umumiy iste'molchilik ehtiyoji bilan bog'liq. Buning asosida iste'mol talab tovar sifatida xaridorgir bo'lish ma'naviy ehtiyoji yotadi. Oqibatda hozirgi zamon madaniyatidagi ma'naviy qadriyatlar tor doiradagi ehtiyojlarni qondirish vositasiga aylanadi. Madaniyatning chuqur ma'no-mohiyati, xotira cheksizligi «odatli», «umumiy» qimmatlar bilan, haqiqiy ijod avvaldan ma'lum, mavjud namuna asosidagi «asarlar» yaratish va ishlab chiqarish (kinoseriallar, saez TV va adabiy asarlar) bilan almashinadi. Shaxs o'zining ijodiy qobiliyati milliyatidan ayrilib, tayyor «madaniy mahsulotlar» iste'molchisiga aylanib qoladi. Hususan yoshlar uchun ommaviy madaniyatning xatarli oqibatlarini Prezidentimiz bir necha bor qayd etgan edilar. Jumladan, «Fidokor» gazetasi muhbirining savollariga javoblarida: «Dunyoda bir qarashda beozor, siyosatdan holi bo'lib tuyulgan shunday mafkuraviy ta'sir vositalari ham borki, ularga kunda ko'pda yetarlicha e'tibor beravermaymiz», deb keyingi yillarda ko'plab namoyish, etilayotgan jangarlik filmlar, yalang'och asarlar yoshlar ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligini, ular insonni o'zligidan, tarixidan, madaniyatidan judo etishga qaratilganligini ta'kidlab,... har qanday kasallikni oldini olish uchun avvalo kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror topdirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, **mafkuraviy immunitetni** kuchaytirishimiz zarur», deb ko'rsatadi.

Har bir inson ikki yo'ldan birini tanlamog'i yo iste'molchi tarzda o'qim bilan suzmog'i, yohud o'ziga, o'zligiga nisbatan talabchan bo'lib girdobdan chiqmog'i lozim. Insoniyat tobora texnika taraqqiyoti va ommaviy kommunikatsiyaning sotsial va ekologik jihatdan nazoratga olish, bugungi odam ma'naviy qiyofasini bir hillashtirish (standartlash) ga qarshi jiddiy to'siq qo'yish zaruriyatini anglamog'da. Ushbu masalani o'ta keskinligiga e'tiborni qaratish, mavjud muammolarning yechim yo'llarini belgilashda 1990 yillarda BMT-Bosh Assambleyasi e'lon qilgan Madaniyatning umumjahon o'n yilligi muhim bosqich bo'ldi. «O'n yillik» ning asosiy maqsadi iqtisod va texnika tezkor rivojlanayotgan hozirgi davrda umuminsoniy madaniy qadriyatlarning birinchi darajali ahamiyatini tiklashdan iborat bo'lib, bunda quyidagi vazifalarni hal etish masalasi amaliy qo'yildi: Barcha tomonidan taraqqiyotni madaniyat yuksalish muhimligini tan olish, moddiy ishlab chiqarish bilan ijodkorlikning aloqadorlik yo'llarini belgilash, madaniy o'ziga hoslik va madaniyatlar muloqotini tan olish, individual va jamoa timsolida ijodiy potensial va tashabbuskorlikni qo'llab-quvvatlash, xalqaro madaniy hamkorlikni rivojlantirish va boshqalar. Mustaqillik tufayli O'zbekistonning asosiy maqsadi madaniyatlarni yanada rivojlantirish va bir-

birini boyitishga yo‘naltirilgan BMT boshchiligida o‘tkazilgan Qator xalQaro dasturlarda jumladan, «Umumjahon madaniy merosi», «Buyuk ipak yo‘li» dasturlarida bevosita va faol ishtirok etdi. Bugungi kunda Respublikada umumjahon ahamiyatiga molik maQomidagi SamarQand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz yodgorliklari mavjud, shulardan keyingi uchta mazkur maQomga 1991 yildan so‘ng erishdi.

«Buyuk ipak yo‘li» - bu nafaQat tarix, u bugungi kun hamdir. 1993 yilning mayida Yevropa komissiyasi Bryusselda Markaziy Osiyo, Kavkaz hamda Yevropa ittifoQi davlatlari vakillarini to‘pladi. MaQsad-ajdodlardan Qolgan Qadim yo‘llarni tiklash orQali Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaQasidagi mustaqil davlatlarni jahon iQtisodiyotiga integratsiyasini ta‘lim etish; Uchrashuvda Yevropa-Kavkaz-Osiyo transport yo‘lagini tashkil etish to‘g‘risida deklaratsiya Qabullandi. I.A. Karimov ta‘kidlaganlaridek, TRASEK (transport yo‘lagi) loyihasini amalga oshirish-Buyuk ipak yo‘lini Qayta tiklash ayrim shaxslar faoliyatining mahsuli emas, u zamon, jahon taraQQiyotining ob‘ektiv zaruriyatidir. YuNESKOning amaliy Qadamlaridan biri- «Ipak yo‘li - muloQot yo‘li dasturi asosida SamarQandda Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari tarixini o‘rganishga Qaratilgan xalQaro Markaziy Osiyo tadQiQotlari institutining tashkil etilishi bo‘ldi.

Mustaqil davlatimizning milliy madaniyatini tiklash, rivojlantirish va umuminsoniy Qadriyatlar asosida boyitish yo‘lidagi yutuqlari tufayli 1997 yili O‘zbekiston YuNESKO Ijroi Kengashining a‘zosi etib Qo‘llandi, Prezidentimiz I.A. Karimov «Ibn Sino» medali bilan taQdirlandi. Yurtimizda jisman va ma‘nan sog‘lom avlodni tarbiyalash, ta‘lim tizimini takomillashtirish yoshlarda tarixiy ong va mustaqil tafakkurni shakllantirishga katta e‘tibor QaratilmoQda. 2000 yil O‘zbekistonda «Sog‘lom avlod yili» deb belgilandi. Buni mohiyati shundaki, kechayotgan islohatlarning mohiyati insonga Qaratilgan va u inson uchun amalga oshirilmoQda. Binobarin sog‘lom avlod-millat, yurt kelajagi demak. Yurtimizni birinchi ordeni ham «Sog‘lom avlod uchun» deb nomlangani bejiz emas. Bu buyuk kelajak yo‘lidagi umidli Qadam timsolidir.

Tayanch tushunchalar

Texnogen madaniyat, antropotsentrizm, rasionalizm, utilitar, emperik, texnotsentrik, texnodeterministik, ommaviy madaniyat, mafkuraviy imunitet.

Mavzuni takrorlash uchun savollar

1. Texnika, va uning asosiy xarakterli belgilari.
2. Texnogen madaniyat va uning shakllanish jarayoni.
3. Texnogen madaniyatining muhim elementlari va vositalari.
4. Texnogen madaniyat bilan ommaviy madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi.
5. Madaniyatda Biosfera konsepsiyasining mohiyati.
6. Ommaviy madaniyat nima? Va uning bugungi ko‘rinishlari.
7. Ommaviy madaniyatning salbiy tomonlarini nimada ko‘rasiz?
8. Ekologik madaniyat deganda nimani tushunasiz, uning zarurligi.
9. Texnika va inson munosabati, bu jarayonning XXI asrdagi istiqboli

ADABIYOTLAR

1. I. Karimov, O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida, T., 1997
2. I. Karimov, O‘zbekiston XXI asrga intilmoQda, T., 1999.
3. I. Karimov, Donishmand xalQimizning mustahkam irodasiga ishonaman. Fidokor gazetasi 8 iyun 2000 y.
4. Вернадский В. Несколько слов о ноосфере, М., 1990.
5. Информатсия и культура, Новосибирск, 1990.
6. Новая технократическая волна на Западе, М., 1996.
7. Самосознание Европейской культуры в XX веке, М., 1991
8. Сорокин П. Человек. Сивилизатсия. Общество. М., 1992.
9. Швесер А. Упадок и возрождение культуры, М., 1993

8-MAVZU

MARKAZIY OSIYO XALQLARINING QADIMGI MADANIYATI. SHARQ UYG'ONISH DAVRI MADANIYATI

Ma'ruza rejasi:

1. Markaziy Osiyodagi Qadimgi madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Yunon-Baqtriya madaniyati miqiyosida Sharq ellinistik madaniyati.
3. Kushonlar madaniyati.
- 4 Sharq uyg'onish davri madaniyatini rivojlanish bosqichlarini g'ziga xos xususiyatlari.
- 5 Uyg'onish davrining Sharq va G'arb madaniyati aloqalarida tutgan o'rni

Markaziy Osiyo madaniyati jahon madaniyati tarixida muhim o'rin tutadi. Uning o'rta asrlardagi madaniyatiga butun dunyo allaqachon munosib baho bergan. Hatto Baqtriya, Marg'iyona, Sug'd, Parfiya, Farg'ona, Xorazm, Choch xalqlarining Qadimgi madaniyati ham jahonni hayratga solmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasining Qadimgi madaniyatini o'rganish o'n yillar ilgari boshlangan bo'lsada, tadqiqotchilarning bu madaniyatining o'ziga xosligi va boy mazmuni lol qoldirdi. Markaziy Osiyo madaniyati g'arb va Sharqning buyuk madaniyat elementlarini bir butunlikda uyg'unlashtirib ifodalagan holda o'ziga xos individuallik kasb etadiki, bu xususiyat keyingi taraqqiyot uchun ham negiz bo'lib qoladi.

I.A. Karimov aytganlaridek, – «Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmay ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tariximiz bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur».

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining vujudga kelishi sharoitlarini belgilashda dastavval, uning jug'rofiy o'rni va tabiiy vositalariga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi. Madaniyatshunoslik har qanday madaniyatning shakllanishidagi o'ziga xos alfozni joy manzarasi, iqlimi, biosfera omillarining ahamiyati borligiga alohida e'tibor beradi. Markaziy Osiyo mintaqasining tabiati turli xilligi bilan katta farq qiladi. Bu yerda serhosil vodiylar va vohalar, sersuv daryolar, qumqum cho'llar, dashtlar, Pamir va Tangritog'ining baland muzofatlari bilan yonma-yon joylashgan. Bunday xususiyat dehqonchilik, chorvador, tog'da yashovchi qabila va xalqlar xo'jalik tarzi va o'ziga xos madaniyatlarining shakllanishi uchun imkoniyat yaratdi.

«Qadimgi sivilizatsiya» deb nomlangan risolada Markaziy Osiyo madaniyatining ikki xususiyati ko'rsatiladi: bir tomondan, turli madaniyatlarning o'zaro ta'sirida, ikkinchi tomondan, Qadimgi sivilizatsiyalarining boshqa o'choqlari bilan yaqin aloqada rivojlanishi. Bu xususiyatlarni batafsil kuzatadigan bo'lsak Markaziy Osiyo madaniyatining shakllanish jarayonlari yaqqol namoyon bo'ladi.

Markaziy Osiyoning serhosil vodiysi, cho'l va dashti, tog'larida yashovchi aholining turmush sharoitidagi farqlar turli xo'jaliklarning ertaroq paydo bo'lishi o'ziga xos madaniyatlar shakllanishiga olib keldi. Bu jarayon yaqin qo'shinchilik munosabatlari asosida sodir bo'lib, qabila va xalqlarning iqtisodiy va madaniy aloqalari tufayli taraqqiyotning ertaroq boshlanishiga imkon yaratdi. Eng Qadimgi davrlardan dehqonchilik, chorvachilik va tog' ovchi qabilalari o'rtasidagi mahsulot ayirboshlash Markaziy Osiyo xalqlari iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega bo'lib, keyingi davrlarda ham u uzoq saqlanib qoldi. Turmush tarzi va xo'jalik faoliyatidagi farqlanish bilan birga mintaqalarning xalqlarining etnik va tillardagi yaqinlik judayam uyg'unlashib ketganligi Qadimgi Yunon va Xitoy manbalarida ham qayd qilingan. Markaziy Osiyo xalqlarining kuchli iqtisodiy aloqalari, etnik va til birligi ularning bir-biridan ayri yashashiga yo'l qo'ymadi.

Natijada Qadimgi Sharqning klassik madaniyati orasida Markaziy Osiyo Qadimgi madaniyati ajralib, o'ziga xos ko'rinishda shakllanadi. Dastlab, bu madaniyatda ikki xil madaniyat aralashib ketadi: ko'chmanchilik va ibtidoiylik olami hamda sivilizatsiya olami; Bu yerdagi Qadimgi madaniyatlarga xos madaniyatlarning o'zaro muloqotiga aks ta'sir ko'rsatgan «o'zining betakrorligi» haqidagi tasavvur shakllanmoqda.

Markaziy Osiyoning o'troq dehqonchilik va ko'chmanchi xalqlarida ancha-muncha farqlar bo'lishiga qaramasdan ilgari yaqin munosabatlar o'rnatilgan. Diniy e'tiqodlar, urf-odatlar,

folklor, axloQiy me'yorlardagi umumiylik madaniy umumiylikning shakllanishiga olib kelgan. Shuning uchun, bundan keyin Markaziy Osiyoning yaxlit madaniyatini tashkil Qiluvchi turli submadaniyatlar mavjudligi haQida to'xtalish joizdir: Qadimgi davlatlar sub madaniyati (BaQtriya, Sug'd, Xorazm, Farg'ona, Marg'iyona), dasht ko'chmanchilari-sak, massaget, da-kochchilar submadaniyati, Pamir va Tangritog' Qabilalarning submadaniyati.

Markaziy Osiyo madaniyatining o'ziga xosligining ikkinchi jihati mintaQaning o'ta Qulay jug'rofiy o'rtnashganligi bilan bog'liQ. MintaQa Mesopotamiya, Hindiston va Xitoy kabi uchta buyuk SharQ sivilizatsiyasi bilan bevosita chegaradosh bo'lib, g'arb sivilizatsiyasiga xos beshinchi-Gresiya va Rim bilan aloQada rivojlangan. Bunday aloQalarning muQarrarlari tufayli Markaziy Osiyo madaniyati SharQ va g'arb o'rtasida vositachilik missiyasini bajarishiga sabab bo'ldi, ya'ni iQtisodiy sohalarda eng avvalo xalQaro savdoda va madaniy sohalarda ham Markaziy Osiyo g'arb va SharQ o'rtasida bog'lovchi ko'priq vazifasini bajardi. Xususan, Markaziy Osiyo xududi orQali buddizm butun dunyoga yoyildi, Hindiston va Xitoyga ellinistik madaniyat ko'rinishlari o'tdi, SharQdan g'arbg va g'arbdan SharQga madaniy boyliklar (bilim, diniy g'oya, kashfiyot, bidiiy asarlarning) almashib turishida Markaziy Osiyo muhim vositachi bo'lib xizmat Qiladi.

Markaziy Osiyo madaniyatining buyuk vositachilik missiyasi boshQa madaniy Qadriyatlarini yangilashi, o'zlashtirish mahorati va Qayta ishlash kabi jihatlarisiz bo'lmas edi. Bu madaniyat QadimdanoQ yangi hodisalarni o'zlashtirish va moslashtirish mahoratiga ega bo'ldi. Garchi, boshQa Qadimgi SharQ madaniyatlaridagi kabi Markaziy Osiyo madaniyatida ham an'analar keng o'rin egallasada, ular aytarli xarakter kasb etmaydi, ya'niki, uzluksiz madaniy yangilanish va taraQQiyot jarayoniga to'siQ bo'lmaydi. Shuningdek, an'analarning mustahkam hukmronligi tarixiy vaziyatga ham to'siqlik Qilganligini ta'kidlash kerak. MintaQa orQali katta bosQinchilik yurishlari, xalqlarning ko'chishlari yuz bergan bo'lib, bu Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi davomida bir necha bor madaniyatni sezilarli o'zgarishlarga olib keldi.

Afsuski, ko'pgina urushlar Markaziy Osiyo madaniyatining Qadimgi taraQQiyot davrlarining behisob dalillarini yo'Q Qildi. Arxeolog Qazilma ma'lumotlar va yozma manbalar miloddan avvalgi I-ming yillik boshlarida vujudga kelgan Markaziy Osiyoning ilk davlatlari BaQtriya, Sug'd va Xorazm madaniyati haQida bir oz ma'lumotlar beradi. Miloddan avvalgi VIII-VI asrlarga oid Afrosiyob (SamarQand), Surxondaryo vohasidagi Qiziltepa, QashQadaryo vohasidagi UzunQir, Xorazmdagi Ko'ziliQir kabi Qadimgi shaharlarda o'tkazilgan tadqiqotlar murakkab ijtimoiy tuzilma va madaniyatning yuQori rivojlanganligini ko'rsatadi. Bu shaharlar mudofa devorlari va suv ta'minotidan iborat kuchli istehkom tizimiga ega bo'lib, ichida hunarmandlar mavzei joylashgan. Ayrim shaharlarda saroy Qoldiqlari Qal'alar topilgan. Qadimgi davlatlar xo'jaligining asosiy sohasi hisoblangan dehqonchilik taraQQiyotining darajasi haQida ko'p tarmoqli sug'orish tizimining mavjudligi bunga dalildir. Markaziy Osiyo davlatlari Qadimgi SharQ mamlakatlari bilan yaQin aloQalar o'rnatgan. Midiya va Ossuriyaning siyosiy tarixida faol ishtirok etib, hunarmandchilik buyumlari va xom ashyo bilan (lojuvardd, oltin, mis bilan) savdo sotiQ Qilganlar. Bu haQda Ossuriya va Qadimgi Yunon yozma manbalarida gapiriladi. Xususan, BaQtriyaning yirik shaharlari, ko'p sonli aholisi haQida BaQtriya shohi Oksartning afsonaviy boyligi haQida Kgesiy Knidskiy (Mil. avv. V-IV asrlar) yozib Qoldirgan.

Ko'chmanchi massagetlarning udumi va turmush tarzi haQida mashhur Qadimgi Yunon tarixchisi Geradot (mil. av. V asr) yozib Qoldirgan. U massagetlarning harbiy Qurollari (kamon-yoyi, nayzasi, oyboltasi) da oltindan bezak sifatida, misdan Qurol va sovut uchun keng foydalanishini ta'kidlaydi. Gerodatning yozishicha, massagetlar yagona ma'bud Quyoshga topinib, otni Qurbonlik Qilganlar.

Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlarining ma'naviy madaniyati haQidagi bilimlarning bebaho manbasi «Avesto» hisoblangan. «Avesto» so'zining mazmuni umumiy izohga ega emas., ko'pincha «Asosiy matn» sifatida tarjima Qilinadi. «Avesto» dunyodagi eng Qadimgi dinlardan bo'lgan zardo'shtiylik tarafdorlari uchun muQaddas kalima hisoblanib, payg'ambar Zardo'sht to'planganlarga undan va'z o'Qigan. Uning hayoti davri mil. av. IX-VI asrlar atrofida deyiladi. «Avesto» va uning boshQa matnlarining to'planishi ko'p asrlar davomida amalga oshirilgan. «Avesto»ning eng Qadimgi matnlari mil. av. II- minginchi yillarga taaluqli, «Avesto»ning millodiy VII asrga tegishli bo'lgan to'plami turli mazmundagi 21 kitobdan iborat bo'lib, unda o'sha davrning barcha bilimlari jamlangan. Zardo'shtiylik an'analoriga ko'ra bu yodgorlik Ezgulik va Yorug'lik xudosi Axuramazdaning ZaratuJtraga vahiysi hisoblanadi. BiroQ, unda Qadimgi mifologik tasavvurlar, miflarning keng tarQalishi, Qahramonlik epik

rivoyatlaridan parchalar ham tasvirlanadi. Shuningdek diniy yo'l-yo'riQ «payg'ambar davridan» keyin zardo'shtiylikning rivojlangan «e'tiQod ramzi» yuzaga keldi. hozirgacha «Avesto»ning ayrim Qismlari, 4 kitobi saQlanib Qolgan:

1. Videvdat- «Devlariga Qarshi Qonunlar», bu kitobda asosan zardo'sht va Axuramazda o'rtasida suhbat, yo'l-yo'riQ va ko'rsatmalar mazmunida bo'lib, zulmat va yovuzlik xudosi Axrimani boshQaruvchi yomonlik kuchlarini Qaytarish haQida.

2. Visprat- «hamma hukmronlar», bu kitobda ibodat namozlari to'plangan.

3. Yasna- «Ibodati», «Marosim» kitobi xudolarga sig'inish va murojaatdan iborat. Yasnadagi «Tot»lar nomli 17 bob zardo'shtning muQaddas Qo'shiQlaridir.

4. Yasht- «Qadrlash», «Hamdu sano» kitobi-xudolarni sharafllovchi Qadimgi gimnlar va ezgulik xudolariga yovuzlikka Qarshi kurash yordam beruvchi kuchlar haQida. Bundan tashQari, «Avesto» majmuiga «Kichik Avesto» ham mansub, u avesto tilida yozilgan bo'lib, ibodat kalimalari joylashgan.

Ko'pchilik olimlar Zardo'sht yuksak axloQiy idealdagi va ishontiruvchi fikrlari bilan birinchi haQ payg'ambar ekanligini takidlaydilar. Zardo'sht ta'limotiga muvofiQ barcha QuruQlikning o'zgarish ibtidosi Arta bo'lib, «Avesto»da haQiQat, olov ruh deyiladi. Axuramazda tartibni saQlovchi osmon xudosi yorug'lik va ezgulik hisoblangan (oxura-xo'shayish, ega; mazda-idrokli, bilimdon). Axuramazdaning o'g'li -Atar (olov), uning vatani bulutlardek Qurigan suvlar, uning makoni-xududsiz yog'du. Oxuramazda 6 ta ruhni- yordamchilarni yaratdi (amesha spenta): ezgu aQl, yaxshi tartib, layoQatli Qudrat, olijanob mo'minlik, sog'lomlik va bo'Qiylik. Unga Axrimaning zulmat Qo'shini-devlar, urushlar timsoli, ochlik, kassallik, adovat va boshQa yovuz kuchlar Qarama-Qarshi turadi. Olam va barcha insoniyat hayotining asosida ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi azaliy kurash yotadi.

Zardo'sht ta'limotining ulug'ligi shundaki, u har bir kishiga tanlash imkonini beradi. Har kim ham Yovuzlikni yo'Q etish va Ezgulikning hukmron bo'lishida ishtirok etishi mumkin, bu ishda barcha bir xilda tengdir. Shu tariQa yerda ilgari bo'lmagan jannat -oltin asr tiklanadi. Unda sovuQ, ham jazirama ham, Qarilik ham, o'lim ham bo'lmaydi. Yovuzlik bilan kurashda har bir kishining asosiy Qurolli mehnat bo'lgan. Zardo'shtiylik axloQi kishidan kamtarin va halol mehnatkash deHQonning barcha majburiyatlarini bajarishni talab Qilgan (Kim g'alla eksa, u haQiQat tarQatadi. Videvdat kitobining «DeHQonchilik fazilati haQida»bobidan). Fikr, so'z va ishda taQvodorlik, ishchanlik, halollik, xolislik yuksak axloQning asosiy talabalari sifatida ko'tariladi. «Yasna» kitobida zardo'shtiylikning e'tiQod ramzi haQida deyiladiki: «Qasam ezgu fikrni, ezgu so'zni, ezgu faoliyat majburiyatlarini bajarishni talab Qiladi».

Zardo'shtiylikda birinchi bo'lib esxatalogik ta'limot yaratilgan, bunga muvofiQ jahon tarixi 12 ming yilni tashkil Qiladi. Bu muddat tugashi bilan ezgulik va yovuzlik kuchlarining hal Qiluvchi yovuzlik jangi boshlanadi. Butun olamni erigan metal oQimi yo'Q Qiladi, biroQ xaloskor Saoshyant halok bo'lgan dunyoni va barcha marhumlarni tiriltiradi, barcha gunohkorlarni do'zahdan chiQarib Ohurumazdaning ideal hukmronligida abadiy hayot kechiradi. Shu tariQa zardo'shtiylikda birinchi bo'lib oxiratdagi jazo, marhumlarning tirilishi so'roQ kuni g'oyasi shakllanadi. Bu g'oyalar Doro I ning Bexustun yozuvida va Kserksning Persepoldagi yozuvida ham Qayd Qilinadi. Zardo'shtiylik Markaziy va Old Osiyo xududlarida ming yillar davomida hukmron din bo'lib keldi va shubhasiz, bu din xristianlik va islom kabi jahon dinlarining shakllanishida katta o'rin tutdi. Ilmiy-tarixiy, amaliy-didaktik Qimmatga ega bo'lgan, ushbu yilda 2700 yilligi nishonlanadigan buyuk merosimiz «Avesto»ning butun ma'no mohiyati Inson taQdiri, uning IstiQboliga Qaratilgan. Jumladan, Tangriga iltijo va murojaatlarda shunday deyiladi: «Axuramazda yaratgan yaxshilik moyasiga, sog'lom, aQl-hushi tetik farzandlarga, jasur, dono, turli tillar biladigan o'g'il-Qizlarga, uzoQni ko'ra biladigan, yurtni balo-Qazolardan himoya eta oladigan o'g'lonlar, yaxshi kelajak, porloQ hayotni ravshan ko'z bilan ko'ra oladigan poktiynat avlodlarga olQishlar bo'lsin¹.

Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi va madaniyatining mustaqil rivojlanishi Eron axmoniylari tomonidan birinchi yirik bosQinchilik tufayli to'xtab Qoldi. Sug'd, BaQtriya, Xorazm mil. av. VI-IV asrlarda Ahmoniylar davlati tarkibiga kirgan. Bu imperiya tarkibiga kirishi, yagona boshQaruv, Qonunchilik, pul tizimining o'rnatilishi, oromiy yozuvning umum davlat miQiyosda Qo'llanilishi.

¹ Ғамидов Х., Асл наслини деб... «Халқ с'зи» газетаси, 2000 й. 21 июнь.

Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ahmoniyalar davrida xalqaro savdning rivojlanishi uchun Qulay sharoitning vujudga kelishi Markaziy Osiyo shaharlarining taraqqiyotiga muayyan imkoniyat yaratdi. Ahmoniyalar hukmronligida mamlakatlarga sayyohlar va olimlar borishi mumkin bo'ldi. Xuddi shu davrda Sharq mamlakatlariga Gerodot, Demokrit va boshqalar sayohat qilgan. Ahmoniyalar imperiyasidagi yirik shaharlar- Suza, Persepol, Memfis, Nippur, Bobilda turli joylardan xususan, Xorazm, Baqtriya, Sug'ddan chiqqan kishilar, saklarning harbiy aholisi yashagan.

O'z navbatda mil. av. V asrda Oks daryosining o'ng sohilida Miletlik Yunonlarning manzilgohi tashkil topadi. Shu tariqa Ahmoniyalar imperiyasi tarkibida Markaziy Osiyo xalqlari forslar, midiyaliklar, bobilliklar, misrliklar, yunonlar, hindlar bilan yaqin munosabatda bo'lish, madaniyatining ham o'zaro ta'siriga imkon yaratdi.

Ahmoniyalar imperiyasi madaniyati ham ko'pgina mamlakat xalqlari yaratgan ilmiy bilimlar, diniy e'tiqodlar, san'at yutuqlarining sintezi hisoblanadi. Bu madaniyatga Markaziy Osiyo xalqlari ham o'zining hissasini qo'shgan. Zardo'shtiylik Ahmoniylarning davlat dini sifatida qabul qilinishi bilan birga g'arbga ham keng yoyila boshladi. Ahmoniyalar san'atining Suza va Persepol'dagi ulkan yodgorligi qurilishiga Markaziy Osiyo mintaqasidan ko'plab xom ashyo keltirilgan. Saroylar qurilishiga Baqtriya'dan oltin, Sug'dan lojuvard va qimmatli toshlar, Xorazmdan feruza olib borilgan. 1877 yilda Tojikistonning Janubidan topilgan Amudaryo xazinasi madaniy sintezning yorqin misolidir, hazinada, Eron va Baqtriya'da tayyorlangan jihozlar-bejirim oltin aravacha, qanotli ikkita kurg'iy shakli tushirilgan bilakuzuk hamda dashtliklarga xos «Hayvon shakli» bitilgan jihozlar mavjud. Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyat munosabatlari juda kengaydi, shuningdek, madaniy qadriyatlarning boyishi va turli madaniyatlarning o'zaro ta'siri jarayoni esa o'z madaniyatlarini juda tez rivojlanishi va boyishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ahmoniyalar imperiyasi va Markaziy Osiyo yerlari yunon-makedonlar tomonidan bosib olingan Markaziy Osiyo madaniyatiga ellinizm elementlari kirib keldi. Ahmoniyalar saltanatini yemirib tashlagan Yunon-Baqtriya bosqini Markaziy Osiyo mintaqasini, xususan sug'd madaniyatini aylantirdi. Illo, Aleksandr Makduniy sipoxilariga hech yerda Markaziy Osiyodagidek qarshilik ko'rsatilmagan bo'lsa kerak. Ozodlik harakatini beshavqat mahv etgan Makduniy yerli aholining ko'magiga muhtojligini seza boshladi. Vaqt o'tishi bilan u ongli tarzda barcha etnik to'siqlarni olib tashlashga, o'z Saltanati hududida turli harqlarni qorishib ketishi hamda yagona madaniyat va til birligini qaror topdirishga urindi. Shu maqsadda Maqduniy o'z saroyida Sharq udumlari va liboslarini joriy etdi, turli etnik guruh vakillarining nikohlarini keng yo'lga qo'ydi, o'z armiyasiga Baqtriyalik va sug'dlik qismlarni kiritdi, 30 mingdan ortiq o'g'il-bolalarga yunoncha tarbiya berishga hukm etdi. Shunday qilib Aleksandr Maqduniy Markaziy Osiyo madaniyatining ellinlashtirishni boshlab berdi. Ellinistik jarayon salavkiylar davlatidan mustaqil bo'lgan Parfiya va Yunon-baqtriya'da o'zining yuqori rivoji bilan ajralib turadi. Yunon-Baqtriya davlatida yunonlar va mahalliy madaniyatlarning sintezi qisqa vaqtda o'zining ijobiy natijalarini berdi, shaharlar soni tez sur'atda o'sdi, dehqonchilik, chorvachilik, ayniqsa hunarmandchilik rivojlandi. Markaziy Osiyo mintaqasi Buyuk ipak yo'li bo'ylab o'tgan xalqaro savdning markazi sifatida o'ta muhim o'rin tutadi. Diodotdan Galpokigacha bo'lgan yunon-Baqtriya podsholari davrida yuksak badiiy saviyada oltin, kumush va misdan tayyorlangan turli qiymatdagi tangalar (draxma, obol, dixalka, xalka) zarb etildi. Tovar-pul munosabatlarini o'sishida Baqtriya shohlarining o'z pullarini zarb qilishi xalqaro savdning rivojiga ijobiy ta'sir qilish bilan birga, yuksak badiiy darajasi bilan ham ajralib turadi.

Yunon-Baqtriya davrida Oyxonum (Shim. Afg'oniston), Saksanoxur va Tahtisangin (Tojikiston), Dalvarzin tepa, Yorqo'rg'on, Afrosiyob Talibarzi (O'zbekiston) kabi shaharlar qurildi. Yunon harbiy manzilgohlari aholisining turmush tarzi va madaniyatini aks ettiruvchi ellinistik uslublar Yunon-Baqtriya shaharlarda ochib o'rganildi. Inshootlar tosh, xom va pishiqlik g'ishtdan tiklangan. Ustunlar korinf usulida ishlangan. Saroy va ibodat majmualari, gimnaziya, teatr binolari ochib tekshirilganda ustunlar attik bazaltlar, akant yaproqlari, palmetallar, cheti naqshlangan cherepisa-antifiksalar singari unsurlangan foydalangan holda ko'rilgan. Mahalliy zodagonlarning ellinistikdidi monumental va ixcham haykaltaroshlikni rivojlanishiga turtki berdi. Terakt haykalchalar va turli muhrlardagi obrazlarning miqyosi keng. Unda hosildorlik xudosi Anaxit, yunonlarning bosh va mahalliy xudolari, fantastik va real hayvonlarning timsollari ifodalangan. Haykaltaroshlik san'ati namunalari kam saqlanib qolganligiga qaramay, zarb etilgan yunon-baqtriya tangalarining orqa tomonida mashhur yunon san'atkorlarining rasmi tushirilganligi bu yerda yunon haykaltaroshligi ilmi ta'siri kuchli

bo'lganligini bildiradi. Taxti Sanginda Oks daryosining xudosi Marsiyaning bronza hayokalchasi Qo'yilgan Mehrob topildi. Antik dunyoning Markaziy Osiyoga kirib kelgan haykaltaroshlik san'ati kushonlar davrida yanada ravnaQ topdi.

Yunon-BaQtriya podsholigida teatr san'ati va musiQani rivojlanganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud. BaQtriya saroylarida yunonistonlik akterlar, musiQachi va raQQoslarning guruhlari saQlangan. AyniQsa, yunon xalQ teatrining «maskars», «mim» singari turlari keng yoyilgan. Ularni klassik tragediya va komediyalardan farQi belgilangan matn bo'lmagan, yoki matnsiz chiQilgan, lekin u yunon tilini bilmagan mahalliy aholiga tushunarli bo'lgan. Akterlar sharoit, tomoshabinlarning ruhiyatiga ko'ra matnlarni o'zgartirganlar-musohaba, xazil-mutoyiba, hajv, hikoya, Qo'shiQ usullarida ijro etganlar. RaQs, musiQa, ko'zbo'yamachilik va akrobatik mashQlar teatr ijrochiligining muhim elementlari bo'lgan. hukmdorlar homiylik ko'rsatgan mahalliy akterlar ham shakllangan; «Masxaraboz» Milliy teatrning –«Masxaraboz» namunasida hammon ellinistik belgilar saQlanib Qolgan.

Yunon-BaQtriya madaniyati sinkretizmi (QorishiQligi) turli tillarni yonma-yon faoliyat ko'rsatishi, har xil yozuvlar tizimi va dinlarning o'zaro singishib ketishida ham ko'rinadi. Eramizdan avvalgi III-II asrlarda oromiy, yunon-baQtriya yozuvlari keng ishlatilgan, keyingisi yunon alfaviti asosida unga bitta harf Qo'shib (ja'mi 25 ta harf) baQtriya yozuvi vujudga kelgan zardo'shtiylik hukmron din sifatida saQlansada aholini yunon xudolari timsollarigasig'inish alomatlari paydo bo'lgan. Mahalliy aholi nazarida Olimp xudolarining obrazlari bilan zardo'shtiylik xudolarining timsollari-Zevs va Axuramazda, Appolon, Cheshos va Mitra, Afodita va Apaxit obrazlari uyg'unlashib ketdi. Agar yerli aholi o'rtasida Afina, Gerakl, Nika, Dionis timsollariga sig'inish Qanchalik tarQalsa, Yunonistonda mitra, Oksa (Oksho-Amudaryo), Buyuk onaga sig'inish shuncha tarQaldi. Buni Oyxonim, Taxti Sangan manzilgohlaridan topilgan- tasvir mazmunida yunoncha va mahalliy an'analar ifodalangan man'at yodgorliklarida ham ko'rish mumkin. Yunon-BaQtriya madaniyati odatda SharQ ellinistik madaniyati deb ta'kidlanadi. Agar ellinistik madaniyatga yunon va SharQ madaniyati uyg'unligi xos deb xarakterlansa, markaziy Osiyo madaniyatida mahalliy o'ziga xoslik, SharQona betakrorlik ustivordir. Ayni shu negizda yunon madaniyati Qadriyatlarini o'ziga singdirgan madaniyat asosida keyingi davrlar madaniyati yanada rivojlandi.

Bunda Xorazm madaniyatini alohida ta'kidlash lozim. Shu mintaQa sug'oriladigan dehQonchilik, shahar madaniyati shakllangan eng Qadimgi manzilgohlardan bo'lib, bu yerda O'zbekiston hududidagi Qadimgi (Eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda) davlat asoslangan. Xorazm (Eramizdan avvalgi IV asrlarda) Aleksandr MaQduniy bosQiniga Qadar Ahmoniylar istilosidan ozod bo'lgan davlat, xorazmiylar Hindiston, Hitoy, YaQin SharQ va Yevropa SharQi bilan Qizg'in savdo aloQalarini olib borganlar va o'zlarining hunarmandchilik buyumlari bilan dong taratganlar. Tarixiy solnomalarda xorazmliklarni tadbirkorligi, ishtiyoQmandligi Qayd etilib, ularni «ilm sohiblari» deb ataganlar.

Kanal, Qal'a, ko'pQavatli saroylar, Qurish nafaQat amaliy malakani, balki murakkab hisob-kitob va o'lchovlarni ham talab Qilar edi. (moviy yo'l ko'rsatkichlaridan foydalanishni bilmay dasht-sahrolardan o'tib bo'lmasdan. Xorazmliklar er. I asridan VIII asrigacha o'zlari foydalangan mahsus taQvim tizimini yaratdilar. Bu taQvim Al-Beruniyning «Qadimgi xalQlardan Qolgan yodgorliklar» asarida mufassal tavsiflangan. Uning ma'lumotlarini arxeolog tomonidan topilgan, III asrga oid asl nusxa hujjatlar ham tasdiQlaydi. Beruniyning ma'lumotiga ko'ra, xorazmliklar mustaqil astronomik kuzatishlar olib borganlar, osmonning yulduzlar xaritasini yaxshi bilganlar. Binobarin, ko'pkirilgan Qal'ada observatoriyaning Qadimiyligi (Er. av. III-II asrlar shubhasizdir. Doira shaklidagi, dastlabki diametri 42 metrli bu bino keyinchalik 8 ta mustahkam minoraga ega bo'lgan devorlar bilan o'ralib, diametri 80 metrni tashkil etgan. Ikki Qavvatli markaziy bino devorining Qalinligi 7 metr bo'lgan. Olimlarning tadQiQotlariga ko'ra Qo'yQurilgan Qal'a astronomik kuzatish, izlanishlar olib borilgan ilm Qarorgohi bo'lgan. Binoni noyob Qurilish tizimi, xonalarni maQsadga muvofiQ joylanishiga ko'ra uni «Xorazm Stounxenji» deb atash mumkin. Xorazm madaniyatining o'ziga xos rivojlanishi keyingi davrlarda ham davom etdi. 2000 yillar muQaddan Markaziy Osiy, Shimoliy Hindiston, Pokiston va SharQiy Eron va yagona davlat hududini tashkil etgan. Qudratli Kushonlar imperiyasi Orol dengizi bo'ylaridan Hind okeanigacha yastlanib, o'sha davrning boshQa uch buyuk davlati- Rim, Parfiya va Xanlar Xitoyi bilan birga bir Qatorda turdi. Kushonlar imperiyasi davri SharQ va Jahon madaniyati rivojida yangi davrni tashkil

etdi. Kushon madaniyatida Qadimgi SharQ tipidagi mintaQaviy sivilizatsiya bilan ellinizm madaniyati an'analari, Hindiston ma'naviy hayotining nozik Qirralari bilan Osiyo kengliklaridagi dashtliklar olib kelgan o'ziga xos uslublar ijodiy uyg'unlashib ketgan edi.

Kushon saltanatining dastlabki manzil markazini BaQtriya tashkil etdi. IQtisodiyot asosi dehQonchilik bo'lib, murakkab irrigatsiya va yirik sug'orish inshootlari barpo etildi. Hunarmandchilik va savdo-sotiQning jadal rivojlanishi shaharlarni gurkirab rivojlanishiga, g'ishtlardan bino etilgan Qal'a va Saroylarni Qurilishiga olib keldi. Bu paytda g'arb mamlakatlari, hususan Rim imperiyasining sharQiy viloyatlari bilan savdo aloQalari birinchi o'ringa chiQdi. Kushon podsholarining tangalari Kiev yaQinida, Efiopiya, Skandaviya va Rim imperiyasi shaharlaridan topilgan. Savdo ko'priklidagi yo'llar va Hindistonning g'arbidagi port-dengiz orQali olib borilgan. Bu yo'llardan xilma-xil buyumlar, jumladan Rimga Qandolat, Qimmatbaho toshlar, fil suyagi, guruch, zebu-ziynat va jihozlar elitilgan. Xitoydan shoh va teri buyumlar, Rimdan to'Qimachilik mahsulotlari, kiyimlar, oyna, Qimmatbaho metallar, turli vinolar shu yo'l orQali olib o'tilgan. Rimning ko'p miQdordagi oltin va kumush tangalari aloQaga kiritilgan. o'sha davrdayoQ sotiQning ushbu yirik xalQaro arteriyasi «Buyuk ipak yo'li» deb nom oldi.

Madaniy yuksalishning Kushon davri (Er. I-IV asrlari) diniy tizimlarning yonma-yon yashashi bilan xarakterlanadi. Bunga ma'lum ma'noda kushon podsholari, ayniQsa Konishka va Kunishka tomonidan diniy aQidalarga nisbatan sabr-Qanoat va ishonch-muruvvat bilan yondoshilganligi imkoniyat yaratdi. Kanishka zarb etdirgan tangalarda indus, zardo'sht, ellinlar xudolarining nomi va tasvirlari tushirilgan. Adolatgo'y Mitra va hosildorlik xudosi Ordoxshi Qudratli Vretragna bilan induslarni Shiva, Buddasini, Geshos, Selen, Sifapislarni ko'rish mumkin. Buddizm davlat dini makoniga ega bo'lishiga Qaramay, Kushon imperiyasi hududida zardo'shtlik, jaynizm, shivaizm, manixeylik, olimp xudolariga sig'inish keng tarQalgan edi. Buddizmning tarQalishi mahalliy din va san'atlarning tugatilishini anglatmaydi. Bilaks, buddaviylikni BaQtriyadagi ixlosmand targ'ibotchilari budda matnlarini shunchaki o'zlashtirib, uni sanskritdan tarjimai bilan kifoyalanmay, ularni o'zlariga talQin etdilar, unga Qayta ishlov berdilar.

Markaziy Osiyo buddaviylikni butun Osiyo-Xitoy, Yaponiya, Koreyaga tarQalish manzilgohini tashkil etdi. Kushonlar davrida yozuvning turli tizimlari amal Qildi. Aramey yozuvi asosida kushon-baQtriya alfaviti, sug'd va xorazm yozuvi rivojlandi: SurxQ Qotalda (Afg'oniston) yunon alfas vitidagi kushon yozuvi topilgan. Termizdagi Qoratepa, Fayoztepadan hindlarning Brahma, Kxoratshxa yozuvlaridagi bitiklar topildi. Kampirtepa esa (Surxandaryo) Markaziy Osiyodagi eng Qadimiy, noyob Qo'lyozma (Eram. avv. II asrning 1 yarmi) papirusdagi bitik topildi.

Asrimizning boshida Buyuk Xitoy devori minoralaridan birida topilgan «ko'hna so'g'd yozuvi» alohida QiziQish uyg'otadi. Yozuv eramizni 312-313 yillarida bitilgan bo'lib, unda Xitoydagi so'g'd savdogarlarining faoliyati haQida ma'lumotlar berilgan.

Kushonlar san'ati Qo'shni mamlakatlar va xalqlar san'atlariga ta'sir ko'rsatuvchi namunalarni yaratdi. Er. I-IV asrlardagi badiiy madaniyatning asosiy hususiyati Osiyoga olamni anglashga ellinistik ta'sirni tafakkur tarozisidan o'tkazishdir. Xalchayon (Er. avv. I-e. ni 1 asrlari) –Kushon san'atining ilk yodgorliklaridan biri bo'lib undan topilgan asarlarda ko'proQ hukmdor Geroy Sanat ulug'langan. Qabulxona devorlarining yuQori Qismidan o'rin olgan loydan ishlangan haykallar majmuida hukmdor va a'yonlari tasvirlangan. Haykal obrazlari ifodali bo'lib, unda tasvirlanayotgan obrazlarning individual belgilari ko'zga tashlanib turadi. Unda tantanavor ruhdaQ Qabul marosimi va jang lavhalari aks ettirilgan. Markazda podsho xonadoni va uning ilohiy homiylari-Afina, Gerakl, Niki obrazlari gavdalangan. Dalvarzintepada topilgan mashhur «shahzodaning boshi» hamda tuproQQal'a haykallarida ellinistik an'analarning kuchli ta'siri seziladi. Podsholar zalida esa erkak va ayollarning monumental figuralari Qo'yilgan, podsho nayza tutgan jangchilari davrasida, ziyofat va bug'ilar ovi ko'rinishida tasvirlangan.

Diniy mazmundagi san'at asarlari o'zining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Dalvarzintepadagi ikki ibodatxonadan topilgan tasviriy san'at namunalarida Qadim ibodat timsoli buyuk ona xudo obrazi ifodalangan. Ko'hna Termizdagi Qoratepa, Fayoztepadagi ehromlarini buddaga daxldor yodgorliklar bezab turibdi. Ushbu asarlarda Shimoliy-g'arbiy Hindistonga xos «gandxara uslubi» ustuvorlik Qilsada, unda mahalliy san'at ustalarining yunon san'ati an'analari ta'sirida ijod Qilganligi sezilib turadi. BaQtriya-Budda uslubidagi buyuk ijod namunasi Ayritom shahridagi, eramizning II asriga oid budda majmui bezaklari bo'lib unda turli etnik tipdagi obrazlar galereyasi berilgan.

Kushon san'ati Kushon imperiyasidan keyin ham ana shu zamonlar turli ellardagi, jumladan, Markaziy Osiyo, Hindiston va Xitoylik san'at ustalari va ijodkorlarini ruhlantirib keldi. Kushon san'ati an'analari ifodasi Hindistondagi Gupta davlatiga xos haykallar, Sug'ddagi bo'rtma tasvir va bezaklar (Panjikent, Vuraxiva, Afrosiyob), Sharqiy Turkiston topilmalarida bir-biridan farqlanadi.

Shunday Qilib Qadimgi Markaziy Osiyo madaniyati taraqqiyoti mobaynida o'ziga xos an'ana va yutuqlarni saqlabgina qolmasdan, ulkan mintaqa umumiy qadriyatlarni vujudga kelishi, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bilan madaniy aloqa munosabatlarini rivojlantirishga imkoniyat yaratib madaniy yuksalishni yangi sifat bosqichiga ko'tardi. Qadimgi Markaziy Osiyo madaniyatining rivoj nuqtasi bo'lgan Kushonlar madaniyati hududiy va mazmun jihatidan ayro olingan madaniyat emas edi. U o'zida Sharq, Markaziy Osiyo, Antik dunyo va hind madaniyatlari yutuqlarini o'zida mujassam etib, Sharq va Jahon xalqlari madaniyatini yana ravnaq topishiga asos bo'ldi.

Markaziy Osiyo antik badiiy madaniyatining muhim uslubiy xususiyatini san'atlar sintezi tashkil etgan: haykaltaroshlik, tasviriy san'at, naqsh bunda umumiy me'morchilik rasamadiga- va uning ritmiga bo'ysungan holda me'morchilik bilan yaxlitda namoyon bo'ladi. Bu sintez Kushonlar davrida ham mahalliy madaniyatda o'z ta'sirini saqlab qoldi. Kushonlar davri Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Pokiston va Hindiston xalqlari tarixidagina emas, balki butun dunyo madaniyatining taraqqiyotida alohida o'rin egallaydi. Turli xalqlar madaniyatining chatishishi natijasida bu yerda o'ziga xos yangi madaniyat shakllandi, shu bilan birga keyingi asrlar madaniyatining taraqqiyotiga zamin bo'lib xizmat qildi. Sharq va g'arb madaniyatining o'zaro ta'siri yangi tarixiy bosqichga qadam qo'ydi. Ellin madaniyatining an'analari Kushonlar davrida ijodiy jihatdan qayta shakllandi va yangicha talqin qilina boshladi.

Kushonlar imperiyasi davrida (I-III asrlar) Markaziy Osiyoda sug'orma dehqonchilik, hunarmandlik, shaharsozlik, savdo-sotiq va iqtisodiy aloqalar ravnaq topdi. Bunga Kushon-Baqtريا yozuvlari, brahma va kharoshhi hind alifbosidagi yozuvlar, kushon tangalari guvohlik beradi. Buddizm dinning rasmiy darajasi budda ibodatxonalarining o'sha zamon san'ati bilan bezatilishida namoyon bo'ladi. Termiz yaqinidagi Ayritomdan topilgan ibodatxona tashqi devori peshtoqlariga sarg'ishroq toshlardan haykallar o'rnatilgan. Bino ichida g'ishtdan ishlangan «Budda» haykalining qoldiqlari topilgan. Haykallarning ishlanish uslubi, kiyimi, musiqa asboblari Hindiston, O'rta Osiyo, Yunoniston madaniyatlarining o'zaro ta'sirida rivojlanganligidan dalolat beradi. Buni Xorazm, Farg'ona, Sug'd, Parfiyadan topilgan turli xil buyumlar, madaniy obidalar, topilmalar timsolida ham ko'rsatish mumkin. Kushonlar davrida shaharlar qurilishi keng rivojlandi. Shaharlar qalin devorlar bilan o'ralib, ichida ark va arkning atrofida har xil binolar qad ko'targan. Sopol idishlar nihoyatda nafis va jarangdorligi hamda xilma-xilligi bilan ajralib turgan. Amaliy san'at keng taraqqiy etgan. Zeb-ziynat buyumlari mehnat va jang qurollari yasash, mato to'qish rivojlangan. Umuman, Kushonlar davri madaniyati Markaziy Osiyoning eng cho'qqisi hisoblanib, ma'lum xudud va zamon bilan chegaralanmaydi. Bu madaniyat Old Osiyo, Markaziy Osiyo, Antik va Hind madaniyatlari yutuqlarini o'zida jamlab, qo'llab Sharq xalqlarining o'rta asrdagi madaniyati rivoji uchun asos bo'ldi va jahon madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirdi.

Sharq uyg'onishi, Sharq Renessansi haqida gap ketganda turli soha olimlari-tarixchilar, adabiyotshunoslar, madaniyatshunoslar va san'atshunoslar bu masalaga befarq bo'lmaganlaridek, qarashlar ham asosan ikkiga bo'linadi. Uyg'onish atamasi (italyancha-fransuzcha-Renaissans-Uyg'onish) ni dastavval shu madaniyat sohiblari-italyan gumanistlari ishlatganlar jumladan italiyalik yozuvchi J. Bakachcho bu atamani Djotto ijodiga qarata, «u antik san'atni uyg'otdi» deb birinchi bor ishlatgan edi. Butun bir davrni anglatuvchi tushuncha sifatida san'at tarixchisi J. Vazari (1511-1574 y.) tarafidan uning «Mashhur san'atkorlar hayotidan lavhalar» kitobida (1550) tilga olingan. Bu tushuncha birinchi paytda antik madaniyat an'alarini Italiyada «ming yillik yovvoyilikdan so'ng» tiklanishini anglatib, so'ngroq ilmiy tadqiqotlarda keng ishlatila boshlandi. Ya. Burxart Uyg'onish (Renessans) ni alohida tipdagi madaniyat deb baholadi. Masalaga qiziqish ortib, ilmiy izlanishlar ko'paya borgan sayin Uyg'onish tushunchasi, bu davr madaniyatining xronologik va geografik chegaralari, uni davrlashtirish xususida ziddiyatli, turlicha fikrlar bildirila boshlandi. Y. Xeyzing o'zining «o'rta asrchilikning kuz fasli» asarida Uyg'onish davri-o'rta asr madaniyatining intixos davri deb hisoblasa, boshqa olimlar Uyg'onish davri yangi davr madaniyatining boshlanishi deb sanaydilar. Ko'pchilik olimlar Yevropa Uyg'onish klassik tarzda

davrlashtirib u XIV-XVI asrlarga xos deb bilsalar, boshQalar Uygʻonish madaniyatini bir muncha ilgariroQ XII asr – Karolinglar Renessansidan boshlab, Ispaniya, Italiya shimolidagi mamlakatlardagi (Shimoliy Uygʻonish) Uygʻonishni XVII asr bilan yakunlaydilar.

1950 yillarning oʻrtalaridan eʼtiboran «SharQ» Uygʻonish davri masalasida jiddiy munozara bahs ketdi. Xitoy madaniyati tarixi tahlilida akademik N. Konrad Uygʻonish davrini Qadimgi, oʻrta asrlar singari insoniyat sivilizatsiyasining barcha mintaQalariga xos umumbashariy hodisa deb Qaraydi. Umumjahoniy jarayon hisoblagan Uygʻonish SharQda (Xitoy) VI-VIII asrlarda boshlanib, gʻarb sari siljigan va XIV asrda Yevropa hodisasiga aylangan. Uygʻonishning bunday talQiniga Qarshi bu hodisa turli mamlakatlarda mintaQaviy, ayrim koʻrinishlarda amal Qilishi mumkin, lekin u umumjahoniy fenomen boʻlishi mumkin emas, deb hisoblovchilar ham bor. Uygʻonish davri Xitoyda (Konrad), Kuriyada (Ten), Eron-Tojikistonda (Braginskiy, Nikitin), Hindistonda (Selishev), Turkiyada (Mellov), Armanistonda (Chaloyan), Ozorboyjonda (Gajiev), Gruziyada (Nusubidze, Natadze) kechkanligi haQida ayrim maʼlumotalar keltiriladi. Ayni choQda har ikki Qarash tarafdorlarini Yevropa Uygʻonish davrini mutlaQo betakror hodisa deb Qarovchi mualliflar (A. Losev, M. Petrov) jiddiy tanQid Qiladilar.

Oʻzbekistonda SharQ Uygʻonish davri masalasi mahalliy materiallarni umumlashtirgan holda yetarli ishlanmagan. Markaziy Osiyo mintaQasidagi Uygʻonish haQida gap borganda IX-XII asrlar avvalo xorijiy madaniyat va Qaror topgan islomiy etiʼQodga nisbatan rivojlangan va boyigan Qadimiy madaniyat negizida milliy Uygʻonish deb Qaralmogʻi lozim. Markaziy Osiy uzoQ yillik tarixida koʻp bosQin va talonchiliklarni koʻrdi, ularga Qarshi ozodlik va mustaQillik uchun kurash olib bordi. haQiQat shundaki, har bir bosQindan soʻng milliy davlatchilik va madaniyat tiklandi. Mustaqillikka intilish gʻoyasi va harakati oʻzga xalQlar tomonidan yaratilgan madaniyatlarni inkori emas. Markaziy Osiyo madaniyatida umuminsoniy ahamiyatga molik jamiki madaniyat yutuQlari ijodiy uygʻunlashganidek, ayni paytda mintaQa madaniyati boshQa xalQlar madaniyatlariga samarali taʼsir koʻrsatdi va ularni boyitdi.

Mavjud adabiyotlar va fikrlar tahlili asosida Markaziy Osiyodagi xalQlar Milliy madaniy Uygʻonishni uch davrga boʻlishi mumkin:

1. IX-XII asrlar- arab bosQinidan keyingi davr.

2. XIV-XV asrlar moʻgʻul istilosidan keyingi davr.

3. XX asr boshi va hozirgi davr kolonial bosQin va Sovet davridan keyingi siyosiy, milliy, madaniy Uygʻonish.

Mustaqillik va milliy madaniyat Uygʻonish hodisalari mohiyatan, ichki jihatdan uzviy bogʻliQ boʻlib, bu xususda akad. M.M. Hayrullaev shunday yozadi: «Mustaqillik va Uygʻonish, Mustaqillik va yuksalish uzviy bogʻliQdir, u bizdan aQl-idrokni, bilimni, istedodu Qobiliyatni, faollikni, kuch-gʻayratni talab etadi»¹.

Markaziy Osiyoda Uygʻonish davri madaniyatining belgilari Quyidagicha:

- dunyoviy ilmlarga intilish, din va diniy bilimlarni jamiyat, insonlar manfaati nuQtai nazaridan talQin etish;

- Turli xalQlarning maʼnaviy-madaniy merosi oʻtmish madaniy Qadriyatlaridan (arab, eron, yunon madaniyati boyliklari) foydalanish;

- Tabiatni, mavjud hayotni, mavjudotni oʻrganishga QiziQishning kuchayishi, uning sirlarini ochishga va undan foydalanishga intilishning ortib borishi, shu munosabat bilan tabiatshunoslik ilmlarining rivojlanishi;

- Bilishda aQlni mezon deb bilish, aQliy bilish, rasionalistik usul, ilmiylik rolining oshib borishi;

- Insonga muhabbat, uning axloQiy, aQliy xislatlarini, Qobiliyatlarini oʻrganish va fazilatlarini ochib berishga intilish, mantiQ ilmiga katta eʼtibor berish, komil insonni tarbiyalash, yetuk fozil jamoa haQidagi fikrlarni asoslab berish;

- Diniy tasavvur, diniy taʼlimotlar rivojida diniy-axloQiy mavzuning ustunligi, inson hulQi, manfaatlarining diniy gʻoyalarda yetakchi mavzuga aylanishi, ichki maʼnaviy kamolot, Oллоhga

¹ Ғайруллаев М. Сўрта Осиёда илк Уйғониш даври маданияти., Т., 1994 й., 14-бет.

sub'ektiv ichki mukammallashuv, ma'naviy-ruhiy ko'tarilish, yuksalish yordamida erishuv va uning sifatlariga muayassar bo'lishga Qaratilgan faoliyat;

• Og'zaki va yozma so'zga katta e'tibor, uning ijtimoiy-axloqiy Quدراتini kuylash, ta'riflash, she'riyat, filologiya, badiiy madaniyatning yuksak rivoji, so'z san'ati, ritorika bilan shug'ullanish madaniylikning muhim belgisiga aylanib Qolishi.¹

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo mintaQasida madaniyat yuksalishi parvoz bosQichga chiQQanligi to'g'risida gap borar ekan, ayni shu hudud jahonni hayratga solgan buyuk mutafakkirlarni yetishtirib berganligi, ilm-ma'rifat, betakror kashfiyotlar beshigi- tarixda «Musulmon madaniyati», «arab madaniyati» deb nomlangan tushunchalar bilan baholangani bejiz emas. o'rta asr tarixchilari va sayyohlari ushbu davrda Markaziy Osiyoda iQtisod, savdo o'sganligi, ko'rkam shaharlar Qad ko'targanligi, ilm-ma'rifat gurkirab rivojlanganligi haQida ma'lumot beradilar. Monumental me'morchilik, tasviriy san'at, musavvirlik va musiQa san'ati beQiyos darajada rivojlangan, kutubxonalar faoliyat ko'rsatgan². O'sha paytda «Buxoroda baland tosh devorlar bilan o'ralgan saroylar, turli rasmlar bilan bezatilgan mehmonxonalar, mohirlik bilan barpo etilgan bog'lar, hiyobonlar, hovuzlar» mavjud bo'lganligi haQida manbalarda Qayd etiladi. Abdul Vafo al Buzjoniy o'zining «Geometrik Qoidalarining hunarmandlarga kerakli tomonlari haQida» asarida turli geometrik usullar yordamida har xil naQshlar, bino bezaklari yasash yo'llari, Quruvchi ustalarning tajribalari, badiiy usullari haQida hikoya Qiladi. BoshQa manba'larda bu davrdagi tasviriy va musvvurlik san'ati, hususan portret chizish haQida ma'lumotlar keltiradi³.

Arxeologik Qazilmalar va Qo'lyozma manba'lardan ma'lum bo'lishicha o'sha davrda musiQa va musiQashunoslik ham keng rivoj topgan va u matematika ilmining tarkibiy Qismi sanalgan. Mazkur davrning buyuk olimi Abu Nasr Farobiy musiQaning nazariy asoslari, kuylar, asboblar, musiQa madaniyatining mezonlari, atamalari tahliliga bag'ishlangan «Katta musiQa» kitobining muallifidir. («Kitob al musiQi al Kabir»). o'rta asr musulmon sharQi musiQa nazariyasiga bag'ishlangan ushbu kitob 2 Qism, 3 kitobdan iborat bo'lgan. Farobiy «Katta musiQa» dan tashQari «MusiQa haQida so'z», «Ritmilar tartibi haQida kitob», «Ritmga Qo'shimcha Qilinadigan siljishlar haQida» asarlarining ham muallifidir.⁴

Uyg'onish davri madaniyatining buyuk namoyondalari o'z ijod, izlanishlarida bevosita Qadimgi madaniyat merosga tayandilar. Avvalgi ma'ruzada Markaziy Osiyo xalqlarining Qadimgi yunonlar, rimliklar, mesopotamiyaliklar, hindistonliklar va xitoyliklarning madaniyati bilan yaQindan tanish bo'lganligi, bu tillarni yaxshi bilganliklarini Qayd etgan edik. Yurtni xarobaga aylantirgan, madaniy yodgorliklarni xonavayron Qilgan, ilm ahllarini Quvg'in etgan (Ibn Kutayba) arab bosQiniga Qaramay, Qadimgi boy madaniyat izsiz yo'Qolmadi. Islom butun madaniyatga, tilga, uduman'analarga ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazgan bo'lsada, uning mohiyati o'zgarmadi. Bu xalQimizga xos ezgulik, mehr-shafQat, insonparvarlik, hayr-muruvvat, oQkungillik, bag'rikenglik, ilmga tashnalik, o'zga xalqlarga ishonch ehtirom fazilatlaridir. Yunon, Hind, Xitoy madaniyatini juda yaxshi bilgan Markaziy Osiyoning ilm ahligina o'zga xalqlarni boshQalar madaniyati bilan yaQindan tanishtirishi mumkin edi. Shuning uchun ham mashhur matematik al-Xorazmiy hindlarning hisob tizimini, Farobiy Yunonistonlik Arastuning falsafiy ta'limotini, Ibn Sino Gippokrat tibbiyotini yangi davrda yangi bosQichga ko'tardi, imom al-Buxoriy islomiy ta'limotni asosladi Muhammad Payg'ambardan keyingi ikkinchi shahsga aylandi.

Uyg'onish davrida milliy madaniyatni yuksaltirishga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. MustaQillikni Qo'lga kiritgan Somoniylar shajarasining birinchi hukmdorlari milliy madaniy Qadriyatlarni barQaror etmasdan turib to'la davlat mustaQilligiga erishish mumkin emasligini angladilar. Jumladan, ona yurt madhi bu davrda shu darajaga ko'tariladiki, zardo'shtiylik eslanmay Qoldi. Arab yozuvida badiiy ijodni ta'Qiqlamagan holda, samoniylar oddiy xalQ anglaydigan tilda yozgan mualliflarni to'la Qo'llab-Quvvatladilar. Somoniylar nafaQat adabiyot ahliga, barcha olimlarga homiylik ko'rsatib, Sheroz kutubxonasi bilan raQobat darajasida bo'lgan ulkan kutubxonani asosladilar. Ulug' alloma ibn Sinoning hotirlashicha, kutubxona ko'pxonali bo'lib,

¹ Ғайруллаев М., Орта Осиёда илк Уйғониш даври маданияти.-Т., 1994 й., 71-72 бетлар.

² Пугаченкова Г. Ремпель П., История искусства Узбекистана. Т., 1965 г. 121 стр.

³ Культура Среднего Востока, Городостроительная архитектура, Т., 1989 г. 191 стр.

⁴ Ғайруллаев М., Орта Осиёда илк Уйғониш даври маданияти, Т., 1994 й. 31 бет.

xonalarning birida arab kitoblari, she'rlari boshQasiga fikhga oid kitob tahlangan. Shu tartibda har bir xonada fanning ma'lum sohasiga doir kitoblar jamlangan.

Kitob yozishning kuchayishi, hattotlik san'atining, uni bezash, naQshlar bilan ko'rkam Qilish musavvirlik san'atining rivoj topishiga olib kelgan.

Umuman bu davrda Qo'lyozmalarni ko'chirish, tayyorlash, to'plash madaniy hayotning muhim sohasiga aylangan. Ma'lumki, asar faQat Qo'lda bir nusxadangina yozilar edi. Bosmaxona esa bir necha asrdan so'nggina paydo bo'lgan. Yozilgan asarni nushasini ko'paytirish, boshQalarga yetkazish, undan nusxa olish zarur edi. Shuning uchun nusxa ko'chirish, asarni ko'paytirishga katta e'tibor berildi. Asta-sekin maxsus nusxa ko'chirish san'ati va hunari shakllandi, shu tufayli bir joyda yozilgan asarlarni boshQa shahar, o'lkalarida tarQatish imkoni vujudga keldi.

Maxsus nusxa ko'chirish bilan shug'ullanuvchilar, husni xat sohiblari paydo bo'lib, ular buyurtma yoki sotish uchun asarlardan nusxa ko'chirish bilan shug'ullanganlar. Kitobdan nusxa ko'chirish, kitob savdosining keng yo'lga Qo'yilishi hamda ma'rifat ahlini tinimsiz faoliyati tufayli Buxoro, SamarQand, Marv, Nishopur, Bag'dod, DamashQ singari shaharlarda katta kutubxonalar vujudga keldi. Bozorlarda kitob rastalari ko'paydi, kitob savdosi, uni tarQatish bilan shug'ullanuvchilar faoliyati kengaydi. Markaziy Osiyoga Bag'dod, Misr, Eron va Ispaniyaning turli shaharlaridan Qo'lyozmalar keltirilib, yurtdoshlarimizning Qo'lyozma asarlari boshQa o'lkalarga olib ketiladigan bo'ldi¹.

Tayanch tushunchalar

Uyg'onish davri, Renessans, Musulmon madaniyati, Qoraxoniylar, Samoniylar, miniatyura, musavvirlik, xattotlik, Qo'lyozma.

Mavzuni takrorlash uchun savollar

1. Uyg'onish davri tushunchasi va SharQ uyg'onishining o'ziga xosligi.
2. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda madaniyat ravnaQining omillari.
3. Uyg'onish davri madaniyatining asosiy belgilari.
4. IX-XII asrlarda O'zbekiston hududida amal Qilgan ilmiy ma'rifiy markazlar.
5. Markaziy Osiyo mutafakirlarining Arab dunyosi va jahon madaniyati rivojiga Qo'shgan hissasi.
6. IX-XII asrlarda adabiyot va san'atning gullab yashnashi.
7. IX-XII asrlarga oid mashxur me'morchilik yodgorliklari.
8. Hozirgi davrda madaniy me'ros va o'tmish an'alarini tiklash yuzasidan amalga oshirilayotgan asosiy tadbirlar.

ADABIYO TLAR

1. Karimov I.A. IstiQlol va ma'naviyat, T., 1994 y.
2. Xudojestvennaya kultura Sredney Azii. IX-XIII vekov, T., 1983 g.
3. Pugachenkova G.A. Ocherki iskusstvo Sredney Azii. M., 1986 g.
4. Meros. T., 1991 y.
5. Xayrullaev M.M. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati. T. 1995
6. Bahodirov R. Abu Abdulloh al-Xorazmiy. T.1995 y.
7. Qayumov A. Abu Rayhon Beruniy. Abu Ali Ibn Sino. T., 1987 y.
8. Qayumov A. Ahmad-al Farg'oni. T. 1991 y.
9. Hamidov H. QirQ besh alloma hikoyati. T, 1995 y.
10. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T., 1993 y.
11. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan Qolgan yodgorliklar I-jild T., 1968 y.
12. Nizomulmulk. Siyosatnoma. T., 1997 y.
13. Xo'ja Samandar Termiziy. Dastur-ul-mulk. T., 1997y.

¹ Ғайруллаев М., Орта Осиёда ilk Уйғониш даври маданияти, Т., 1994 й., 33 б.

14. Abu Iso Termiziy. Sahihi Termiziy. T., 1993 y.
15. Vatan tarixi T. 1997 y.
16. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. T. 1991 y.
17. Usmon Orif. Bahovuddin NaQshband va uning ta'limoti haQida. T. 1993 y.

6 MAVZU
TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MADANIYATI
(XIV ASRNING IKKINCHI YARMI – XV ASR)

Ma'ruza rejasi:

1. Temur va temuriylar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-maishiy taraqqiyoti.
2. Me'morchilik, tasviriy san'at va amaliy san'at.
3. Ilm-fan va adabiyot.
4. San'at, falsafa va din.

1. Temur va temuriylar davri O'rta Osiyo madaniyatida alohida davrni tashkil qiladi. Madaniyat tarixida klassik davr hisoblangan bu davr xususan, o'zbek madaniyatining bugungi huquqiy joylashuvida asos bo'lib xizmat qiladi. Avvalo, bu davr madaniyati Temur asos solgan kuchli davlatchilik tamoyillari asosida shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan bog'liqdir.

Amir Temur davrida O'rta Osiyoning mustaqil bir davlat qilib birlashtirilishi mamlakatning iqtisodiy-madaniy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ilm-fan, adabiyot va san'at, hunarmandchilik va me'morchilik ravnaq topdi. Mamlakat va poytaxt Samarqandning obodonchiligi yo'lida mahalliy va chet mamlakatlardan ko'plab fan va san'at ahllarini, hunarmand me'morlarni va musavvirlarni to'pladi.

Temur markazlashgan davlat tuzish jarayonida ishlab chiqarishga, xususan Qishloq xo'jaligiga alohida e'tibor berdi. O'rta Osiyoda Qishloq xo'jaligi sun'iy sug'orishga bog'liqligini yaxshi tushungan Temur Angor kanalini qazdirdi va Murg'ob vodiysida sug'orish ishlarini yo'lga qo'ydi. Samarqand va Shahrisabz shaharlari o'qar suv bilan ta'minlandi. Lalmikor yerlarda ariklar qazildi. Dehqonchilikda donli ekinlar, paxta, zig'ir ekilgan. Bo'yoq uchun ro'yan o'simligi, shuningdek pillachilikda tutlar ko'p ekilgan. Uzum, limon yetishtirilgan.

Ulug'bek davrida Bog'i maydonda turli o'simliklar ekilib, Bog'cha nomli bog' barpo etilgan. Temur Samarqand atrofida Bag'dod, Sultoniya va Sheroz nomli Qishloqlar qurdiradi. Temur va Ulug'bek davrida qo'ychilik va yilqichilikka alohida e'tibor berilgan.

Tog'-kon ishlari yo'lga qo'yilib, turli ma'danlar qazib olinishi tufayli hunarmandchilik rivojlangan.

Obodonchilik, sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi iqtisodiy hayotda muhim soha-hunarmandchilik, savdo va tovar-pul munosabatlarining taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. hunarmandchilik tarmoqlarining ko'payishi tufayli shaharlarda hunarmandchilik mahallalarining soni ortib, yangi bozor rastalari, tim va to'qlar qurildi. To'qimachilik, kulolchilik, chilangarlik, temirchilik va binokorlik sohalari asosiy o'rin tutgan. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shohruhiya, Termiz, Shahrisabz, Qarshi shaharlarida yangi hunarmandchilik mahallalari qurilib, savdo markaziga aylandi. Ip, jun, kanop tolasidan gazmollar to'qilgan. Ipakdan shoyi gazlamalar atlas, kimxob, banoras, duhoba, horo, debo kabi gazmollar to'qilgan.

XV-asrda metall buyumlar- uy-ro'zg'or buyumlari, asbob-uskunalar, qurol-yarog'lar ko'plab ishlab chiqarilgan. Samarqand qurolsozlik markaziga aylanib, sovetsozlar mahallasi qurilgan. Shaharlarda mis va jezdan buyumlar va mis chaqalar zarb qilingan. Temur farmoni bilan Usta Izzoddin Isfahoniy yasagan jez qozon va shamdon hozirgacha saqlanib qolgan. Misgar va chilangarlar metallni toblash, quyish, sirtiga naqsh solish, oltin va kumush suvi yuritish kabi murakkab ishlarni bajarganlar.

Masalan, Bibixonim masjidi eshiklari yetti xil ma'dan qotishmadan tayyorlangan. Zargarlar oltin, kumush va jez qotishmalaridan nafis zeb-ziynat buyumlari yasaganlar. Oltin va kumush gardishli, qimmatbaho toshlar qadalagan idishlar sirtiga naqsh va yozuvlar ishlangan.

Kulolchilik eng sertarmoq soha bo'lgan. XIV-XV asrlarda sirli sopol badiiy rang-baranglikda turli sohalarda ishlatilgan va turli buyumlar yasalgan. Toshtaroshlikda naqsh, xattotlik keng qo'llanila boshlangan. Binokorlikda g'isht teruvchilar «Banno», peshtoq, ravoq hamda to'qlarga parchin va chiroq qoplovchi pardozchilar «Ustoz» deyilgan.

Samarqandda shishasozlik rivojlanib turli idish va buyumlar yasalgan. Qurilishda rangli oynalardan foydalanilgan. Yog'och o'ymakorligida naqshin binolar qurilgan va buyum jihozlar yasalgan. Samarqand qog'ozi hatto chet o'lkalarda mashhur bo'lgan.

Bu davrda hunarmandchilik mollari ishlab chiqaradigan korxona boshlig'i «Usta» shogirdlar «Xalfa»lar bo'lgan. hunarmandlar shaharning madaniyatli tabaqasiga mansub bo'lgan.

Temuriylar davlati Xitoy, Hindiston, Eron, Rusiya, Volga bo'yi, Sibir bilan muntazam savdo-sotiQ aloQalari olib borgan. Chet davlatlar bilan savdo aloQalarini kengaytirishda temuriylarning elchilik aloQalari muhim ahamiyat kasb etgan. Temur savdo rastalari, bozorlar va yo'llar Qurdiradi, karvon yo'llarida karvonsaroylarni ko'paytiradi. AyniQsa, SamarQand va Buxoroda bozor, chorsu, tim, toQ, kappon kabi savdo hunarmandchilik inshootlari Qad rostladi. Shahar bo'ylab o'tgan keng ko'chaning ikki tomoniga do'konlar jolashtirilgan. SamarQand va Buxoro savdo maydonlarining kengligi va ihtisoslashtirilgan bozorlarga egaligi bilan ajralib turgan. Bozor savdo markazi va hunarmandchilik ishlab chiQarish joyi edi. Shuningdek, bozorlarda Qo'lyozma kitoblar, yozuv Qog'ozi sotilgan, ariza yoki maktub yozuvchi mirzalar ham o'tirgan. Savdo rastasi unda sotiluvchi tovar nomi bilan atalgan. Bozorlarda adabiyot, she'riyat, ilm-fan haQida suhbatlar bo'lgan, farmonlar e'lon Qilingan va aybdorlar jazolangan. Turli tomoshalar shu joyda ko'rsatilgan, masjid, madrasa, hammom bozorga yaQin joyga Qurilgan.

Temuriylar davrida karvon yo'llarida elchilar, choparlar va savdo karvonlari uchun dam olish, otlar almashtirish joylari Qurilgan.

XIV-XV asr ohirlarida Movarounnahrni ko'p mamlakatlar bilan ijtimoiy-iQtisodiy ba'zan siyosiy va harbiy ahamiyatga ega bo'lgan karvon yo'llari bog'lagan edi. Bu yo'llar bir-biridan iQtisodi, xalQ tumush tarzi, dini, ma'naviy va moddiy madaniyati jihatdan farQlanuvchi mamlakatlarning o'zaro aloQasini rivojlantirishga imkon yaratdi. Karvon yo'llari savdo, diplomatik aloQalarning amaliy vazifasini, ayni vaQtda mamlakat va xalqlarning o'zaro iQtisodiy va madaniy ta'sirini mustahkamlashga xizmat Qildi.

2. O'rta Osiyo zaminida temuriylar davri ilm-fan, adabiyot, san'at sohlarida kamolot bosQichiga ko'tarildi. Temuriylar davlatining Qudrati ayniQsa me'morchilikda namoyon bo'ldi. OQsaroy peshtoQida bitilgan «Qudratimizni ko'rmoQ istasang- binolarimizga boQ!» degan yozuv Temur davlatining siyosiy vazifasini ham anglatar edi. Temur davrida Movarounnahr shaharlari Qurilishida istehkomlar, shoh ko'chalar, me'moriy majmualar keng ko'lam kasb etadi. Ilk o'rta asrlardagi shaharning asosiy Qismi bo'lgan «Shahriston»dan ko'lam va mazmuni bilan farQ Qiluvchi «hisor» Qurilishini SamarQand va Shahrisabzda kuzatish mumkin. Temur davrida Kesh shahar Qurilishi yakunlandi. «Hisor»ning janubi-g'arbida hukumat saroyi OQsaroy va atrofida rabotlar, bog'-rog'lar Qurildi.

Temur saltanat poytaxti SamarQandni bezatishga alohida e'tibor berdi. Shaharda «Hisori», Qal'a, ulug'vor inshootlar va tillakor saroylar bunyod ettirdi. SamarQandga kiraverishdagi Ko'hak tepaligida Cho'pon ota maQbarasi Ulug'bek davrida Qurilgan bo'lib, bu inshootda mutanosiblik, umumiy shaklning nafisligi, bezaklarda ulug'vorlik uyg'unlashib ketgan. Temur davrida SamarQand Afrosiyobdan janubda mo'g'ullar davridagi ichki va tashQi shahar o'rnida Qurila boshladi hamda bu maydon Qal'a devori va xandok bilan o'ralib (1371 y) Hisor deb ataldi. Hisor 500 gektar bo'lib devor bilan o'ralgan. Shaharga oltita darvozadan kirilgan.

Shahar mahalalardan iborat bo'lib, guzarlarga birlashgan. Shaharda me'moriy majmualar shakllanishi Temur va temuriylar davrining eng katta yutug'i bo'ldi. Me'morchilik taraQQiyotning yangi bosQichiga ko'tarildi, inshootlar ko'lam bilan birga uning shakli ham ulkanlashdi. Bu jarayon muhandislar, me'morlar va naQQoshlar zimmasiga yangi vazifalarni Qo'ydi. Temur davrida gumbazlar tuzilishida Qirralar oraliQ'i kengaydi. Ikki Qavatli gumbazlar Qurishda ichkaridan yoysimon Qovurg'alarga tayangan tashQi gumbazni ko'tarib turuvchi poy gumbazning balandligi oshdi. Ulug'bek davrida gumbaz osti tuzilmalarning yangi xillari ishlab chiQildi. AniQ fanlardagi yutuQlar me'morchilik yodgorliklarida aniQ ko'rinadi (Shohizinda, Ahmad Yassaviy, Go'ri Amir maQbaralari, Bibixonim masjidi, Ulug'bek madrasasi). Ularning old tomoni va ichki Qiyofasi rejalarini tuzishda me'moriy shakllarning umumiy uyg'unligini belgilovchi geometrik tuzilmalarning aniQ o'zaro nisbati bor. Bezak va sayQal ishlari ham bino Qurilishi jarayonida baravar amalga oshirilgan.

Temuriylar davrigacha va undan keyin ham Movarounnahr va Xuroson me'morchiligida bezak va naQsh bu Qadar yuksalmagan. Temur va Ulug'bek davri me'morchiligida bezakda ko'p ranglilik va naQshlar xilma-xilligi kuzatiladi. Epigrafik bitiklarni binoning maxsus joylariga, xattotlik san'atini mukammal egallagan ustalar olti xil yozuvda ishlagan.

Koshin Qatamlarida tasvir mavzui kam uchraydi. OQsaroy peshtoQlarida Sher bilan Quyoshning juft tasviri uchraydiki, bu ramziy ma'noga ega. Temur va Ulug'bek davrida bino ichining bezagi ham xilma-xil bo'lgan. Devor va shift, hatto gumbaz ham naQsh bilan ziynatilgan.

Temur davrida Qurilgan binolarda ko'k va zarhal ranglar ustun bo'lib, dabdabali naqshlar ishlangan, Ulug'bek davrida Xitoy chinnisiga o'xshash o'q fondagi ko'k naqshlar ko'p uchraydi.

Bu davrda diniy inshootlar, hukmdor saroylari, aslzodalarning Qarorgohlari ko'plab Qurildi. Temur Hindiston yurishidan so'ng (1399 y). SamarQandda jome masjidi Qurdiradi. Uning ro'parasida Bibixonim madrasasi va maQbara bunyod ettirdi. Ulug'bek Buxoro Jome masjidini kengaytirib, Qayta Qurish ishlarini boshlagan, biroq u XVI asrda Qurib bitkazdi.

Temur davrida Saroy Mulk xonim Go'ri Amir majmuasida madrasalar Qurilgan. Ulug'bek SamarQand, Buxoro va g'ijduvonda madrasalar bunyod ettirdi. XV asrda madrasa me'morchiligi o'zining uzil-kesil Qiyofasiga ega bo'ldi. Madrasa Qurilishi yagona tizim bo'yicha rejalashtirilsa ham, asosiy shakllari, ularning o'zaro nisbatlari va bezaklariga ko'ra har biri o'z Qiyofasiga ega edi. Temuriylarning ikki san'at durdonasi-SamarQanddagi Ulug'bek va Hirotidagi Gavharshodbegim madrasalari yagona tizim rejasi bo'yicha Qurilganiga Qaramay, bir-biridan farq qiladi.

Temuriylar davridan Qolgan maQbara, din arboblari va ruhoniylar Qabrini o'z ichiga oluvchi to'siq-xazira, avliyolar Qadamjolari, dahma alohida guruhni tashkil qiladi. SamarQandda Temur davrida shayx Burxoniddin Sag'orjiy xilxonasi – Ruhobod maQbarasi va Temuriylar xilxonasi -Go'ri Amir. Shuningdek, Shohizinda majmuasida peshtoqli maQbaralar guruhi Quriladi. Ulug'bek davrida ijodiy izlanishlar samarasi dahmalarning me'moriy ko'rinishiga ham ta'sir o'tkazadi. Shohizinda majmuasida sakkiz qirrali maQbara va hozirgacha Qozizoda Rumiy maQbarasi deb kelinayotgan («Sultonning onasi» uchun Qurilgan, asli noma'lum) maQbara Quriladi. Ulug'bek Buxoro, g'ijduvon, Shahrisabz, Termiz, Toshkentda ham noyob obidalar Qurdirgan. Ammo Qurilish miqyosi va bezaklar bo'yicha SamarQanddagi obidalar ustunlik qiladi. Toshkentda Zangi ota maQbarasi va Shayxontohur majmuasi, bo'lib, Qaldirg'ochbiy maQbarasi XV asrning birinchi yarmiga mansub.

Temur davrida ulkan inshoot-Turkiston shahrida Ahmad Yassaviy maQbarasi barpo qilindi. Bu maQbara musulmon Sharqining me'moriy yodgorliklari orasida eng noyobidir.

Qadamjolar me'morchiligi ham o'ziga xos tuzilishga ega. Temur Buxoroda Chashmai Ayub (1380y.) yodgorligini Qurdiradi. Shuningdek, Temur Shahrisabzda ziyorat va dafn marosimlari uchun «hazira»-»Dor us-Siyozat» (1389-1400) xilxonasini Qurdirgan. O'g'li Jahongir vafot etgach Shahrisabzda maQbara (hazrati Imom) Qurdirgan. Unda Xorazm me'morchiligi an'alarini ko'rish mumkin.

SamarQanddagi Ulug'bek rasadxonasi me'moriy san'atning noyob yodgorligidir. Rasadxona diametri 48 metrli aylana shaklda bo'lib, uch qavatlidir.

Temuriylar davrida Qurilgan saroylar ikki xil bo'lgan. Birinchisi-ma'muriy-siyosiy maqsadda bo'lib, qal'a yoki shahar ichida Qurilgan. Ikkinchisi-shahar tashqarisidagi bog'larda Qurilgan qarorgohlarda qabul marosimlari, majlislar o'tkazilgan va xordiq chiqarilgan. Shahrisabzdagi Oqsaroy gumbazining diametri 22 metr bo'lib, toq va ravoqlari beqiyos bo'lgan. Temur va Ulug'bekning asosiy qarorgohi SamarQanddagi Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy deyiladi. Shuningdek, shahar tashqarisida Temur o'n ikkita bog' va saroylar bunyod ettirgan.

Ulug'bek davrida SamarQandning Registon maydoni shakllandi, «Masjidi Muqatta'», 210 gumbazli Ko'kaldosh jom'e masjidi qad ko'tardi. Shohizindada ayrim maQbaralar, Shahrisabzda Ko'kgumbaz masjidi, «Chilustun» va «Chinnixona» saroylari uning davrida Qurildi.

XV asrning ikkinchi yarmida SamarQandda Xo'ja Ahror madrasasi, Ishratxona, Oqsaroy maQbaralari bunyod qilindi.

Amir Temur va Ulug'bek davrida tasviriy san'at turli yo'nalish bo'yicha yuksaldi. Islomda jonli narsalar tasviriga sig'inmaslik tasviriy san'atda naqshning ravnaqiga sabab bo'ldi. O'rta Osiyoda arablar bosqini tufayli to'xtab qolgan devoriy suratlar va umuman tasviriy san'at Temur davrida yangi shakl va mazmunda tiklandi. Xattotlik- qo'lyozma adabiyotning ajralmas bir qismi hisoblangan. Miniatyura- tasviriy san'atga ham avvalo naqsh sifatida qaralgan. Temuriylar davrida tiklangan devoriy suratlar esa XVI asrda yana to'xtab qoldi. SamarQanddagi Temuriylarning saroy-qarorgohlarida qabul marosimlari, jang voqealari, ov manzaralari, xalq bayramlari tasviri tushirilgan devoriy suratlar bo'lgan. Temur, o'g'illari, nabiralari, ayollari va kanizaklari tasviri bu devoriy suratlarda aks ettirilgan Ulug'bek devorida ham devoriy suratlar mavzu jihatdan rang-barang bo'lib, uslubiy jihatdan miniatyura janriga yaqin bo'lgan. Bu davrda qayta ko'chirilgan Abdurahmon as-Sofiyning (X asr) falaqiyotga oid asariga ishlangan bir suratda Andromeda yulduzlar turkumi chochlik ayol qiyofasida tasvirlanadi. SamarQand rasadxonasida esa to'qqiz

falak ko‘rinishi, yetti gardish, yetti yulduz-yoritQich daraja, vaQt bo‘limlari, Yer yuzining yetti iqlimi tasvirlangan.

Temur davrida Qurilgan Shirinbeka opa, Bibixonim, Tuman opa obidalarida naQQoshlik va xattotlik bilan birga tasviriy lavhalar ham mavjuddir. Shirinbeka opa maQbarasida tasvir ko‘p ranglarda, Qolgan ichki bino devorlarida oQ va moviy rangdagi tabiat manzaralari tasvirlanadi.

Xattotlik san‘ati taraQQiyotiga XV asrda an‘anaviy nasxi, kufiy, devoriy xatlari bilan birga peshtoQlarni bezovchi suls va tezkor-nasta‘liQ noyob Qo‘lyozma asarlar ko‘chiriladigan maxsus ustaxonalar kitobotchilikning ravnaQiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Amir Temur davrida SamarQandda miniatyura rassomchilik maktabi tashkil topdi. hozir Turkiya va Berlin kutubxonalarida saQlanayotgan ko‘chirma- homaki miniatyura nusxalari XIV-XV asrlarga oid bo‘lib, ularda alohida shaxslar, daraxtlar, gullar, kichik kompozisiyalar, naQshlarda chiziqlar uyg‘unligi, harakatlar aniqligi, Qiyofalarning o‘z o‘rnida joylashtirilishi bilan ajralib turadi.

Tarixiy shaxslarning Qiyofalari ham miniatyuralarda aks etgan. Amir Temur Qiyofasi tiriklik vaQtida aks etgan miniatyuralar hali topilmagan. Asl holatiga yaQin suratlar «Zafarnoma»ning dastlabki ko‘chirilgan nusxalarida uchraydi. Uning bir muncha yorQinroQ Qiyofasi Hirotida (1467 y.) ko‘chirilgan «Zafarnoma»da keltiriladi. Dastlab Mirak NaQQosh boshlagan va Behzod yakunlagan ushbu miniatyurada boy kompozisiya va serjilo bo‘yoQlarning uyg‘unligi ajralib turadi.

Miniatyura rassomchiligining taraQQiyoti adabiyotning rivoji bilan bog‘liQ bo‘lgan. Musavvirlar Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy, so‘ngra Jomiy va Navoiy asarlariga rasmlar ishlagan. XIV asrda «Jome‘ ut-tavorix», «Tarixi Rashidiy» kabi tarixiy asarlarga ham miniatyuralar ishlagan. Bu an‘ana Temuriylar davrida ham davom ettirilib, «Zafarnoma» va «Temurnoma» asarlarida jang lavhalari tasvirlanadi. Ayrim hollarda diniy asarlarga ham Makka va Madina tasviri tushirilgan. Badiiy asarlarning ba‘zilarida Muhammad payg‘ambarning (yuzi niQobda) odamlar orasida turgan holati va me‘rojga chiQishlariga oid lavhalar uchraydi.

XV asr miniatyuralarining aksariyatida sharQ she‘riyatining Qahramonlari-Layli va Majnun, Xusrav va Shirin, Rustam, jang lavhalari tasvirlanadi. Umuman miniatyura san‘ati IroQ, Eron, Xuroson, Movarounnahr va Hindistongacha hududda bir davrga xos badiiy- estetik hodisa edi. Bu hodisa Temuriylar bilan bog‘liQ bo‘lib, temuriylarning Bag‘dod, Sheroz, Tabriz, Hirot, SamarQand, Dehli kabi markazlarida bir necha miniatyura maktablari vujudga keldi.

SamarQand miniatyura maktabi XIV-XV asrning birinchi yarmida Qaror topgan bo‘lib, turli turkumda yaratilgan bu miniatyuralarda SharQiy Turkiston san‘atiga xos bo‘lgan Turkiy obrazlarda Xitoy rassomchiligi ta‘siri sezilib turadi.

SamaQanddagi saroy musavvirlari Abul Xayya va uning shogirdlari Shayx Mahmud Taliliy, Pir Ahmad Bog‘i Shamoliy, Muhammad bin Mahmudshoh, Darvesh Mansurlar ishlagan rasmlar nozik, bo‘yoQlar ustalik bilan Qo‘llangan. ularning miniatyuralari temuriylar davriga xos ov-shikor mavzuida yaratilgan. 1420 yildan keyin BoysunQur Mirzo Hirotida xattotlik va naQQoshlik ustaxonasi tashkil qilgach bu rassomlarning ayrimlari hirotga ko‘chib o‘tadi. Abul hayya tarixiy asarlariga ishlagan miniatyuralarda Amir Temur va temuriylarning Qiyofalari aks etsa, badiiy asarlarga ishlagan rasmlarida ham ular turli holatlarda tasvirlanadi. Xalil Sulton davrida ishlangan ayrim miniatyuralar grafik tarzda, badiiy jihatdan o‘ziga xos «siyohi Qalam» uslubida ishlangan. Temur hayotlik davrida uning saroy devorlarida shoh va shahzodalar bor bo‘yida tasvirlanib, haQiQiy portret janrini Kamoliddin Behzod shakllantirdi. Umuman, Temur va temuriylarning Qiyofalari tasvirlangan ko‘plab miniatyuralar dunyoning turli kutubxonalarida saQlanmoQda. Ularning aksariyatida rasm chizilgan davr yoki rassom, joy, maktab ko‘rsatilmagan. BiroQ, bu miniatyuralarda nur sochib turgan Quyoshsimon sherning boshi tasvirlangan tug‘-Temurning gerbi-uning saroyi peshtoQida, Xalil Sulton va Ulug‘bek zarb qilgan tangalarda uchraydi. Shuningdek, tabiat tasvirida to‘Q yashil va jigarrang ko‘pligi, kiyimlar turkiy millatga xos bo‘lganligidan bu miniatyuralar SamarQand miniatyurachilik maktabiga mansub deyish mumkin. Chunki, Hirot va Sheroz miniatyuralari Qahramonlarining kiyimlari boshQacharoQdir.

SamarQand maktabi miniatyurachilari vakillari kompozisiya yaratish va manzara tasvirida mahoratlidirlar.

Ulug‘bek davrida mashhur bo‘lgan xattot va musavvir asli Obivardlik Sulton Ali Boverdiy miniatyuralari chiziqlarning keskinligi, ranglarning yorQinligi bilan o‘ziga xosdir. SamarQand maktabiga xos bo‘lgan 18 ta miniatyura Nizomiyning»hamsa« asariga va 49 ta miniatyura

«Shohnoma» asariga ishlangan bo'lib hozir Turkiya kutubxonasida saqlanadi. Ulug'bek davrida as-So'fiyning «Siljimas yulduzlar ro'yhati» asariga ishlangan miniatyuralarda xaritalar Qizil va Qora doiralari bilan katta va kichik yulduzlarning joylashishi ko'rsatilgan bo'lib, grafik tarzda rang bermay, Qora siyohda chizilgan. Yulduz turkumi oddiy xalq vakili Qiyofasida tasvir etiladi. Sharq miniatyurachiligida oddiy xalq hayoti mavzui temuriylar davrida paydo bo'lgan. Masalan, «SamarQand masjidini Qurish», «Iskandar devorini bunyod etish», «Ko'chmanchilar turmushi», «Jamshidning oddiy xalqqa hunar o'rgatishi mavzuidagi miniatyuralar bunga misoldir.

Temuriylar davrida madaniyatning yuksalishi badiiy hunarmandchilikning turli shakllarida namoyon bo'ldi. Badiiy hunarmandchilik asosan me'morchilik bilan bog'liq bo'lmay, koshinkorlik kulolchiligi, yog'och va tosh o'ymakorligi bilan ham bog'liq edi. Qabr toshlariga Qisman o'simliksimon, asosan geometrik nazmlarda xattotlik namunalari bilan so'zlar bitilgan. Bu yozuvlar chuqur, qusha o'yiqlarida bitilgan. Qabrtoshlar sag'ana yoki suna shaklida bo'lib, bo'z rangli marmardan, ayrim hollarda o'ta noyob toshlardan tantana idishlar ishlangan. Yog'och o'ymakorligida Go'ri Amirda, Shohi Zinda, Yassaviy maqbaralari, eshiklari, shuningdek XV asrga oid uy ustunlari naqshlar bilan ishlangan. Temur va Ulug'bek davrlarida metall o'ymakorligi taraqqiy etadi. Buyum va idishlar oltinsimon bronza, latun, qizil misdan ishlangan. Naqshlar o'yib, bo'rtma usulda, qimmatbaho toshlar qadalib tayyorlangan. Yassaviy maqbarasi ulkan-shamdonlar, ayniqsa ikki tonnalik qozon bronza qo'yish san'atining eng yuksak namunasi.

Amaliy san'atning kulolchilik turi uchun yashil, zangori tusdagi yorqin sir ustiga sodda o'simliknoma naqshlarni qora bo'yoqlar bilan tushurishga yoki uyurma gullar ishlanishi, bu davrda paydo bo'lgan oppoq idishlarga sir ustidan kobalt yordamida naqsh berilishi yangilik edi. Sopol buyumlardagi naqshlar mo'yqalamda chizilgan. Oldingi asrlarda sopol buyumlariga chiziqli naqshlar chizishgan, temuriylar davriga mansub chikkisimon sopol buyumlarda kulol-rassom turli uslubda och havorangdan to lojuvardga qadar ranglarni qo'llaydi. Temur va temuriylar davrining amaliy san'at turlaridan to'qimachilik, gilamdo'zlik, kashtachilik yuksak san'at darajasiga ko'tarildi.

Amir Temur ilm-fan rivoji uchun g'amxo'rlik qilishi tufayli SamarQand dunyoning ma'rifiy markaziga aylandi. Mashhur olimlar SamarQandga keldi. Masalan, qozizoda Rumiy, tabib Xusomiddin Kermoniy, falaqqiyotshunos Mavlono Ahmad, Ulug'bek davrida turli mamlakatlardan kelgan 100 dan ortiq olimlar ilmiy va ijodiy faoliyat ko'rsatgan. Temur va temuriylar zamonida tabiiy va gumanitar fanlar sohasida buyuk olimlar yetishib chiqdi hamda jahon faniga munosib hissa qo'shdi. Falokiyotshunoslik fanida Ulug'bek, qozizoda Rumiy, g'iyosiddin Jamshid va Ali qushchilar yangi kashfiyotlar qildi. Tarix ilmidan Sharofiddin Ali Yazdiy, Hofizi Abro', Abdurazzoq SamarQandiy, Mirxond, Xondamir, Zayniddin Vosifiy va boshqalar qimmatli asarlar yaratdi. Badiiy ijod va tilshunoslikda Jomiy, Navoiy, Davlatshoh SamarQandiy, Atoullo Husayniy, Koshifiy singari ijodkorlar yuksak san'at asarlari bilan mashhur bo'ldi.

Mirzo Ulug'bek davrida SamarQandda birinchi Akademiyaga asos solindi, yer kurrasini o'lchash va falaqqiyotshunoslik jadvalarini tuzish ishlari amalga oshirildi. SamarQand rasadxonasining qurilishi ulkan madaniy voqea bo'lib, jihozi va ilmiy yutuqlari jihatidan unga teng keladigan rasadxona yo'q edi. Rasadxonada Ulug'bek matematika, geometriya, falaqqiyotshunoslikda chuqur bilimlar sohibi edi. Ali qushchi, Muhammad Xavofiylar uning sevimli shogirdlari bo'lgan.

Mirzo Ulug'bek «Zij» asarida VIII-XI asrlarda boshlangan falaqqiyot ilmiga oid an'anani davom ettirib, yuqori darajaga ko'taradi. Matematikaga doir «Bir daraja sinusni aniqlash haqida risola», Falaqqiyotshunoslikka oid «Risoli Ulug'bek» va musiqa haqida «Musiqa ilmi haqida risola» kabi asarlar yozdi. Ulug'bek SamarQand, Buxoro va g'ijduvonda madrasalar qurdirib, ta'lim ishlariga rahbarlik qildi.

Temur va temuriylar davrida xalq og'zaki ijodi namunalari yaratildi. Adabiyot badiiy uslub jihatidan takomillashdi, adabiyotshunoslik va tilshunoslikka oid ilmiy asarlar yaratildi. O'zbek tarjima adabiyoti vujudga keldi.

Bu davrda yetuk ijodkorlar qutb, Sayfi Saroyi, Haydar Xorazmiy, Durbek, Amiriy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Bobur, Muhammad Solih va boshqalar yashab ijod qildi. Ayniqsa o'zbek yozma adabiyotining dunyoviy ko'lamini Alisher Navoiyning ijodi kamolot bosqichiga ko'tardi.

Movarounnaxr va Xurosonda o'zbek tili, adabiyoti va madaniyatining mavqei orta bordi. Xurosondagi turkiyzabon xalqlar va ularning ziyolilari SamarQand, Buxoro, Turkiston va boshqa

shaharlardagi olimlar shoirlar va san'atkorlar bilan o'zaro juda yaQin munosabatda bo'la boshladilar. Qaysi ijodkor o'ziga Qaysi mamlakat yoki shaharni Qulay deb bilsa, yosha yerda yashab ijod Qildi.

Masalan, xorazmlik shoirlar Haydar va hofiz Xorazmiylar Sherozga, Ismoil Ota avlodlaridan bo'lgan shoir Shayx Atoiy Turbatdan (Toshkent yaQinidan) Balxga, Mavlono Lutfiy ham asli Toshkentdan bo'lib Hirot yaQiniga borib yashab Qolganlar.

Temur va uning avlodlari adabiyot va san'atga, ilm-fanga yaQin kishilar edi. Temuriylardan 22 ta ijodkor-shoir bo'lib, ular o'zlari she'r yozish bilan birga ijodkorlarga xomiylik ham Qilgan. Xalil Sulton, Husayn BoyQaro kabilar o'z she'rlaridan devon tuzganlar.

Xuroson va Movarounnaxrda forsiy va turkiyda ham ikkala tilda ijod Qiluvchi shoirlar ko'p bo'lib, adabiy hayot yuksaladi. SharQ klassik adabiyoti tarjimalariga ham e'tibor kuchayadi. «Chaxor manoli» kabi adabiyot nazariyasiga oid asarlar yaratilgan. Badiiy ijodning g'azal, ruboiy, tuyuQ kabi turlari rivoj topgan. Adabiy jarayonda shohlar ham, oddiy kosib va hunarmandlar ham, olim va fozillar ham Qatnashgan.

Xurosondagi adabiy hayotning rivojida Boysung'ur Mirzo (Shohruhning o'g'li) ning o'rni beQiyos bo'lib, u o'z tashabbusi bilan fanlarning barcha sohalariga va san'at rivojiga katta hissa Qo'shgan. Uning rahbarligida Firdavsiy «shohnomasi»ning ko'p Qo'lyozmalarni Qiyoslash asosida ishonchli ilmiy matni yaratildi. Boysung'urning o'zi ham forsiy va turkiyda she'rlar yozgan. Xullas, XV asr o'rtalarida Xurosonda o'zbek adabiyotining yangi maktabi yuzaga keldi.

Movarounnaxrda Ulug'bek davrida ko'plab forsiy va turkiy ijodkorlar to'plandi. Adabiy muhitni bevosita Ulug'bekning o'zi boshQarar, SamarQandda o'sha davrning eng yaxshi shoirlari yig'ilgan edilar. Shoirlarning sardori («Malik ul-kalom») Qilib Mavlono Kamol Baraxshiy tayinlangan edi. Sakkokiyo o'z Qasidalaridan birida Ulug'bekning she'r yozishini va uning she'r haQidagi tushunchasi yuQori bo'lganligi ta'kidlab o'tgan. Ulug'bek Xurosondagi ijodkorlar bilan ham do'stona munosabatda bo'lgan. U Lutfiy she'rlarini XV asrning mashhur shoiri Salmon Sovajiy she'rlari bilan teng ko'rgan. Mumtoz shoir bilan tenglashtirish Lutfiy uchun katta sharaf edi.

Ulug'bek saroyidagi eng obro'li o'zbek shoiri Sakkokiyning lirik she'rlari bilan birga o'zbek tilidagi Qasidalari ham bu she'riy janrning sezilarli yutug'i bo'ldi.

Navoiy «Majolisun-nafois» tazkirasida ko'proQ xurosonlik shoirlar haQida ma'lumotlar bersa, Davlatshoh SamarQandiy «Tazkirat ush-shuaro» asarida o'tmishda o'tgan ijodkorlarga to'xtaladi. YaQinda ma'lum bo'lgan Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziyning «Fukukul-balog'a» (1437 y.) asari temuriylar davri Movarounnaxrdagi adabiy hayotni o'rganish imkonitlarini ochdi.

Shayx Axmad Taroziy asarida she'r nazariyasiga doir ilmiy masalalarni yoritish bilan birga, shu paytgacha noma'lum bo'lgan o'zbek va forsiyzabon shoirlarning she'rlaridan misollar keltiradi. Shayx Taroziy o'z asarida bizga ma'lum bo'lgan mashhur shoirlardan tashQari, bizga noma'lum bo'lgan Muhammad Temur Buzoning tuyuQlarini, Shams Qisoriyning «al-maQlubul-ba'z» she'riy san'ati namunalarini, Jaloliy degan shoirning ishQiy mazmundagi baytlarini, «mutasalsal» she'riy man'atiga o'zining g'azalidan namunalar keltiradi.

«Mutasalsal» san'ati Qofiya bo'lib kelgan so'zlarning yoki uning bir bo'lagining keyingi bayt boshlanishida takrorlanishi bilan baytlarni bir-biriga bog'lashni anglatadi. Taroziyning «Fukukul-balog'a» asari o'sha davr o'zbek adabiyoti tarixini yanada chuQurroQ o'rganishda Qimmatlidir.

XV asrning ikkinchi yarmi o'zbek adabiyotining eng rivojlangan davri bo'lib, bu yuksalik Temuriy BoyQaro va o'zbek adabiyotining porloQ Quyoshi Navoiy nomlari bilan bog'liQ. BoyQaro hukmronligi davrida adabiyot, san'at va fanning ko'p sohaları rivojiga katta ahamiyat bergan. «Husayniy» taxallusi bilan she'rlar yozgan, bu ulug' zot o'z hukmronligi davomida Navoiyga «muQarrabi hazrati sultoniy» mansablarini berib birgalikda madaniyatning rivojlanishiga homiylik Qilishgan. Navoiy ustozlari Jomiy bilan hamkorlikda ma'naviyat taraQQiyotiga rahnamolik Qildi. Ular timsolida badiiy adabiyot eng buyuk yutuQlarga erishdi. Navoiyning «Xamsa» va «Xazoyinul-maoniy» devoni, Jomiyning «hasht avrang» va she'riy devonlari shu davr adabiyotining eng buyuk namunalari bo'ldi. Husayn BoyQaro o'z «Risolasida» uning hukmronligi davrida shunday asarlar yaratilganidan cheksiz faxrlangani bejiz emas.

Bu boy adabiy meros o'zbek adabiyotining keyingi taraQQiyotiga ham o'zining chuQur ta'sirini ko'rsatdi. Boburning «Boburnoma» asari shu davr o'zbek adabiyoti va ilmining hayotbaxsh an'analari asosida yuzaga kelgan edi.

XV asrda o'zbek adabiyoti, ayniqsa Navoiy ijodi misolida adabiy janrlar rang-barangligi nuqtai nazaridan ham eng yuksak cho'qqiga ko'tarildi. O'zbek adabiy tili shakllandi. o'zbek nazmi va nasridagi adabiy uslubning xususiyatlaridan biri adabiy va ilmiy asarlarda fikr ifodasida forsiy va arabiy so'z va iboralardan, atamalardan, forsiy tilga xos jumla tuzilish Qoidalaridan keng foydalandilar.

Temuriylarning adabiyot va madaniyat sohasidagi an'analari keyinchalik boburiylar tomonidan Afg'oniston va Hindistonda, XVIII-XIX asrlarda Xorazm va Qo'qon xonligida rivojlantirildi¹.

Temuriylar davri adabiyoti o'zbek adabiyoti rivojida o'ziga xos alohida bir bosqichni tashkil etadi. Undagi ulug'vor insonparvarlik va xalqchilik, adolatparvarlik va ma'rifatparvarlik g'oyalari hamon o'z tarovatini yo'qotgani yo'q. Bu adabiy meros O'zbekistonda hali asrlar davomida o'zining boy mazmuni bilan, g'oyaviy-mafkuraviy teranligi va ilohiyligi bilan komil insonni tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.

Temuriylar davrida yaratilgan adabiyot tasavvufning adabiyoti darajasini belgiladi. Adabiyot tasavvufning g'oyaviy mazmunida ilohiy masalalarni Qamrab olib umuinsoniy tafakkurni ifodaladi.

Movarounnahr va Xurosonda XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda ro'y bergan madaniy yuksaklik butun musulmon Sharqigina esas, ovropa mamlakatlarini hayratga soldi. Bu yuksaklik Markaziy Osiyoning so'nggi madaniy-ma'naviy rivojinigina belgilab bermay, Qo'shni mamlakatlardagi madaniy taraqqiyotga ham katta turtki berdi.

Temur va Temuriylar davridagi madaniy yuksalishning umumiy omillarini aniqlash shuni ko'rsatadiki, ular o'azro uzviy bog'langan va yaxlit bir butun holdagina Qisqa vaqt ichidagi madaniy-ma'naviy yuksakligini yuzaga keltira olgan.

Bulardan birinchi navbatda siyosiy-ijtimoiy omilni ko'rsatish mumkin. Movarounnahr va Xurosonda tarqoq, o'zaro nizo va urushlar natijasida turli viloyat, amirliklarga bo'linib ketgan va kelgindi hukmronlar- mo'g'ullar tomonidan ayovsiz ezilgan xalqning mustamlakachilikdan Qutulishi, mamlakatda yagona birlashgan davlatning barpo etilishi, yagona davlatchilik asosida boshQarish Qoidalarining joriy etilishi, zo'ravonliklar, o'zboshimchaliklar kabi illatlarning tugatilishi ijtimoiy yuksalishi ta'minlandi.

Ikkinchi - iqtisodiy omil - Movarounnahr va Xurosonda yagona idora tizimining joriy etilishi iqtisodiy osoyishtalik ishlab chiQarishning so'nggi rivojlanishiga olib keldi. Davlat tomonidan dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiqning rivojiga e'tibor berilishi va bu sohada Qator tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatning ma'naviy-madaniy taraqqiyoti uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etdi.

Uchinchi - ma'naviy omil - avval madaniy meros, ma'naviy Qadriyatlar, boyliklardan keng foydalanish, ular asosida rivojlanishini amalga oshirishdan iborat bo'ldi. Markaziy Osiyoda avvalgi asrlarda, xususan IX-XIII asrlarda yaratilgan ma'naviy-madaniy boyliklardan, Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Chag'iniylar merosidan; arab, fors va turkiy tillarda yaratilgan Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Rumi, Tusiy, Attor kabi allomalar merosidan: Musulmon Sharqi ma'naviy merosida keng ahamiyat kasb etgan Qadimgi yunon ilmiy-ma'naviy, boyliklaridan keng foydalanildi.

Bu davrda Amir Temur davlatining ta'sirida bo'lgan va bo'lmagan boshqa mamlakatlar o'rtasida madaniy aloqalar tez rivojlandiki, bunday aloqalar ma'naviy boyliklarni o'zaro almashishga keng yo'l ochib berdi. Eron, arab mamlakatlari, Hindiston, Xitoy kabi mamlakatlar bilan bo'lgan aloqalarda madaniy boyliklar almashinuvi ha muhim ahamiyat kasb etdi.

To'rtinchi - g'oyaviy omil - bu omil ma'naviy omilning uzviy davomi bo'lsa-da, uning muhim ahamiyatga ega bo'lganligi va o'z davri ma'naviy hayotida katta rol o'ynaganligi uchun alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiQdir. Bu XV asrga kelib Movarounnahr va Xurosonda keng tarqalgan tasavvuf - xususan Naqshbandiya ta'limotidir. Markaziy Osiyoda Yusuf Hamadoni, Abu Xoliq g'ijduvoni ta'limotlarini rivojlantirish asosida shakllangan Naqshbandiya ta'limoti va uning yirik vakillari XIV-XV asrlardagi siyosiy-ijtimoiy hamda madaniy hayotda nihoyatda muhim rol o'ynadi, ma'naviy o'zgarishlar ma'lum erkinlik uchun g'oyaviy asos, omil bo'lib xizmat Qildi. Temur va temuriy shahzodalar, ko'p olim-fozillar, hunarmandlar naqshbandiya ta'limotidan ozuqa oldilar, o'z faoliyatlari, ijodlari bilan uni har tomonlama boyitdilar.

¹ Ғайитметов А. Темурийлар даври Ёзбек адабиёти. Т., 1996 й. 8-10 бетлар.

XV asrda yashab ijod etgan NaQshbandiya ta'limotining yirik vakili Xo'ja Ahror Vali faQat madaniy hayotdagina emas, siyosiy-iqtisodiy tinchlik va rivojlanish ishida muhim ijobiy rol o'ynadi.

Bu kabi omillar Temur va Temuriylar davri madaniyati va ma'naviyatining tez va yuksak darajada ko'tarilishiga olib keldiki, uning yutuqlari so'nggi uzoQ asrlar davomida madaniy rivojlanish uchun ozuqa bo'ldi.

XIV-XV asrlarda ma'naviy-madaniy rivojlanish islom diniy Qarashlarining mustahkamlanib borishi bilan uzviy bog'liQ bo'lib, hukmron mafkura sifatida madrasayu masjidlarda keng o'qitilib, o'rganilib, Qonun-Qoida, odat, an'analar esa shariat asosida olib borilar edi. «Temur tuzuklari» da din arboblari, shayx, sayid, ulamolar faoliyatiga alohida o'rin ajratilib, ularning davlat ishlaridagi ishtiroki maxsus va bir necha Qayd etilib o'tiladi. Lekin bu davrda shu bilan birga xalQ orasida, ayniQsa, ziyolilar, aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi ilm-fan, san'at, madaniyat xodimlari o'rtasida o'z davrida islom Qoidalarini zamona talablar, ijtimoiy yuksalish zarurlatlari asosida talQin etishga intilish natijasida yuzaga kelgan tasavvuf ta'limoti keng tarQaladi.

Markaziy Osiyoda XI asrdan boshlab yoyila boshlagan tasavvuf ta'limoti bu davrga kelib Movarounnaxr va Xurosonda tasavvufning yassaviy, kubroviya, Qodiriya va ayniQsa naQshbandiya tariQati ma'naviy hayotda katta rol o'ynaydi.

NaQshbandiya tariQati Yusuf HamadoniY g'ijduvoniY va XIV asrga kelib Bahovuddin NaQshband nomi bilan uzviy bog'liQ bo'lib, bu ta'limot XV asrda nazariy va amaliy jihatdan yanada rivoj topib u saroy ahli, ko'p hollarda temuriyzodalar faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Amir Temurning o'zi ham mutasavvuf olimlarga katta hurmat bilan munosabatda bo'lib, tasavvufning naQshbandiya suluki targ'ibotchilaridan sayid Mir Kulolni (Shamsuddin Foxuriy, vafoti 1371 y.) o'ziga pir deb bilgan. Shuningdek, turli o'lkalardagi yirik mutasovvuf'larga ham hurmat ko'rsatgan. Uning hamadoniya tariQatiga asos solgan yirik mutasavvuf Sayid HamadoniY bilan uchrashib suhbatda bo'lganligi, 1398 yilda Turkistonning Yassi shahrida yirik mutasavvuf Ahmad Yassaviy Qabrini ziyorat etganligi, uni ta'mirlatib, ustiga oliy bino Qurishni buyurgani tarixiy maktablarda ko'rsatib o'tilgan.

«Tuzuklar»da: «... mashoyixlar, so'fiylar xudoni tanigan oriflardir. Ularning xizmatlarida bo'lib, suhbatlar Qurdim va oxirat foydalarini oldim. Ulardan Tangri taoloning so'zlarini eshitib karomatlar ko'rdim», - deb yozadi Amir Temur.

XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoda keng tarQalayotgan tasavvuf ta'limotining Sufi, Porso, Charxiy, Maxdumi A'zam, Xoja Ahror kabi yirik vakllari naQshbandiya tariQatiga oid Qator risolalar yaratish bilan birga, jamiyatning ma'naviy poklanishi va rivojlanishi yo'lida faol xizmat Qildilar, taniqli arboblardan muloQotda bo'lib, ularga ta'sir o'tkazdilar. Bu jihatdan, ayniQsa, Xoja Ahror faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Navoiy, Jomiy, Qosimiy, Lutfiy, Bobur kabi shoirlar tasavvufni targ'ib Qildilar.

Bu davrda tibbiyot ilmi ham o'zining yirik namoyondalariga ega edi. SamarQandga kelib ijod qilgan tabobat ilmining yirik vakillaridan Burhoniddin Nafis ibn Evaz hakim al—Xirmoniy, Sulton Ali tabib Xursoniy, tabib Husayn Jarroh shular jumlasidandir.

XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoda mantiQ va falsafa fanlari bilan shug'ullangan yirik olimlar paydo bo'ldi. Bu fanlarning rivoji, asosan ikki yirik mutafakkir Saadiddin bin Umar Taftazoniy va Mir Sayid JurjoniY nomlari bilan bog'liQdir. JurjoniY va Taftazoniylardan tashQari, SamarQandda o'sha davrda Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsiddin Munshiy, Mavlono Abdulla Lison, Mavlono Badriddin Ahmad, Mavlono Nug'moniddin Xorazmiy, Xoja Afzal, Jalol hoQiy va boshqa olimlar yashab ijod etganlar. O'z davrining ilg'or ijtimoiy va axloQiy fikrlari badiiy adabiyotda, tasavvuf she'riyatida, nazm va nazrda, g'azal va ruboiylarda mufasssal bayon qilina boshlandi. Navoiy, Jomiy, Lutfiy, Binoiy, Qosimi Anvar va boshQalarning badiiy asarlari boy falsafiy va axloQiy mazmunga egadir.

Bu davrda axloQ va ta'lim-tarbiya muammolariga bag'ishlangan maxsus risolalar paydo bo'ldiki, ularning orasida Xusayn Voiz Kashifiy va Jaloliddin Davoniylarning merosi alohida o'rin egallaydi.

Temur va Temuriy shahzodalar o'z davri tarixini yozib Qoldirish, Movarounnaxr va Xurosonning mo'g'ullar zulmidan ozod etilishi tarixini o'rganish va yoritishga katta e'tibor berdilar. Nizomiddin Shomiy, Ali Yazdiy, AbdurazzoQ SamarQandiy, hofizi Abru, Natanze, Fosih Xavofiy, Mo'yniddin Isfizoriy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar temuriylar davri tarixini yozib

Qoldirdilarki, ular yozib Qoldirgan asarlar hozirda biz uchun o'sha davr hodisalarini, madaniy yuksalishini o'rganishda, muhim manba bo'lib xizmat Qilib kelmoQda¹.

Ilm fan va adabiyotning rivoji kitobat san'ati, yangi Qo'lyozma asarlarni ko'chirib yozish, xattotlik, musavvirlik, lavha chizish, muravozlik kabi san'atlar taraQQiyotiga ham ijobiy ta'sir Qildi. Nafis kitob va xattotlik XIV-XV asrlarda yangi taraQQiyot bosQichiga ko'tarildi. hattot Mir Ali Tabriziy (1330-1402) nasta'liQ xatini kashf Qildi. Bu usul hirotida Sulton Ali Mashhadiy boshchiligida yuksak bosQichiga ko'tarildi va Abdurahmon Xorazmiy, Sulton Ali Xandon, Mir Ali QilQalam, Halvoiy, RafiQiy kabi hattotlar, musavvirlar yetishib chiQdi. SamarQand va Xirotda temuriylarning saroy kutubxonalari tashkil etildi. Bu kutubxonalar hunarmandchilik korxonasi hisoblangan, ularda Qo'l yozma asarlarni to'plash va saQlash ishlari bajarilgan.

XIV-XV asrlar O'rta Osiyo xalQlarining musiQa san'ati taraQQiyotida ham yangi bosQich bo'ldi. Yangi kuy va Qo'shiQlar, cholg'u asboblari va musiQa nazariyasiga doir asarlar yaratildi. Mahoratli sozandalar, bastakorlar va hofizlar yetishdi. AbduQodir Nayiy, Qulmuhammad Shayhiy, Husayn Udiy, ShohQuli g'ijjakiy, Ahmad Qonuniy, Yusuf Andijoniy kabilar shular jumlasidandir. Ulug'bek, Jomiy, Navoiy va Binoiylar musiQa ilmiga oid asarlar yozib yangi kuylar ijod Qildilar. IX-XII asrlarda shakllangan 12 maQom bu davrda takomillashdi. Shuningdek, keng ommaga mo'ljallangan teatrlashgan tomoshalar- xalQ sayllarida masxarabozlar, Qo'g'irchoQbozlar, dorbozlar o'z san'atini namoyish Qilgan.

Temur va temuriylar davri ma'naviy hayotida diniy falsafa katta o'rin tutadi. So'fiylik tariQatida NaQshbandiylik rivojlanib, barcha ijtimoiy-ma'naviy sohalarga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bahovuddin NaQshbandiy bu tariQatni boyitib, balogardon martabasiga ega bo'lgan karomat sohibi edi. XV asrda NaQshbandiya tariQatining davomchisi Xoja Ubaydulloh Ahrordir. SamarQandga kelgan Xoja Ahror Valini temuriylar o'zlariga pir deb biladi. Xoja Ahror NaQshbandiya Xojagon tariQatining yo'nalishini belgilagan va ijtimoiy faoliyatidan tashQari ijodkorlik ilmi bilan ham shug'ullanib bir nechta asarlar yozgan.

O'rta Osiyoda Temur va temuriylar davrida madaniyat rivojlandi va kamol topdi. XIV-XV asrlardagi Movarounnahr va Xurosondagi madaniy taraQQiyotining tamal tojini Buyuk sohibQiron Amir Temur Qo'ygan edi.

Tayanch tushunchalar

Amir Temur, saltanat, Bog'dod, Sultoniya, Bibixonim, Karvonyo'li, masjid, maQbara, Movarounnahr, Registon, nasta'liQ, tasavvuf, NaQshbandiya, tuzuklar.

Mavzuni takrorlash uchun savollar

1. Movaraunaxrda XIV-XV asrlarda madaniyat ravnaQining omillari va shart-sharoitlari.
2. Temuriylar shajarasini jahon tarixida eng ma'rifatli shajara ekanligini misollar bilan tushuntiring.
3. XIV-XV asr Movarounaxrdagi madaniy yuksalishning asosiy belgilari.
4. Temur va Temuriylarning madaniy siyosatida me'morchilikning o'rni va ahamiyati.
5. O'zbek adabiyoti ravnaQida Navoiy, Boburlarning roli.
6. Kamollidin Bexzod ijodining tasviriylar san'at rivojida ahamiyati.
7. Ulug'bek ilmiy maktabining yutuqlari nimada? Va uning jahon fani uchun ahamiyati.
8. Temur va Temuriylar davri madaniyatining hozirgi sharoitdagi ahamiyati.
9. Temur va Temuriylar madaniy merosini tiklash yuzasidan amalga oshirilayotgan tadbirlar.

ADABIYOTLAR

Karimov I.A. Amir Temur haQida so'z. T. 1986 y.

Temur va Ulug'bek davri tarixi. T. 1996 y.

Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va san'at. T. 1996 y.

¹ Маънавият юлдузлари. Т., 1999 й., 15-20 бетлар.

Abdurahmonov A. Ulug‘bek va uning rasadxonasi. T. 1996 y.
Ahmedov B. Temur. T. 1995 y.
Ahmedov B. Ulug‘bek. T. 1994 y.
Dadaboyev H. Amir Temurning harbiy mahorati. T. 1996 y.
Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. T. 1992 y.
Ibodov J. Matvievskaya. Ulug‘bek shogirdi –Ali Kushchi. T. 1994 y.
Keren L., Saidov A. Amir Temur va Fransiya. T. 1996 y.
Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. T. 1993 y.
Amir Temur va Ulug‘bek zamondoshlari xotirasida.
Temurnoma. T. 1990 y.
Temurning me‘moriy merosi. T. 1996 y.
Temur va temuriylar saltanati. T. 1996 y.
To‘xtaev I. Temur va temuriylar tangalari. T. 1992 y.
Fayziev T. Temuriy malikalar. T. 1994 y.
Usmonov O.K. Behzod va uning naQQoshlik maktabi. T. 1977 y.
Qayumov A. Alisher Navoiy. T.1991 y.
A. Hayitmetov. Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti. T. 1996 y.

7-MAVZU XVII-XX ASRLARDA MARKAZIY OSIYO MADANIYATI

Ma'ruza rejasi:

Markaziy Osiyoda mustaqil xonliklarning vujudga kelishi va madaniyatning ahvoli.
Mustakil xonliklar va amirlikning o'zaro madaniy aloqalari.
Markaziy Osiyo madaniyatiga Rus va dunyo madaniyatining ta'siri.

Markaziy Osiyoda temuriylar davrida madaniyat klassik darajasi bilan dunyoga mashhur bo'ldi. Shayboniylar va Ashtarxoniylar davri (XVI-XVIII asrlar) da mamlakat feodalizmning murakkab jarayonlarini boshdan kechirdi. XVI asrda hunarmandchilikning rivojlanishi tranzit va ichki savdoning kengayishiga yordam berdi. Bu davrda hunarmandchilikning 60 dan ortiq turi mavjud edi. Markaziy Osiyo, Hindiston, Eron, Balx, Rossiya, Turkiya va boshqa mamlakatlar bilan savdo-sotiq diplomatik aloqada bo'lgan. XV-XVI asrlarda Movarounnahrda ilm-fan ancha rivojlandi. Adabiyot, tarix, memorchilik va tasviriy sanat o'ziga xos rivojlanish bosqichini bosib o'tdi. Hasan Buxoriy Nisoriy (1566) ning «Muzakkir ul-ahbob» va Mutribiyning (1604) «Tazkiratush-shuaro» nomli adabiyot antologiyasi buning yaqqol ifodasidir. Bu Qomusiy antalogiyada yuzdan ziyod adabiyot arboblarning ijodlari va tarjimai hollari o'rin olgan. Mamlakatda hunar va savdo ishlarining rivojlanishi ilm ahlining ijtimoiy doirasi kengayishiga tasir ko'rsatdi. Mutafakkir Zayniddin Vosifiy 1512 yil Samarqandda bo'lganda bazmi mushoiralarda kosib, shoirlar, savdogarlar va oddiy kishilarning marakalarda faol qatnashib turganligini bayon qiladi. Ularning aksariyati sher yozib turganligi o'sha davr tabaqalarining madaniy jihatdan yuksak saviyada ekanligidan dalolat beradi. Bu davrning o'ziga xos xususiyati shundaki ko'plab adabiy va tarixiy asarlar o'zbek tilida yozildi. Muallifi nomalumi «Nuxratnoma» Muhammad Solihning «Shayboniynoma» asarlari o'zbek tilida yozilgan. Bundan tashqari mashhur tarixchi Sharofiddin Ali Yazdiyning tarixiy asarlari xususan «Zafarnoma»si, Ulug'bekka bag'ishlangan «Muntahabi jome va tovorixi shohiy» degan asarlari o'zbek tiliga o'girildi. Shayboniylar davrida fanning qator tarmoqlari rivoj topdi. 1693 yilda Amin Ahmad Roziy «Haft iqlim»- yetti iqlim degan jug'rofi-biologiyaga oid lug'at tuzadi. Unga Mutribiyning dunyo xaritasi ilova qilinadi. 1541 yilda Muhammad Husayn as-Samarqandiy tibbiyot va farmakologiyaga oid ilmiy asar yozadi. U ko'z tabibi shoh Ali ibn Sulaymon Navro'z Ahmadjon huzurida ishlab, kasalliklar haqida «Tabiblik dasturul-amali» risolasini bitadi. Musiqqa ilmiga oid buxorolik Navkabiyning asari ham XVI asrda bu sanat rivojidan darak beradi. Bundan tashqari xattotlik sanatining rivojiga ulkan hissa qo'shgan Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Hirviy, Mahmud Ali Shiqobiy kabi husni hat ustalari ham ijod qilgan. 1586 yilda Darvesh Muhammad Buxoriy kalligrafiya sanati nazariyasiga oid asar yozadi. Shuningdek ko'plab qo'lyozmalar miniatyuralar va suratlar bilan bezatildi. Tarixiy va adabiy asarlardan «Fatxnoma» Tarixi Abulxayrxoni, Navoiyning asarlari shular jumlasidandir. «Miniatyuralarda Markaziy Osiyo moddiy madaniyati aks ettiriladi va rassomlar voqelikni realistik tasvirlashga intiladi. Jaloliddin Yusuf, Keldi Muhammad va boshqalar rassomchilik sanati uchun ulkan hissa qo'shadi.

Xonliklar davrida qurilish inshootlari turlari yanada takomillashadi, ko'plab jamoat binolari (karvonsaroylar, ko'priklar, sardobalar, hammom, tim va boshqa savdo rastalari) quriladi. Monumental binolarning tarixi, qiyofasi o'zgaradi, hunarmandlar uyushmalari vujudga keladi. Buxoro shahri balandligi 10 metrli devor bilan o'ralib, shahar darvozalari qurildi, yirik binolar qurishda (Misr Arab madrasasi, Xo'ja Zayniddin masjid-xonaqosi) xalq me'morchiligi an'analariidan foydalanildi. Shahar tashqarisida ham monumental binolar (Chorbakr) qurildi. Jome' masjidlari saroy kabi serhasham qilib, madrasalar peshtoqli, minorali tarzda qurib, hovlilari to'rt tomondan ayvon va hujralar bilan o'raldi. Buxoro va Toshkentdagi ko'kaldosh madrasalari bunga guvohlik beradi.

Binolar bezashda mayda o'simlik-naqshli parchinlar ishlatildi. Devorlarga gul terish kabi temuriylar davridagi usullar rivojlantirildi. Qabr toshlari yasashda yuksak badiiy darajada toshlarga yozuvlarni o'yib bitish rivojlandi. (Shayboniynon qabr toshi va Chirchikdagi Abu Said qabriga qo'yilgan toshlar). Xullas, bu davrning ko'pgina betakror madaniyat sohalari o'z sirlarini mukammal saqlab kelmoqda.

Markaziy Osiyoda xonliklar va amirlik o'rtasidagi nizolar bo'lib tursada, ma'lum darajada dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq davom topdi. Fan, adabiyot, san'atning rivojlanishi

ko'proq saroy doirasida bo'lib, ham diniy, ham dunyoviy asarlar yozildi. Garchi o'z davri tarixnavisligi o'sha xonlik va amirlikdagi siyosiy voqealar salnomasini ifodalaydi, o'sha davr ruhi aks etganligi bilan tarixiy ahamiyatga ega. Muhammad Yoqubning «Gulshan-ul mulk», Muhammad Mir Olimning «Tarixi Amir Nasrullo», Mulla Ibodulla va Mulla Muhammad Sharifning «Tarixi amir Haydar», Muhammad Hakimjon To'raning «Muntaxabut tavorix» kabi asarlari diqqatga sazovordir.

Qo'qon adabiy muhiti ko'plab shoir va shoirlar ijodi bilan boyidi. Qo'qon xoni Umarxonning o'zi «Amiriy» tahallusi bilan o'zbek tilida g'azallar yozgan. Uning rafiqasi Mohlaroyim «Nodira» tahallusi bilan fors-tojik tilida «Maknuna», «Komila» tahalluslari bilan she'rlar yozgan. Eri Umarxon vafot etgach, Nodira davlat ishlariga ham aralashib, mamlakat xo'jaligini yaxshilash, madaniy hayotni jonlantirish bo'yicha muhim tadbirlarni amalga oshirdi. Qo'qonda madrasalar, karvonsaroylar, rastalar, yo'llar qurildi. U o'z atrofiga Uvaysiy, Mahzuna kabi Qobiliyatli ijod ahlini to'pladi. Bu davrda Fazliy Namangoniy Mushrif, Mushfiqiy kabi shoirlar ijod qilgan. Mushfiqiy Buxoro amiri Abdullaxon saroyida «Malikush-shuaro» unvoniga ega bo'lgan bo'lsa, Fazliy Namangoniy Qo'qon shoirlariga boshchilik qilgan, Umarxonning topshirig'i bilan Fazliy va Mushrif tomonidan «Majmuat-ush-shuaro» to'plami tuziladi. Bu davrda Qo'qonda Xudoyorxonning saroy arki, Xivada turli obidalar qurildi.

Taxminan XVII asrda yashab ijod qilgan shoirlardan biri Turdi Farog'iy haqida ma'lumot beruvchi asosiy manba shoirning o'z asaridir. U yuz urug'ining oqsoqollaridan biri sifatida Abdulazizxon saroyida e'tiborli kishilardan bo'lgan, keyin saroydan chetlashtirilgan.

XVIII asr oxirida Qo'qonda tug'ilgan shoir Mahmud og'ir sharoitda yashab, saroyda askarlik qilgan. U amaldorlar va saroy shoirlari bilan chiqisholmay, saroyni tashlab ketadi. Mahmud Qiyinchilikda hapalak qishlog'ida 1844 yilda vafot etgan. Uning she'rlari ichida «Hapalak» hajviy asari mashhurdir.

XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Farg'onada Muhammad Sharif-Gulhaniy tahallusi bilan tanilib, ajoyib lirik she'rlar, masallar yozdi. Uning «Zarbulmasal» asari qahramonlari qushlar bo'lib, shoir ular orqali saroy a'enlarining kirdikorlarini fosh etadi. Yana bir Qo'qonlik shoir g'oziy ham o'z asarlarida zodogonlar va ruhoniylarni fosh qiladi. XIX asrning 30 yillarida Shahrisbзда shoir Hiromiy hind, fors adabiyotida mashhur bo'lgan «Chor darvesh» va «To'tinoma» hikoyalarini o'zbek tiliga tarjima qiladi xalq dostonlari «Yusuf va Zulayho», «Tohir va Zuhro» «Bo'z o'g'lon», «Yusuf va Ahmad» va boshqa dostonlar vujudga keldi. Shahar maydonlarida qiziqchi va qo'g'irchoqbozlar, o'yinchi san'atkorlar xalq hayotidan hikoya qiluvchi lavhalarni o'ynab, tomosha ko'rsatar, boylar va saroy ahlini ochko'zligini fosh etib, ustidan kular edi.

Bu davrda Markaziy Osiyoda ikki turdagi maktab mavjud edi: Quyisi- maktab va oliy- madrasa. Boshlang'ich maktabda savod o'rgatilar va diniy matnlar yodlanar edi. Madrasada ham ilohiyat o'qitilar, shuningdek arab tili sarfu nahvi (grammatikasi), notiqlik san'ati, aljabr va handasa asoslari o'rgatilgan. Bundan tashqari Xofiz, Bedil, Navoiy asarlari o'qitilgan.

O'sha davr shoirlari, fan arboblari musiqani chuqur tushunganlar. Musiqasi san'atining rivojiga ulkan hissa qo'shgan Mavlono Muhammadin Mug'anniy, Mavlono Kavkabiy, Xo'ja Muhammad, Rizo Samarqandiyning nomlari bizgacha yetib kelgan.

Bu davrdagi me'morchilik yodgorliklar hajmi va pardozining jimjimadorligi bilan ajralib turadi. Samarqanddagi Registon maydoni shu davrda shakllandi. Sherdor madrasasining old peshtoqida rangin koshinlar bilan chekilgan bir juft sher tasvirlangan. Tillakori madrasasining nomi «tilla bilan pardozlangan» degan ma'noni beradi. Devorlardagi ajoyib naqshu nigorlar va ichki devorlardagi to'kis tilla bezaklar juda nafis ishlangan.

XVIII asr oxirlaridan Xiva xonligida ta'mirlash va shaharsozlik ishlari avj oladi. Ollaqulixon madrasasi, Rahmonquli inoq saroyi hajm jihatidan ancha mahobatli qurilgan. Qo'qon xonligi me'morchiligida rang-baranglik va yorqinlik, pardozdagi koshinlarning yorqin tovlanishi kabi xususiyatlar ayniqsa Xudoyorxon saroyida yaqqol namoyon bo'ladi.

XVIII asr oxiri - XIX asr boshlarida me'morchilik hajm jihatdan ixcham binolar, goho bezak-pardozlardan butunlay holiligi bilan ko'zga tashlanadi. Xonliklar va amirlikda me'morchilik qurilishida va bezakda o'ziga xoslik ham seziladi. Farg'ona uylari kengkovul va ayvonli, guldor tokchali, o'yma ganchli, shiftlari naqshu nigori qilib qurilsa, Samarqand va Buxoro uylari uchun chiroyli ko'rinishdagi ustunli ayvon, girih va islmiy naqshlar tushirilgan devor va ganch o'ymakorligi xosdir. Xiva o'ylari tashqi va ichki shaklda qurilib, ayvoni ichkariga qaragan, ustunlariga o'yma naqshlar chekilgan, murakkab shakldagi gullar bilan bezalgan.

XIX asr boshlarida mehnatkash xalQning turmush madaniyati past darajada edi. Xonliklarning o‘zaro urushlari ho‘jalik va madaniy hayotni izdan chiQardi. Bu hol Chor Rossiyaning xonliklarni bosib olishini osonlashtirdi. Rossiyada sarmoyadorlik sanoatining o‘sishi yangi bozor savdosiga va xom ashyo manbalariga bo‘lgan talabni oshirdi. Rossiya Markaziy Osiyoni bosib olgach, mahalliy aholi rus va Rossiyaning boshqa xalqlari bilan aloqa o‘rnatishga majbur bo‘ldi. Sanoat va QishloQ xo‘jaligi texnikalari kirib kela boshladi. O‘z o‘rnida Rossiya va Yevropa madaniyati elementlari kirib keldi. Rus tuzem maktablari ochildi. Tipografiya va litografiyaning paydo bo‘lishi madaniy hayotda katta voQea bo‘ldi. Avval rus tilida, so‘ngra mahalliy tillarda gazeta, jurnal va kitoblar chop etila boshladi.

XIX asrning 80 yillarida A.S. Pushkin va I.A. Krilov asarlari ilk bor o‘zbekchaga tarjima qilindi. 1880 yilda Toshkentda jamoat kutubxonasi ochildi. 1870 yilda rasadxona va kimyogarlik tajribaxonasiga asos solindi. Ilmiy jamiyatlar tuzildi, tarixiy va arxeologiya muzeylari ochildi.

O‘lka tabiiy boyliklarini o‘rganish ishiga rus olimlari ham QiziQa boshladi. 1870 yilda tabiat, antropologiya va etnografiya havaskorlari rus jamiyatning Turkiston bo‘limi ochildi. N.A. Seversov, I.V. Mushketov, V.P. Fedchenko, V.F. Omanin singari olimlar bu jamiyat a‘zolari edi. Rus jug‘rofi F.P. Litko 1873 yilda Toshkent falakshunoslik va tabiatshunoslik rasadxonasi tashkil etilishga hissa Qo‘shdi. P.P. Semyonov Tyan-Shanskiy Tongritog‘ tizmalari tarkibi va tuzumini haQida ma‘lumotlarni chop ettirdi. A.P. Fedchenko Farg‘ona vodiysining o‘simlik dunyosini tadQiq Qildi. I.V. Mushketov va G.D. Romanovskiy Turkiston o‘lkasining yer ustki xaritasini tuzdilar. I.V. Mushketov oltin, temir ma‘dani, Qoramoy, ko‘mir kabi Qazilma boyliklarni aniQladi. Akademik V.V. Bartold o‘lka tarixi va el-elatini o‘rganish asosida ko‘plab kitoblar chop Qildi.

Rus madaniyati ta‘sirida xalQ ma‘rifatparvarlari shakllandi. Ular V.I. Gersei, N.T. Chernishevskiy, N.V. Dobrolyubovlar ta‘sirida xalQ ozodlik masalasini ko‘tarib chiQdilar. O‘rta asr QoloQligini tugatish, ta‘lim-tarbiyaning ilg‘or usullarini joriy qilishni o‘z asarlarida kuylagan FurQat (1858-1909) misol tariQasida rus maktablarini ko‘rsatdi. U A.S. Pushkinning bir Qancha she‘rlarini o‘zbekchaga tarjima Qildi. MuQimiy (1850-1909) o‘zining hajviy she‘rlarida xalQ ommasining burjuaziya tomonidan ezilishini fosh etdi. ZavQiy (1853-1921) o‘z she‘rlarida ijtimoiy adolatsizlikni Qoraladi.

XIX asr Turkiston adabiyoti ikki yo‘nalishda rivojlandi. Shohlik va saroy muhitini kuylovchi adabiyot, hamda zo‘rovonlikka Qarshi norozilikni va QoloQlikni tugatishga Qaratilgan taraQQiyparvar xalQ adabiyoti. Umuman, Rus va dunyo madaniyati ta‘sirida mehnatkash xalQ bilan bog‘liQ Turkistonda milliy madaniyatning rivojlanish jarayoni kuchayib bordi.

U musulmonlar va Qolaversa turkiylar dunyosining jahon taraQQiyotidan uzilib Qolganligi, bu g‘oyat xavfli holga barham berish kerakligini hamda umumturkiy Qavmlardagi jaholatni yo‘Q Qilib, ma‘rifat orQali taraQQiy topgan mamlakatlarga tanglashish zarurligini birinchi bo‘lib turkiy Qrim-tatar xalQining ulug‘ farzandi Ismoil g‘asparali (1851-1914) tushunib yetdi. U jadidchilik harakatining butun turk dunyosidagi «g‘oyaviy otasi»dir.

Musulmon turkiy olamini jahon ma‘rifati, ilmi darajasiga ko‘tarish g‘oyasini amalga oshirish maQsadida Rossiyaga mustamlaka bo‘lgan barcha musulmon hududlar maorifini mutlaQo isloh qilish ularda dunyoviy fanlarni o‘qitish masalasini ko‘tardi. Ismoil g‘asparalining g‘oyalarini yoyishda «Tarjimon» gazetasining xizmati juda katta bo‘ldi. 1888 yilda uning «Rahbari muallimin» yoki «muallimlarga yo‘ldosh» kitobining nashrdan chiQishi muhim voQea bo‘ldi. U Buxoro, Turkistonga kelib jadid maktablarini ochishga urinadi. Uning shogirdlari Buxorolik Marjoniy, Domla Fozil, Mo‘minxo‘ja Vobkandiy, Mulla Xudoyberdi Boysuniy Buxoroda jadid maktablarini ko‘paytirishga urinadilar. 1904 yilda «Mazaffariya» jadid maktabi ochiladi.

Shunga Qaramay 1898 yilda Qo‘Qonda Salohiddin domla ikkinchi jadid maktabiga asos soldi. Shu yili To‘QmoQda ham shu tipdagi maktab ochildi. 1899 yili Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon Qori jadid maktabiga asos soldilar. 1903 yilda Turkiston o‘lkasida 102 ta boshlang‘ich va 2 ta o‘rta jadid maktablari bor edi.

Asr boshida jadidlar ziyolilarning butun bir vatanparvar avlodini tarbiyalab berishdek og‘ir ishga fidoiylilik bilan kirishdilar. Ularning boshida M. Behbudiy, A. Avloniy, S. Ayniy, A. Fitrat, Munavvar Qori, Boboxxun Salimov va boshqa ko‘plab taraQQiyparvar insonlar turar edilar. Ular doimo Quvg‘in, QamoQ, surgun kabi xavf-hatarlar boshida charx urib turgan holda ish olib borishga majbur bo‘ldilar.

Shulardan Toshkent jadidlarining otasi sifatida ziyoliylar orasida katta obro‘-e‘tibor Qozongan Munavvar Qori Abdurashidxonovning xizmatlari juda katta bo‘ldi.

XX asr boshlarida Toshkent, SamarQand, Buxoro, Farg‘ona vodiysi shaharlarida o‘nlab «usuli jadid» maktablari ochildi. Uni bitirganlar orasida Turkiston ma‘naviy-ma‘rifiy dunyosini milliy uyg‘onishiga kuchli ijobiy ta‘sir Qiladigan zabardast namoyondalar ajralib chiQdi. Uning birinchi Qaldirg‘ochlari Mahmudxo‘ja Behbudiy, AbduQodir Shakuriy, Siddiqiy Ajziy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ashurali Zohiriy, Lutfulla Olimiy, Muhammadsharif So‘fizada, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, H.H. Niyoziy kabi o‘nlab ulug‘ zotlar. Jadidlar maktab va ma‘rifatdan boshlangan faoliyatini siyosiy Qiyofa kasb etguncha Qadar davom Qildirib, Turkistonda milliy mustaqil davlat barpo etishga urinish bilan eng yuQori pog‘onaga ko‘tarildilar.

Turkistonda ma‘rifatparvarlik harakati ikki bosQichda kechdi. Birinchi davrda feodal tuzum va tartiblarini tanQid Qilish, madaniy yangiliklarni egallash, Ovropaning turli tillarini o‘rganishni targ‘ib Qilish, yangicha ilm-fanning ahamiyatini ko‘tarish kabi masalalar olg‘a surildi. Ahmad Donish, Avaz o‘tar, FurQat, MuQimiy, ZavQiy singari ma‘rifatparvarlar yetishib chiQdilar.

Ikkinchi bosQichda ma‘rifatchilikdan jadidizm o‘sib chiQdiki, u endilikda yangicha ta‘lim-tarbiya, yangi usul maktablarini yo‘lga Qo‘yish, dunyoviy ilmlarni har tomonlama egallash maorif-madaniyatda yangi tartiblarni o‘rnatish, yangi ijtimoiy-siyosiy masalalarni Qo‘yish darajasiga ko‘tarildi. Jadidchilik harakati turkiy millatlarning ma‘naviy-madaniy ko‘tarilishiga turtki bo‘ldi. Turkistonda yangi usul maktablari ochilib, ma‘rifatparvar, ilg‘or pedagoglar bu maktablar uchun turli darsliklar, o‘Qish kitoblari, Qo‘llanmalar yarata boshladilar. Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Abdulla Avloniy, Ibrat, Hamza kabilar bu sohada jonbozlik ko‘rsatdilar va bu ishda faol ishtirok etdilar. Jadidlar boshQa o‘lkadagi ma‘rifatparvarlik harakatlari bilan ham aloQa o‘rnata boshladilar. Bu davrda Turkistonda ma‘rifatparvarlik va jadidchilikning turli, yangi ta‘lim-tarbiya, o‘Quv-o‘Qituv masalalarini o‘zida aks ettiruvchi juda ko‘p jurnallar nashr etildi. «TaraQQiyot», «Oyna», «Tujjor», «Sadoyi Turkiston», «SamarQand» kabi jurnallar shular jumlasidandir.

Ma‘rifatchilik harakati ayniQsa o‘zining rivoj topgan bosQichda Turkistonda o‘zga yurtlardagi ijobiy yutuqlardan foydalangan holda mustaqil ma‘naviy taraQQiyot yo‘lini Qidirish va targ‘ib etish masalalarini olg‘a surdi. Bu harakat rus podsho hokimiyatining mustamlakachilik siyosatiga zarar keltirishdan cho‘chigan chorizm amaldorlari uni chegaralash va bug‘ib Qo‘yish chora tadbirlarini ko‘ra boshladilar.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda juda murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisalar bilan birga uning madaniy hayotida ham tez va shiddatli o‘zgarishlar ro‘y berdi. Madaniyat, adabiyot, ta‘lim-tarbiya, din, mafkura sohasida turli oQimlar paydo bo‘ldi, ular orasidagi munosabatlar murakkab tus oldi. Yosh buxoroliklar, yosh xivaliklar harakati vujudga keldi.

1917 yildagi butun rossiyada yuz bergan fevral va oktyabr inQiloblari uning mustamlakasi bo‘lmish Turkistonda ham to‘ntarishlarga olib keldi.

Sovet davrida juda ham murakkab ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iQtisodiy jarayonlar respublikaning milliy madaniyatiga har xil tarzda ta‘sir o‘tkazdi, barcha sohadagi o‘rgatirishlarni Qarama-Qarshi tusga kiritdi va respublika taraQQiyotining asosiy tendensiyalari hamda yo‘nalishlarini uzoQ yillarga belgilab berdi.

30-yillarda madaniy-oQartuv masalalari tarmog‘i kengayishda davom etib bordi. Yirik sanoat korxonalarida madaniyat saroylari bunyod etildi, QishloQ xo‘jalik artellari Qoshida kolxoz klublari ochildi, rayon madaniyat uylari barpo etildi, kutubxonalar tarmog‘i kengayib, ularning kitob fondlari boyib bordi, kinoteatrlar, klub va madaniyat uylari Qoshidagi kino Qurilmalarining soni ko‘paydi, stadion va sport maydonchalari jihozlandi. Ko‘p miQdorda kitob, gazeta va jurnallar nashr etildi. Radio eshittirishlari aholining kundalik turmushida rasm bo‘lib Qoldi.

BiroQ, 30-yillarda Qaror topib borgan ma‘muriy-buyruQbozlik tizimi va shaxsga sig‘inish mafkurasi respublikaning ijodiy xodimlarini, uning butun ma‘naviy hayotini QattiQ iskanjaga oldi. Ijodiyotni partiyaviylik tamoillariga, mafkuraviy Qoida-Qonunlarga bo‘ysundirish, dunyoni badiiy tasvirlashni Qo‘pol ravishda sotsiologiyalashtirish uchun keng yo‘l ochib berdi, dunyoviy imkoniyatlarni toraytirib Qo‘ydi. Partiyaning yangi turmushni madh etishga, xalQ o‘tmishiga nigilistik munosabat paydo bo‘lishiga Qaratilgan siyosati badiiy jarayondagi tarixiy izchillikni unutib yuborishga olib keldi. Madaniyatda murakkab ijtimoiy muammolarni bezatib, yengil tusga kiritib ko‘rsatish, hato va kamchiliklar to‘g‘risida sukut saQlash tendensiyalari paydo bo‘la boshladi. OQibatda hayotiy haQiQat buzilib, san‘atning tarbiyaviy salohiyati pasaytirib yuborildi.

30-yillardagi Qatog'onlar milliy madaniyat uchun dahshatli fojeaga aylandi. Qonunchilikni Qo'pol ravishda buzilishi va inson Qadr-Qimmatlari poymol etilishi tufayli milliy madaniyat o'rni to'lmaydigan darajada zavol ko'rdi. Iste'dodli adabiyot va san'at arboblari Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Shokir Sulayman, Ziyosaid, Elbek, A'zam Ayub, Usmon Nosir, Qosim Sorokin, Muhammad hasan, Abdusalom Niyoziy, Otajon Hoshimov va boshqalar milliy madaniyat Qucho'g'idan uzib olinib xalq dushmanlari deb e'lon qilindi. Qatog'on Qilingan va ta'qib ostiga olingan shoir va yozuvchilarning asarlaridan foydalanish necha-necha yillar mobaynida ta'qib bo'lib turdi. Nohaqlik unittirib yuborilgan, ko'pincha esa jismonan ham yo'q qilingan jasur xalq farzandlarining asarlari shaxsga sig'inish tugatilganidan keyin garchi xalqqa qaytarib berilgan bo'lsa-da, o'limidan keyingi hech qanday shon-shuhrat ular boshidan kechirgan tahqir-u qiynoqlarning alamini bosa olmaydi.

Din va dindorlarni ta'qib qilish xalqning ma'naviy madaniyatiga nihoyat darajada katta zavol yetkazdi. Ma'muriy-buyruqbozlik tartiboti o'rnatilishi bilan dinga ilmiy nuqtai-nazardan yondoshish inkor etila boshlandi. Din bilan ateizmning dunyoqarash jihatidan bir-biriga qarama qarshiligi siyosiy qarama-qarshilik bilan almashtirildi. «Sotsializmga dinga o'rin yo'q, unga din begona» degan qoida ustun bo'lib qoldi. Shunday qilib unga nisbatan salbiy munosabat dinga qarshi zo'rlik ko'rsatishga aylanib ketdi. Na masjidlar, na cherkovlar, na dindorlar shu qadarmi qiyosdagi ta'qiblarni boshidan kechirmagan edilar. O'zbekiston ruhoniylarining asosiy qismi 30-yillarda qamoq lagerlariga jo'natildi. Masjid va madrasalarning deyarli hammasi o'tmishda garchi diniy marosimlarni o'tkazish o'choqlari bo'libgina qolmasdan, xalqning buyuk merosini saqlab, boyitib kelgan madaniyat, ilm, tarbiya, san'at markazlari ham bo'lganiga qaramay berkitib qo'yildi.

Sobiq Sovet davrida Respublika madaniy hayotida progressiv va regressiv taraqqiyotning bir-biriga qarama-qarshi tendensiyalari tobora kuchayib bordi. 70-yillar va 80-yillarning birinchi yarmida, xuddi boshqa sohalarida bo'lganidek, O'zbekistonning ma'naviy hayotida ham inqirozga xos vaziyat vujudga keldi. Shu bilan birga ushbu yillar davomida respublika madaniyati umuman muayyan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi. Madaniyat, maorif muassasalarining tarmog'i sezilarli darajada kengaydi, ularni moddiy-texnika bazasi mustahkamlandi, aholining umumiy bilim darajasi o'sib, ijodiy ziyoliylar safi kengayib bordi. Talaygina ajoyib badiiy asarlar, teatr, musiqa asarlari yaratildi. Madaniyat va san'atning rivojiga iste'dodli yoshlarning butun bir katta guruhi qo'shildi, milliy o'z-o'zini anglashning o'sish jarayonlari belgi berib qoldi.

Ma'naviy, badiiy hodisalarni baholashda sinfiylik, partiyaviylik singari, mafkuraning badiiyat ustidan hukmronligi singari prinsiplaridan foydalanish, adabiyotda sotsialistik realizm usulining ustuvorligi madaniyat va san'atning rivojlanishiga to'g'ri bo'ladigan mexanizmi vujudga keltirdi. Bu prinsiplar partiyaning cheklanmagan totalitar hukmronligi taziqi ostida zo'rlik bilan amalga oshirib borildi. Ziddiyatlar, qarama-qarshiliklarning sababi ham xuddi ana shunda. Ma'naviy sohada, bir tomondan, chindan ham sezilarli o'zgarishlar ro'y berib borgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, inqirozga xos vaziyat yuzaga kelib bordi.

Tub milliy manfaatlarni unutib qo'yish, zo'r berib baynalminallashtirish madaniy qurilishda salbiy rolni o'ynadi. Partiyaning madaniyat sohasida baynalminal madaniyatni birinchi qo'yadigan siyosati milliy madaniyatni rivojlantirish rejasini, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ulardan ma'naviy rivojlanishda foydalanishni orqa o'ringa surib qo'ydi. Madaniyatni mafkuralashtirish axloq-odob, adabiyot, san'atning samarali milliy zamindan ajralib qolishiga sabab bo'ldi, tarixiy xotira, milliy an'analar va odatlarni unutib yuborishga olib bordi. Baynalminal madaniyatning ustivor tarzda rivojlanishi O'zbekiston tub xalqlari tillarining qo'llanish sohasini toraytirib qo'ydi.

Ma'naviy sohani boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik tizimi mustahkamlanib borishi bilan birgalikda fikr-mulohazalar va baholarning obro'yiga ko'r-ko'rona itoat qilish, ijodiy faoliyatga qo'pol ravishda aralashish, ijodiyotni eng oddiy erkinliklardan ham mahrum qilish rasm bo'lib bordi. Ma'naviy hayotga buyruqbozlik yo'li bilan rahbarlik qilish, mafkuraviy cheklashlar, to'g'ri mexanizmi, madaniy siyosatdagi ziddiyatlar, ma'naviy soha ehtiyojlarini inkor etish jamiyatning ma'naviy hayotida inqirozli holatlarni yuzaga kelishini belgiladi.

Uzoq va yaqin o'tmishni hayoldan o'tkazib, mohiyatini anglashda 1991 yil 31 avgust kuni – O'zbekiston Respublikasining Mustaqil deb e'lon qilinishi tarixiy voqea bo'ldi. U milliy o'zlikni anglash, tom ma'nodagi milliy yuksalish uchun sharoit yaratdi.

Jamiyat va millat tarixi, taqdirida yangi davr – Istiqbol davri boshlandi.

«Istiqlol biz uchun taraqqiyotning butunlay yangi, keng ufqlarini ochdi, – degan edi I.A. Karimov, – Kelajagimizni o‘z Qo‘limiz bilan yaratadigan bo‘ldik. Hayotimiz va yashayotgan xonadonimizni milliy manfaat va Qadriyatlarimizga umumbashariyat e‘tirof etgan demokratik mezonlarga monan Qilib Qurishdek noyob tarixiy imkoniyatga ega bo‘ldik».

Tayanch tushunchalar

Shayboniynoma, Zafarnoma, Ashtarxoniylar, Mang‘itlar, tuzum maktabi, g‘asparali, jadidlik, Qatag‘on.

Mavzu bo‘yicha takrorlash savollari

1. XVI-XVII asrlarda Movaraunnaxrda kechgan madaniy jarayonlarni umumiy izohlang.
2. XVI-XVII asrlarda yaratilgan Qanday san‘at asarlari va me‘morchilik yodgorliklarini bilasiz.
3. XVII asrni birinchi yarimida Movarounaxda ro‘y bergan madaniy tanazzulning sabablari.
4. XVIII asrni ikkinchi yarmida Markazlashgan davlatchilikning vujudga kelishining madaniy taraqqiyotga ta‘siri.
5. XVIII-XIX asrlarda adabiyot va san‘atga oid Qanday yirik asarlar yaratilgan.
6. XVIII-XIX asrlarda Xiva, Quqon va Buxoroda barpo etilgan me‘morchilik majmualari.
7. Turkistoni zabt etilishini madaniy hayotga salbiy ta‘siri.
8. Turkiston ma‘naviy hayotida jadidchilik harakatining o‘rni.
9. Jadidlarning Turkistonda milliy madaniyatni tiklashdagi faoliyati va uning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati.

ADABIYOTLAR

- Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T., 1998 y.
Bartold V.V. Turkiston madaniy hayoti tarixi. L., 1967 y.
Buxoro tarixi. T., 1976 y.
Samarqand tarixi. T., 1969-70 y. 2-jild.
Xorazm tarixi. T., 1976 y.
O‘zbekiston xalqlari tarixi va madaniyati. T., 1992 y.
O‘zbekiston tarixi. I-tom. O‘zbekiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. T., 2000.

8-MAVZU
MILLIY ISTIQLOL VA O'ZBEKISTONDA
MADANIY TARAQQIYO'T

Ma'ruza rejasi:

1. Ma'naviy-ma'rifiy islohotlar – jamiyat taraqqiyotining ustivor yo'nalishi sifatida.
2. Ta'lim rivojining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Hozirgi bosqichda madaniy hayot.

Har Qanday jamiyat taraqqiyoti, uning u yoki bu vaqt va makondagi darajasi ko'p jihatdan fuqarolar ma'naviyati, turmush tarzi, kishilarning ma'naviy-moddiy, ijtimoiy ehtiyojlari hamda ularning Qay darajada Qondirilishiga bog'liqdir. Mustaqillik davrigacha va undan keyingi o'tgan tarixan Qisqa muddat ichida ro'y bergan holatlar, jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy-mafkuraviy sohasidagi o'zgarishlar bizga sho'rolar mustabid tuzumi hamda istiqlol yillarida O'zbekistonning real hayotida xolisona javob izlashga va unga erishishga imkon beradi.

Uzoq ming yilliklar tarixi shundan dalolat beradiki, o'zbek milliy davlatchilik tarixi eng avvalo ma'naviyat-ma'rifatning jamiyat hayotida muhim o'rin egallaganligi bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu azaliy an'anaga mustaqillik yillarida ham alohida e'tibor berilishi juda ahamiyatli bo'ldi. Qayd etish lozimki, istiqlolning dastlabki davrlaridanoq madaniyatning metodologiyasi o'zgardi. Agarda, sho'rolar mustabid tuzimi davrida madaniyatning asosiy vazifasi jamiyat a'zolarining kommunistik mafkura va soxta g'oyaga e'tiqodini mustahkamlashga safarbar etish bo'lsa, istiqlol davrida uning maqsadi tamomila o'zgardi.

Xo'sh, bular nimalarda ko'rindi? Xususan, eng avvalo, mamlakat xukumati, Prezidentning ma'naviy-ma'rifiy omillarga nisbatan munosabati shakllandi. Jumladan, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining asosiy ustivor yo'nalishi, deb hisoblandi. Joylarda ma'naviyat bilan bog'liq shularning amalga oshirilishi uchun butun mas'uliyatning hokimlar, vazirliklar, idoralar, tashkilotlarning birinchi rahbarlari zimmlariga yuklatilishi juda katta ijtimoiy ahamiyat kasb etdi.

Ikkinchidan, ma'naviyati yuksak millat va davlatnigina kelajagi buyuk bo'lishi mumkin ekanligi to'g'risidagi ijtimoiy fikr shakllana boshlandi. Darhaqiqat iqtisodiy-siyosiy omillarning har Qanday davlat, millat hayotidagi o'rni va roli kattadir. Biroq, ma'naviy omillargina jamiyatda sodir bo'lgan barcha muammolarni hal etishga Qodir omil ekanligi endi haqiqatdir.

Uchinchidan, ma'naviyat va ma'rifat jamiyatni poklantiruvchi kuch ekanligi e'tirof etilmoqda, zero sho'rolar mustabid tizimi davridan Qolgan yaramas «ma'naviy» merosdan poklanmasdan turib istiqloлга xizmat Qiladigan, fuqarolar Qalbi va ongini yangilashga Qodir ma'naviyatni shakllantirish mumkin emas.

To'rtinchidan, istiqlol davri O'zbekiston jamiyati ma'naviyatining eng muqaddas maqsadlaridan biri – o'tmish tarixiy-madaniy, ilmiy, axloqiy-mafkuraviy, ijtimoiy-siyosiy Qadriyatlariga sho'ro davrida tarkib topgan munosabat kabi «illat» sifatida emas, aksincha, jamiyatni poklantiruvchi va kelajakni ma'naviy jihatdan mustahkamlovchi omil asnosida Qarashdan iborat jamoatchilik fikri shakllandi.

Beshinchidan, istiqlol davrida ma'naviyatning har Qanday siyosiy hukmron mafkuralardan holiligi, muhimi, shakllanayotgan milliy mafkuraning ma'naviyat bilan uyg'unligi ta'minlandi. Mamlakat Prezidenti Islom Karimov Qayd etganidek, mustaqillik davrida bajarilishi lozim bo'lgan eng ustivor vazifa «xalqimiz orasida katta ma'rifiy-amaliy ishlarni olib borib, milliy mafkuramizga kuch-Quvvat beradigan, uni yangi-yangi marralar sari safarbar etadigan, keng ommaga ta'sir o'tkazishga, xalqni o'ziga tarafdor etishga xizmat Qiladigan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy manbalarni to'g'ri belgilab olishdir¹».

Haqiqatdan ham, mustaqillik yillarida ma'naviyat va ma'rifatning ijtimoiy maqsadi aniqlab olindi, uning bajarishi lozim bo'lgan vazifalari belgilandi. Ana shunday sharoitda jamiyat fuqarolari tomonidan bildirilgan ijtimoiy ehtiyoj – ma'naviy-ma'rifiy sohalarda yangi asr va umuman, uchinchi ming yillikdagi bosh g'oya Qanday bo'lishi aniqlandi.

¹ Каримов И. Ёз келажагимизни 'з қ'лимиз билан қурмоқдамиз. Т., 1999. 16-бет.

Xo'sh, hozirgi va yangi asrda ma'naviyat sohasidagi bosh g'oyamiz nimalardan iborat? Mazkur savolga javob bera turib, I. Karimov Quyidagilarni yozadi: «Modomiki biz huQuQiy demokratik davlat, erkin fuQarolik jamiyati Qurayotgan ekanmiz, ma'naviyat sohasidagi yigirma birinchi asrga mo'ljallangan harakat dasturimiz ham ana shundan kelib chiQmog'i darkor. Ya'ni erkin fuQarongli yashaydigan, mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxs ma'naviyatini kamol toptirish bizning bosh milliy g'oyamiz bo'lishi zarur.

Darhaqiqat, mustaqil O'zbekistonda istiqlol ma'naviyat sohasida mavjud bo'lgan vazifalar ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy barQarorlik sharoitida muttasil ravishda bajarilib kelinmoQda. Chunonchi, agar istiqlolning dastlabki yillarida jamiyat ma'naviy hayotida turgan eng bosh vazifa fuQarolarda sho'rolar davriga xos tafakkurni eskicha fikrlash sarQitlarini bartaraf etish edi. Mazkur masalada Qator yutuqlarga erishildi. BiroQ, bu borada hali talay ishlarni bajarish lozim»¹.

Ikkinchi, eng muhim vazifalardan yana biri erkin fuQarolik jamiyatining ma'naviyatini shakllantirishdir, zero «ozod, o'z haQ-huQuqlarini yaxshi taniydigan, boQimandalikning har Qanday ko'rinishlarini o'zi uchun or deb biladigan, o'z kuchi va aqliga ishonib yashaydigan, ayni zamonda o'z shaxsiy manfaatlarini xalQ, Vatan manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan komil insonlarni tarbiyalashdan iboratdir»².

Istiqlol yillarida O'zbekiston madaniyati xususida fikrlash asnosida alohida Qayd etilishi lozim bo'lgan masalalardan yana biri – ma'naviyat sohasidagi davlat siyosatining tobora konkretlashib borishi, vazifalarni hal etish yo'llarining oydinlashuvidir.

Ma'naviyat jamiyat a'zolarini ruxan poklantiruvchi, Qalban ulg'aytiruvchi, inson ichki dunyosiga, irodasiga kuch-Quvvat beruvchi, milliy vijdonini uyg'otuvchi va doimiy harakatdagi konkret kuchdir. Shunday ekan, ma'naviyatga umumiy tarzda munosabatda bo'lish xatodir, zero har bir fuQaroning ma'naviy-mafkuraviy, komillik darajasi bir xil bo'lmagani kabi, ularning bunday sifatlarini uyg'unlashtirib turuvchi ko'rinishlari ham konkretir.

Xususan, yangi asr bo'sag'asida eng asosiy vazifamiz nimadan iborat? Mamlakat Prezidentining ta'kidlashicha, ma'naviyat sohasidagi strategik maQsadimiz – «milliy Qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, muQaddas dinimizning ma'naviy hayotimizdagi o'rmini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlangan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosQichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirishdir»³.

YuQorida bildirilgan fikrdan tabiiy ravishda kelib chiQayotgan xulosa shundan iboratki, istiqlolning hozirgi bosQichida ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlarning tashkil etilishidan, endi, bunday ishlarning samaradorligiga erishish muhim ahamiyat kasb etmoQda. Xo'sh, ma'naviyat sohasidagi ishlarning samaradorligini oshirish deganda nimani tushunish mumkin? Umuman, madaniy-mafkuraviy sohasidagi ishlarimiz jamiyatni ma'naviy yuksaltirishga Qodir-mi?

Shu o'rinda Qurilayotgan demokratik, huQuQiy insonparvar jamiyat yuksak ma'naviy va axloQiy Qadriyatlarga tayanishini bu jarayon esa milliy g'oya va milliy mafkuraga, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga asoslanishini alohida Qayd etish juda muhimdir.

Agar, istiqlolning dastlabki yillarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardan ko'zlangan maQsad sho'ro mustabid tizimi asoratlaridan Qutulish, jamiyatda ma'naviy yakdillik yaratishdan iborat bo'lgan bo'lsa, endi esa, ijtimoiy hamkorlik, komil insonni tarbiyalash ustivor tavsifga ega bo'lmoQda. Ma'naviyatning mamlakatda demokratik, huQuQiy, Qudratli davlat Qurish yo'lidagi muhim omil ekanligi endi hech kimga sir emas.

O'zbekistonning hozirgi taraqqiyot bosQichida ma'naviy omillar hamda millatlararo munosabatlar masalasiga Qarash ham tubdan o'zgardi. Chunonchi, istiqlolning dastlabki davrlarida «soxta baynalmilallik» oldida yurak oldirib Qo'ygan hamda xadiksirash kasalidan xoli bo'lmagan holda har Qanday milliylikni ulug'lash va har Qanday «bayanalmilallik» dan Qochish xissiyoti yuzaga kelgan edi. Bunday jiddiy va Qat'iy Qutblilik, tabiiyki, jamiyat ijtimoiy taraqqiyotiga, ayniQsa, millatlararo munosabatlar masalasiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin edi.

Shuning uchun ham O'zbekiston hukumati madaniyatdagi milliylik va baynalmilallik nisbatini saqlashga muhim vazifa sifatida munosabatda bo'la boshladi. Ayni paytda 130 ga yaQin millat va elat yashayotgan O'zbekistonda har bir millat ravnaQi, uning barQaror taraqqiyoti, xavfsizligi va

¹ «Ша жойда. 18-бет.

² «Ша жойда. 19-бет.

³ Каримов И. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон маъёт – пировард мақсадимиз. Т., 2000, 24-бет.

yashash kafolotlariga har Qanday tahdidlarning oldini olish, u yoki bu millatga mansub kishilar guruhining xudbinlik kayfiyatlarini muQarrar tarzda boshQa millat, xalQ imkoniyatlarini zo'rvonlik va zug'um bilan chegaralab Qo'yadigan davlat siyosatining ishlab chiQilishi bu boradagi amaliy ishlarning samarasini oshirdi.

O'zbekistonda istiQomat Qilayotgan ko'p millatli xalQlarning madaniy taraQQiyoti, ularning o'zliklarini anglash jarayonlariga bo'lgan intilishlarini Qonuniy-huQuQiy asosda Qondirish masalalari ham mamlakat xukumatidagi eng muhim vazifalardan biri bo'ldi. Shu o'rinda 1989 yili madaniyat vazirligi huzurida respublika millatlararo madaniy markazning tashkil etilishini alohida ta'kidlash lozimdir. Agarda 90-yillarning boshlarida O'zbekistonda 12 ta milliy-madaniy markaz faoliyat ko'rsatgan bo'lsa¹, hozirgi kunga kelib ularning soni 80 dan ortdi. Mustaqillik yillarida milliy-madaniy markazlar faoliyati ustidan muvofiQlashtiruvchi ishlarning ko'lami ham ortdi va 1992 yil yanvar oyida hukumat Qarori bilan Respublika Baynalmilal Madaniy markazi tashkil etildi.

Ushbu markazning bosh vazifasi Qilib esa milliy madaniy markazlarga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish, ular faoliyatini muvofiQlashtirish, milliy an'ana, urf-odatlarini Qaytadan tiklash, MDH va xorij davlatlaridagi baynalmilal madaniy markazlar bilan hamkorlik aloQalarini kuchaytirish, O'zbekistonda millatlararo aloQalarni yaxshilash, ijtimoiy barQarorlikni ta'minlash kabi muhim masalalar kiritildi.

IstiQlol yillarida ma'naviyat-ma'rifat masalasiga jiddiy e'tibor xukumat tomonidan bu borada mukammal tarzda ishlab chiQilgan dastur asosida ish olib borishni talab etdi. Shu asnoda 1994 yil 23 aprelda mamlakatimiz ma'naviy hayotida muhim voQea yuz berdi: Prezident Islom Karimov farmoni bilan Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat jamoatchilik markazi tashkil etildi.

Ma'lumki, sobiQ ittifoQ tugatilishi bilan birga uning kommunistik mafkurasi ham barham topdi. Bu munofiQ, yakkaxokim mafkuraning achchiQ saboQlaridan achchiQ saboQlaridan xulosa chiQarib mamlakatimizning Asosiy Qonunida «Hech Qaysi mafkura davlat mafkurasi bo'lishiga yo'l Qo'yilmaydi», deb yozib Qo'yildi. Shu asnoda, jamiyatimiz hech Qachon mafkura yakkaxokimligi ro'y bermasligi uchun zarur bo'lgan huQuQiy poydevor yaratilgan. Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi ayni shu maQsadni ko'zda tutib tashkil etildi².

Qayd etish lozimki, ma'naviyat-ma'rifat markazi QisQa davr ichida xalQimizning boy ma'naviy merosini o'rganish, milliy va umuminsoniy Qadriyatlar asosida mamlakat va millat kelajagini belgilaydigan ilg'or g'oyalarni yuzaga chiQarish bo'yicha yirik ishlarni bajardi. Shu bilan birga, ma'naviyat va ma'rifat masalalarini bevosita jamoatchilik yo'li bilan rivojlantirishga alohida e'tibor berilishi o'z samarasini bermoQda.

Ushbu yo'nalishdagi faoliyatni yanada rivojlantirish maQsadida 1996 yil 9 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida»gi farmoni jamiyatni ma'naviy barQarorlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi³. Undan mazkur masalada jiddiy ijobiy o'zgarishlar bilan bir Qatorda ayrim hollarda ma'naviyatning mohiyatini, uning siljishimish, farovon jamiyatga tezroQ yetishimizdagi Qimmatini chuQur idrok etmaslik holllari mavjudligi, bu ishga daxldor rahbarlarda mas'ullik xislari past ekanligiga e'tibor Qaratildi.

Farmonga asosan 1997 yildan boshlab 1 oktyabr «O'Qituvchilar va murabbiylar» kuni deb e'lon Qilindi, «Ma'naviyat» nashriyoti tashkil etildi, «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi Qoshida «Oltin meros» xalQaro xayriya jamg'armasi ta'sis etildi.

Bu boradagi ishlarni tartibga keltirish, faoliyat samaradorligini oshirish maQsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov 1999 yil 3 sentyabrda «Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashini Qo'llab-Quvvatlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi. Ushbu farmon ma'naviyat va ma'rifat davlat siyosatining ustivor yo'nalishi ekanligi to'g'risidagi g'oyani yanada mustahkamladi va yanada unga kuch berdi.

Xukumat tomonidan Qurilgan tadbirlar samarasi natijasida ma'naviyat va ma'rifat jamiyatda ruhiy poklanishga, shaxs ulug'vorligini oshirishga, demokratik, huQuQiy, insonparvarlik davlat Qurishga mustahkam poydevor yaratdi.

¹ Ёзбекистон миллатлараро дамжиқатлик й'лида. Т., 1996. 111-бет.

² Ж'раев А. Агар оғоң сен ... Т., 1998. 148-бет.

³ Гулистон, 1997, №1, 4-бет.

2. Ta'lim taraqqiyoti, uning o'ziga xos xususiyatlari.

Insoniyat tarixida o'z ijtimoiy ahamiyati jihatdan alohida e'tiborga loyiq holatlar, Qadriyatlar mavjudki, bular u yoki bu millat, elat, xalqning mavjudlik belgisi, taraqqiyot mezonini sifatida baholanishi mumkin. Millat mavjudligining ana shunday muhim belgilaridan biri ta'lim tizimi hamda yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash masalasidir.

Darhaqiqat, ta'lim tizimi demokratik tamoyillar bilan uyg'unlashgan, uning insonparvar jamiyat barpo etish kabi zarur ijtimoiy ehtiyoj talablariga javob bergandagina u o'z oldiga Qo'ygan buyuk maqsad – barkamol avlodni tarbiyalash va shakllantirish vazifasini ado etishi mumkin.

Kommunistik «nazariya» tomonidan ta'lim tizimiga Qo'yilgan asosiy maqsad – jamiyat a'zolarini mafkuraviy Qullikka, itoatkorlikka majbur Qilishdan boshqa narsa emasdi. Mafkuraviy bikiklik, erkin fikr yuritishdan iborat (shaxs daxlsizligi, demokratik tamoyillarga bepisandlik bilan munosabatda bo'lish kabi illatlar kishilarda ijtimoiy passivlik holatini yuzaga keltirdi).

Bularning barisi O'zbekiston mustaqilligining dastlabki davridanoq barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham chuqur o'zgarishlarni amalga oshirishga, tub islohotlarni o'tkazishga undadi. Istiqbol mamlakat fuqarolarida erkin fikrlashga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni uyg'otdi.

Mafkuraviy Qullikdan holi ravishda, mamlakat va xalq manfaatlariga mos tarzda faoliyat ko'rsatishga intilish xisssiyotini bemalol, emin-erkin ro'yobga chiQarish O'zbekiston fuqarolari dunyoQarashida yangilikka tashnalik kayfiyatini paydo Qildi. Bu masala ayniqsa, yangi tayyorlanishi, shakllanishi lozim bo'lgan mutaxassis kadrlarga nisbatan munosabatni o'zgartirib yubordi. Istiqbolning dastlabki davrlaridanoq mamlakat xukumati mavjud ta'lim tizimida tub islohotlarni o'tkazishga alohida ahamiyat berishga kirishishi lozimligini anglab yetdi. Mamlakat Prezidenti ta'kidlaganidek, «oldimizga Qo'ygan eng ezgu maqsadlarimiz bilan uzviy bog'langan bugungi kundagi yana bir g'oyatda dolzarb masala – kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish, bu borada boshlangan ishlarimizni davom ettirish va kuchaytirish bundan buyon ham biz uchun ustivor vazifa bo'lib Qoldi»¹.

Xo'sh, yuqorida Qayd etilgan holatlardan tashqari, yana Qanday sabablar ta'lim tizimida tub islohotlarni o'tkazishga undadi? Bular, kadrlar tayyorlash tizimining demokratik o'zgarishlar va bozor islohotlari talablariga muvofiq emasligi, o'Quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi yetarli emasligi, yuqori malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi, sifatli o'Quv-uslubiy va ilmiy adabiyot hamda didaktik materiallarning kamligi ta'lim tizimi, fan va ishlab chiQarish o'rtasida puxta o'zaro hamkorlik va o'zaro foydali integratsiyaning yo'qligi kabilardir.

Bularning barisi ta'lim tizimini zudlik bilan isloh etishni, mazkur sohani chuqur insonparvarlashtirishni talab etardi. To'g'ri, 1992 yil iyulida Qabul Qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va davlatimizning shu asosdagi ta'lim-tarbiya siyosati ishlab chiQilgan edi. Unda umumiy ta'lim Quyidagi bosqichlar bo'yicha amalga oshiriladi:

I bosqich – boshlang'ich ta'lim (1-4 sinf);

II bosqich – asosiy (tayanch) maktab (4-9 sinf);

III bosqich – yuqori o'rta maktab (10-11 sinf);

10-11 sinflar ixtisoslashgan bo'lib, o'Quvchilarni oliy o'Quv yurtlariga tayyorlashga xizmat Qila boshladi.

Ta'kidlash lozimki, hamdo'stlik mamlakatlari orasida birinchi bo'lib respublikamizda «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning Qabul Qilinganligi, «Maktabgacha tarbiya», «Umumiy o'rta ta'lim», «Maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar», «Yoshlar siyosatiga oid» kabi Qator konsepsiyalar va dasturlar yaratilganligini, davlat ta'lim tizimi jahon amaliyoti talablariga muvofiq kelishi uchun xorijiy davlatlardagi ilg'or tajribalarning o'rganilayotganligi va shu asnodan 20 dan ortiq yo'nalishlar, fanlar bo'yicha standartlar loyihali tayyorlandi².

1993-94 o'Quv yilida barcha viloyatlar, Toshkent shahri va QoraQalpog'iston Respublikasi maktablari o'Quvchilari bilimlarini tekshirish yuzasidan o'tkazilgan test sinovlari Quyidagi natijalarni ko'rsatdi. Ushbu sinovga 70 ta tuman va shaharlarning 400 dan ortiq maktablarning o'Quvchilari jalb etildi. 9-sinflarda kimyo va adabiyot fanlaridan test sinovi o'tkazildi. Yakunlar

¹ Каримов И. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон маъёт – пировард мақсадимиз. Т., 2000. 27-бет.

² Эргашев К. Ёзбекистон халқ таълимининг ривожланиш тарихи. Т., 1998, 59-бет.

Quyidagi me'yorda baholandi: 90 foizdan ortiq to'g'ri bajarganlarga «5» baho, 80 foizdan kamiga «4» baho, 60 foizdan ortig'iga esa «3» baho.

Mazkur sinovlar natijalari o'Quvchilarning gumanitar yo'nalishdagi fanlar bo'yicha chuqur bilim olayotganliklarini ko'rsatdi. Masalan, adabiyot fani bo'yicha tayanch maktablarining 10186 o'Quvchisidan 1275 tasi 90%dan ortiq vazifalarni, 2552 o'Quvchi 80%dan ortiq vazifalarni bajardilar, ya'ni o'Quvchilarning to'rtidan uch Qismi fanni yaxshi va a'lo baholarga o'zlashtirganliklarini namoyish etdilar¹.

Istiqlol yillarida umumta'lim maktablarida ona tilini o'qitishga muhim e'tiborning qaratilishi va «Davlat tili haqida»gi Qonunni bajarish yuzasidan olib borilgan ishlar ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini yanada oshishiga sabab bo'ldi. O'qish o'zbek tilida olib boriladigan maktablarda ona tili va adabiyotiga ajratilgan soatlar hajmi ko'payib, 2720 soatga yetdi. O'qish rus tillarida olib boriladigan maktablarda esa o'zbek tili faniga ajratilgan soatlar 544 soat o'rniga 1020 soatga yetdi. Bular o'Quvchilarda milliy o'zligini anglash xissini kuchaytirdi, o'z o'lkasiga, tarixiga qiziqishini va o'z Vatani gullab-yashnashi yo'lida faoliyat ko'rsatish xissini uyg'otdi.

Umuman, 1992 yilda Qabul Qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilishda ma'lum rol o'ynadi. Mazkur hujjat sho'rolar mustabid tizimi davridan «meros» bo'lib qolgan, kommunistik mafkuraga xizmat qiluvchi mafkuraviy kuchni bartaraf etishda alohida ahamiyat kasb etdi, jahon andozalariga mos tizim yaratilishida dastlabki qadam bo'ldi.

Biroq, qayd etish joizki, mazkur hujjat O'zbekistonning yangi sharoitdagi vazifalariga to'liq javob bera olmas edi. Shuning uchun ham O'zbekiston hukumati ta'lim tizimini to'liq isloh etishga qodir hujjatlarni qabul qilishga e'tiborni kuchaytirdi va bu borada bosh islohotchilik yo'lini o'ynadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida tamomila yangi, sifat jihatdan mukammal «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturini ishlab chiqdi.

Mamlakat Prezidenti yuqorida qayd etilgan hujjatlarni qabul qilishga undayotgan omillarni e'tiborga olgan holda quyidagi fikrni bayon etdi. Birinchidan, biz eski sho'rolar zamonidan qolgan ta'lim-tarbiya tizimiga xos mafkuraviy qarashlardan va sarqitlardan xali-beri to'liq qutulganimiz yo'q. Ikkinchidan, barcha amaldagi o'zgarishlar va tadbirlar, asosan yuzaki bo'lib, ta'lim-tarbiya va o'quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolarini yechib bergan emas.

Uchinchidan, bizning amaldagi ta'lim-tarbiya tizimimiz bugungi kun zamonaviy, taraqqiy topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera olmasligi ko'p joylarda yaqqol ko'rinmoqda². Mazkur mulohazalar yangi hujjatlar qabul qilingungacha bo'lgan davrdagi ta'lim tizimining cheklanganligidan yaqqol dalil berardi.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning eng ilg'or jihatlaridan biri – unda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarining bayon etilishi bo'ldi. Ular quyidagilardan iborat edi:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- umumiy o'rta, shuningdek o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta'lim dasturini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondoshuv;
- bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

Masalaga bunday tarzda yondoshuv ta'limning mamlakatda ko'rilayotgan demokratik, huquqiy, insonparvar jamiyat talablariga to'liq javob berishi, uning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidan guvohdir. Shu bilan birga, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim turlariga asos solindi, mavjudlarini takomillashtirish yo'llari ishlab chiqildi.

¹ ЁЗР ХТБ УМББ нинг жорий ҳужжатлари. 2-9-13-иш; 2-3 вақтлар.

² Баркамол авлод – Ёзбекистон тараққиётининг пойдевори. Т., 1997, 6-бет.

Mamlakatimiz raxbariyatining ta'lim-tarbiya sohasiga shu darajada katta e'tibor berishi bejiz emasdir. Gap shundaki, mamlakatimiz aholisining aksariyat ko'pchiligi yoshlar, o'smirlardan iborat bo'lib, ular o'z kelajaklarini aynan bilim olish bilan bog'lagandirlar. Xususan, hozirda O'zbekistonda 9,5 mingga yaQin umumta'lim maktablari, gimnaziyalar, litseylar, kollejlari, 300 ga yaQin o'rta maxsus muassasalar, 65 ta oliy o'Quv yurtlari bo'lib, ulardan 600 mingdan ortiq turli malakadagi pedagoglar mehnat Qiladi.

So'nggi yillarda milliy maktablar tizimini yaratish borasidagi ishlarning tarkibiy Qismi sifatida respublikamizda yashayotgan va ozchilikni tashkil etgan (mamlakatlar) millatlar farzandlari ta'lim-tarbiyasiga ham e'tibor kuchaytirildi. O'zbekistonda 2,5 mingdan ortiq o'Quvchisi bo'lgan 50 ga yaQin Qrim-tatar maktabi, 130 ta o'Quvchisiga ega bo'lgan 2 ta nemis maktabi, 2400 ga yaQin o'Quvchisiga ega bo'lgan 24 ta koreys maktabi, 4 ta uyg'ur, 1 dan kurdlar, yahudiylar maktablari faoliyat ko'rsatmoQdalar. Bundan tashQari, 9 mingdan ortiq QozoQ farzandlari, 3000 mingdan ortiq tojik farzandlari, 1 mingdan ortiq Qirg'iz farzandlari va 1,5 mingga yaQin turkman farzandlari ham o'z tillarida ta'lim-tarbiya ola boshladilar¹.

O'zbekiston xukumati istiQlol talablariga javob bera oladigan iQtidorli yoshlarni tanlab olish, ularga fan yo'lidagi so'QmoQLarni sharaf bilan bosib o'tish borasida ham Qator ishlarni amalga oshirmoQda. «Umid» jamg'armasining O'zbekiston Prezidenti tomonidan ta'sis etilishini shu ma'noda tushunish lozim. Jamg'arma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 13 yanvar Qaroriga muvofiq ish boshladi.

Ma'lumki, mamlakatimizda tarixiy tub o'zgarishlarni muvaffaqiyatli o'tkazish, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-iQtisodiy islohotlarni amalga oshirish uchun jahon andozalari darajasida bilim olgan iste'dodli, ruhan barkamol yosh milliy kadrlar zarurdir. «Umid» jamg'armasining o'z oldiga Qo'ygan eng katta maQsadi ham xalQ xo'jaligining nufuzli tarmoQLarini yuQori malakali mutaxassislar bilan ta'minlashdan iborat bo'ldi. Hozirgi kunda O'zbekistonlik talabalar o'z tanlagan ixtisosliklari bo'yicha AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va Yaponiyaning jahonga mashhur oliy o'Quv yurtlariga muvaffaqiyat bilan shug'ullanmoQdalar.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, kadrlar tayyorlashning milliy dasturi jamiyatni ma'naviy jihatdan barQarorlashtirish juda katta vazifalarni bajarmoQda, yoshlarda Vatanga, millatga mehr-muhabbat xissini singdirishda, jahon andozalariga mos faoliyat ko'rsatishda muhim omil bo'lmoQda. Shu bilan birga, yangi ta'lim-tarbiya dasturi yoshlarda mafkuraviy e'tiQodni mustahkamlashda, milliy g'oya va milliy mafkura mohiyatini anglashda alohida ahamiyatlidir, zero, mafkuraviy ta'sirlar salbiy oQibatlariga olib kelmasligi uchun yoshlarimizning iymon-e'tiQodini mustahkamlash, irodasini baQuvvat Qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash juda zarurdir. I Karimov Qayd etganidek, eng muhim vazifa «ularning tafakkurida o'zligini unutmaslik, ota-bobolarning muQaddas Qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat Qilish fazilatini Qaror toptirish, ularning men o'zbek farzandiman, deb g'urur va iftixor bilan yashashiga erishishdir»².

3. Madaniy hayot.

Har Qanday sharoitda ham barcha millat va xalQLar o'zining ma'naviy ehtiyojlarini Qondirishga muhtojlik sezadi. Ma'naviyat – inson uchun mavjudlik belgisi. Ma'naviy boylik – u yoki bu millatni boshQa etnik birikmalardan o'ziga xosligini bildiruvchi, anglatuvchi muhim omildir. Ma'naviyati yo'Q xalQning o'zi yo'Q. Shu bilan birga har bir xalQ ma'naviyati ham bir xil darajada emas.

Shu o'rinda mamlakat yurtboshisining «biz xalQni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orQali bilamiz, tarixning tag-tomirigacha nazar tashlaymiz»³, – degan fikrlarida juda mantiQ va ma'no bor. BiroQ, sho'rolar mustabid tizimi sharoitida o'zbek milliy madaniyati haddan ortiq darajada ko'p zarar ko'rdi. Barcha mustamlakachilik kabi kommunistik mafkura maddohlari ham o'zbek xalQini Qul Qilish uchun eng avvalo shu xalQning milliy madaniyatini yo'Q Qilishga zo'r berdilar.

Ta'kid etish joizki, ma'naviy madaniyati yuksak, uning ildizlari baQuvvat xalQning ijtimoiy ongidan shu xalQ madaniyatini hech Qachon tamomila yo'Q Qilish mumkin emas. To'g'ri

¹ Эргашев К. Ёзбекистон халқ таълимининг ривожланиш тарихи. Т., 1998. 64-бет.

² Каримов И. Доншманд халқимизнинг мушарраф иродасига ишонаман. Т., 2000. 6-бет.

³ Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак й'к. Т., 1998. 18-бет.

mustamlakachiliklar natijasida o'zbek madaniyatiga katta zarar yetkazildi, uning ma'naviy ildizlarini QirQib tashlashga urinildi. Lekin ular buning uddasidan chiQa olmadilar.

O'zbek xalQi katta yo'Qotishlarga Qaramasdan o'zligini, o'z milliy madaniyatini saQlab Qola bildi. Bunga yaQin va uzoQ tarix guvohdir. Endigi vazifa – ma'naviy hayotdagi barcha yo'Qotishlarning o'rnini Qoplashdan iborat bo'ldi. Bu narsa xalQimizning ma'naviyat va ma'rifatga muhtojligi va uning tanQisligi bilan belgilandi. Kishining o'zligini anglashi, o'z sha'nini himoya Qila olishi va barcha yomonliklardan o'zini tiya olishi uchun orif bo'lmog'i, Qalbining tubida, jinday bo'lsa-da, ma'rifat shamchirog'i yonib turmog'i lozim. Ana shunda odam gunohdan hazar Qilish, barcha ne'matlardan aQl-idrok va insof doirasida foydalanish yo'lini tutadi. Nojo'ya xatti-harakatlari uchun tavba-tazarru Qilish zarurligini anglay boshlaydi¹.

O'zbek xalQi aynan shu yo'ldan bordi, o'z milliy-tarixiy, madaniy merosiga sodiQligini ko'rsata bildi. Bu esa mustamlakachiliklar davrida yo'Qotilgan, taptalangan madaniy merosni tiklash, o'zligini anglashga bo'lgan rag'batni uyg'otdi.

IstiQlol yillarida o'zbek madaniy hayoti uyg'ondi, jonlandi va o'zining butun mavjud bo'y-bastini ko'rsata bildi. Teatr, musiQa san'ati rivoj topdi, madaniy aloQalar kengaydi, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati takomillashdi, muzeylarning ijtimoiy-ma'rifiy ahamiyati oshdi, milliy adabiyot ravnaQ topdi.

AyniQsa, teatr san'atining rivoji gullab yashnadi. Bu bejiz emasdi, zero mustamlakachilik davrida teatrlar kommunistik mafkuraning xizmatkoriga aylangan, siyosiy maQsadlarnigina bajaruvchi kuchga aylangan edi. Shu asnoda asosiy e'tibor repertuar masalasini hal etish, tomoshabinlarni bezdiradigan sahna asarlari o'rniga ularning ma'naviy-ijtimoiy ehtiyojlarini Qondiruvchi spektakllarni fuQarolar hukmiga havola etishga asosiy e'tibor Qaratildi.

Hozirgi sharoitda O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan 36 ta dramatik, musiQali drama va komediya, opera va balet, Qo'g'irchoQ teatrlari ana shunday vazifalarni bajardilar. 1998 yil 26 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning «O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida»gi Farmoni e'lon Qilindi. Unga binoan, O'zbekiston tomosha san'atining ko'p asrlik an'analarini o'rganish, boyitish va targ'ib Qilish, teatr san'atini har tomonlama rivojlantirish, uning moddiy bazasini yanada mustahkamlash, mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni amalga oshirishda teatr arboblarning faol Qatnashishini ta'minlash, respublika Madaniyat ishlari vazirligi teatr tashkilotlari negizida va teatr arboblari uyushmasida badiiy zamonaviy sahnabop asarlar yaratish maQsadida Madaniyat ishlari vazirligi tizimida va teatr ijodiy xodimlari uyushmasi Qoshida «O'zbekteatr» ijodiy-ishlar chiQarish birlashmasi tashkil etildi.

«O'zbekteatr» birlashmasi o'zining teatr tashkilotlari hamda mintaQaviy bo'limiga ega bo'lib, mulkchilik shakllaridan va Qandaydir muassasaga idoraviy daxldorligidan Qat'i nazar mamlakatdagi barcha davlat teatrlari, teatr studiyalarida xalQ teatrlari va boshQa tegishli tashkilotlar jamoalarini ixtiyoriy tartibda birlashtirdi².

Teatr san'atini rivojlantirish yo'lida 1998 yil noyabr oyida o'tkazilgan «Xumo» xalQaro yoshlar teatrlarining festivali alohida ahamiyat kasb etdi. Ushbu festivalda O'zbekiston va Isroil davlatlarining eng yaxshi teatr jamoalari ishtirok etdilar. Mazkur festival doirasida 32 ta spektakl namoyish etildi, ularni 20 mingdan ortiQ tomoshabin tomosha Qildi.

O'zbekistonning o'z mustaQilligini Qo'lga kiritishi natijasida ma'naviy madaniyatning muhim jabhasi bo'lgan musiQa san'ati ham juda rivoj topa boshladi, zero tabiatan nozikta'b, san'atsevar va san'at ahliga talabchan o'zbek xalQining musiQasi keng ko'lamli ma'naviyat ko'zqusidir. Sho'rolar davrida asosan mafkuraviy hukmronlik Qo'liga aylangan mazkur san'at turi erkinlik yo'liga kirdi. Jamiyat a'zolari milliy Qo'shiQchilik san'atidan bahramand bo'la boshladilar.

O'zbekiston hukumati xalQimizning milliy Qo'shiQchilikka bo'lgan ijtimoiy ehtiyojini e'tiborga olib milliy ruhdagi, xalQning ko'ngliga yaQin musiQa asarlarini yaratishga bo'lgan QiziQishni doimo rag'batlantirdi. IstiQlolning dastlabki kunlaridanoQ musiQa san'ati bo'yicha Qator ko'rik-tanlovlar o'tkazila boshlandi. Xususan, 1992 yil mart oyida Toshkent shahrida tanbur, sato, Qo'shnay, surnay va boshQa milliy soz ijrochilarining «Asrlarga tengdosh navolar» deb nomlangan respublika ko'rik tanlovi, aprel oyida Toshkent viloyatida havaskor Qo'g'irchoQ

¹ Ж'раев Н. Тарих фалсафаси. Т., 1999, 150-бет.

² Ёзбекистон Республикаси. 100 саволга 100 жавоб. Т., 1998, 177-бет.

teatrlari jamoalarining ko'rik-tanlovi, shuningdek, mashhur san'atkorlar Jo'raxon Sultonov, Saidjon Kalonov, Komiljon Jabborov, Nabijon Hasanov, Komiljon Otaniyozov, Faxriddin SodiQov, JanaQ Shomuratovlarning asarlari ijrochilarining «BoQiy ovozlari» deb nomlangan ko'rik-tanlovlari o'tkazildi. Ayni vaQtda 1992 yil may oyida Xorazm viloyatida folklor jamoalarining, askiya, QiziQchi va masxarabozlarning, iyun oyida Qo'Qonda o'tkazilgan IX an'anaviy va lapar, yalla ijroiylarining avgust oyida Toshkent shahrida o'tkazilgan XI an'anaviy ko'rik tanlovi milliy san'atimiz rivojiga katta hissa bo'lib Qo'shildi.

Mamlakatimiz hukumati Qo'shiQchilik san'atidan mustaqillikning ma'naviy zaminlarini mustahkamlashda ham unumli foydalanishga e'tiborni kuchaytirdi. Shu maQsadda 1995 yil dekabrda «O'zbekiston – Vatanim manim» mavzuidagi Qo'shiQlar ko'rik-tanlovi e'lon Qilindi. Mazkur tanlov barcha viloyat, shahar va tumanlarda juda katta ko'tarinkilik ruhida o'tkazildi va uning natijasida yuzlab yangi, mustaqillik davri Qo'shiQlari yaratildi, ko'plab iste'dodli san'atkorlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

«O'zbekiston – Vatanim manim» Qo'shiQ ko'rik-tanlovining 1996 yil mart oyida bo'lib o'tgan birinchi bosQichida 54 mingdan ortiq san'atkorlar ishtirok etdi, 10 mingdan ortiq yangi musiQiy asarlar yaratildi. Qayd etish lozimki, mazkur tanlov istiQlolni, Vatanni, o'zligini anglashda muhim Qadam bo'ldi. XalQimizning bunday tadbirga QiziQishi ortiq bo'ldi.

Bularning barchasini e'tiborga olib, 1996 yil avgustda «O'zbekiston – Vatanim manim» Qo'shiQ bayrami haQida» maxsus farmon Qabul Qilindi. Farmonda fuQarolar Qalbida muQaddas Vatan tuyg'usini tarbiyalovchi yuksak badiiy saviyadagi musiQa asarlari va Qo'shiQlarning yaratilishiga keng imkoniyat yaratish maQsadida har yili avgust oyining uchinchi yakshanbasi «O'zbekiston – Vatanim manim» Qo'shiQ bayrami kuni, deb belgilab Qo'yildi. Ayni paytda, xalQimizning Qo'shiQchilik san'atiga bo'lgan buyuk QiziQishini e'tiborga olib, Madaniyat ishlari vazirligi huzurida «O'zbeknavo» gastrol-konsert birlashmasi tashkil etildi.

Natijada, mazkur ko'rik-tanlov hozirda ommaviy tus oldi, unda nafaQat o'zbek milliy, shu bilan birga mamlakatimizda istiQomat Qilayotgan boshQa barcha xalQlar vakillarining erkin ijod Qilishi, o'z san'atlarini namoyish etish imkoniyati yaratildi. Professional va xalQ badiiy ijodiyoti asosida san'atning Qo'shiQchilik turiga teng e'tibor berilishi, ularning uyg'un rivojlanishiga sharoit yaratilishi tufayli mazkur san'at turi yanada rivoj topmoQda.

Ma'lumki, O'zbekistonda jahon sivilizatsiyasida alohida o'ringa ega bo'lgan buyuk moddiy madaniyat yaratildi. Ular xalQaro hamjamiyat tomonidan allaQachon e'tirof etilgan. BiroQ, sho'rolar mustabid tizimi davrida O'zbekiston moddiy madaniyatiga katta zarar yetkazildi. Minglab noyob madaniyat durdonalari, asori-atiQalari xorijga, asosan, Moskva, Sankt-Peterburg muzeylariga tashib ketildi. Milliy o'zlikni anglashda bunday yodgorliklarning ahamiyati katta ekanligini e'tiborga olib, mustamlakachilar iloji boricha ular ijtimoiy-madaniy ahamiyatni kamchitishga harakat Qildilar.

Ammo, mustaqillik bunday jirkanch siyosatga barham berdi. IstiQlolning dastlabki davrlaridanoQ muzeylar, Qo'riQxonalarining o'rni va rolini belgilab berishga alohida ahamiyat berildi. Ma'lumki, hozirda birgina Madaniyat ishlari vazirligi tizimida turli sohalar bo'yicha 68 ta muzey mavjud bo'lib, bular 21 ta o'lkashunoslik, 10 ta badiiy, 14 ta memorial, 5 ta adabiy-memorial, 7 ta badiiy, 1 ta tabiiy-ilmiy muzeylardir.

Shu bilan birga SamarQandda Davlat muzey-Qo'riQxonasi, Buxoroda Davlat muzey-Qo'riQxonasi, Xivada «Ichon-Qal'a» davlat muzey-Qo'riQxonalari faoliyat ko'rsatmoQda. 1999 yilgi ma'lumotlarga ko'ra, respublikamizdagi muzeylar fondida 1305786 eksponat saQlanmoQda. Birgina 1999 yilda ularning asosiy fondiga 7544 ta eksponat Qabul Qilindi. Shu yilning o'zida barcha muzeylarga 1655400 kishi tashrif buyurdi¹.

O'zbekiston hukumati xalQimizning o' milliy o'zligini anglash jarayonini yanada jadallashtirishni e'tiborga olib, 1994 yil 23 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «Respublika muzeylari faoliyatini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 1999 yil 5 dekabrda esa «Muzeylar faoliyatini Qo'llab-Quvvatlash masalalari to'g'risida»gi Qarorlarni e'lon Qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 12 yanvardagi «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida»gi farmoni esa muzeylar ishida tubdan burilish yasadi.

¹ «Мозийдан садо», 2000, №1-2, 22-бет.

Unga binoan barcha turdagi muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish, Qo'llab-Quvvatlash va ularga zarur ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatishni ta'minlash maqsadida Madaniyat ishlari vazirligi Qoshida «O'zbekmuzey» jamg'armasi tashkil etildi, o'zbek, ingliz, rus tillarida chop etiladigan ilmiy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy, rangli «Moziydan sado» jurnali ta'sis etildi¹.

Ko'rilgan barcha tadbirlar natijasida muzeylarning ijtimoiy-madaniy ahamiyati ancha ortdi, ularning o'zbek xalqi milliy o'zligini anglash jarayonidagi roli kuchaydi. Muzeylarga e'tibor xorijlik fuqarolarning O'zbekistonga, uning boy va Qadimiy madaniyatiga bo'lgan Qiziqishini oshirdi.

Istiqlol o'zbek xalqiga o'z milliy adabiyotini Qaytarib berdi. Kommunistik mafkuraning jarchisiga aylangan «sovet adabiyoti» vayronlari o'rniga paydo bo'lgan o'zbek milliy adabiyoti tezlikda o'zining Qaddini ko'tardi, partiyaviylik, sinfiylik kabi xatto metodologik asoslardan voz kechila boshlandi. Mumtoz adabiyotga munosabatda diniy adabiyot, feodal-klerikal adabiyot, saroy adabiyoti deyilgan tushuncha va bir millat adabiyotini reaksiya va progressiv deb ikkiga bo'lib o'rganishdek hatto nazariy cheklashlarning daf etilishi milliy adabiyotning xolisona baholanishiga imkon yaratdi.

Diniy manbalarning, jadid adabiyotining siyosiy-mafkuraviy aqidalarsiz o'rganilishiga nisbatan bo'lgan munosabatning ijobiy hal etilishi jamiyatni ma'naviy jihatdan barqarorlashtirishga shart-sharoitlar yaratdi.

Shunday Qilib, mustaqillik O'zbekiston ma'naviy hayotini barqarorlashtirish uchun zamin yaratdi, ma'naviy-ma'rifiy hodisalarga munosabatni o'zgartirdi. Istiqlol tufayli ma'naviy turmushimizdagi ko'plab muammolar hal etila boshlandi. Qurilayotgan demokratik, huquqiy, insonparvar jamiyat, bozor munosabatlarga o'tish, jahon hamjamiyati bilan mafkuraviy tazyiqlarsiz o'zaro hamkorlik qilish imkoniyati – ularning barichi O'zbekiston madaniyatini xalqchil qildi. O'zbekiston, o'zbek xalqining dunyodagi o'ziga xos va mos o'rnini borligi, uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan bebaho hissasining e'tirof etilishi tufayli ma'naviy hayotning gullab-yashashi uchun mustahkam zamin yaratildi.

Tayanch tushunchalar

Ma'naviy-ma'rifiy islohot, ustuvor yo'nalish, ma'naviyat va ma'rifat markazi, milliy g'oya, milliy-madaniy markaz, istiqlol mafkurasi, komil inson.

Mavzuni takrorlash uchun savollar

1. Mustaqillik sharoitida milliy madaniyatlar rivojlanishining ijtimoiy-siyosiy omillarini tahlil eting.
2. Madaniy yuksalishning hozirgi bosqichi xususiyati nimada?
3. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning mohiyati va zarurligi.
4. Ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning amalga oshirishning asosiy yo'llarini ayting.
5. Ta'lim Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining madaniy-ma'rifiy islohotlarining amalga oshirishdagi ahamiyati.
6. Madaniy taraqqiyotda milliy-madaniy markazlarning o'rnini.
7. Madaniy-ma'rifiy islohotlar jarayonida milliy tarixiy merosga munosabat mezonlari.
8. Madaniy taraqqiyotda milliy va umumbashariy Qadriyatlarning uyg'unligi.
9. Madaniy-ma'rifiy islohotlar va komil inson tarbiyasi vazifasini tushuntiring.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T., 1992.
2. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. T., 1994.
3. Karimov I.A. Biz Qurish va yaratish yo'lidan boravramiz. T., 1995.
4. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan Qolsin. T., 1996.
5. Karimov I.A. Vatan sadjagoh kabi muqaddasdir. T., 1996.
6. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T., 1996.

¹ «Гулистон», 1998, №2, 5-бет.

7. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida. T., 1997.
8. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘Q. T., 1998.
9. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoQda. T., 1999.
10. Karimov I.A. Milliy istiQlol mafkurasi – xalQ e’tiQodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., 2000.

MUNDARIJA

МУҚАДДИМА	2
МАДАНИЯТ НАЗАРИЯСИ	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.
1-МАВЗУ. МАДАНИЯТШУНОСЛИК ФАНИНИНГ ПРЕДМЕТИ ВА ВАЗИФАЛАРИ. «МАДАНИЯТ» ТУШУНЧАСИ ТАЛКИНИ.....	3
2-МАВЗУ. МАДАНИЯТ РИВОЖЛАНИШИНИНГ АСОСИЙ ҚОНУНИЯТЛАРИ МАДАНИЙ ВА МАЪНАВИЙ МЕРОС	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.
ЖАҲОН МАДАНИЯТИ ТАРИХИ	24
3-МАВЗУ АРҲАИК (ИБТИДОИЙ) МАДАНИЯТ АНЪНАВИЙ МАДАНИЯТ	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.
.....	40
4-МАВЗУ ТЕХНОГЕН МАДАНИЯТ (XVI-XX АСРЛАР)	40
ВАТАН МАДАНИЯТИ ТАРИХИ	46
5-МАВЗУ МАРКАЗИЙ ОСИЁ ХАЛҚЛАРИНИНГ ҚАДИМГИ МАДАНИЯТИ.ШАРҚ УЙҒОНИШ ДАВРИ МАДАНИЯТИ....	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.
6-МАВЗУ ТЕМУР ВА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ МАДАНИЯТИ (XIV АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИ – XV АСР)	57
7-МАВЗУ XVII-XX АСРЛАРДА МАРКАЗИЙ ОСИЁ МАДАНИЯТИ	67
8-МАВЗУ МИЛЛИЙ ИСТИҚЛОЛ ВА ЎЗБЕКИСТОНДА МАДАНИЙ ТАРАҚҚИЁТ	73